

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI**

IBROHIM USMONOV

TASAVVUF

O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA

«Toshkent islom universiteti»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent–2012

86.38

U-73

Usmonov, Ibrohim

Tasavvuf: o'quv-uslubiy qo'llanma / I.Usmonov; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti. – Toshkent islom universiteti, 2012. – 248 b.

KBK 86.38

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada tasavvufning paydo bo'lish tarixi, tasavvuf allomalarining faoliyati, nazariyasi va amaliyotiga doir mavzularda so'z yuritiladi. Shuningdek, qo'llanmada tasavvufda mavjud bo'lgan ta'limotlar tarixi, ularning badiiy ijod bilan bog'liq jihatlari, tasavvuf va globallashuv mavzusiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Muallif tomonidan fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ham tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga qo'llanmada 130 dan ortiq tasavvuf istilohiga izoh berilgan.

Ushbu qo'llanma Toshkent islom universiteti "Dinshunoslik" yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan. Shuningdek, undan "Psixologiya" (Din sotsiopsixologiyasi), "Tarix" (Islom tarixi va manbashunosligi) yo'nalishlarida "Tasavvuf", "O'rta Osiyoda tasavvuf tarixi" fanlarida istifoda etish mumkin.

"Tasavvuf" o'quv-uslubiy qo'llanmasi "Toshkent islom universitetida Islomshunoslik sohasini takomillashtirish bo'yicha 2011 – 2013 yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi" va A-1-049 A1-ΦK-0-12747 "Globallashuv sharoitida zamonaviy tasavvufiy tariqatlar: ta'limotlar, uslublar, tahlil va xulosalar" mavzuidagi amaliy tadqiqotlar davlat dasturi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tuzuvchi:

I.Usmonov – Toshkent islom universiteti "Islomshunoslik" kafedrası dotsenti, t.f.n.

Taqrizchilar:

H.Yuldashxodjayev – Toshkent islom instituti rektori, t.f.n.

B.Abdushukurov – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Til nazariyasi va amaliyoti" kafedrası mudiri, fil.f.n.

M.Alimova – Toshkent islom universiteti "Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish YUNESKO" kafedrası katta o'qituvchisi, t.f.n.

O'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent islom universiteti o'quv-metodik kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (21.03.2012).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2012 yil 20 noyabr 2603-raqamli tavsiyasi bilan chop etildi.

© «Toshkent islom universiteti»
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012
© Ibrohim Usmonov, 2012

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy qadriyatlar yuksalishida o'ziga xos o'rin tutgan tasavvuf ta'limotining shakllanish jarayoni, tarixiy o'rnini ko'rsatib berish, tasavvufiy manbalarni xolisona tadqiq etish hamda uning insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashib, jahonshumul badiiy ijod namunalarining paydo bo'lishiga zamin yaratganini keng ko'lamda o'rganishni taqozo etmoqda. Tasavvuf – uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan diniy va dunyoviy qarashlar uyg'unligidan iborat ta'limotdir. Tariximizda xalqimizni tarkidunyochilikka emas, balki ijtimoiy faol hayot tarziga da'vat etgan g'oyalar va qarashlar tarannum etilgan nodir asarlarni ilmiy tadqiq etish va yuzaga chiqarish sharqshunos-islomshunoslar oldida turgan muhim vazifalardandir. Zero, Prezident Islom Karimov ham Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi va uning hayotdan uzilmagan ta'limoti haqida alohida to'xtalib: «Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni «Bahouddini Balogardon» deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning «Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin», degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi»¹, – deydi.

Tasavvuf islom ilmlari orasida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Agar tasavvufning mohiyatiga teran nazar tashlaydigan bo'lsak, unda falsafa, din, shariat hamda odob-axloq kabi tushunchalar jamuljam bo'lganini ko'ramiz. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi va ilohiy muhabbatdan quvvat olib yuksalib borishi bu ta'limotning asosiy g'oyalardir. Tasavvuf dunyoni bilishni va insonning dunyo va koinot, zamon va makon, lahza va abadiyat, hodisa va mohiyat haqidagi tushunchalari bilan bog'liq qarashlarni o'zida aks ettiradi. Shuning

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.39.

uchun ham tasavvufni ilm-ma'rifat taraqqiyotidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Tasavvuf tarixiga nazar tashlasak, boshlang'ich bosqichida sodda qarash va tushunchalardan iborat bo'lib, ko'proq amaliy tus olganini ko'ramiz. Sufiylar ko'pincha toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lib, tarkidunyochilik va riyozatga katta e'tibor berar edilar. O'sha vaqtlarda tasavvufiy matlablar ta'limot sifatida qayd etilmagan bo'lsada, og'izdan-og'izga o'tib kelgan. Keyingi davrlarda esa tasavvufga doir risola va kitoblar yaratildi, xonaqohlar qurildi, sufiylarga xos odob-rusum, ularning yurish-turishlarini belgilovchi dasturlar tuzildi.

IX asr boshlariga kelib, tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqildi, sufiylarning amaliy ruhiy-psixologik mashqlari, o'z-o'zini tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari shakllandi, shuningdek, tariqat, ma'rifat va haqiqat degan tushunchalar yuzaga kelib, tasavvufning ushbu uch asosiy bosqichiga oid qarashlar majmui tuzildi, tasavvuf alohida ilm sifatida qaror topdi.

Tasavvufning tarixiy taraqqiyoti va nazariy jihatlarini o'rganish barobarida, yirik shayxlar va avliyolar faoliyatini tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Voqean, nazariy qarashlarning o'zini olib qaraganda ham shayxlarning so'zi va holatlari, asarlari, nasihatlar, ular haqidagi xotiralar, rivoyat va hikoyatlarni o'rganish zahirida umumlashtirilgan. Tasavvufiy qarashlarning yaxlit ta'limot sifatida islom o'lkalariga keng yoyilishi va ijtimoiy hayotda muhim voqe'likka aylanishida Movarounnahr va Xurosondan yetishib chiqqan olimlarning o'ziga xos o'rni bor.

Tasavvufning muhim xususiyatlaridan biri, faqat nazariy jihat bilan cheklanib qolmasdan tasavvuf tamoyillarini tariqatlar yo'li orqali amaliy hayotda tatbiq etishidir. Nazariyotda "tasavvuf" deb atalgan bu oqimga amaliyotda "tariqat" deyiladi. Chunonchi, tasavvuf dastlab amaliyotga katta ahamiyat bergan zohidlik harakatidan kelib chiqqan. Tasavvufning ko'pgina masalalarini yetarlicha anglab olish uchun faqatgina nazariy bilim kifoya qilmaydi, deb hisoblaydi sufiylar. Ularga ko'ra, zikr, mujohada va riyozat orqali qalb ushbu masalalarni idrok etadigan soflikka erishadi. Tasavvuf amaliy turmush tarziga

asoslangani uchun, bir tomondan uning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tariqatlar paydo bo'lib, tasavvufiy turmush tarzi shakllanishda davom etgan. Dastlab, shaxsiy-ma'naviy hayot tarzida muhim o'rin tutgan tasavvufiy turmush tarzi asta-sekin ijtimoiy ma'noga ega bo'la boshladi. Zohidligi va ilmi bilan tanilgan ulug' shaxslar atrofida suhbat halqalari tashkil etilib, ularning suhbatlarida ishtirok etganlar berilgan tavsiyalarni shaxsiy hayotlarida tatbiq eta boshlaganlar. Shunday qilib, X va XI asrlarda ana shunday mashhur zotlar yetakchiligida tariqatlar paydo bo'la boshladi. Fiqhiy va e'tiqodiy mazhablarda bo'lganidek, bu zotlarning tariqat tashkil qilish maqsadlari bo'lmasa ham, ularning atrofida o'z-o'zidan tabiiy ravishda tariqatlar yuzaga keldi.

Fanning maqsadi. «Tasavvuf» fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda tasavvufiy qarashlar, tariqatlarning paydo bo'lishi, sufiylarning yo'nalishlari va ularning islom tarixi va ta'limotida tutgan o'rni, ularning faoliyati haqidagi bilim va malakani shakllantirishdir.

«Tasavvuf» fanining vazifalari – talabalarga tasavvuf nazariyasini aks ettiruvchi mumtoz manbalar bilan ishlash uslublarini o'rgatish, tasavvufga poydevor bo'lgan ilk zohidlik harakatlarini hamda tasavvufning islom ilmlari orasidan ajralib chiqish jarayonlarini tadqiq etish, keyinchalik paydo bo'lgan tasavvuf tariqatlarining mushtarak va farqli jihatlarini kengroq ochib berish, tasavvufdagi “vahdat al-vujud”, “vahdat ash-shuhud” ta'limotlarining mohiyatini izohlash, Movarounnahr tariqatlarining tasavvuf taraqqiyotidagi o'rnini belgilash hamda globallashuv sharoitida tariqatlarning faoliyatlarini har tomonlama tahlil etishdan iborat.

«Tasavvuf» o'quv fani islomshunoslikning mazkur sohasi bo'yicha yaratilgan manbalardan mustaqil foydalanish, ayni fan bo'yicha mavjud qarashlar va yondashuvlardan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqara bilish, musulmon va G'arb olimlarining tasavvuf sohasida yozilgan asarlaridan foydalangan holda tasavvufiy qadriyatlar haqidagi bir yoqlama xulosalarga raddiya bildirish, turli

mavzularga oid asarlardan tasavvufga nisbatan turli yondashuv va qarashlarni farqlay olish, diniy bag'rikenglik, davlat, jamiyat va din o'rtasida o'zaro munosabatlardagi muvofiqlik zarurligini singdirish, keng dunyoqarashni shakllantirish, diniy mutaassiblikka qarshi kurashda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llay bilish tajribasini hosil qilish uchun bakalavr bosqichi talabalariga mo'ljallangan. "Tasavvuf" fani dasturini o'zlashtirish orqali talaba tasavvufning paydo bo'lishi, ilk zohidlik harakatlari, tasavvuf tariqatlarida shayx va murid munosabati, tariqatlarning tasavvufda tutgan o'rni, tasavvuf namoyandalarining asarlari va ularning xalq og'zaki ijodiga ta'siri, murid, murshid, shayx, mutasavvif, sufiy, qutb, abdol, avliyo va boshqalarning ruhiy-ma'naviy dunyosi, fano, baqo, sukr, sahv, maqom, hol kabi tasavvufiy tushunchalar bilan tanishadi. Shuningdek, talaba mazkur o'quv kursi orqali islom olamidagi tasavvufiy yo'nalishlarni qiyosiy o'rganish, tasavvuf bag'rida vujudga kelgan ta'limotlar tarixini tahlil qilish, Movarounnahr allomalarining tasavvuf ta'limoti rivojida tutgan o'rnini ko'rsatish, tasavvuf va badiiy ijod uyg'unligi tarixiga e'tibor qaratish, tariqatlarning globallashuv sharoitida olib borayotgan faoliyatlari haqida muayyan analitik tadqiqot olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shular barobarida tasavvuf namoyandalarining asarlarini tarjima qilish, tariqatlarda tatbiq etiladigan marosimlarni muqoyasa qilish va farqlay olishda muayyan tasavvurlarga ega bo'ladi.

Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. "Tasavvuf" fani «Qur'on va tafsir», "Hadis va hadisshunoslik", "Islom manbashunosligi", "Islomshunoslik", "Kalom ilmi", "Balog'at", "Ma'naviyat asoslari", "Islom tarixi", "Islom falsafasi", "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari", "Sharq mamlakatlari madaniyati tarixi" kabi turdosh fanlar bilan o'zaro aloqador va uzviy bog'liqdir.

NAZARIY MASHG'ULOTLARNING MAZMUNI

1-MAVZU: TASAVVUF FANIGA KIRISH

Reja:

1. Tasavvuf faniga kirish, uning predmeti va vazifalari.
2. "Tasavvuf"ning paydo bo'lishi.
4. Tasavvufning ta'rifi va manbalari. Tasavvufning asosiy g'oyasi.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Tasavvuf faniga kirish, uning predmeti va vazifalari.

Tasavvuf islomshunoslikda katta ahamiyatga ega bo'lgan ilmlardan biri. U asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan ta'limot. Tasavvufda falsafa, din, shariat, imon-e'tiqod, axloqqa oid masalalarning aks etishi. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borishi tasavvuf ta'limotining asosiy g'oyalaridan biri sifatida. Tasavvufda dunyoni bilish, aniq kundalik hayot, insonning dunyo va koinot, zamon va makon, lahza va abadiyat, hodisa va mohiyat haqidagi tushunchalari bilan bog'liq qarashlarning aks etishi. Tasavvufning ilm-ma'rifat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligi.

Ilk islom davrida tasavvuf tushunchasining ilm sifatida gavdalanishi. Sahobiy va tobe'iylarning zuhdga oid qarashlari, Allohdan qo'rquv va muhabbat hissi.

Hijriy II–III asrlarda "obid", "zohid", "faqir" tushunchalari talqini. Islom dinining turli mintaqalarga yoyilishi, ko'p o'ljalar qo'lga kiritilishi, mol-dunyoga ruju qo'yish. Islom dunyosida ro'y bergan siyosiy ixtiloflar. Firqalarning vujudga kelishi. Ayrim musulmonlarda tushkunlik kayfiyati va zuhdga moyillik tug'ilishi. Fiqh, hadis, tafsir va kalom kabi diniy ilmlarning rivojlanishi. Tasavvuf ilmi

asoslarini yaratishda zohid va obidlarning tutgan oʻrni. Ixlos, qalb, niyat, nafsga qarshi kurash mavzularining ustuvor boʻlishi. Insonning ichki dunyosiga munosabat. “Tasavvuf – botiniy fiqh” degan tushunchaning paydo boʻlishi. Fiqh ilmi hamda tasavvufda ixlos mavzusi, ruhiy holat va maʼnaviy foyda haqidagi qarashlar shakllanishi.

IX asr boshlariga kelib, tasavvufning nazariy asoslari ishlab chiqilishi. Sufiylarning amaliy ruhiy-psixologik mashqlari, oʻz-oʻzini tarbiyalash va chiniqtirish tadbir-usullari shakllanishi. Tariqat, maʼrifat va haqiqat tushunchalarining yuzaga kelishi. Tasavvufning alohida ilm sifatida qaror topishi.

Tasavvufiy qarashlarning yaxlit taʼlimotga aylanib, islom oʻlkalariga keng yoyilib, kishilarning hayotida muhim voqeʼlikka aylanishida Movarounnahr va Xurosondan yetishib chiqqan olimlarning tutgan oʻrni.

Tasavvufning faqat nazariy jihat bilan cheklanmasdan, tariqatlar yoʻli orqali amaliy hayotda tatbiq etishi. Tasavvufning amaliyotga katta ahamiyat bergan zuhd harakatidan kelib chiqishi. Tasavvufning koʻpgina masalalarini anglash uchun nazariy bilim bilan birga, shuuriy idrok etiladigan bilim zarurligi. Dastlab, shaxsiy-maʼnaviy hayot tarzi sifatida paydo boʻlgan tasavvufiy turmush tarzi asta-sekin ijtimoiy-jamoat holiga aylanib borishi. Zohidligi va ilmi bilan tanilgan ulugʻ shaxsiyatlar atrofida suhbat halqalari tashkil boʻlishi va shu halqalar asosida tariqatlar yuzaga kelishi.

2. “Tasavvuf”ning paydo boʻlishi. Tasavvuf paydo boʻlishining tarixiy shart-sharoitlari. Tasavvuf soʻzining etimologiyasi. Tasavvufning turli qirralari: amaliy, nazariy, monoteistik, panteistik, elitar, ommaviy, sunniy. Qurʼon va hadislarda tasavvuf shakllanishiga asos boʻlgan matnlar: Baqara-182: *“Sizdan (ey Muhammad!) bandalarim Mening haqimda soʻrasalar, (ayting) Men ularga yaqinman. Menga iltijo qiluvchining duosini ijobat eturman”*. Baqara-115: *“Mashriq ham, Magʻrib ham Allohnikidir. Bas qaysi tarafga yuzingizni qaratsangiz, oʻsha tomonda Allohning “yuzi” mavjuddir”*. Qof-15: *“Biz unga (insonga) boʻyin tomiridan ham yaqinroqmiz”*. Moida-54:

“Alloh shunday bir qavmni keltirurki, ularni Alloh sevadigan va ular ham Uni sevadigan”. “Banda nafl ibodatlar bilan Allohga yaqinlashib borishi” haqida, “Allohnin xuddi ko‘rib turgandek bandalik qilish” va boshqa shunday mazmundagi oyat va hadislarining tasavvufiy kayfiyat shakllanishidagi o‘rni.

3. Tasavvufning ta’rifi va manbalari. Tasavvufning asosiy g‘oyasi. Tasavvufga berilgan ta’riflar: Tasavvuf – zuhd. Tasavvuf – go‘zal ma’naviyat. Tasavvuf – qalb pokligi, islom dinining ma’naviy jihati, maxsus bilimlar majmui, ixlos.

Komil inson g‘oyasi. Tasavvufdagi Komil inson – ideal shaxs, barcha dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg‘ularga to‘la pokiza inson. Alisher Navoiy ta’rifidagi: *Foniyvasheki, ham so‘zidur pok, ham o‘zi, Xush davlat ul kishigaki, tushgay aning ko‘zi.*

Taxalluq – yaxshi xulq va ma’naviyatni o‘rganish, tahaqquq – go‘zal xulq va ma’naviyatni hayotga tatbiq qilish. Mistitsizm tushunchasi. Tasavvuf – ko‘pqirrali fenomen. Rumiyl talqinida tasavvufga ta’rif beruvchilarni filni paypaslab unga har biri o‘z holicha ta’rif bergan ko‘rlarga qiyoslanishi. Yevropada tasavvufning islom mistitsizmi deb atalishi va mistitsizm tushunchasining mohiyati, uning barcha dinlarga xos tushuncha ekani. Mistitsizmning mohiyatiga falsafa va ong orqali yetib bo‘lmasligi, bu faqat qalb kechinmalari bilan bog‘liq ruhiy tushuncha ekani, unga uzoq muddatli poklanish davridan o‘tib, ma’rifat hosil qilish orqali erishilishi. Tasavvuf – Mutlaqni sevish deb talqin etish mumkinligi, uning askezadan (zuhd) farqi mistitsizm muhabbat tushunchasining borligi. Barcha dinlardagi mistitsizm vakillari o‘z kechinmalarini uchta ko‘rinishda ifoda etish: Xudoga bo‘lgan cheksiz intilish – solik bosib o‘tishi lozim bo‘lgan (suluk, tariqat) “yo‘l”; ruhiyatning o‘zgarishi – kimyogarlarning oddiy moddalarni oltinga aylantira olishi; sevuvchining vaslga yetishish ilinjida talpinishi – dunyoviy muhabbat ramzlari. Sufiylik she’riyatida dunyoviy va ilohiy muhabbat uyg‘unligi aks etishi. Zunnun al-Misriy g‘oyalari va “ma’rifa” tushunchasining yuzaga kelishi. Tasavvufda

ramz va tamsillarga asoslangan tilning vujudga kelishi. Tasavvufni o'rganishda ma'naviy tarbiya uslubi, turli mashg'ulotlar, tariqat amaliyotlarining ijtimoiy-madaniy o'rni. Yevropalik olimlarning turlicha munosabatlari: Robiya al-Adaviya Yevropa adabiyotiga kirgan ilk sufiy. Ibn al-Foriz, Hofiz asarlarining Yevropa tillariga tarjima qilinishi. Tasavvufning eroniy ildizlari. Sufiylikning kelib chiqishi haqidagi turli fikrlarning yuzaga kelishi. Neoplatoniklar ta'limotining Yaqin Sharq madaniyatiga ta'siri. Islomning tasavvuf ta'limotiga uyg'un jihatlari. Xristian dinining mistik oqimlari bilan musulmonlarning aloqalari. Islomning ilk davrlarida hind va buddaviylik manbalarining arab tilidagi tarjimalari hamda turkiy xalqlarning sufiylik an'analari. Tasavvufni o'rganishda qo'lyozma asarlarning o'rni. "Sufiy" atamasiga sufiylar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar. Junayd al-Bag'dodiyning tasavvuf rivojiga ta'siri. Zuhd va sufiylik o'rtasidagi munosabatlar Ruvaym, Sahl at-Tustariy qarashlarida aks etishi. Junayd al-Bag'dodiy, Abul Hasan an-Nuriy, al-Hujviriylarning sufiylik va axloq uyg'unligi haqidagi mulohazalari. Shariat, tariqat va haqiqat bosqichlari talqini. Sufiylik va dunyoviy hamda diniy fanlar – falsafa, fiqh, hadis, aqid munosabatlari. "Devonalik" va darveshlik bilan bog'liq sufiy an'anasi – Bahlul, Majnun obrazlari va "majzublik" g'oyalarining yoyilishi. "Faqr" g'oyasi. Sufiylikka taqlid – "mustavifa", o'zini sufiy qilib ko'rsatuvchilarning tanqid qilinishi: Yahyo ibn Muoz (IX asr): "uch toifa odamlar jamoasidan chetlaninglar, ular: loqayd olimlar, munofiq qorilar va o'zini sufiy deb iddao qiluvchilardir"; Ro'zbixon Boqiliyning "Sharhi shathiyot" asarida keltirilgan – "bir avliyo: "do'zaxga boqsam ko'rdimki, uning ahlining aksariyati "yamoq kiyim kiyganlar, qo'llarida esa, sadaqa uchun kashkul ko'targanlar" ekan", degan fikrlarning rivojlanib borishi. Sufiy atamasining XVIII asrga kelib tahqirlovchi so'zga aylanib borishi, Dali Mir Dard va Badr Hijoziy asarlarida sufiy shayxlarining hajv qilinishi. Sufiylarning avliyolarni ulug'lash, ularni ilohiylashtirish va qabrlariga sig'inish kabi holatlarni tanqid qila boshlashi. Avliyolar kultining paydo bo'lishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008. – 175 b.
2. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O'qituvchi, 2005. – 399 b.
3. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
4. Usmonov I. “Navodir al-usul” hikmatlari. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 175 b.
5. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
6. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
7. Islom ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
8. Акимушкин О.Ф. Суфийские братства: сложный узел проблем / Предисловие к Тримингэм Дж.С. Суфийские ордена в исламе. – М.: Наука, 1989. – С. 3-17.
9. Прозоров С.М. Классическое исламоведение (Введение в исламоведение): Программа спецкурса лекций для студентов. – СПб., 2009, – 96 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Tasavvufning tarixiy shakllanish jarayoni.

2-MAVZU: GLOBALLASHUV SHAROITIDA ZAMONAVIY TARIQATLAR

Reja:

1. XXI asrda inson ongi uchun kurashda tariqatlar faoliyati.
2. Yuqori texnologiyalar va tasavvuf.
3. XXI asrda Markaziy Osiyo tasavvufi.

Ma’ruzaning asosiy mazmuni:

1. XXI asrda inson ongi uchun kurashda tariqatlar faoliyati.

Bugungi globallashuv davrida inson ma’naviy olamini turli salbiy ta’sir va tahdidlardan asrash hamda himoya qilish bilan bog’liq muammolar dolzarblik kasb etib borishi. Dunyoning biror bir hududida paydo bo’layotgan mafkuraviy, iqtisodiy, ilmiy, ma’rifiy yoki diniy xarakterga ega g’oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilishi natijasida odamzot muayyan bir davlatlar yoki siyosiy kuchlar manfaatlarining ta’siriga tushib qolishi. “Mana shunday vaziyatda odam o’z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o’tgan hayotiy milliy qadriyatlarga, sog’lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo’lmasa, har turli ma’naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko’rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol”².

Siyosiy globallashuv, fan, madaniyat, ta’lim va axloq sohasidagi jarayonlarni ifodalovchi ijtimoiy-madaniy globallashuv hamda g’oyaviy ta’sir, targ’ibot va tashviqot bilan bog’liq mafkuraviy globallashuv sodir bo’layotgani. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda din omili tobora muhim ahamiyat kasb etib borishi. Ko’pgina diniy tashkilotlar va birlashmalar xalqaro siyosatda faol ishtirok eta boshlayotgani.

² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – B.113.

Jahon ma'naviy muhitini g'arb andozalari asosida shakllantirishga zo'r berish teskari kuch, ya'ni g'arb sivilizatsiyasiga barham berib, dunyoni aksilg'arbiy tarzda o'zgartirishga bo'lgan intilishning kuchayishi.

Zamonaviy taraqqiyotda sivilizatsiyalar, madaniyat va millatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimiga tasavvufiy tariqatlarning ta'siri. Tasavvufning har qanday muhitda yashovchanligi uning turli xalqlarning madaniy yutuqlari va milliy urf-odatlarini o'zlashtirib, islomiy ko'rinishda qayta taqdim eta olish xususiyati bilan belgilanishi.

Islom dinidagi mazhablar hamda qarashlar xilma-xilligi sufiylar hayoti va dunyoqarashiga ta'sir etishi. Tasavvufning o'ziga xos san'ati, musiqasi, me'morchiligi va adabiyoti mavjudligi. Bugungi kunda jahonda to'rt yuzga yaqin tariqat faoliyat ko'rsatib, ular globallashuv sharoitida G'arb va Sharqdagi musulmon jamoalarining diniy, madaniy va siyosiy hayotida tobora katta o'rin egallab borishi.

2. Yuqori texnologiyalar va tasavvuf. Sharqdagi musulmon davlatlari hamda ayrim Yevropa davlatlarida XX asrning 90-yillaridan boshlab, tariqatlarning siyosiy hayotda faollashuvi, tasavvufning tobora kuch olib borishi, O'zbekistonda ham bu hodisaning o'ziga xos ko'rinishlari namoyon bo'lishi. Ayrim Sharq davlatlarida o'z manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy partiyalar orqali tariqatlarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi. Salafiylik, vahhobiylik g'oyalari tarqalgan Sharq davlatlarida tasavvufga nisbatan salbiy munosabat shakllangani. Yevropa davlatlarida tasavvufiy an'analarning o'ziga xos shaklda tarqalishi. Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arb davlatlarida musulmon muhojirlari hisobiga tasavvufning tarqalishi. Tariqatlar zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari – internet, fazoviy kanallar, ommaviy axborot vositalarini qo'llagan holda yevropalik tub aholi va muhojirlar orasida targ'ibot olib borishi. G'arb davlatlarida yangi tariqatlar shakllanishi va Yevropaning tub aholisi orasida keng yoyilishi.

Dunyoda siyosiy tus olgan aqidaparastlikning avj olib borishi. Talaygina musulmonlar islom dini va madaniyati, tarixiy an'analarning saqlanishini jamiyat rivojidadagi muhim shart

deb hisoblashi. S.Xantington tomonidan mashhur amerikalik dinshunos G.Veygelning: “XX asr yakuniga ko‘ra desekulyarizatsiya – eng dominant ijtimoiy omilga aylanadi”, degan fikrini qo‘llab-quvvatlashi. Xalqlar milliy davlatga mansublikdan ko‘ra, diniy identifikatsiyani ko‘proq his eta boshlashi.

G‘arbda shakllangan tariqatlar targ‘ibot ishlarida dunyoviy universitetlarda ma‘ruzalar o‘qish, seminar va konferentsiyalar tashkil etish, xayriya kontsertlari uyushtirish kabi noan’anaviy uslublardan foydalanishi. Sufiy jamoalar o‘z o‘quv markazlari, nashrlari va teleradio tarmoqlari, internet saytlari, davriy matbuoti, tariqat tashkil etgan yozgi lagerlar, bog‘cha, maktab va hatto mehribonlik uylari orqali tashviqot olib borishi.

XX asr oxirlariga kelib, tariqatlarning transnatsional uyushmalar shakliga kelishi. Zamonaviy tariqatlar o‘z internet saytlariga ega bo‘lib, o‘z faoliyatini onlayn (online) tizimida joriy etishi.

Kommunistik tuzumning yemirilishi oqibatida Albaniyada XX asrning 90-yillaridayoq tarixda mashhur bo‘lgan bektoshiylik tariqati qayta “tirilishi”.

XXI asrda musulmon dunyosining deyarli barcha mamlakatlarida turli tasavvufiy tariqatlarning faoliyat yuritishi. Pokiston va Hindiston hududlarida tarqalgan tariqatlarda buddaviylik, hinduiylik va qadimgi hind falsafasining ta’siri namoyon bo‘lishi. Tariqatlar zamona zaylida harakat qilib, jamiyatlardagi yangi funktsiyalarni o‘z zimmalariga olishga harakat qilishi.

Afrika va Sharqdagi musulmon davlatlarida XX asrning 90-yillaridan boshlab, tariqatlarning siyosiy hayotda faollashuvi.

3. XXI asrda Markaziy Osiyo tasavvufi. O‘rta Osiyo respublikalarida diniy qadriyatlarning qayta tiklanishi, “qayta qurish” davrida an’anaviy va noan’anaviy tariqatlarning faoliyati avj ola boshladi.

Tasavvuf ta’limotida tarkidunyochilik emas, ko‘proq ijtimoiy faol hayot tarziga chorlovchi naqshbandiyaning “Diling Allohda bo‘lsin, qo‘ling mehnatda”, degan shiori hunarmand va dehqonlarda dinga, sufiylarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabat paydo qilishi.

Globallashuv jarayoni mafkuraviy ta'sir o'tkazishning samarali quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilishi. XXI asrda faoliyat yuritayotgan tasavvuf tariqatlari zamonaviy shart-sharoitlarga moslashib, ilg'or uslub va vositalardan foydalangan holda jahonda o'z saflarini ildamlilik bilan kengaytirib, sezilmagan holda passiv, lekin ulkan kuchga aylanib borishi. Geosiyosiy manfaatlar to'qnashuvi mintaqasi bo'lgan Markaziy Osiyoda noan'anaviy tariqatlarning vaziyatni beqarorlashtirishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 175 b.
2. Ochildiev A. Globalashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muharrir, 2009.
3. Lukashuk I., Saidov A. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. – T.: Adolat, 2006.
4. Milliy manfaatlar va boshqaruv mas'uliyati. Mualliflar jamoasi. – T.: G'G'ulom nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
5. Jo'rayev T., Paxrutdinov Sh. Dunyoviy davlatchilik va siyosiylashgan diniylik. – T.: Akademiya, 2008.
6. Акимущкин О. Суфийские братства: сложный узел проблем / Предисловие к Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989. – С.3-17.
7. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. – 448 b.
8. Плещунов О. Политика мультикультурализма в Великобритании и радикализация исламской молодежи страны // Восток (Oriens) № 1, – М.: Наука, 2009. – С. 100-103.
10. Долгов Б. Арабский мир в начале XXI в.: между демократией и исламизмом // Восток (Oriens) № 5, – М.: Наука, 2009. – С. 89-92.
11. Тихонравов Ю. Геополитика. – М.: ЗАО. “Бизнес школа “Интел-Синтез”, 1999.
12. Тримингэм Ж. Суфийские ордена в исламе / Пер. с англ. А.Ставиской. – М.: Наука, 1989.
13. Yo'ldoshxo'jayev H. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari. – T.: Toshkent islom universiteti, 2010.

14. Кныш А. Суфизм. – М.: Диля, 2004. – 464 с.

15. Бабаджанов.Б.М. Возрождение деятельности суфийских групп. / Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования) Сб. ст. памяти Ф.Майера (1912-1998) // Сост. и отв. Редактор А.А.Хисматулин. СПб ГУ: 2001.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Globallashuv sharoitida Shimoliy Afrika, Eron va Markaziy Osiyo tariqatlari.

3-MAVZU: ZOHIDLIK HARAKATLARI

Reja:

1. Ilk zohidlik harakatlarining paydo bo'lishi.
2. Hasan al-Basriyning zohidona qarashlari.
3. Zuhd va oriflikka oid bilimlarning ortib borishi.
4. Zuhdning turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Ilk zohidlik harakatlarining paydo bo'lishi. Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega ta'limot sifatida. Tasavvufning ilk ko'rinishlari – zohidlik harakati ko'rinishida paydo bo'lishi. Umaviy xalifaligi davrida saroy hashamlari, dabdabali bezaklar, oltin-kumushga berilish, xazina to'plashga ruju qo'yish. Toat-ibodat o'rnini dunyo orzu-havasi egallashi ayrim e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'la boshlashi. Muhaddislar hamda ilgaridan faqirona hayot kechirib, uy-joy, mol-mulkka e'tibor qilmagan sahobiylarning bir qismi dinni himoya qilib, ochiq kurashga o'tlanishi. Sahobiylarning ikkinchi qismi qanoat va zuhdni («zuhd» so'zidan «zohid» so'zi kelib chiqqan) asosiy maqsad qilib olib, saroy ahli va boylar hamda ularning axloqiga qarshi norozilik belgisi sifatida tarkidunyochilik g'oyasini targ'ib etishi, ijtimoiy faoliyatdan butunlay chetlashib, surunkali toat-ibodat bilan shug'ullanishi. Zuhd va tarkidunyochilik kayfiyati islom olamining ko'plab mintaqalarida ommaviy tus ola boshlashi.

Hijriy I va II asrlardagi zohidlarni harakatlantirgan kuch – jahannam qo'rquvi, jannat orzusi va Allohning jamolini mushohada etish. Zohidlarda “qo'rquv”ga asoslangan zuhdning hukmron bo'lishi. “Qo'rquv” zuhdining eng yorqin namoyandasi – Hasan al-Basriy. Robiya al-Adaviya nomi bilan bog'liq ilohiy ishq bilan yo'g'irilgan zohidona qarashlarning keng yoyilishi. Ilohiy ishq bilan

yoʻgʻirilgan zuhdning harakat nuqtasi sifatida Allohga muhabbat tushunchasining vujudga kelishi. Robiyaning qarashlari Maʼruf al-Karxiy, Zunnun al-Misriy, Sari as-Saqatiy, Junayd al-Bagʻdodiy, Mansur al-Halloj va Horis al-Muhosibiy kabi mashhur sufiylarga taʼsir etishi.

2. Hasan al-Basriyning zohidona qarashlari. Hasan al-Basriyning tasavvuf tarixida tutgan oʻrni. Hasan al-Basriy orqali xalifa Aliga borib bogʻlangan tariqat silsilalari. Hasan al-Basriyning qarashlarida Allohdan har lahzada qoʻrquv gʻoyasining ustuvorligi. Hasan al-Basriy tomonidan umaviy xalifalarning tanqid qilinishi. Xalifalarga qurol bilan qarshi chiqish emas, ular fuqarolarning gunohlari uchun berilgan jazo deb, ularga sabr qilish kerak, degan gʻoyaning targʻiboti. Hasan al-Basriy izdoshlarini oʻz amallari va oʻylarini diqqat bilan nazorat qilishga chorlashi. Bu qarashlar taʼsirida tasavvufda al-Muhosibiy nomi bilan bogʻliq *muhosabat an-nafs* taʼlimoti vujudga kelishi.

3. Zuhd va oriflikka oid bilimlarning ortib borishi. Ilohiy jazolar, bandalarning gunohlari va oʻz taqdiridan xavotirga tushish oqibatida jamiyatda doimiy yigʻlab tavba qilib yuradigan *bakkaun* toifasining vujudga kelishi. Hadis: “Ey Muhammadning ummati, agar siz men bilgan narsani bilganingizda edi, kamroq kulib, koʻproq yigʻlagan boʻlar edingiz” (Imom Muslim, Imom Dorimiy rivoyati). Valiylk haqidagi qarashlarning paydo boʻlishi. Qurʼon oyatlari – Yunus-62: “*Ogoh boʻlingizki, albatta, Allohning valiylariga xavf yoʻqdir va ular tashvish chekmaslar*”. Poʻstin kiyib yurish amaliyotining musulmon oʻlkalarida tarqalishi. Mazkur amaliyotning ayrim ulamolar tomonidan xristianlik bilan bogʻlab, bidʼat deb eʼlon qilinishi. Avliyolarga beriladigan *ilm al-botin* va uning ziddi *ilm az-zohir* haqidagi qarashlar. Abbadonda ilk sufiy ibodatxonasi – *duvayra* paydo boʻlishi.

4. Zuhdning turli koʻrinishlarda namoyon boʻlishi. Gʻayridinlar bilan urush olib borilayotgan chegara hududlarida zohidlik jamoalari shakllanishi. Bu hududlarda zohidlik harakatining keskin koʻrinishlari namoyon boʻlishi: jisman va maʼnan poklik, parhezkorlik, ixtiyoriy ochlik, toʻxtovsiz nafl ibodatlar, vatan himoyasi uchun jon fido qilish. Zuhdning turli qirralari: Ibrohim ibn Adham – dunyo matohlaridan

to'liq voz kechish, Ibn al-Muborak – faol zohidlik targ'iboti, halol kasb-hunar, tijorat. Fuzayl ibn Iyoz – g'am-g'ussalik, Allohndan qo'rquv, jamiyatdan uzilmagan holda halol mehnat bilan oila boqish.

Zuhd davri sufiylari (Ibrohim Adham, Hasan al-Basriy, Abu Hoshim Kufiy va boshqalar) taqvo va parhezkorlikni bosh maqsad deb bilishi. Keyingi davr sufiylarida tafakkuriy-shuuriy yuksalish, ya'ni dunyoni va Ilohni bilish, tanishni asosiy maqsad, deb hisoblashi. Tasavvufning dastlabki davrlarida mavjud bo'lgan shartli ravishdagi zohidlik maktablari va ularning yorqin namoyandalari:

Madina	Basra	Kufa	Xuroson va Movarounnahr
Ashob as-suffa, Said ibn Musayyab,	Hasan al-Basriy, Molik ibn Dinor, Robiya al-Adaviya	Abu Hoshim al-Kufiy, Sufyon as-Savriy, Dovud Toiy	Ibrohim Adham, Fuzayl ibn Iyoz, Shaqiq al-Balxiy

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov N. Tasavvuf. – T.: O'zbekiston, 2009. – 448 b.
2. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O'qituvchi, 2005. – 399 b.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М. – СПб.,: Диля, 2004. – 464 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Usmonov I. “Navodir al-usul” hikmatlari. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 175 b.
6. Акимушкин О.Ф. Суфийские братства: сложный узел проблем / Предисл. к Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989. – С. 3-17.
7. Прозоров С.М. Классическое исламоведение (Введение в исламоведение): Программа спецкурса лекций для студентов. – СПб., 2009, – 96 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Ilk sufiylar, zohidlarning o'ziga xos jihatlar.

4-MAVZU: IROQ TASAVVUFINING SHAKLLANISHI VA O‘Z TA‘SIR DOIRASINI KENGAYTIRISHI

Reja:

1. Iroq tasavvufining mahalliy zohidlik harakatlaridan ustun kelishi.
2. Iroq tasavvuf vakillarining ommaviy ravishda Xuroson va Movarounnahr hududlariga kelib o‘rnashishi.
3. Iroq va mahalliy tasavvufiy harakatlarning farqli jihatlari.

Ma‘ruzaning asosiy mazmuni:

1. *Iroq tasavvufining mahalliy zohidlik harakatlaridan ustun kelishi.* “Iroq tasavvuf maktabi” hamda “Bag‘dod tasavvuf maktabi” tushunchalarining umumiy jihatlari. Bag‘dod maktabi Iroqdagi barcha tasavvufiy ta‘limotlardan ustun kelib, ularni ham o‘z ichiga singdirib yuborishi. Iroq mintaqasida Bag‘dod tasavvuf maktabi yetakchi mavqeni egallashi. Ko‘plab mutasavviflar bu maktab ta‘limotini qabul qilib, o‘z silsilalarini Junayd al-Bag‘dodiyga bog‘lay boshlashi. Junayd al-Bag‘dodiyning Iroq hududidan tashqarida, jumladan, Movarounnahr va Xurosondagi tariqatlar silsilalariga kiritilishi. Iroq tasavvufining karromiylarga xos xonaqoh instituti va kuchli nazariy asoslarga ega bo‘lgan ta‘limotining samarali targ‘iboti natijasida malomatiya va karromiya harakatlarini o‘ziga singdirib yuborishi.

Arabistonda ilk islom davrlarida paydo bo‘lgan «tasavvuf» atamasi, Movarounnahr va Xurosonga kirib kelish jarayonlari. Sufiylar haqida yozilgan ilk tabaqot kitoblari: buxorolik al-Kalobodiyning (vaf. 990 yoki 994 y.) «Kitob at-ta‘arruf ala mazhab ahl at-tasavvuf», as-Sarrojning (vaf. 988 y.) «Kitob al-luma‘ fi-t-tasavvuf», as-Sulamiyning (vaf. 1021 y.) «Tabaqot as-sufiyya», al-Qushayriyning (vaf. 1074 y.) «ar-Risola fi ilm at-tasavvuf», al-Hujviriyning (vaf.

1073-77 y.) «Kashf al-mahjub» asarlarida koʻplab Movarounnahr va Xuroson soliklarining «sufiy» nomi bilan kelishi.

Al-Hokim an-Naysoburiyning (vaf. 1014 y.) «Tarix Naysobur» asarida IX–X asrda Nishopurning mashhur ellik soliki «sufiy» nomi bilan emas, balki «zohid», «ʻobid», «voʻiz», «muzakkir» nomlari bilan kelishi. Asarda birinchi boʻlib Abu Bakr al-Vositiy (vaf. 932 y.) «sufiy» deb nomlanishi. Asli fargʻonalik boʻlgan Abu Bakr al-Vositiy Iroqning Vosit shahrida koʻp boʻlgani uchun «al-Vositiy» taxallusini olishi hamda Junayd al-Bagʻdodiyning halqasiga qatnab yurishi. Abu Bakr al-Vositiy Iroq tasavvuf maktabining koʻzga koʻringan vakili sifatida. Junayd al-Bagʻdodiyning «sahv» konseptsiyasini Xuroson va Oʻrta Osiyoda tarqalishining oʻziga xos jihatlari. Al-Vositiyning Iroq tasavvuf maktabi vakili ekanligi «sufiy» nomini olishiga sabab boʻlishi.

Qudduslik mashhur geograf-sayohatchi Abu Abdulloh al-Muqaddasiy (vaf. 990 y.) ham oʻzining «Ahsan at-taqosim fi maʼrifati al-aqolim» asarida xurosonlik soliklarni «sufiy» atamasi bilan emas, balki «ʻobid», «zohid», «voʻiz» nomlari bilan keltirishi. Xurosonning yirik shaharlarida zohidlik harakatlari. Nishopur aholisi tarkibidagi mavjud boʻlgan zohid, obid (yoki sufiy)lar foiz koʻrsatkichi ifodalangan xronologik jadval³:

Yillar	816-884	884-925	926-947	947-950
Zohid, obid, sufiy	3%	6.5%	6.4%	10.1%

³ Ushbu jadvalni tadqiqotchi R.Bulliet Nishopur aholisi haqida tabaqot kitoblaridan olingan maʼlumotlar asosida tayyorlagan.

Quyida esa ushbu ko'rsatkichlarning uch toifa o'rtasida taqsimlanishi:

Yillar	816-884	884-925	926-947	947-950
Zohid	100%	55%	35%	37%
Obid	0	42%	45%	20%
Sufiy	0	3%	20%	43%

IX asr oxiri – X asr boshlarida Nishopurda obidlarning faoliyatining ortishi. X asrda sufiylar toifasining jamiyatdagi o'ziga xos mavqei. XI asrda sufiylar sonining sezilarli ortib borishi.

Ilk hijriy asrlarda Movarounnahr va Xuroson musulmon soliklariga manbalarda munosabat. Keyingi davr manbalarida yoppasiga «sufiylashtirilishi». Ilk hijriy asrlarda «sufiy» istilohi asosan Bag'dod va umuman Iroq tasavvuf maktabi ahliga nisbatan iste'molda bo'lishi. O'rta asr olimlari asarlarida soliklar «sufiylar» va «sufiy bo'lmaganlarga» ajratilishi. Ikki yo'nalish o'rtasidagi mavjud ixtiloflar.

Xurosonlik soliklarning aksariyati Iroqda hukmron bo'lgan tasavvuf qarashlarini «shakliy» deb topib, mistik holatni zohirda oshkor etmay, uning faqatgina qalbda yashamog'i lozimligini, insonning asl vazifasi – nafsini isloh etmoq, riyo amallardan saqlanmoq, qalbini faqat Allohga bog'lamoq ekanligi. Soliklar tomonidan tashqi qiyofa bilan ajralib, o'zgacha bir guruh bo'lib yashashni riyokorlik deb tanqid qilinishi.

2. Iroq tasavvuf vakillarining ommaviy ravishda Xuroson va Movarounnahr hududlariga kelib o'rnashishi. Shariat peshvolarining sufiylarga tazyiq o'tkazish holatlari ko'plab tasavvuf namoyandalarini xalifalikning sharqiy hududlariga ko'chishga majbur etishi. *Sufiy* va *tasavvuf* so'zlarining Xuroson va Movarounnahrda iste'molga kiritilishi. Iroqda sufiylarga nisbatan munosabatning keskinlashuvi. Xalifaning diniy ishlar bo'yicha maslahatchisi

hanbaliy mazhabiga mansub zohid G‘ulom Xalil va Bag‘dodning bosh qozisi Abu Ishoq al-Hammodiylarning xalifa qo‘li bilan sufiylarni tazyiqqa olib, yetmish beshdan ziyod sufiyni zindqlikda ayblab, jazolash uchun so‘roq qilishi. Mansur al-Hallojning qatl etilishi (922 y.) va unga xayrixoh kishilarning tazyiqqa uchrashi. Iroq maktabi sufiylarining Movarounnahr va Xuroson o‘lkalariga ko‘chib kelib, u joylarda o‘z maktablari ta’limotlarini tarqatishi, keyinchalik ularning Movarounnahr va Xuroson tasavvufi bilan qorishib ketishi. Iroq tasavvuf maktabi ta’limotlarining mintaqada ustunlikka erishishi. Iroq tasavvufi mintaqada faoliyat yuritgan karromiylarning *xonaqohlari* va malomatiylardagi *futuvvani* o‘zlashtirish orqali Movarounnahr va Xuroson o‘lkalarida mahalliy tasavvufiy oqim va harakatlarining ba’zilarini siqib chiqarishi yoki o‘ziga singdirib yuborishi. Mintaqa sulukiga nisbatan «tasavvuf» atamasi qo‘llanila boshlashi.

X–XI asrlarda yozilgan sufiy tabaqotlarida xurosonlik suluk ahli «sufiy» deb atalishi. Abu Bakr al-Kalobodiy, as-Sarroj, as-Sulamiy, al-Qushayriy, al-Hujviriyy asarlarida Movarounnahr va Xuroson soliklari «sufiy» nomi bilan keltirilishi, mazkur mualliflarning Iroq tasavvuf maktabiga mansubligi yoxud uning ta’siri ostida bo‘lishi bilan bog‘liqlik holatlari.

3. Iroq va mahalliy tasavvufiy harakatlarning farqli jihatlari.

IX–X asrlarda tasavvuf nazariyasi va amaliyotida yuz bergan katta o‘zgarishlar. Irfon maktablarining paydo bo‘lishi va ular orasida Iroq va Xuroson maktablari ta’sir doirasining tutgan o‘rni. Xuroson tasavvufi ko‘proq botiniy hayotga urg‘u berish orqali Iroq tasavvufidan farqlanishi. Iroqlik sufiylarning maxsus qiyofalarda oshkora zikr majlislarini o‘tkazishi, jamiyatdan ajralib, alohida bir guruhga aylanishini movarounnahrlik va xurosonliklar tomonidan riyokorlik deb ma’lum qilinishi. Suf (jun libos) kiyish amaliyotining Movarounnahr va Xuroson hududlarida tanqid ostiga olinishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
2. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O'qituvchi, 2005. – 399 b.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм : Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Usmonov I. “Navodir al-usul” hikmatlari. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 175 b.
6. Прозоров С.М. Классическое исламоведение (Введение в исламоведение): Программа спецкурса лекций для студентов. – СПб., 2009, – 96 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Iroq tasavvufininig shakllanishida tarixiy sharoitlarning o'rni.

5-MAVZU: HORIS AL-MUHOSIBIY VA MUHOSABAT AN-NAFS TA'LIMOTI

Reja:

1. Horis al-Muhosibiyning *muhosabat an-nafs* ta'limoti.
2. Al-Muhosibiyning qarashlariga tanqidiy munosabat.
3. Al-Muhosibiy asarlarida tasavvuf psixologiyasining namoyon bo'lishi.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Horis al-Muhosibiyning muhosabat an-nafs ta'limoti. Al-Muhosibiy Abu Ali al-Horis ibn Asad al-Anaziy (taxm. 781-857) – bag'dodlik ilohiyotchi, sufiylikning ilk nazariyotchi olimlaridan biri sifatida. U hadis va fiqhni Yazid ibn Horun (vaf. 821 y.) va Abu Ishoq al-Kurashiy kabi mashhur allomalardan o'rganishi. Bag'doddagi tahsil jarayonlari va mustaqil ta'lim. Uning zohidona turmush tarzini tanlab, otasi qoldirgan katta merosdan voz kechishi, mu'taziliylarning "inson irodasi erkinligi" haqidagi ta'limoti tarafdoriga aylanishi. Al-Muhosibiyning taqvodor va bilimdonligi unga katta shuhrat keltirishi va uning atrofida ko'plab shogirdlar to'planishiga olib kelishi. Al-Muhosibiy "Qalblar va xotiralar" asarida sufiylik "psixologiyasi"ning asosiy qoidalariga berilgan ta'riflar. Olim shaxsning kamolotga yetkazishining asosiy vositasi – o'z-o'zini doimiy kuzatuv va nazorat qilishi (muroqaba va muhosaba) deb bilishi. "Al-Muhosibiy" laqabi – «o'zini-o'zi nazorat qiluvchi, tergap turuvchi, o'ziga-o'zi hisob beruvchi» ma'nosini anglatishi haqida. Al-Muhosibiyning hadis, falsafa hamda mu'taziliylar ta'limotiga munosabati. Uning ta'limotida *ixlos* va *riyo* mavzularining ustuvorligi. Riyo – avliyolarga xos bo'lgan ruhiy poklik va kamolotga erishishda asosiy to'siq. Riyodan xalos bo'lishga har bir amaldagi niyat, fikr va o'ylarni qattiq tergap va nazorat – *muhosaba* qilibgina erishish mumkin ekanligi.

Doimiy *muhosaba* bilan Allohga haqiqiy ma'noda bandalik qilish. Bu bilan banda ikki maqsadga – tavba va munofiqlikdan qutulishga erishishi. Bu xislatlar Allohdan *xavf* va Uning marhamatiga umid – *rajodan* kelib chiqishi. Al-Muhosibiyning: agar inson o'z ichki dunyosini muhosaba va ixlos bilan isloh etsa, Alloh uning tashqi olamini nafs mujohada va sunnaga ergashish bilan to'g'rilab qo'yadi, degan qarashlari haqida.

2. Al-Muhosibiyning qarashlariga tanqidiy munosabat. Ahmad ibn Hanbalning al-Muhosibiyini bid'atchi deb e'lon qilishi. Al-Muhosibiyning Bag'doddan Kufaga chiqib ketishga majbur bo'lishi. Ahmad ibn Hanbalning vafotidan (855 y.) keyingina Bag'dodga qaytishi. Al-Muhosibiyning (857 y.) vafoti va Ahmad ibn Hanbalning "Muhosibiyga janoza o'qimaslik" haqidagi fatvosi. Olim janozasida to'rttagina kishining ishtirok etishi. Fiqhiy mazhablar orasida sufiylarga hanbaliylar ko'proq muxolif bo'lsada, eng mashhur sufiylar – Abdulqodir al-Giloniy va Abdulloh al-Ansoriy hanbaliy mazhabiga mansub ekani. Ziddiyatlarning asosiy sabablari: fiqh o'z mavqeini qat'iy mustahkamlagach, musulmonlar orasida "fiqh – islomning g'oyasi" degan tushuncha tarqalishi; sufiylar faqihlarni dinga faqatgina muayyan marosimlar, ruhiy asosdan ayri qoidalar majmuasi sifatida qarashlarini tanqid qilsalar, faqihlar sufiylarni diniy matnlardan yiroqlashish va turli bid'atlarni dinga kiritishda ayblashi; faqihlar – zohiriy, sufiylar – botiniy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratishi haqidagi da'volar. Fikrlardagi tafovutlar tufayli ziddiyatlarning keskinlashuvi. Al-Muhosibiy fojeasi, G'ulom Xalil ishi, al-Halloj va Nasimiyning qatl etilishi va boshqa ko'plab sufiylarning surgun qilinishi, mahkamaga tortilishi kabi tarixiy voqealar haqida.

3. Al-Muhosibiy asarlarida tasavvuf psixologiyasining namoyon bo'lishi. Al-Muhosibiy asarlarida nafs, inson tabiati, uning zaif jihatlar, ularni yengib o'tish yo'llari, ruhiy mashqlarni tasvirlab berish orqali tasavvufning ruhiy jihatlariga katta e'tibor qaratilishi. Olimning oddiy zohidlikdan shuuriy kamolotni ilgari surishi. Nafs va qalbning nozik va yashirin qirralarini tadqiq etish

orqali tasavvuf psixologiyasining asosiy qoidalari sharhlab berilishi. “Kitab riya li huquqillah”, “Kitab at-tavahhum va-l-ahval”, “Kitab al-vasaya”, “Risolat al-makasib va-l-vara’ va-sh-shubuhat” asarlarida tasavvufning ruhiy-psixologik jihatlarini mohirona ochib berilishi.

Mavzu bo‘yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
2. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O‘qituvchi, 2005. – 399 b.
3. Кныш А. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Sulamiy Abu Abdurahmon. Tabaqot as-sufiyya / N.Shariba nashrga tayyorlagan. – Qohira: Maktabat al-Xonajiy, 1986. – 570 b.
6. Прозоров С.М. Классическое исламоведение (Введение в исламоведение): Программа спецкурса лекций для студентов. – СПб., 2009, – 96 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Horis al-Muhosibiy faoliyati, asarlari, “muhasabat an-nafs”ning oyat va hadislar bilan asoslanishi. Tasavvuf psixologiyasi.

6-MAVZU: TASAVVUFNING MUSTAQIL TA'LIMOTGA AYLANIB BORISHI VA BAG'DOD TASAVVUFI AN'ANALARINING VUJUDGA KELISHI

Reja:

1. Tasavvuf ta'limoti shakllanishining tarixiy bosqichlari.
2. Bag'dodning tasavvuf markaziga aylanishi.
3. Ma'ruf al-Karxiyning Bag'dod tasavvufi shakllanishidagi o'rni.
4. Bag'dod tasavvufi an'analari vujudga kelishida Bishr al-Hofiy va Sari as-Saqatiy qarashlarining ahamiyati.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Tasavvuf ta'limoti shakllanishining tarixiy bosqichlari.
IX–X asrlar tasavvuf tarixida muhim davr hisoblanib, islom olamida katta siyosiy ahamiyatga molik tarixiy o'zgarishlar sodir bo'lishi. Abbosiylar hukmronligi mavqeining mustahkamlanishi. Bag'dod shahri ulkan xalifalikning ilm va madaniyat markaziga aylana borishi. Islom olamida turli millat va elatlar, turfa madaniyat va ta'limotlarning bir-biriga yaqinlashuvi, to'qnashuvi va qorishuvi sodir bo'lishi. Mazhablar va sunniylik aqidaviy yo'nalishlari (moturidiya va ash'ariya). Botil oqimlarning shakllanishi. Shialik o'z asoslarini mustahkamlab olishi. Tasavvuf boshqa fanlardan mustaqil ilm sifatida ajralib chiqishi. Tasavvufiy qarashlar, tushunchalar va istilohlar haqida ilk asarlarning yaratilishi. Sufiylar jamiyatda alohida tabaqa sifatida e'tiborga olinishi. Muayyan joylarda tasavvuf maktablari tashkil topishi. Bu davr tasavvufi asosan mashhur sufiylar tevaragida, ularning muayyan qarashlari doirasida shakllana borishi. Ma'ruf al-Karxiy, Zunnun al-Misriy, Boyazid al-Bistomiy, Sahl at-Tustariy, Junayd al-Bag'dodiy va Mansur al-Halloj qarashlari asosida tasavvuf tobora o'z qamrovini kengaytirishi.

2. Bagʻdodning tasavvuf markaziga aylanishi. VIII asrning ikkinchi yarmida Bagʻdod islom olamining siyosiy va madaniy markaziga aylanishi. Bagʻdod tasavvufning markazi sifatida tanilishi. Tasavvuf Bagʻdodda taʼlimot sifatida shakllanib, butun islom dunyosiga tarqalishi.

3. Maʼruf al-Karxiyning Bagʻdod tasavvufi shakllanishidagi oʻrni. Maʼruf al-Karxiy (vaf. 810 y.) – Bagʻdod tasavvuf maktabining asoschisi. Sufiyning Karx mahallasida oʻzi qurdirgan masjiddagi maʼruzalari orqali koʻpsonli muxlislar toʻplashi. Tasavvuf tarixida zohidlik harakatidan sufiylik amaliyotiga oʻtish bosqichlari bevosita shu shaxs nomi bilan bogʻlanishi. Uning targʻib qilgan asosiy mavzusi “rizo” – oʻz taqdiridan Allohdan rozi boʻlish. Maʼruf al-Karxiyning manbalarda keltirilgan koʻplab karomatlari. Vafotidan keyin Dijla (Iroq) boʻyidagi qabri ziyoratgohga aylanishi. Bagʻdod aholisi qurgʻochilik davrida uning qabri oldida duo qilib yomgʻir yogʻdirish mumkin ekanligiga ishonishlari.

4. Bagʻdod tasavvufi anʼanalari vujudga kelishida Bishr al-Hofiy va Sari as-Saqatiy qarashlarining ahamiyati. Bishr al-Hofiy (vaf. 842 y.)ning muhaddislarga qarata oʻz shogirdlariga oʻrgatayotgan hikmatlarining ikki yarim foiziga amal qilishlari haqidagi oʻgitlari. U qiyomat kuniga tayyorgarlik koʻrishda fiqh va hadislar bilan mashgʻul boʻlishning odamlarga nafi kamligi borasidagi qarashlari. Shuhrat qozonish yoki tirikchilik oʻtkazish maqsadida bu ilmlar bilan shugʻullanuvchilarni tanqid qilishi. Sari as-Saqatiy (vaf. 867 y.) qarashlarida oddiy zohidlikdagi gunoh amallardan tiyilish va shariatga toʻliq itoatdan koʻra yuqoriroq boʻlgan Allohning maʼrifatiga choʻmish holati aks etishi. Bilim va tajribalar ortishi bilan sufiylik yoʻli ancha murakkablashishi. Sari as-Saqatiy oʻzigacha zohidlikda mavjud boʻlgan Xudodan qoʻrqish va Uning marhamatidan umidvor boʻlish haqidagi qarashlarni kengaytirib, bu ikki tushuncha oʻrtasiga “hayo”, “haybat” va “uns” tushunchalarini kiritishi. Sari as-Saqatiy qarashlarida Allohga muhabbat mavzusi ham muhim oʻrin tutishi. Uni koʻp hollarda yigʻlayotgan holda tasvirlanishi – “*bakkaun*” harakatining taʼsiri sifatida qayd etilishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Islom ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
2. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
3. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
4. Usmonov I. Tasavvuf fanidan glossariy – T.: TIU, 2011. – 125 b.
5. Усманов И. Суфизм. Т.: ТИУ, 2011. – 168 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Bag'dod tasavvuf an'alarining shakllanish jarayonlari.

7-MAVZU: SAHV VA SUKR TASAVVUFI HAMDA FANO VA BAQO TUSHUNCHALARI

Reja:

1. “Sahv” tasavvufining o‘ziga xos jihatlari. Junayd al-Bag‘dodiy sahv tasavvufining yirik siymosi.
2. *Tafriq, jam’, fano va baqo* tushunchalari.
3. “Sukr” tasavvufining o‘ziga xos jihatlari. Boyazid al-Bistomiy sukr tasavvufining yorqin namoyandasi.
4. Mansur al-Halloj va *Ana-l-Haq* tushunchasi.

Ma’ruzaning asosiy mazmuni:

1. “Sahv” tasavvufining o‘ziga xos jihatlari. Junayd al-Bag‘dodiy sahv tasavvufining yirik siymosi. Tasavvufning asosiy ikki yo‘li – sahv va sukr. Sahv – jo‘shqin tasavvufning ziddi, shathiyotlarga berilmaslik, sarxushlikdan ogoh bo‘lish. Sahv tasavvufiga shariat peshvolarining ijobiy munosabati. Junayd al-Bag‘dodiy (vaf. 910 y.) qarashlarida sahvnings ustuvorligi. Sayyid at-toifa, tovis al-fuqaro laqablari. Uning risola tarzida bitilgan asarlari – *rasa’il*ning tili maqsadli ravishda qiyin bitilgani.

2. *Tafriq, jam’, fano va baqo* tushunchalari. Junayd al-Bag‘dodiyga ko‘ra hamma narsa Allohda boshlanadi va vaqtinchalik *tafriq*dan keyin Unda mavjud bo‘lishi uchun yana Unda *jam’* bo‘lishi. Bu holat tasavvufda fano va baqo tushunchalari bilan bog‘liqligi. *Fano* – Allohga g‘arq bo‘lish, bandaning o‘zligi “erib”, xuddi tomchi ummonda yo‘qolib ketganidek, kichik narsaning katta narsada yo‘q bo‘lib ketish hissi. Qudsiy hadis mazmuni – “Agar Men bandamni yaxshi ko‘rsam, uning ko‘radigan ko‘zi, ushlaydigan qo‘li, yuradigan oyog‘i bo‘laman”. Fanoning eng yuqori bosqichi – *jam’*. *Baqo* – fanodan keyin kelib, atrofda qilarga fanoda olgan ilohiy bilimlarni yetkazish holati. Junayd al-Bag‘dodiyga ko‘ra, insoniyatning butun tarixi Qur‘onda tasvirlangan al-Miyoq – Xudo va bandalar o‘rtasidagi

bitimni bajarishga va yaralishidan oldingi holatiga qaytishga intilishi bilan bogʻliq ekani. Xudo bandalarini imtihonlarga boy dunyoda shahvatga moyil moddiy qolipga solishi. Shahvat va mayllar al-Miysoqni unuttirishga qaratilgani. Riyozat va mujohada bilan inson oʻz ilk soflik davridagi holatiga qayta olishi. Soʻng u baqo holatida yana oʻz dunyosiga qaytishi. Xarrozga koʻra, fano – qalbdan barcha shahvat va dunyo hoyu havaslarining yoʻq boʻlishi. Fanoning turlari. Baqo – qalbda faqatgina Allohning qolishi. Jamʻ – har ishda Xudoni koʻrmoq. Jamʻ va farq doimiy ketma-ketlikda kelishi, bir vaqtda boʻlmasligi. Jamʻ maʼrifatulloh uchun, tafriq bandalik uchun. Farq – Xudoni va Uning maxluqotlarini mohiyati yaratilgan mavjudotlar shaklida koʻrish. Qurʼondagi Anfol-17: *“Otganingizda Siz otmadingiz, (ey, Muhammad!) balki Alloh otdi”*. Baqara-115: *“Mashriq ham magʻrib ham Allohnikiidir. Bas, qaysi tarafga yuzingizni qaratsangiz, oʻsha tomonda Allohning “yuzi” mavjuddir”* kabi oyatlarning sufiyona talqini.

3. “Sukr” tasavvufining oʻziga xos jihatlar.**Boyazid al-Bistomiy sukr tasavvufining yorqin namoyandasi.**Sukr tasavvufi Ilohiy ishq mavzusiga yaqinligi. Shatahotlar – hissiy sarxushlik vaqtida jazavaga tushgan solikning bexosdan aytgan soʻzlari. Fano holati sukrning asosiy jihati. Vahdat al-vujud taʼlimotining asosi. Sukrning badiiy adabiyotda aks etishi, ramz va timsollar. Parvona va shamchiroq. Tayfuriya sufiylik yoʻnalishining eponimi. “Sulton al-orifin” laqabli al-Bistomiy (vaf. 875 y.) taʼlimoti: inson zikr holatida oʻzligini unutadi (gʻalaba) va Xudo ishqidan mast boʻlib (sukr) butun vujudini his-tuygʻu qamrab oladi, pirovardida u Xudoda fano (yoʻq) boʻlib (erib) ketadi. Bunday holatni u fano (mavjudlikni yoʻqotish) deb atashi. “Sen mendirsan, men esa Sendirman” iborasiga al-Bistomiyning taʼrifi: goʻyo shaxs oʻzligini tark etib, ilohiylikda erib ketadi va Uning sifatlarini qabul qiladi. Al-Bistomiy *“hulul”* (ilohiylik insonga koʻchib oʻtishi haqidagi taʼlimot)da ayblanib, anʼanaviy islom tarafdorlarining keskin qarshiligiga uchrashi. Al-Bistomiy nazariyada ilohiy (lohut) va insoniy (nosut) ruhni bir-biriga birlashtirishga harakat qilishi. Al-Bistomiyning aytgan gaplari, hikmatlari Junayd al-Bagʻdodiy tomonidan toʻplanib, anʼanaviy islom normalariga moslashtirilib arab tiliga tarjima qilinishi.

4. Mansur al-Halloj va Ana-l-Haq tushunchasi. Mansur al-Hallojning (vaf. 922 y.) qatl etilishi – tasavvuf tarixidagi burilish pallasi. Al-Hallojning qarmatilik va *hulul*da ayblanishi. “Kitab at-tavasin”da Iblis mavzusi. Keyingi davr tasavvuf adabiyotida Mansur al-Hallojni oqlashga urinishlar. “Ana-l-Haq” – mening o‘zligim – Xudoning o‘zligidir”, degan fikri uchun xudolikni da’vo qilishda ayblanishi. Uning bu qarashlari vahdat al-vujud ta’limotiga yo‘l ochishi. Al-Halloj g‘oyalarining tasavvuf adabiyotiga ta’siri. Shariat peshvolari al-Hallojni bid’at va shakkoklikda ayblashi hamda qatl etishga hukm qilishi. Al-Halloj timsolining tasavvuf adabiyotida yetakchi mavzulardan biriga aylanishi va unga nisbatan turli munosabatlar shakllanishi. Yusuf al-Hamadoniy: “Agar Husayn bin Mansur ma’rifatni yetarli darajada bilsa edi, Ana-l-Haq o‘rniga anat-turob der edi”, degan fikrlari. Jaloliddin Rumi: “Ana-l-Haq – deyish ulug‘ bir kamtarinlikdir. Buning o‘rniga “Men Haqning quliman”, degan kishi ikki borliqni o‘zi va Tangrining borligini tasdiqlagan bo‘ladi. Men Haqman deganda o‘z borlig‘ini yo‘q qilgan, men yo‘qman, barchasi Udir. Allohdan boshqa borliq yo‘qdir” deydi. Al-Bistomiy va al-Halloj sukr tasavvufining eng yorqin namoyandalari.

Mavzu bo‘yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
2. Komilov N. Tasavvuf. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 448 b.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Zarrinko‘b A. Jo‘stujo‘ dar tasavvufi Iron. // Sino. – 2002. – № 8. – B.10-13.
6. Islom ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
7. Usmonov I. Tasavvuf fanidan glossariy – T.: TIU, 2011. – 125 b.
8. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – 336 b.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Sahv konsepsiyasining mohiyati. Sukr tasavvufining shakllanishi.

8-MAVZU: FUTUVVAT

Reja:

1. “Futuvvat” soʻzining kelib chiqishi va taʼriflari, unga bagʻishlangan asarlar.
2. Futuvvat tashkilotlarining siyosatga jalb qilinishi.
3. Futuvvat – yaxshi xulqlar majmui.
4. Navoiy va futuvvat.

Maʼruzaning asosiy mazmuni:

1. “Futuvvat” soʻzining kelib chiqishi va taʼriflari, unga bagʻishlangan asarlar. Futuvvat – (arab. *yigitlik, mardlik*) – tasavvufdagi mardonavorlik, yaʼni, boshqalarni himmatda oʻzidan yuqori tutish, faqat yaxshilik qilish, ezgu xulq-atvorga ega boʻlish, piru ustozlar, doʻst-birodarlar sharafiga himoya qilishga oʻzini bagʻishlash, eng olijanob odob va xislatlarni oʻzida kamol toptirishi. Futuvvat arabcha “fata” – “yigit” soʻzidan olingani. Junayd al-Bagʻdodiyning taʼrifi: “Futuvvat – saxovatpeshalik, birovga zarar yetkazmaslik va shikoyat qilmaslik (noshukr boʻlmaslik)”. Shia sufiylarida Ali ibn Abu Tolib futuvvat mayogʻi hisoblanib, “Zulfiqordan boshqasi qilich emas, Alidan boshqasi “fatiy” emas” iborasining keng tarqalishi. Futuvvat ahlini javonmardlar (fors. *mard yigit*), axiylar (arab. *birodar*) deb atalishi. Qurʼonda “fatiy” tushunchasi: Ibrohim va Yusuf paygʻambarlar, Gʻor egalari, Muso paygʻambarning sherigi Yushaʼl. Manbalarda “japonmard” soʻzi malomatiylarga nisbatan keng qoʻllanilishi. “Malomatiya haqida risola” muallifi as-Sulamiy (vaf. 1021 y.) futuvvatga bagʻishlab alohida bitgan risolasida haqiqiy japonmardning 212 taʼrif va sifatini keltirishi. As-Sulamiyning izdoshi boʻlgan tasavvuf tarixnavisi al-Qushayriy (vaf. 1072 y.). Uning “Qushayriy risolasi” asarida futuvvat mavzusining aks etishi. Kaykovusning (XI asr)

“Qobusnoma”sida 44-bob “Javonmardlik zikrida” deb atalishi. Unda futuvvat odobi, bu tur insonlarga xos go‘zal axloq namunalari haqida so‘z borishi. Hirotlik Husayn Voiz al-Koshifiy (1440-1505) “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida keltirilgan futuvvatning yetmish bir sharti va “Kimdagi, mazkur shartlardan birortasi topilmasa, u futuvvatdan bebahradir”, deb ta’kidlanishi. Al-Koshifiy futuvvatni tariqatning tarkibiy qismi, deb qarashi. Ayrim manbalarda tariqat va futuvvat o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lsada, ammo ular alohida tushunchalar ekani qayd etilgani. Futuvvat – tasavvufiy qarashlarning amaliy tatbig‘i sifatida e’tirof etilishi.

Javonmardlar xuddi sufiylar muridga muraqqa’ yoki xirqa kiydirgani singari o‘z saflariga yangi qo‘shilganlarga ajratib turuvchi maxsus shalvor kiydirishi. Manbalarda sarbadorlar ham futuvvat ahli sifatida e’tirof etilishi.

2. Futuvvat tashkilotlarining siyosatga jalb qilinishi. Abbosiy xalifa Nosir (1180-1225) o‘z mavqe’ini mustahkamlash uchun birinchi bo‘lib futuvvatga rasmiy tashkilot tusini berishi. Xalifaning o‘zi ham futuvvat shalvorini kiyib, “sayyidu-l-fityon” laqabini olishi. Shu yo‘l bilan u Bag‘dod aholisining qo‘llab-quvvatlashiga erishib, saljuqiylarning ta’siridan qutulishga hamda rofiziylarni yo‘q qilishni maqsad qilishi. Xalifaga suhravardiya tariqati asoschisi Abu-n-Najib as-Suhravardiyning (vaf. 1168 y.) jiyani Abu Hafs as-Suhravardiy (1145-1234) futuvvat g‘oyalarini aholining keng qatlamlari orasida o‘zining otashin va‘zlari bilan tarqatish orqali yordam ko‘rsatishi. Abu Hafs as-Suhravardiy “Sufiylik yo‘li oddiy musulmon uchun mashaqqatli va og‘ir bo‘lgani sababli omma uchun futuvvat tariqatning bir bo‘lagidir” deya e’tirof etishi. Abu Hafs as-Suhravardiy maqsadli ravishda futuvvatga xos sharaf kodeksini tasavvufning ma’naviy ko‘rsatmalari bilan bog‘lashga urinishi.

3. Futuvvat – yaxshi xulqlar majmui. Futuvvat konseptsiyasi tasavvufdagi iysor – o‘zgalar manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish g‘oyasini eng yuqori darajaga olib chiqishi. Futuvvat guruhlari – jamiyatda yuksak axloq, saxovat, mardlik va adolatparvarlikning yuksak namunasi sifatida e’tirof etilishi. Umrni do‘stlar xizmatiga

bag'ishlash, faqat yaxshilikni o'ylab, yaxshilik qilishdan charchamaslik, ezgu xulq-atvorga ega bo'lish, borini o'zgalar bilan baham ko'rib, muhtojlar hojatini chiqarish, piru ustozlar, do'st-birodarlar nomusi, sharafini himoya etish, zohiran va botinan poklanib, halol-pokiza insonlar suhbatini qozonish kabi futuvvat g'oyalari. Movarounnahrda keng tarqalgan futuvvat g'oyalari ibn Battutaning (vaf. 1368 y.) "Safarnoma" asarida to'lqinlanib ifoda etilishi.

Koshifiy qayd etgan futuvvatdagi uch martaba: saxo – bor narsani hech kimdan qizg'anmaslik; safo – qalbni kibru havo, gina-qudrat, qasd-g'azabdan xoli va pok tutish; vafo – hamma vaqt xalq xizmatida bo'lish.

Tariqatlardagi piri murshid singari futuvvat tashkilotlarida payg'ambarlardan pirlar bo'lishi: hazrati Odam – dehqonlar piri, hazrati Shis – paxtachilar piri, hazrati Idris – tikuvchi va xattotlar piri, hazrati Nuh – savdogarlar, hazrati Solih – tuyakashlar, hazrati Ibrohim – sutchi va duradgorlar, hazrati Ismoil – ovchilar, hazrati Ishoq – cho'ponlar, hazrati Zulkifl – novvoylar, hazrati Lut – tarixchilar, hazrati Uzayr – bog'bonlar, hazrat Ilyos – to'qimachilar, hazrati Dovud – temirchilar, hazrati Luqmon – hakimlar, hazrati Yunus – baliqchilar, hazrati Iso – sayyohlar, Muhammad (s.a.v.) – bog'bon va savdogarlar piri ekani.

4. Navoiy va futuvvat. Navoiyning komil inson konseptsiyasi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan futuvvat (javonmardlik) ga munosabati. Futuvvatning Kichik Osiyo hududidagi o'ziga xos tarmog'i – axiylik harakati. Navoiy «Sab'ai sayyor»idagi Axiy obrazining mazmun-mohiyati.

Muruvvat – barcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat – barcha qilmakdur, demak yo'q.

Alisher Navoiyning axiylik haqida maxsus hikoyasi. Xuroson va Movarounnahrda keng shuhrat qozongan va shahar hunarmandlarining katta qatlamini qamrab olgan – javonmardlikni chetlab o'tilganday tuyulsada, shoir asarlarida «futuvvat» va

«javonmard» atamallari komil insonlarga xos ijobiy xususiyat sifatida ko'p tilga olinishi.

Fariduddin Attor futuvsatga qo'ygan 72 talab va Husayn Voiz Koshifiy ko'rsatgan 71 ta shartning barchasi mujassam bo'lgan ikki sifat: saxovat va shijoat. Navoiy asarlaridagi ijobiy qahramonlar faoliyati va barcha muhim sifatlari javonmardlik talablari bilan muvofiqligi.

Alisher Navoiy garchi javonmard nomi bilan maxsus hikoya va obraz yaratmagan bo'lsa ham, Farhod, Mas'ud, Sa'd, Farrux, Iskandar, Shopur, Muqbil singari haqiqiy javonmardlar timsolida o'zining bu masalaga doir qarashlarini ifodalashi.

Alisher Navoiy «javonmardlar» sifatida tilga olinadigan «sarbadorlar» harakati bilan temuriylar o'rtasidagi munosabatlarni inobatga olib, fatiylar mavzusida ehtiyotkorlik qilishi. Navoiy asarlarini futuvsat nuqtai nazaridan kuzatish asosida javonmardlarga nisbatan chuqur muhabbatini anglash mumkinligi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov N. Tasavvuf. – T.: O'zbekiston, 2009. – 448 b.
2. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Перевод с англ. А.А.Ставиской, под ред. и предисл. О.Ф. Акимущкина. – М.: Наука, 1989.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Zarrinko'b A. Jo'stujo' dar tasavvufi Iron // Sino. – 2002. – № 8. –B.10-13.
5. Usmanov I. Sufizm. – T.: TIU, 2011. – 168 s.
6. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvsatnomai sultoniy; Axloqi Muhsiniy. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 376 b.
7. Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: ИздаИтельство Ленинградского университета, 1966. – 400 с.
8. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Futuvsat axloqi va XXI asr.

9-MAVZU: MOVAROUNNAHR VA XUROSONDAGI ILK MAHALLIY SUFIYLIK HARAKATLARI

Reja:

1. Movarounnahr va Xurosondagi mahalliy sufiylik harakatlarining o'ziga xos jihatlari.
2. Malomatiylik harakati.
3. Ibn Karrom va karromiya harakati.
3. Karromiya va Bag'dod tasavvufi.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Movarounnahr va Xurosondagi mahalliy sufiylik harakatlarining o'ziga xos jihatlari. Karromiylar va malomatiylarning mintaqa diniy muhitida tutgan o'rni. Mintaqada asosan zohidlikka asoslangan harakatlar faoliyat yuritishi. Al-Hujviriy qayd etgan 12 tasavvuf maktabi.

Basra, Kufa, Bag'dod va uning atrofida keng tarqalgan tasavvuf harakatlari. Arabiston yarim orolidan o'zga o'lkalar, Misr, Xuroson, Nishopur va islom olamining boshqa diyorlariga ham bu harakatlarning yoyilishi (IX asr oxiri). Bag'dod, Basra, Misr, Madina va Xurosonda tasavvuf maktablari paydo bo'lishi. Iroq hududida Junayd Bag'dodiy va boshqa mashhur sufiylarning qarashlari asosida shakllangan tasavvuf hamda Xuroson va Movarounnahr hududlaridagi tasavvufning o'ziga xos farqli xususiyatlari.

Movarounnahr va Xurosonda IX–X asrlarda tasavvuf rivoji uchun vujudga kelgan qulay shart-sharoit. Mintaqada turli tasavvufiy maktablar shakllanishi. Bu maktablarning islom dunyosida tasavvuf rivojida tutgan o'rni. IX–X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda faoliyat yuritgan 12 asosiy tasavvuf maktabi. XI asr oxirlarida mazkur maktablardan bugungi kunga qadar yetib kelgan tariqatlar. Abulhasan

Jullabiy Ali al-Hujviriyning (vaf. 1074 y.) «Kashf al-mahjub» asarida mavjud tasavvuf maktablarini rasmiy islomga mosligi tartibida tasnif etishi. Al-Hujviriyy ta'riflagan o'nta maqbul va ikkita botil maktab. Ilk sufiy maktablar – mashhur sufiylar atrofida shakllangan halqalar. Al-Hujviriyy haq deb bilgan maktablar – muhosibiya, qassoriya, tayfuriya, junaydiya, nuriya, sahliya, hakimiya, xarroziya, hafifiya, sayyoriya. Botil maktablar – hallojiya, hulmoniya.

2. Malomatiylik harakati. IX–X asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududida *malomatiya* va *karromiya* ko'psonli tarafdorlariga ega bo'lishi. Ikki harakat ta'limotlarida o'zaro ixtilofli jihatlar. Malomatiylar karromiylarning «o'zini oshkora namoyish etish orqali ta'limotini tarqatish» g'oyasiga qarshi bo'lishi. Malomatiya harakati hijriy uchinchi (mil. IX) asrning ikkinchi yarmida Nishopurda paydo bo'lishi. Harakatning asosiy g'oyasi – nafs tarbiyasi va riyozat. Malomatiylarni boshqa zamondosh tasavvufiy toifalardan farqlab turuvchi tomoni, ular Alloh huzurida ixlosga erishish uchun nafsni ayb va illatlardan muolaja qilishga asosiy e'tiborni qaratishlari. Malomatiylarning asosiy jihatlari: maxsus kiyimga burkanib olmaslik; jahriy zikrdan xafiy zikrni afzal ko'rish; maqsadsiz darbadar yurishdan qaytarish. Mazkur qoidalarining ayrimlari *naqshbandiya tariqati* tomonidan o'zlashtirilishi.

Abdurahmon as-Sulamiyning malomatiylik harakati haqidagi «Risola al-malomatiyya» asari. Al-Hujviriyy «Kashf al-mahjub» asarida malomatiylarni tanqid qilishi. Shihobuddin Abu Hafs Umar as-Suhravardiy «Avorif al-ma'orif» kitobida malomatiya va tasavvuf ahlini boshqa-boshqa toifalar deb hisoblashi. Malomatiylarga zamondosh mintaqadan chiqqan mashhur sufiy al-Hakim at-Termiziy (vaf. 932 y.) malomatiylarni va ularning ta'limotidagi ayrim jihatlarni tanqid qilishi. Dastlabki qarashlarida nafl ibodatlarini yashirib bajarish, riyokorlikdan saqlanish, shu bilan birga, Allohni yodda saqlagan holda, o'z nafsini doimo yerga urish haqidagi tushunchalarga asoslangan malomatiylik asta-sekin o'z asl g'oyasidan uzoqlashib, boshqalarning tahqirlashiga sabab bo'ladigan

xatti-harakatlar qilmoq, yaxshi amallarni yashirib, yomon amallarni oshkor qilmoq singari tushunchalarni o'zlashtirishi.

3. Ibn Karrom va karromiya harakati. Mintaqada *karromiylar* nomi bilan tanilgan diniy-zohidlik oqimining yuzaga kelishi. Karromiyaning Xuroson, Movarounnahr va Quddus tasavvufiy muhitidagi tutgan muhim o'rni. Harakat asoschisi Ibn Karrom (vaf. 869 y.) va uning izdoshlari manbalarda «sufiy» nomi bilan qayd etilmagani. Manbalarda ularning nomi tashlab ketilishi yoki keskin tanqid bilan eslanishi. Karromiylar o'z da'vat va tashviqotlarini targ'ib qilish maqsadida maxsus imoratlar – *xonaqohlar* barpo etishlari. Xonaqohlarning Movarounnahr va Xurosonda tasavvuf tashviqot markazlari sifatidagi xizmati. Hanafiy mazhabida bo'lgan karromiylarning imon masalasiga murji'iyalar nuqtai nazaridan yondashuvi. Karromiylar Allohga jism (tana) nisbati berish (*tajsim*) da ayblanishi.

Ibn Karrom ta'limotida keskin zohidlik hayoti ustuvor bo'lib, u quyidagi besh asosga tayanishi:

1. Ixtiyoriy och yurish.
2. Qur'onni ko'p tilovat qilish.
3. Tungi bedorliklar.
4. Kunduzlari o'zini dunyodan tiyib yurish.
5. Abrorlar bilan hamsuhbat bo'lish.

Karromiylar targ'ibotda birinchilardan bo'lib xonaqohlardan foydalanishi. Karromiylarning asosan jamiyatning quyi tabaqasiga murojaat qilishi.

3. Karromiya va Bag'dod tasavvufi. Karromiylarning tarix sahnasidan tusha boshlashi (XI asr). XIII asrga kelib ularning Iroq tasavvufi tomonidan o'zlashtirilishi va yo'q bo'lib ketishi. Iroq tasavvufining mahalliy sufiy harakatlarga nisbatan kuchli nazariy asosga tayanganligi. Mahalliy harakatlar Bag'dod tasavvufiga xos bo'lgan botiniy jihatdan ko'ra zohiriy jihatlarni ko'proq e'tiborga olishi, jumladan, dag'al jun kiyish amaliyotining tanqid qilinishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov N. Tasavvuf. – T.: O'zbekiston, 2009. – 448 b.
2. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Перевод с англ. А.А.Ставиской, под ред. и предисл. О.Ф. Акимушкина. – М.: Наука, 1989.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Zarrinko'b A. Jo'stujo' dar tasavvufi Iron // Sino. – 2002. – № 8. – B.10-13.
5. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. Rus tilidan tarjima. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – 398 b.
6. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: Издательство Ленинградского университета, 1966. – 400 с.
7. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Iroq tasavvufi va Movarounnahrdagi tasavvufiy an'analar o'rtasidagi tafovutlar.

10-MAVZU: AL-HAKIM AT-TERMIZIY VA UNING TA'LIMOTI

Reja:

1. Al-Hakim at-Termiziyning Movarounnahr va Xuroson tasavvufida tutgan o'ri.
2. Al-Hakim at-Termiziy asarlarida valoyat mavzusi.
3. Valiylik haqidagi qarashlarning rivoji. "Xatm al-avliyo" mavzusi.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Al-Hakim at-Termiziyning Movarounnahr va Xuroson tasavvufida tutgan o'ri. Mintaqada hakimlar yo'nalishining vujudga kelishi. Hakimlar o'z qarashlarida masalalarning botiniy jihatlariga alohida e'tibor qaratishi. Mintaqada hikmat ilmining o'ziga xos jihatlar. Al-Hakim at-Termiziy – buyuk hakim. At-Termiziy asarlarida hakimlar tasviri. Ilk hijriy asrlarda Movarounnahr va Xuroson soliklari «sufiy» deb emas, balki hakim, voiz, muzakkir, obid va zohid kabi nomlar bilan atalishi. «*Tasavvuf*» istilohi Movarounnahr va Xuroson suluk yo'liga nisbatan X asrgacha qo'llanilmagani. Al-Hakim at-Termiziyning o'zini «sufiy» yoki «mutasavvif» deb ham hisoblamagani. Allomaning VIII–X asrlarda Movarounnahr va Xuroson mintaqasiga kirib kelayotgan Iroq tasavvuf maktabi ta'limotlari ta'siriga tushmagani. Al-Hakim at-Termiziy suf kiyish amaliyotini tatbiq etgan zamondosh sufiylarni tanqid qilishi. At-Termiziyning zuhd haqidagi qarashlari. Hakimning bilimi – hikma, ya'ni ichki mohiyat haqidagi bilimdir. 'Ilm al-botin – bu *hikma*. At-Termiziyning Qur'oni karimdagi: "*Ularga Kitob (Qur'on) va Hikmatni (hadisni) o'rgatadigan*" oyatidagi *al-Kitob* – Qur'onning zohiri, *al-hikma* esa uning botini, ya'ni yashirin ma'nolari, deb tafsir qilishi.

2. Al-Hakim at-Termiziy asarlarida valoyat mavzusi. Valiylik mavzusiga qiziqishning ortishi. Valiylik mavzusi bo'yicha ijod qilgan

mualliflar va yozilgan asarlar. Islomda “valiylilik” tushunchasi. At-Termiziy ilmiy merosida valiylilik talqini. Valiylilik ierarxiyasiga oid tizimli qarashlar. At-Termiziy asarlarida nafs, qalb va ruh mavzusi. Al-Hakim at-Termiziy «valoyat» va «avliyolik» mavzusiga deyarli barcha asarlarida murojaat qilishi. Al-Hakim at-Termiziy tasavvuf ta’limotidagi «valoyat nazariyasi»ning asoschisi hisoblanishi.


Al-Hakim at-Termiziy asarlaridagi valiylilik darajalari: aqtob, avtod, abdol, nujabo, nuqabo, munfarid, siddiq, sodiq va boshqa.

Al-Hakim at-Termiziyning «Ilm al-avliyo» asarida keltirilgan valiylar ilmi haqidagi mo’tadil qarashlari. «Xatm al-avliyo» – tasavvufda «valoyat mavzusi»ga bag’ishlangan birinchi mukammal manba. Al-Hakim at-Termiziy valoyatni ikki tur (valoyati omma va valoyati xossa)ga, valiylarni ham ikkiga – valiy sidqulloh va valiy minnatullohga ajratishi. Ibn al-Arabiyning valiylilik haqidagi qarashlari shakllanishida al-Hakim at-Termiziyning ta’siri.

3. Valiylilik haqidagi qarashlarning rivoji. “Xatm al-avliyo” mavzusi. Valiylilikning belgi va darajalari. Tasavvuf tarixida «**xotam al-avliyo**» iborasini birinchi marta al-Hakim at-Termiziy tomonidan qo’llanilishi. Qur’oni karimdagi «...**Va xotam an-nabiyyin**» («... payg’ambarlarning muhridir») oyatiga muvofiq, «Nabiylarning xatmi (muhri) bo’lgani kabi valiylarning ham xatmi bor va valoyat olamidagi «Xotam al-avliyo» nubuvvat olamidagi «Xotam al-anbiyo» kabidir», degan fikrni ilgari surishi. At-Termiziyning xotam al-avliyoga «xatm al-valoya» (valoyat muhri) berilgani borasidagi qarashlari. Xotam al-avliyo – avliyolarning sayyidi va har xususda ularning peshqadamidir. Al-Hakim at-Termiziy tasnifidagi valiylilikning eng yuqori darajasi – **xotam al-avliyo**. Xotam al-avliyo va komil inson tushunchalari muqoyasasi.

At-Termiziyning «Xotam al-avliyo» haqidagi fikrlari: «Muhammad (a.s.) payg’ambarlarning xotamidir. Uning vafotidan so’ng, ummatidan qirq kishi uning o’rniga o’tadi, shunda yer ular bilan qoim bo’ladi. Ular rasulning ahli baytlaridir. Nasab jihatdan emas, zikr jihatdan uning xonadonidir. Bu qirq kishidan biri vafot etsa, o’rniga ummatdan biri o’rnini bosadi. Bularning sanog’i tugab,

dunyoning zavol vaqti kelgach, Alloh bir valiy yuboradi. Uni saralab, oʻziga yaqin qilgan boʻladi. Unga «xatm al-valoya» (valoyat muhri) ham bergandir. Bu valiy qiyomatgacha boshqa valiylarga Allohning hujjati boʻladi. Muhammad (s.a.v)ning nubuvvat sidqi boʻlganidek, uning ham valoyat sidqi bordir. Unga shayton ilasha olmas, nafs uni valoyatdan chalgʻitib, zavq-safoga yetaklay olmas. Muhammad (s.a.v) barcha paygʻambarlarning sayyidi boʻlganidek, xotam al-avliyo ham avliyolarning sayyidi va har xususda ularning peshqadami, yaʼni xotamidir». “Xatm al-avliyo” asarida oʻzini “avliyo” deb hisoblaganlarni sinash uchun berilgan savollar. Ibn al-Arabiyning “Xatm al-avliyo” asarida berilgan savollarga ikki asrdan keyin javob yozishi. At-Termiziyning valiylar haqidagi taʼlimotining keyingi davrlardagi rivoji.



Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Usmonov I. "Navodir al-usul" hikmatlari. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 175 b.
2. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм : Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
3. Radtke B. Al-Hakim at-Tirmidi. – Freiburg: Klaus Schwarz Verlag, 1980. – 192 p.
4. Homidiy N. Tasavvuf allomalari. – T.: Sharq, 2004. – 208 b.
5. Усманов И. Суфизм. – T.: ТИУ, 2011. – 168 с.
6. Sulamiy Abu 'Abdurahmon. Tabaqot as-sufiyya / N.Shariba nashrga tayyorlagan. Qohira: Maktabat al-Xonaji, 1986. – 570 b.
7. Прозоров С.М. Классическое исламоведение (Введение в исламоведение): Программа спецкурса лекций для студентов. – СПб., 2009, – 96 с.
8. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.

Mustaqil ish topshiriqlari.

Al-Hakim at-Termiziy va uning valiylik haqidagi qarashlari.

11-MAVZU: TASAVVUF AN'ANASINING TIZIMGA SOLINISHI

Reja:

1. X-XI asrlarda yaratilgan asarlarda tasavvuf ilmining tizimga solinishi.
2. Tasavvuf markazi xalifalikning sharqiy o'lkalari – Xuroson va Movarounnahrda ko'chishi.
3. Tasavvufga oid mumtoz manbalar tasnifi.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. X-XI asrlarda yaratilgan asarlarda tasavvufning tizimga solinishi. X asr oxiriga kelib tasavvuf an'analari tizimga kela boshlashi. 967–1074 yillarda yaratilgan adabiyotlar. “Ilm at-tasavvuf”ning tizimga solinishi. Adabiyotlarda tasavvufiy istilohlar, karomatlar, suluk odoblarining batafsil tahlili. Abu Said al-Arabiyning tabaqot janridagi ilk “Tabaqot an-nussak” asari ta'sirida yozilgan kitoblar. Mashhur sufiylar biografiyalarini tabaqot-to'plamlar shakliga keltirilishi. Asarlarda tasavvufning shariatga muvofiqligini isbotlashga urg'u berilishi. Tasavvufni legitimlashtirishga urinish maqsadida Abu Hanifa, Shofe'iy, Ash'ariy, Sufyon Savriy kabi mashhur siymolar sufiylar sifatida qayd etilishi.

2. Tasavvuf markazi xalifalikning sharqiy o'lkalari – Xuroson va Movarounnahrda ko'chishi. Al-Kalabodiyning (vaf. 990 y.) “Ta'arruf”, Abu Nasr as-Sarrojning (vaf. 988 y.) “Kitab al-luma”, Abdurahmon as-Sulamiyning (vaf. 1021 y.) “Tabaqot as-sufiyya”, al-Hujviriyning (vaf. 1073 y.) “Kashf al-mahjub”, Abulqosim al-Qushayriyning (vaf. 1072 y.) “ar-Risola al-Qushayriyya” kabi tasavvuf tarixidagi eng mo'tabar asarlar. Ularning tasavvuf taraqqiyotida tutgan o'rnini. Xuroson va Movarounnahrda yashagan mualliflar tomonidan yaratilgan mazkur asarlar tasavvuf markazi xalifalikning sharqiy o'lkalarga ko'chganini anglatishi.

3. Tasavvufga oid mumtoz manbalar tasnifi. Tasavvuf tarixiga doir manbalar. *Tasavvufiy-falsafiy asarlar* – Ibn al-Arabiyning “al-Futuhot al-Makkiyya”, “Fusus al-Hikam”, Jomiyning “Lavoih”, Jiliyning “al-Insan al-kamil”. Bu kitoblarda Alloh taoloning sifati, zoti, Alloh-inson munosabati, maxluqotlarning yaratilish hikmati yoritilishi hamda ularda naql, aql bilan bir qatorda, kashf va ilhomga ham e’tibor berilishi. *Tasavvuf ilmini izohlagan asarlar* – al-Kalabodiyning “Ta’arruf”, al-Muhosibiyning “ar-Ri’aya li huquqillah”, al-Makkiyning “Qut al-qulub”, al-Hujviriyning “Kashf al-mahjub”, al-G’azzoliyning “Ihyo ulum ad-din”, as-Suhravardiyning “Avorif al-maorif”, Sirhindiyning “Maktubot”, al-Ansoriyning “Manozil as-soiriyn” kabi asarlarda tasavvufning asosiy mavzularini izohlash, islomdagi asoslarini ko’rsatib berish va shariatga muvofiqligini asoslashga e’tibor qaratilishi. *Tabaqot janridagi asarlar* – as-Sulamiyning “Tabaqot as-sufiyya”, al-Kalabodiyning “Ta’arruf”, al-Qushayriyning “ar-Risola”, Attorning “Tazkirat al-avliyo”, Jomiyning “Nafahot”, Navoiyning “Nasoyim” kitoblarida mashhur sufiylarning hayot yo’li, qarashlari, hikmatlari, karomatlari va darajalari haqida so’z borishi. Mazkur manbalardagi ma’lumotlar xuddi hadislardagi kabi roviylar silsilasi orqali berilishi. *Manoqib asarlari* – Ibn Javziyning “Manoqib Ma’ruf al-Karxiy”, Faxriddin Ali Safiyning “Rashahot”, Abdurahim ibn Chishtiy al-Usmoniyning “Siyar al-aqtob” kabi asarlarda bir yoki hammaslak bir necha sufiylarga bag’ishlanib, ularning hayoti, karomatlari, hikmatlari, turmush tarzi va hayotiga doir rivoyat va hikoyatlarga katta o’rin berilishi. “Tabaqot” janriga yaqin bo’lgan bu kabi asarlarda foydalanishda diqqat-e’tiborni talab etuvchi mubolag’ali ma’lumotlar ko’p uchrashi. *Suluk odobi asarlari* – Kumushxonaviyning “Jomi’ al-usul”, Faxriddin Ali Safiyning “Rashahot”, al-Hakim at-Termiziyning “Odob al-muridin” kabi asarlarda suluk ahlining axloqi, ta’lim-tarbiyasi, solikning tashqi ko’rinishi, pir-murid munosabatlari, zikr amaliyoti, kundalik vazifalar haqida so’z borishi. *Nazmiy tasavvufiy asarlar* – Hofizning “Devon”, Rumiyning “Masnaviy”, Yassaviyning “Devoni hikmat”, Ibn al-Forizning “Hamriyya” va boshqa ko’plab nazmiy

risolalarda tasavvufdagi tarbiyaviy jihatlar, ilohiy ishq, vahdat al-vujud, suluk mashaqqatlari kabi mavzular timsollar, badiiy uslublar yordamida ochib berilishi. *Tasavvufiy tafsirlar* – as-Sulamiyning “Haqiqat”, at-Tustariyning “Tafsir”, al-Qushayriyning “Latoif al-ishorot”, Qoshoniyning “Ta’vilot al-Qur’on”, Bursaviyning “Ruh al-bayon” kabi asarlardagi tasavvufiy talqinlar.

Mavzu bo’yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro’yxati:

1. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 б.
2. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
3. Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning o’rni. – T.: Akademiya, 2005. – 84 b.
4. Гольдцигер И. Лекции об исламе / Перевод с нем. А.Н. Черновой. Брокгауз-Ефрон, 1912. – 272 с.
5. Muhammad Siddiq Rushdiy. Avliyolar sultoni, Turonlik valiyalar / Ostonaqulov I. nashrga tayyorlagan. – T.: Kamalak, 1995. – 171 b.
6. Kalobodiy. Kitob at-ta’arruf bi mazhab ahl at-tasavvuf / Mavloqulova M. tarj. – T.: G’afur G’ulom, 2002. – 142 b.
7. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Tasavvuf ta’limotining o’ziga xos xususiyatlari tizimli ravishda qayd etilishi.

12-MAVZU: AS-SULAMIYNING «SUFIYLAR TABAQASI», AL-QUSHAYRIYNING «RISOLA» KITABI

Reja:

1. As-Sulamiyning “Tabaqot” asarining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Al-Qushayriyning “Risola” asari tasavvuf darsligi sifatida.

Ma’ruzaning asosiy mazmuni:

1. As-Sulamiyning “Tabaqot” asarining o‘ziga xos xususiyatlari.

As-Sulamiy (taxm. 937-942 – 1021 yy.) Nishopurda tavallud topishi. Malomatiy shayxlardan tahsil olgan bobosi Ismoil ibn Nujayd (vaf. 976 y.) qo‘lida tarbiya olishi. Xirqani (taxm. 951 y.) bag‘dodlik sufiy Abulqosim Nasroboziydan kiyishi. As-Sulamiy Xurosonda shofe‘iy mazhabi bilimdoni va ko‘plab tasavvufiy adabiyotlar muallifi sifatida nom qozonishi. As-Sulamiy asarlarini uch asosiy guruhi: 1) tabaqot, 2) tafsir, 3) tasavvufiy odob va marosimlar. “Tabaqot as-sufiyya” asarini umrining oxirlarida ta’lif etishi. As-Sulamiy ushbu asarida avval o‘tgan mutafakkirlarning asarlaridan foydalanishi. Tabariyning “Jomi’ al-bayon” asari ma’sur tafsirlar “otasi” bo‘lsa, as-Sulamiyning “Haqiq at-tafsir”i – tasavvufiy tafsirlar “otasi”. As-Sulamiy “ar-Risola al-malomatiya” asarida malomatiylarni yoqlab chiqishi. “Odob as-suhba”, “Uyub an-nufus va mudovatuha” kabi asarlarida sufiylar etikasi, o‘zini tutish qoidalari, odat va qadriyatlari muhokamasi.

“Tabaqot as-sufiyya” asarida sufiylar besh tabaqaga bo‘linishi. Asarda har bir tabaqada yigirmata sufiy shayx va har bir shayx rivoyat qilgan hadis va aytgan hikmatli so‘zlaridan keltirilgan namunalar. Muallif asarda yuzta emas, balki bir yuz besh sufiy shayxning tarjimai holini keltirishi. As-Sulamiyning vafoti.

2. Al-Qushayriyning “Risola” asari tasavvuf darsligi sifatida.

Xurosonlik Abdulkarim al-Qushayriy (986–1072 yy.) Ustuvu

viloyatida arab oilasida tavallud topishi. Oʻn besh yoshida Nishopurga oʻz qishlogʻidan undiriladigan soliqlarini tushirish umidida yoʻl olib, u yerda diniy bilimlarga qiziqishi va mashhur sufiy Abu Ali Daqqoq (vaf. 1015 y.)ning halqasiga qoʻshilib qolishi. Daqqoqning eng yaxshi talabasiga aylanishi. Al-Qushayriy Daqqoqning qiziga uylanishi va ustozi vafotidan soʻng madrasaga boshchilik qilishi. Al-Qushayriy shofeʼiy mazhabi fiqhi va ashʼariylik taʼlimotini oʻz davrining taniqli olimlaridan taʼlim olishi. Al-Qushayriy Nishopurda shofeʼiy-ashʼariy jamoasining yetakchisiga aylanishi. Nishopur Saljuqiylar qoʻliga oʻtishi (1038 y.) va shaharda hanafiylarning mavqei keskin oshishi. Al-Qushayriy hanafiy va shofeʼiylar oʻrtasidagi tortishuvlarga aralashib qolishi. Ashʼariylik taʼlimotini yoqlab maxsus asar ham yozishi, oqibatda hanafiylarni qoʻllab-quvvatlagan saljuqiy vazir Kunduriyning talabi bilan Qushayriy zindonga tushishi (1054 y.). Oz muddat ichida ozod boʻlishi va xalifa al-Qoimning taklifiga binoan (1056 y.) saroyda hadis ilmi mudarrisi sifatida Bagʻdodga ketishi. Mashhur Nizomulmulk vazirlik mansabiga tayinlanib, hanafiylar va shofeʼiylar oʻrtasidagi muvozanatni tiklashi. Al-Qushayriyning Nishopurga qaytishi va uning vafoti.

Al-Qushayriy shofeʼiy mazhabi nuqtai nazaridan ijod qilishi. Uning serqirra ijodida tasavvuf va tafsirga oid asarlarining ustuvorligi. “Latoif al-ishorot” tafsiri va “ar-Risola al-Qushayriyya” nomli tasavvuf ilmiga bagʻishlangan asari mumtoz manbalar qatoridan oʻrin olishi. “Risola” izchillik bilan yozilgan va apologetik maqsadlarni koʻzlagan asar. Muallif asl sufiylar va mutasavviflar oʻrtasini farqlashi. Al-Qushayriyning “Risola”da sunniy eʼtiqodga zid jihatlarni tasavvufdan emasligini koʻrsatishga urinishi. Asarning boʻlimlari: 1) Uch hijriy asrda yashab oʻtgan mashhur sufiylarning qisqacha biografiyasi: Ibrohim ibn Adhamdan Abu Abdulloh ar-Ruzbariygacha. 2) Sufiy terminologiya. Al-Qushayriy maqom va hol tushunchalari oʻrtasidagi farqni koʻrsatib berishi. Maqomlar jiddu-jahd sarflab qoʻlga kiritilishi. Hollar chaqmoq kabidir, degan fikr haqida. Hol uzoq davom etmasa, u faqatgina lavoih (koʻrinishlar)dir. Yetti manzil va oʻn hol haqidagi bahslar. 3) Tasavvuf

ilmining qirq besh asosiy tushunchasining sharhi. 4) Muridlarga tavsiyalar. Kitobda pir-murid munosabatlari, samo, valiylik, sufiy jamoa bo'lib yashashning tartib-qoidalari aks ettirilishi. Sufiy istilohlarning izohlanishi va ularni asoslash uchun asosan Iroq tasavvuf yo'nalishining ulamolaridan iqtibos keltirilishi: Junayd al-Bag'dodiy, Shibliy, at-Tustariy, as-Saqatiy va boshqalar. Al-Qushayriy tasavvufning sahiv yo'nalishiga urg'u berishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. As-Sulamiy Abu 'Abdurahmon. Tabaqot as-sufiyya / N.Shariba nashrga tayyorlagan. Qohira: Maktabat al-Xonaji, 1986. – 570 b.

2. Qushayriy Abdulkarim. Ar-Risala al-Qushayriyya. Qohira: Dor ash-sha'b, 1989. – 633 b.

3. Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning o'rni. – T.: Akademiya, 2005. – 84 b.

4. Muhammad Siddiq Rushdiy. Avliyolar sultoni, Turonlik valiyalar / Ostonaqulov I. nashrga tayyorlagan. – T.: Kamalak, 1995. – 171 b.

5. Kalobodiy. Kitob at-ta'arruf bi mazhab ahl at-tasavvuf / Mavloqulova M. tarj. – T.: G'afur G'ulom, 2002. – 142 b.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Asl matnlar bilan ishlashning ahamiyati. “Tabaqot as-sufiyya” va “ar-Risala al-Qushayriyya” asarlaridan tanlangan matnlar tarjimalari.

13-MAVZU: AL-HUVIRIYNING “KASHF AL-MAHJUB» VA AL-ANSORIYNING “TABAQOT” ASARLARI

Reja:

1. Fors tilidagi tasavvufga oid asarlar.
2. Al-Hujviriyning “Kashf al-mahjub» asarida sufiy maktablar tasnifi.
3. Al-Ansoriyning “Tabaqot” asarining o‘ziga xos jihatlari.

Ma’ruzaning asosiy mazmuni:

1.Fors tilidagi tasavvufga oid asarlar. Tasavvufga oid arab tilidagi asarlar bilan bir qatorda forsiy adabiyotlarning paydo bo‘lishi. Fors tilining Xuroson va Movarounnahrda tasavvuf tiliga aylanib borishi. Somoniylar davrida fors tilining rasmiy darajaga ko‘tarilishi. Fors tili va turkiy til munosabatlari.

2. Al-Hujviriyning “Kashf al-mahjub» asarida sufiy maktablar tasnifi. Al-Hujviriyning (vaf. 1073 y.) hayot yo‘li “Kashf al-mahjub”da aks etishi. “Kashf al-mahjub»da shariat va tasavvufning bir-biriga mutanosibligini isbotlashga harakat qilinishi. Asar sufiylarning asosiy g‘oya va yo‘nalishlariga qaratilgani. Muallif avval taniqli sufiylarning qarashlari, so‘ngra o‘z xulosalarini, ba‘zan asardagi fikrlarni tasdiqlashda o‘z hayotidan misollar ham berib o‘tishi. Fano, samo, jazba, shatahot mavzularida juda ehtiyotkorlik bilan fikr bildirishi. Birinchi bor tasavvufiy adabiyotda X–XI asr sufiylari turli maktablar vakillari sifatida ko‘rib chiqilishi. Asarda o‘sha davrning o‘nta “to‘g‘ri yo‘ldagi” va ikkita “adashgan” tasavvufiy maktablar haqidagi keltirilgan ma’lumotlar. Hanafiy mazhabi vakili al-Hujviriyni Abu Hanifani o‘z asarida sufiylar sifatida zikr etishi.

“Kashf al-mahjub” asarining tarkibiy tuzilishi. Birinchi – kirish qismi 14 bobdan tashkil topib, unda sufiylikdagi ixtiyoriy qashshoqlik va ruhiy poklik masalalari tahlil etilishi, 74 sufiy-shayxlar tarjimai hol keltirilishi, 12 ta sufiy maktabning ta’limotlarini tahlil qilib, qisqacha bayon qilishi. 10 ta sufiylik maktabini yoqlab, qolgan ikkitasini esa qat’iy qoralashi.

Ikkinchi qism, asosan, javoblardan iborat bo‘lib, “Kashf al-hijob” deb nomlangan 11 qismdan iborat. Unda falsafiy qoidalar, sufiylikdagi ta’limotlar va amaliyot, ularni shariat normalariga mos kelishi, sufiylar orasida qabul qilingan istilohlar aks etishi. Asardagi shaxsiy munosabat al-Hujviriyning asarini “ar-Risola al-Qushayriyya” va boshqa shu yo‘nalishdagi adabiyotlardan ajratib turishi. “Kashf al-mahjub” asarini yozishda muallif as-Sulamiy va al-Qushayriylarning asarlariga murojaat etishi.

3. Al-Ansoriyning “*Tabaqot*” asarining o‘ziga xos jihatlari. Ustozlari shofe’iylardan bo‘lishiga qaramay, hanbaliy mazhabi sufiylaridan Abdulloh al-Ansoriyning al-Bistomiyning eng muxlis izdoshi Xaraqoniy (vaf. 1033-34 y.) bilan aloqalari. Xaraqoniy kabi al-Ansoriy ham o‘z qarashlarini nazmda ifoda etishi. “Manozil as-soirin” asarida Allohga eltuvchi yuz manzilni (boshqa asarlardagi maqom va hol) yoritib berishi. “Ilal al-maqomot” asarida sufiy maqomlar va ulardagi illatli jihatlari ochib berilishi. Al-Ansoriyning fors tilidagi “Tabaqot” asariga as-Sulamiyning shu nomdagi asari va xonaqosidagi ma’ruzalari asos qilib olinishi. Asarda nazmga katta o‘rin ajratilgani: she’riy duolar, misralar. Asar Jomiyning “Nafahot” va u orqali Navoiyning “Nasoyim” asariga asos bo‘lishi. “Tabaqot”da al-Halloj haqida ijobiy fikrlar bildirilgan bo‘lsada, u ilohiy sirni oshkor etishda ayblanishi. Al-Ansoriy “Zamm al-kalom va ahlihi” asarida mutakallimlarni keskin tanqid qilishi. Al-Ansoriy kalomni bid’at, deb hisoblab, butun umri davomida unga qarshi turishi. Al-Ansoriy ratsional tafakkurga tayanadigan ilohiyot fanlariga qarshi

oʻzida shariat va haqiqat uygʻunligini mujassam etgan tasavvufni qoʻyishi. Al-Ansoriyga koʻra tasavvuf Qurʻon va sunnani chuqur idrok etishni anglatib, ularning davomi hisoblanishi. Abdulloh al-Ansoriyning eng koʻzga koʻringan izdoshi Yusuf al-Hamadoniy (vaf. 1140 y.) hisoblanishi. Shayxulislom unvonini olgan al-Ansoriy ona shahri – Hirotda (1089 y.) olamdan oʻtishi.

Mavzu boʻyicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar roʻyxati

1. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: Oʻqituvchi, 2005. – 399 b.
2. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 б.
3. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература: Избранные труды / Бертельс Е.Э., Отв. ред. А.Н.Болдырев, Сост. М.Н.О.Османов. – Москва: Наука, 1965. – 524 с.
4. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. – T.: Sharq, 2004. – 208 b.
5. Прозоров С.М. Классическое исламоведение (Введение в исламоведение): Программа спецкурса лекций для студентов. – СПб., 2009, – 96 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Al-Hujviriy asarlarida tasavvufiy gʻoyalar talqini.

14-MAVZU: ABU HOMID AL-G‘AZZOLIYNING TASAVVUF TARIXIDAGI O‘RNI

Reja:

1. Abu Homid al-G‘azzoliyning hayot yo‘li.
2. Olimning ilmiy merosi.
3. Al-G‘azzoliyning tasavvufiy qarashlari.

Ma‘ruzaning asosiy mazmuni:

1. Abu Homid al-G‘azzoliyning hayot yo‘li. Al-G‘azzoliy ash‘ariy mutakallim Juvayniyning shogirdi. Al-G‘azzoliyning saljuqiy vazir Nizomulmuluk bilan yaqin munosabat o‘rnatishi (1085 y.). Olimni Bag‘doddagi Nizomiya madrasasida shofe‘iy fiqhi bo‘yicha mudarris etib (1091 y.) tayinlanishi. Tushkunlik kayfiyatiga tushgan olim haj qilish bahonasida (1095 y.) Nizomiyadan ketishi. Yaratganni ratsional va harfiy bilishdan qoniqmay, undanda ko‘ra yaqinroq yo‘l izlashi. Darbadarlik, mushohada va mujohada bilan mashg‘ul bo‘lishi. Oradan o‘n bir yil o‘tib Nishopurdagi Nizomiya madrasasida (1106 y.) dars bera boshlashi. Hayotining so‘ngi yillarida yozgan “Munqiz min az-zolal” nomli avtobiografik asari. Hayotining oxirida Tusda tashkil etgan xonaqosida tasavvuf nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha dars berishi. Olimning (1111 y.) vafoti.

2. Olimning ilmiy merosi. Al-G‘azzoliy asarlari ko‘pqirrali va ziddiyatli jihatlari – uning turli saviyadagi o‘quvchilarni hisobga olgan holda auditoriyaga moslashtirib ijod qilgani yoki boshqa mualliflarning asarlari unga nisbat berilishi bilan bog‘liqligi. Al-G‘azzoliy ustoz Juvayniy yordamida falsafa bilan jiddiy shug‘ullanishi. “Maqosid al-falosifa” asarida qayd etilgan faylasuflarning asosiy qarashlari. “Tahofut al-falosifa” asarida musulmon faylasuflarni tanqid qilish orqali falsafadagi asosiy

masalalarning yigirmatasi bo'yicha falsafa sunniy islomga zid ekanini ko'rsatib berishi. Shulardan uch masala bo'yicha musulmon faylasuflarini islomdan chiqqan, deb baholashi. "Ihyo ulum ad-din" asari Abu Tolib al-Makkiyning "Qut al-qulub" asarining ma'naviy jihatdan davomi. Kitobning "sufiylik yo'lidan yurish bilan musulmon hayoti va bandaligi komil bo'ladi", degan asosiy g'oyasi. Har biri 10 bo'limdan iborat asarning 4 bobi: ibodat, odat, muhlikat, munjiyat. Aslida mustaqil asar hisoblangan "Kimyoi saodat"ni "Ihyo ulum ad-din"ning forsiy qisqartmasi, degan mazmundagi fikrlar.

"Al-Iqtisod fi-l-e'tiqod", "Iljom al-avomm an ilm al-kalom", "Kitob al-arbain", "Mishkot al-anvor", "Bidoyat al-hidoya" kabi asarlarda islom ilohiyoti, tasavvuf odobi, irfon, shariat va tariqat munosabatlari mavzulari muhokamasi.

3. Al-G'azzoliyning tasavvufiy qarashlari. Tasavvufga munosabatning iliqlashuvida al-G'azzoliyning o'rni. Al-G'azzoliyning faylasuflarni tanqid qilishi falsafa fanlari rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi. "Tahofut"ga qarshi Ibn Rushd (vaf. 1198 y.) "Tahofut at-Tahofut"ni yozishi. Al-G'azzoliy tasavvuf va shariat o'rtasini yaqinlashtirishga erishgan olim sifatida e'tirof etilishi. Tariqatlar shakllanishida al-G'azzoliyning asarlari ahamiyati.

Al-G'azzoliy "Ihyo ulum ad-din" asarining "Munjiyot" bobida tasavvuf bosqichlarining yoritilishi. Sulukning 9 maqomi. Har bir maqom insonni najotga yetaklovchi bosqich hisoblanishi: 1-tavba, 2-sabr, 3-shukr, 4-xavf, 5-rajo, 6-faqr, 7-zuhd, 8-tavakkul, 9-muhabbat. Avvalgi besh bosqich umumiy xarakterga ega bo'lib, barchaga to'g'ri kelsa, qolgan to'rttasi sulukka doir. Har bir maqom yana uch bosqichga bo'linishi. Shukr bosqichida avvaliga banda o'zini Alloh inson qilib yaratgani va ato etgan ne'matlari uchun shukrona keltirishi. Keyingi bosqichda banda Allohning marhamatiga fano holatiga erishtiradigan vosita sifatida qarab shukr keltirishi. Solik baxtsizlik va musibatlarni minnatdor qabul qilgan holda uning shukronasini keltirishi. Musibatlariga sabr qilish gunohlarga kafforat bo'lishi va alal oqibat solikni fano holatiga yaqinlashtirishi. Fano mavzusiga al-G'azzoliyning jiddiy e'tibor qaratishi. Al-G'azzoliy

fanoni Alloh bilan qo'shilish yoki Unda erib ketish degan fikrni rad etishi. Nosut hech qachon lohut bo'la olmaydi, deb bu mavzuga ehtiyotkorona yondashishi. Fano holatida ruh atrofdagi borliqni sezish qobiliyatini yo'qotib, ilohiy nurni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishi va uni ko'zgu kabi qayta aks ettira oladigan holatga kelishi. Ko'zgu o'zi aks ettirayotgan narsaga aylanib qoldi, deyish mantiqsiz ekani. 6-faqr maqomining 3 bosqichi: avvaliga solik o'zidagi bor mulkiga qanoat qiladi; keyin esa boylikka nisbatan o'zida nafrat uyg'otadi; so'nggi bosqichda o'zida yo'qlikka va boylikka befarqlik hissini tarbiyalaydi. 7-zuhd maqomida solik o'zida dunyo matohlariga nafrat hissini uyg'otishi hamda yuqori ma'naviy bosqichlarga intilishi. Bunda u tavba maqomidagi harom – ta'qiqlangan ishlardan o'zini saqlashi emas, balki undan yuqori bosqich – ayrim muboh ishlardan ham o'zini tiyishi lozim bo'lishi. 8-tavakkul maqomida solik o'zini to'liq Alloh ixtiyoriga topshirishi. Xavf-xatar, bemorlik holatlarida inson o'zi uchun harakat qilishi kerakligi. 9-muhabbat maqomi – al-G'azzoliyga ko'ra sulukdagi eng oliy bosqich. Muhabbat – shukronalik muhabbati va ilohiy jamol ishqida paydo bo'lgan muhabbatlarga ajratilishi.

Al-G'azzoliy asarlaridagi tanqidi natijasi o'laroq, musulmon Sharqida taniqli faylasuflar uchramasligi. Ammo bu holatni faqatgina al-G'azzoliyning tanqidi bilan bog'liq emasligi. Ibn Rushddan (vaf. 1198 y.) keyin musulmon diyorlarida falsafa ilmining tanazzuliga sabab bo'lgan boshqa omillar.

Al-G'azzoliy va as-Suhravardiyga ko'ra, Aflotun, Arastu, Suqrot, Forobiy va Ibn Sino kabi faylasuflarning ilohiyot haqidagi fikrlari xato va asossiz ekani. Faylasuflar uch nuqtai nazardan kufrga yo'l qo'yishlari: 1. Tangrini faqat "kulliyot"ni biluvchi deb bilib, "juz'iyot", ya'ni ishlarning barcha tafsiloti va detallari bilan bilishiga ishonmasligi. 2. Jismoniy qaytadan tirilishga ishonmasligi. 3. Olamning qadim va azaliyligiga ishonishlari, holbuki olam "hodis", ya'ni yaralgan bo'lib, yaratuvchi uni muayyan vaqtda yaratgan.

Al-Gʻazzoliy ijodining shariat va tasavvufni “murosaga keltirish”dagi xizmatiga baho berish murakkabligi. Al-Gʻazzoliyning umume’tirof etilgan mavqei tufayli tasavvufga e’tibor ortishi.

**Mavzu boʻyicha tavsiya etiladigan
manba va adabiyotlar roʻyxati:**

1. Abu Homid Gʻazzoliy. Kimyoi saodat. – T.: Movarounnahr, 1998.
2. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М: Наука, 1965. – 524 с.
3. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
4. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм : Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
5. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
6. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: Oʻqituvchi, 2005. – 399 b.
7. Петрушевский И. Ислам в Иране в VII–XV веках. Ленинград: Изд-во ЛУ, 1966. – 400 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Abu Homid al-Gʻazzoliyning ilmiy merosi.

15-MAVZU: IBN AL-ARABIY VA “VAHDAT AL-VUJUD” FALSAFASI

Reja:

1. Ibn al-Arabiyning hayot yo'li.
2. Ibn al-Arabiyning ta'limoti.
3. Vahdat al-vujud ta'limotining tanqidi.
4. Vahdat al-vujud tarafdorlari o'z qarashlarini himoya qilishlari.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Ibn al-Arabiyning hayot yo'li. Muhammad ibn Ali ibn Muhammad ibn al-Arabi (1165–1240 yy.) Andalusiyaning Mursiya shahrida tavallud topishi. Yoshligida u diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallashi. O'z asarlarida qayd etganidek, osmondan unga kelgan nido tufayli dunyoviy mashg'ulotlardan voz kechib, o'zini butunlay sulukka bag'ishlashi. O'ziga ma'naviy yo'l boshchi izlab Mag'ribga borishi. Uning haj safariga borishi (1201 y.)ga qadar yozgan 60ga yaqin asari unga deyarli shuhrat keltirmagani. Uning Mashriqqa borishi va u yerda uzoq qolib ketishi sabablari. U o'z iste'dodini to'liq namoyon etib, mashhur va hozirga qadar munozarali hisoblanadigan asarlarini ta'lif etishi. Bu yerda u mashhur mutakallim va sufiylar bilan hamsuhbat bo'lib, o'z bilimini oshirib borishi. Hijoz, Falastin, Suriya, Iroq va Anatoliyada uzoq vaqt istiqomat qilishi. Al-Arabiyning Ko'nyadagi Sadriddin Ko'nyaviy ismli mashhur faylasuf-sufiy shogirdi. Ustozi ta'limotini yoyishda S.Ko'nyaviyning qo'shgan hissasi. Ibn al-Arabiya ayyubiylar, saljuqiylar homiylik qilishi. Ibn al-Arabiyning ayyubiylar himoyasidagi faoliyati (1226–1240 yy.). Shariat peshvolari e'tiroziga sabab bo'lgan ba'zi qarashlari kichik jamoalarda tanqid qilinsada, ammo uning hayotlik paytida ochiqdan-ochiq qarshi chiqishga jur'at qilinmagani. Damashqda Ibn al-Arabi o'zining mashhur “Fusus al-hikam” asarini yaratishi.

Xuddi shu davrda u ikkinchi mashhur kitobi – 1201 yil Makka ziyorati vaqtida boshlagan “al-Futuhot al-Makkiyya” asarini yozib tugatishi. Bu asarni muallifning ma’naviy biografiyasi va tasavvuf, kalom va fiqhning qomusi, deb baholanishi. “Al-Futuhot al-Makkiyya”da an’anaviy islomiy fanlar ezoterik jihatdan qayta ko’rib chiqilishi. Ibn al-Arabiy o’z yaqinlari va shogirdlari qurshovida vafot etishi. Uning Damashqdagi XVI asrda sulton Salim I buyrug’iga binoan bunyod etilgan hashamatli maqbarasi hozirda ham ziyoratchilarni o’ziga jalb etishi.

2. Ibn al-Arabiyning ta’limoti. Ibn al-Arabiyning ta’limoti islom olamida, ayniqsa, turkiy va forsiy tillarda so’zlashuvchi mintaqalarda tezlik bilan tarqala borishi. XIII asrda yuz bergan siyosiy jarayonlar – mo’g’ullarning Osiyo va Yevropadagi asrlar davomida shakllangan madaniyatni vayron qilishi oqibatida, ommaviy tushkunlik kayfiyati yuzaga kelishi. Bu holat tasavvufga ham ta’sir ko’rsatib, vahdat al-vujud ta’limotining tarqalishi uchun qulay zamin yaratishi. Ibn al-Arabiy tomonidan tizimga keltirilgan vahdat al-vujud ta’limoti badiiy ijodga ham katta ta’sir ko’rsatishi. Ijodkorlar ummon, to’lqin, tomchi suv ustidagi ko’pik timsollari orqali vahdat al-vujudga oid qarashlarini namoyon etishi: bularning bari har-xil vaqt va sharoitda turlicha ko’rinsada, ammo mohiyati bir – suv. Rumi va Nifforiy o’z asarlarida ummon, dengiz timsollaridan vahdat al-vujud ta’limotini tasvirlash uchun keng istifoda etishi. Bu ta’limot yo’lini tutmagan shoirlar ham mazkur timsollardan samarali foydalanishi. Dengizda yo’q bo’lib ketmay, qimmatbaho marvaridga aylangan suv tomchisi timsoli yaralishi. Sharq folkloriga ko’ra, marvaridlar – chig’anoq ichiga yig’ilgan bahor yomg’iri tomchilari ekani. Tomchi marvaridga aylanishi uchun dengizdan bulut orqali yana o’z uyiga safar qilib, qimmatbaho ziynatga aylanib qaytib kelishi. Ammo u endi dengizdan farqli bo’lsada, undan ayri yashay olmasligi haqida.

«Vahdat al-vujud» – yagona vujud birligi. Ya’ni haqiqiy Borliq – bu Mutlaq zot – Parvardigorning yakkayu yagona vujudidan iborat, boshqa mavjudliklar shu Vujudning ijodi, in’ikosidir. Tajalliy – barcha harakat va faoliyat, tiriklik va hayot ijodkori Parvardigorning o’zi yaratgan olamda doimo hozir bo’lishidir.

Vahdat al-vujud ta'limotiga ko'ra, haqiqiy mavjudlik – bu Allohning mavjudligi va Undan boshqa narsalarning mavjudligi Allohning mavjudligiga nisbatan xuddi yo'qdek ekani. Chunki, ularning mavjudligi Allohning mavjudligiga bog'liq. Bu dunyodagi barcha maxluqotlarni yo'qdan bor qilgan Allohdir. Shuning uchun ham mavjudotlarning mohiyati soyaning mohiyatiga o'xshaydi: jism bo'lmasa, soya ham bo'lmaydi. Avvalida faqat Alloh bo'lgan, boshqa hech narsa bo'lmagan, ularni keyin Alloh yaratgan. Bu narsalar mustaqil holatda mavjud emas, ular faqatgina Ilohiy borliq ummonining to'liqlaridir.

Vahdat al-vujud ta'limoti tarafdorlari Qur'onda o'z g'oyalarini tasdiqlovchi 28 oyatni ko'rsatishlari (Anfol-17; Fath-10; Qasas-88; Baqara-115; Hadid-3 va boshqa). Ibn al-Arabiy bu ta'limotini asoslashi: «Boshida faqat Alloh bor edi. U bu dunyoni o'z ism va sifatlarini namoyon qilish uchun yaratdi».

Ibn al-Arabiynig ta'limoti Sadridдин Ko'nyaviy (vaf. 1274 y.), Ibn al-Foriz (vaf. 1234 y.), Jaloliddin Rumiy (vaf. 1273 y.) kabi mashhur sufiy-ijodkorlar tufayli keng tarqalishi.

3. Vahdat al-vujud ta'limotining tanqidi. Vahdat al-vujud hozirga qadar juda ko'p munozaralarni keltirib chiqargan ta'limot hisoblanishi. "Bu ta'limot islom olamida materialistik dunyoqarash taraqqiy etishiga olib keldi, buzuq e'tiqod shakllanishiga sabab bo'ldi, Xoliq va maxluq o'rtasini birlashtirib yubordi" va boshqa ta'nalarga uchrashi. Vahdat al-vujud falsafasiga Ibn Taymiya (vaf. 1328 y.), Ali al-Qoriy (vaf. 1605 y.), Ibn Xaldun (vaf. 1405 y.), Alouddavla as-Simnoniy (vaf. 1336 y.), Ahmad as-Sirhindiy (vaf. 1624 y.) va boshqa ko'zga ko'ringan olimlar qarshi chiqishi hamda Ibn al-Arabiy g'arb faylasufi – Spinozaning izdoshi, deb tanqid ostiga olinishi.

4. Vahdat al-vujud tarafdorlari o'z qarashlarini himoya qilishlari. Ba'zi tadqiqotchilar vahdat al-vujud ta'limotini panteizm nazariyasi bilan tenglashtirishi. Birlamchi qarashda vahdat al-vujud va panteizm o'rtasida o'xshashlik bordek tuyulsada, ammo mohiyatan olganda orada farq bor: panteizm hamma narsa Xudo, ya'ni tabiat va Xudo bir vujud deb ta'lim bersa, vahdat al-vujudda Xudo tabiatga qorishib ketmaydi, balki u Haqiqiy borliq sifatida

tabiatdan tashqarida mavjud va tabiat uning ijodi, akslanishi (shabah), soyasi deb uqtirilishi. Ulamolar tanqidiga uchragan ta'limot – panteizm, ya'ni "vahdat al-mavjud" tushunchasi ekani. Vahdat al-vujud – "La ilaha illalloh" g'oyasi ostida, vahdat al-mavjud esa – "La mavjuda illalloh" g'oyasi ostida shakllanib, ikkovi o'rtasida katta tafovut mavjudligi. Vahdat al-vujudga ko'ra, borliq nisbiy tushuncha, haqiqiy bor bo'lish faqat Allohga xos ekani ta'kidlanishi. Vahdat al-mavjud esa hamma narsani Alloh deb bilish va unga sherik nisbat qilish. Vahdat al-vujudni tanqid qiladiganlar, aksar holda vahdat al-mavjudni tanqid qilayotgan bo'lib chiqishi. Vahdat al-vujud falsafasida «Hamma narsa Undan» tushunchasi bilan birga «Hamma narsa Udir» tushunchasi ham ba'zan qo'llanilsada, «Tabiat – Xudodir» degan g'oyaga tenglashtirilmasligi. «Hamma narsa Udir» degan qarashda Xudoning zoti sifatlarida mujassam, degan fikr ifodalanishi.

Vahdat al-vujud ta'limoti yuzasidan bahs-munozaralar ko'payib borishi barobarida ko'plab sufiylar vahdat ash-shuhud ta'limotini yoqlab chiqishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Ибн ал-Арабий. Мекканские откровения / А. Кныш араб тилидан тарж. – Санкт-Петербург: Петербургское востоковедение, 1995. – 240 с.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм : Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
5. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 с.
6. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Ibn al-Arabiyning «komil inson» nazariyasi.

16-MAVZU: SHARQ MUMTOZ ADABIYOTIDA TASAVVUF G'UYALARI.

Reja:

1. Sharq mumtoz adabiyotiga tasavvuf g'oyalarining kirib kelishi.
2. She'riyat va tasavvuf.
3. Badiiy adabiyotda ramziy timsollar va tasavvuf g'oyalarining talqini.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Sharq mumtoz adabiyotiga tasavvuf g'oyalarining kirib kelishi. Tasavvuf arab, fors va turkiy tillardagi adabiyot orqali Sharqda keng tarqalishi. VIII–XI asrlarda Robiya al-Adaviya, Mansur al-Halloj singari sufiylar ijodi bilan boshlangan sufiyona she'rlar X–XII asrga kelib ulkan bir adabiyotga aylanishi. O'ziga xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar shakllanishi. Tasavvuf bilan adabiyotning yaqinlashishi sababi – sufiylar ham o'z ichki holatlari va hissiyotlarini namoyon etishda she'riy uslublaridan hamda shoirilar qo'llaydigan ramz va timsollardan unumli foydalanishi. Ramz va timsollar bilan nazm orqali nasr ifodalashi qiyin bo'lgan tasavvufdagi nozik hislarni, yashirin holatlarni ifoda etish qulayligi. Nasr mantiqiy yakunlanganlikni talab etsa, nazmda his-tuyg'ular birlamchi bo'lishi. Nazm matni turli talqinlar qilish imkoniyatini o'zida mujassam etishi tufayli, tinglovchilar bir iborani turlicha qabul qilishi. Tasavvuf shayxlari ham muridlarga ta'sir etish uchun masnaviy, ruboiy va g'azallardan unumli foydalanishi. Tasavvuf adabiyotdan o'zini ifoda etish vositasini topgan bo'lsa, adabiyot tasavvuf bilan yaqinlashishdan o'zi uchun bitmas-tuganmas mavzular, ramz va timsollar maxzanini kashf etishi.

2. She'riyat va tasavvuf. Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi yaqinlik sufiylar va ijodkorlarning ruhan yaqinligida ekani. Sufiylar

iste'dodi – «jazba» – bu ishq, ilohiy junun. Kishi qalbida Ilohni bilish muhabbati, Unga yetishish zavqi shu qadar kuchli bo'lishi, u o'zini to'xtatib turolmasligi. Hamma narsani unutib, Mahbuba jamoliga talpinishi. Bu – ulug' va mukarram bir dard – jazba tushunchasi darveshlik bilan shoirlilikni, keng ma'noda esa, tasavvuf bilan ijod xususiyatlarini bir-biriga yaqinlashtirishi. Darveshlik iste'dodi, g'ayritabiiy xislatga molik bo'lish shoirlarga ham xos ekani.

Sufiyona zavqu surur, vajdu samo' ijod ahlining ilhomli damlari, yaratish zavqi qaynab toshgan davriga o'xshab ketishi. Tariqatda ijodga moyil, qalbida ilohiy ishq jo'sh urganlar ko'proq muvaffaqiyat qozonishi. Shoirlilik iste'dodiga ega soliklarda tasavvuf g'oyalari she'r ko'rinishida namoyon bo'lishi. Jaloliddin Rumiylar tariqat sulukini bekamu ko'st bajarsa-da, lekin yoshi qirqqa yaqinlashganda Shams Tabriziy bilan uchrashib, suhbat qurmagunga qadar she'r yozmagani. Shams Tabriziy ta'sirida Rumiylarning qalb ko'zi ochilib, buyuk shoir va buyuk sufiyga aylanishi. Yassaviy, Attor, Mashrab ham jazba tekkan, ya'ni ilohiy «devonalik»dan nasibador odamlar bo'lgani. Ularning g'ayriodatiy xulq-atvori atrofdagilarni hayratga solishi (Mashrabning «devona» laqabini olgani shundan). Tasavvufni sof nazariyotchi olim va shayxlardan ko'ra, shoirlar chuqurroq idrok etishi. Ibn al-Arabiy yaxshi shoir bo'lgani, u «Fusus al-hikam» («Hikmat gavharlari») va «al-Futuhot al-Makkiyya» («Makka ochilishlari») nomli mashhur asarlarining ko'p qismini she'r bilan bitgani, o'z nazariy fikrlarini falsafiy istilohlar orqali tushuntirishga qiynalib qolganda asosiy muddaoni she'riy satrlar yordamida izhor etgani. Robiya al-Adaviya, Mansur al-Halloj, Abdulloh al-Ansoriy, Abu Said Abul Xayr, Pahlavon Mahmud ham nazmdan keng foydalanganliklari. Xayyom, Rumiylar, Jomiy, Bedil, Iqbol tasavvufning juda ko'p nozik nazariy masalalarini jahonshumul she'riy asarlar vositasida bayon etgani. Tasavvuf g'oyalarini aqliy-nazariy mushohadadan ko'ra, hissiy-obrazli tafakkur bilan tushuntirish oson ekani.

Tasavvuf ta'sirida san'atning rivojlanishi. Sufiyona majlislar bag'rida ko'plab iste'dodli mutrib va mug'anniylar tarbiyalanishi, yangi-yangi kuy-ohanglar yaratilishi. Tasavvuf maqomotining

holatlarini ifodalaydigan o‘zbek va tojik xalqlarining mumtoz shashmaqomi ham shu zaminda shakllangani.

3. Badiiy adabiyotda ramziy timsollar va tasavvuf g‘oyalarining talqini. Sufiy shoirlar asarlarida uchraydigan ishq, may, mayxona, xarobot, soqiy, sog‘ar, qadah, xum, mahbub singari timsollar, ramziy ma’noli so‘zlar o‘ziga xos mazmun kasb etishi. Masalan, may – ilohiy ishqning ramziy ifodasi, xum, xumxona, jom va mayda – orifning qalbi, xarobot – qanoat, faqr yo‘liga kirib, hayvoniy hirslardan, yomon xulq-odatlardan ozod bo‘lish, xokisorlik, soqiy – pir, Jonona – Parvardigor va boshqalar. Ramz va timsollar tasavvufdagi ommaga oshkor qilinmaydigan jihatlarni ifoda etishda qo‘llanilishi.

Mavzu bo‘yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Komilov N. Tasavvuf. T.: O‘zbekiston, 2009. – 448 b.
2. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
3. Attor. Tazkiratul avliyo. - T.: Movarounnahr, 1997.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М: Наука, 1965. – 524 с.
6. Гольдцигер И. Лекции об исламе / Перевод с нем. А.Н. Черновой. Брокгауз- Ефрон, 1912. – 272 с.
7. Прозоров С.М. Классическое исламоведение (Введение в исламоведение): Программа спецкурса лекций для студентов. – СПб., 2009, – 96 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Tasavvufiy badiiy ijod namunalari ilmiy manba sifatida. Boborahim Mashrab ijodida timsollar.

17-MAVZU. RUMIY IJODIDA BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARI

Reja:

1. Jaloliddin Rumiyning hayot yo'li.
2. Rumiylarning ijodining o'ziga xos jihatlari.
3. Rumiylarning ijodida bag'rikenglik g'oyalari.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Jaloliddin Rumiyning hayot yo'li. Jaloliddin Rumiylarning Muhammad ibn Bahouddin Muhammad al-Balxiylarning (1207–1273) shoir, mutafakkir, mavlaviylar (Mavlaviylar) tariqatining shayxi. Jaloliddin Rumiylarning hozirgi Afg'onistonning Balx shahrida, Sulton al-ulamo laqabini olgan shayx Muhammad Bahouddin Valad xonadonida dunyoga kelishi. Otasi Bahouddin Valad sufiylarning va taniqli fiqh olimi bo'lgani uchun sulton Muhammad Xorazmshoh (1199–1220) uni saroyga taklif etishi. Bahouddin Valad sultonning taklifini rad etib, maktabdorlik va ilmiy-ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lishi. Xurosonga mo'g'ullar bosqini arafasida Rumiyning oilasi Balxdan Onado'liga ko'chib o'tishi. Bahouddin Valad Ko'nyaga (1228 y.) kelib joylashib, shu yerdagi madrasaga rahbarlik qilishi. Keyinchalik Jaloliddin Rumiylarning otasining o'rniga o'tirib, madrasani boshqarishi. Rumiylarning tariqatga kirib, shoir Said Burhoniddinga shogird tushishi. Qalandar sufiylarning Shamsiddin Muhammad Tabriziylarning bilan do'stlashib (1244 y.), uni o'z piri deb e'lon qilishi. Tabriziylarning uch yil Rumiylarning sufiylarning ta'limotini o'rgatishi. Tabriziylarning ta'sirida Rumiylarning hissiylarning bilim olishga ahamiyat qaratishi. Rumiyning muridlari tomonidan Tabriziyning o'ldirilishi. Rumiylarning fojeadan qattiq ta'sirlanib, pirlarning ismi sharifini taxallus qilib, g'azallar yoza boshlashi. Rumiylarning Salohiddin Zarko'bni o'z xalifasi etib tayinlashi. Zarko'bning vafotidan keyin (1258 y.)

uning oʻrnini Husomiddin Hasan egallashi. Rumiylar unga mashhur “Masnaviyi ma’naviy” asarini bagʻishlashi. Rumiylar uchun Salohiddin va Husomiddin Chalabiylar Shams Tabriziy siymosining aksi. Rumiylar asos solgan maktabning mavlaviya tariqatiga aylanishida Rumiylarning oʻgʻli Sulton Valadning oʻrni. Mavlaviya tariqatining oʻziga xos jihatlari, samo zikri.

2. Rumiylar ijodining oʻziga xos jihatlari. Asarlar hajmi: “Masnaviyi ma’naviy” (yigirma olti ming misra), “Devoni kabir” (qirq toʻrt ming yetti yuz misra), toʻrt ming misraga yaqin falsafiy toʻrtlik va ruboiylar. Rumiylar oʻz asarlarida koʻplab pand-nasihati, zarbulmasal, mashhur afsonalardan foydalanishi. Rumiylar shoh asari “Masnaviyi ma’naviy” – didaktik mazmundagi sheʼrlar toʻplami. “Masnaviy” – Qurʼonning sharhi. “Masnaviy” oldindan tayyorlangan qoliqlar asosida yaratilmagan boʻlsada, quyidagi qurilish sxemasi koʻzga tashlanishi: tezis (sufiy postulat) – uni tasdiqlovchi oyat yoki hadis – oyat yoki hadisning sharhli tarjimai masal, pandomuz hikoyat – nasihat mazmunidagi xulosa.

“Masnaviy” asari qamish nayning shikoyatidan boshlanishi. Asarning boshida nayning botiniy olami, nolasi, sir-asroridan koʻplab bexabar ekani taʼkidlanishi, bexabarlikning koʻrinishlari, oqibatlari tamsil, hikoyalar sharhi bilan ochib berilishi. Nay – ruhi ilohiydan ajralgan va oʻsha asliga qarab shiddat bilan intilayotgan oshiq orif sifatida tasvirlanishi.

“Masnaviy”dan parcha:

*Bishnav az nay chun hikoyat mekunad,
Az judoyiho shikoyat mekunad.*

Maʼnosi:

*Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay,
Ayriqlardan shikoyat aylagay.*

Sharhi:

“Nay”dan muddao Rumiylar koʻzlagan maqsad orif martabasiga sazovor boʻlgan komil inson ekani. Baytning ikkinchi: “Ayriqlardan shikoyat aylagay” misrasining mazmuni: orif inson ruhoniylar

dunyodan (ya'ni asl vatanidan, uning mangu va barqaror ruhi hali bu foniy olamga kelmagan chog'dagi makonidan) judo bo'lgandan so'ng, qiyinchiliklar zaminiga tushgandan achchiq shikoyat qiladi. Bu shikoyat – norozilik, mahzunlikning birdan-bir sababi asl olamidan ayrilishdir. “Nay” – komil inson bu maqomda o'z dardi yoxud o'tkinchi dunyo dardi uchun fig'on chekayotgani yo'q. “Masnaviy”ning ilk bayti bo'lgan ushbu satrlarda arabcha “sam”ga doir “tingla” amri vositasida nay sadosiga diqqatni qaratishi. Bu bilan insonning eshitish a'zosi uning boshqa a'zolariga nisbatan baland maqomda ekaniga ishora qilinishi. Rumiylar har bir sufiy diniy ko'rsatmalarga rioya qilishi shart, zero u Mahbubga tortiq deb, hisoblashi. Rumiylar shariat ulamolari e'tiroziga sabab bo'lgan samo, hadraga katta e'tibor qaratishi. Nasrda bitilgan “Fiyhi ma fiyhi” asarida uning shogirdlari bilan majlislaridagi suhbatlari izdoshlari tomonidan jamlanishi. “Fiyhi ma fiyhi” nomi Ibn al-Arabiy qasidasidan o'zlashtirilishi. Asar “Masnaviy”ga sharh ham hisoblanishi.

3. Rumiylar ijodida bag'rikenglik g'oyalari. Rumiylar dinlarni birlashtirish g'oyasiga qarshi turishi. “Ichindagi ichindadir” kitobida u yozadi: “Siz qanday qilib dinni bir qilasiz? Bu faqat qiyomatda mumkin. Bu yer dunyodir va shuning uchun ham dinning bir bo'lishi mumkin emas. Chunki bu yerda ularning turli-tuman istagi va tilagi bordir. Din dunyoda birlasholmaydi, faqat qiyomatda bir bo'ladi. Qiyomatda ularning hammasi birlashadi, bir quloq, bir til holiga keladi».

Rumiylar ijodida dinlarning mazhablar, ta'limotlar, qarashlarning turli-tuman bo'lishi qonuniyat, tabiiy hol sifatida qaralishi. Rumiylar va uning izdoshlari, Ibn al-Arabiy, Jomiy, Mashrab kabi boshqa sufiylar dinlar va mazhablardan yuqori turib, mazhablar o'rtasidagi bahs-tortishuvlarni ma'nosiz va behuda deb qarashlari. Rumiylarning “Men 73 mazhab bilan birgaman”, degani. Rumiylar maqbarasidagi yozuvlar:

Yana kel, yana...

Kim bo'lsang – o'sha bo'l,

Xoh kofir, xoh majusiy, xohi butparast.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Jaloliddin Rumi. Masnaviy hikoyalariga sharhlar. Naynoma / Masnaviy hikmatlari. Nashrga tayyorlovchi A.Tilavov. – T.: Muharrir, 2011. – 404 b.
2. Komilov N. Tasavvuf. – T.: O'zbekiston, 2009. – 448 b.
3. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Кныш А. Мусульманский мистицизм : Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
6. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O'qituvchi, 2005. – 399 b.
7. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия: Сочинение. М.: Издательство восточной литературы, 1963. Т. I. – 759 с.
8. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy qarashlarida boshqa din vakillariga munosabat.

18-MAVZU. JOMIY VA NAVOIY IJODIDA TASAVVUF

Reja:

1. Jomiy ijodida tasavvufning o'рни.
2. Navoiy va tasavvuf.
3. Navoiy va naqshbandiya tariqati.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Jomiy ijodida tasavvufning o'рни. Abdurahmon Jomiy (1414–1492) yoshligida naqshbandiy shayx Sa'duddin Muhammad Qoshg'ariy qo'lida saboq olishi. Jomiy Xoja Ubaydulloh Ahror bilan do'stona munosabatlar o'rnatishi. Husayn Boyqaroning saroyida faoliyat yuritishi. Fors va arab tilidagi ijod namunalarida masnaviy, pand-nasihati va rivoyatlar o'rin olishi. Jomiyning «Nafahot al-uns min hazarot al-quds» kitobida XV asrgacha yashab o'tgan 608 ta sufiyning nomi tilga olinishi. Navoiy bu ro'yxatni turkiy sufiylar bilan to'ldirib «Nasoyim al-muhabbat»da avliyolar sonini 770 taga yetkazishi. «Nasoyim» asari «Nafahot»dan ko'p jihatdan farqlangani uchun, mustaqil asar sifatida namoyon bo'lishi: 36 hind mashoyixi, F. Attorning "Tazkira"sidan 19 avliyo, 100 dan ortiq turkiy mashoyixlar, Jomiyning o'zi ham avliyolar sirasida vasf etilishi. «Nafahot» Abu Hoshim as-Sufiy bayoni bilan, «Nasoyim» Uveys Qaraniy vasfi bilan boshlanishi.

Jomiy ijodiga Ibn al-Arabiy va uning izdoshlarining ta'siri "Risola fi-l-vujud" asarida aks etishi. Jomiy vahdat al-vujud ta'limotining naqshbandiyadagi ta'siri oshishiga xizmat qilishi.

Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy umrining oxirigacha ustoz-shogird bo'lishi. Jomiy o'rganmasdan Navoiy o'rganmasdan Jomiy anglash mumkin emasligi. Birinchi jomiyshunos Alisher Navoiy Jomiyga bag'ishlab «Xamsat al-

mutahayyirin» asarini yozishi, «Mahbub al-qulub»ning «Nazm gulistonining xushnagʻma qushlari zikrida» deb nomlangan 16-faslida Ajam shoirlarini toʻrt guruhga boʻlib, Jomiyni uch guruhga mansubligini taʼkidlab oʻtishi.

Jomiyni ham birinchi navoiyshunos olim sifatida «Bahoriston» va boshqa asarlarida Navoiy ijodiga yuqori baho berib, uning «turkiy til, turkiy adabiyot uchun barcha intilishlarini quvvatlashi. Jomiydan 100 ga yaqin falsafa, tasavvuf, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sanʼat sohalariga hamda nazm va nasrning turli janrlariga oid ulkan va rang-barang adabiy hamda ilmiy meros qolgani. Navoiy «Xamsat al-mutahayyirin»da uning 38 asarini sanab koʻrsatishi. «Lujjat al-asror», «Ashiʼat al-lamaot» diniy-falsafiy qasidasini Ibn Sinoga bagʻishlashi. 7 dostonidan iborat «Haft avrang»dagi «Silsilat az-zahab», «Tuhfat al-ahror», «Subhat al-abror» dostonlarida yuksak xulq-atvor mezonlarini targʻib qilishi, «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Solomon va Absol» dostonlari ishqiy mavzuda, «Xiradnomai Iskandariy» dostoni Nizomiyning «Iskandarnoma»siga taqlidan yozilishi. XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida Muhammad Rizo Ogahiy Jomiyning «Yusuf va Zulayho»sini oʻzbek tiliga tarjima qilishi. Jomiy «Nafahot al-uns» asari bilan tasavvuf tarixini oʻrganishga katta hissa qoʻshishi. Unda 608 ta mutasavvif hayoti va faoliyati haqida maʼlumot berilgan boʻlib, ulardan 34 nafari ayollardir. «Kofiya sharhi risolasi», «Sharhi Mullo» (yoki «Mullo Jomiy») Markaziy Osiyo va Idil (Volga) boʻyi tatarlari madrasalarida arab tili va grammatikasidan darslik sifatida oʻqitilishi. Jomiyning naqshbandiya tariqatiga kirishi. Naqshbandiya tariqatining Xurosondagi ulugʻ shayxi, Jomiyning piri Saʼdiddin Koshgʻariy buni «Haq subhonahu va taolo biz oshuftahol faqirlarga bu sohibkamol yigitning suhbatiga yetish sharafini inoyat ayladi», deb eʼtirof etishi. Jomiy shoh asarlarini tariqatga kirgandan keyin (1453 y.) yozishi. Jomiy Shayx Saʼdiddin Koshgʻariy vafotidan soʻng naqshbandiyaning oʻsha davrdagi eng buyuk piri murshidi Xoja Ahror Valiyga irodlat qoʻlini berishi. Movarounnahrlik naqshbandiylar xurosonlik naqshbandiylarga ustozlik va rahnamolik vazifasini oʻtashi. Xoja Ahror rahnamoligidagi tariqat ahli Samarqandda

naqshbandiyaning qudratli markazini vujudga keltirishi. Alisher Navoiyning Jomiyga irodat qo'lini berishi (1476 y.) va naqshbandiylikni qabul qilishi. Jomiy ijodida naqshbandiya va vahdat al-vujud ta'limotlari uyg'unligi. Jomiy tasavvufiy-irfoniy asarlari bilan siyosiy-ijtimoiy, amaliy-mazhabiy tus olgan tariqatga falsafiy-irfoniy ruh va ilmiy-nazariy quvvat bag'ishlashi – naqshbandiy pirning tasavvuf va irfon falsafasi tarixidagi eng buyuk xizmati ekani.

2. Navoiy va tasavvuf. Navoiyda insonning Iloh tomon ko'tarilishi (uruj) asosiy g'oya ekani. «Xamsa» dostonlari, «Lison at-tayr» ham urujni tasvirlovchi asarlar.

Jomiy va Navoiy ijodida dunyo go'zalligi ilohiy husnu jamolning davomi va moddiy ifodasi sifatida qaralishi. Ularning asarlarida sof diniy g'oyalarni yoxud sof dunyoviy g'oyalarni qidirish, asarlarini bir-biriga zid qo'yish noto'g'ri ekani. Navoiy asarlari ko'p ma'noli, har bir ifoda yetti qavat parda ichiga yashiringani. Mahbub deganda Xudoni, Payg'ambari, Pirni va sevgan kishisini anglash, soqiy deganda ham ayni shu to'rt tushunchani e'tiborga olish, lab deganda pirning so'zini, ilohiy fayzni, qosh deganda ilohiy olam bilan moddiy olam chegarasini, bel deganda komil inson xayolini, ingichka bel deganda komil inson xayolining nozikligini, ko'z deganda komil insonning o'zini nazarda tutish kabi timsollarni anglamay, sufiyona she'rni anglash mumkin emasligi. Navoiyning asarlarini sufiylar o'z maqomida, oddiy kitobxonlar o'zicha anglashi.

Navoiyning tasavvuf falsafasi va axloqi. Naqshbandiya sulukining asosiy printsiplari va yo'llari haqidagi mulohaza va xulosalari qit'a, g'azal singari kichik janrlarda ochiq qayd etilishi. Dostonlar tarkibida muayyan g'oyaviy niyat bilan bog'liq holda, badiiy kontekst doirasida zuhur etishi.

Dostonlarda tasavvuf, xususan, naqshbandiya tariqatiga munosabati ochiq e'tirof sifatida ko'zga tashlanishi. Shoir dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan ayrim ijtimoiy oqim va uyushmalarga munosabati mahorat bilan to'qilgan parda ortiga olinishi. Navoiyning komil inson konseptsiyasi shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan futuvvat (javonmardlik)ga munosabati. Alisher

Navoiy futuvvatning Kichik Osiyo hududidagi o'ziga xos tarmog'i bo'lmish hamda Xuroson va Movarounnahrda "javonmard" deb atalgan, "axiylik" harakati namoyandasi («Sab'ai sayyor»dagi Axiy) ning yorqin obrazini yaratishi. Shoirning o'z tili bilan aytganda:

Muruvvat – barcha bermakdur, yemak yo'q,

Futuvvat – barcha qilmakdur, demak yo'q.

Shoir asarlarida «futuvvat», «javonmard» atamaları komil insonlarga xos ijobiy xususiyat sifatida ko'p zikr etilishi.

3. Navoiy va naqshbandiya tariqati. Alisher Navoiy naqshbandiya sulukiga sodiq qolgani holda, boshqa tariqatlarga ham bag'rikenglik ko'rsatishi, turli tariqatlarga mansub ma'rifatli shaxslarga ehtirom bilan qarashi.

Naqshbandiya talablarida zikri jahr, samo' va xilvat bo'lmasligini Navoiyning o'zi ham ta'kidlab o'tsada, Boburning ma'lumotiga qaraganda, «Alisherbek qoshida (Kamoliddin Husayn Gozurgohiy kabi) mutasavviflar yig'ilib, vajd (jahr) va samo' qilurlar ekandur».

Alisher Navoiyning «Lison at-tayr» dostonida Hindistondan qaytgan ko'rlarning fil haqidagi tasavvurlariga xulosasi (mazmuni): «Ular bir-biriga zid fikrlarni aytgan bo'lsalarda, kechirarlidir. Chunki ularning har biri o'z bilganicha so'z aytadi». Har qanday masalada fikr xilma-xilligini e'tirof qilish, turli mazhab va tariqatlarga hurmat bilan xolisona munosabatda bo'lish, o'ta nozik o'rinlarda o'z fikrini bilvosita – pardali ifodalash va eng muhimi, barcha masalalarda adolat hissining barqarorligi Navoiy dahosi uchun xarakterli ekani.

Alisher Navoiy naqshbandiya tariqatiga alohida e'tibor bilan qarashi, tariqatning ko'rsatmalariga rioya qilishi va naqshbandiy pirlar bilan yaqin munosabatda bo'lishi.

XV asrda Movarounnahrda eng katta mulk egasi, naqshbandiy sulukining saromadi Xoja Ahrori Valiy bo'lsa, Xurosonda xuddi shunday odam Alisher Navoiy ekani. Mulk va mansabga mehr qo'ymaslik, dilni ular xayolidan mutlaqo xoli qilib, Alloh muhabbati makoniga, Mahbub jilvagohi bo'lgan musaffo ko'zguga aylantirish ikkala arbobga xos bo'lgani. Navoiy ijodida zohidlik:

*Oltun, kumushga hirs man'ikim, tutmog'i
Ilikni qora qilur va muhabbati ko'ngulni.
Ko'p oltun, kumush sari qo'l so'nmag'il,
Ki tutsang, kafingni qaro zang etar.
Ko'ngulda dog'i maylini asrama,
Ki ko'nglungni dog'i hamul rang etar.*

Alisher Navoiy ijodining boshlanish davrida Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya ta'limoti keng yoyilib, uning ta'siri yozma adabiyotda ham ko'rina boshlashi. Amir Sayyid Qosimiy masnaviylari, «Majolis»ning ikkinchi majlisida keltirilgan ma'lumotlar Navoiyning yoshlik davrida nafaqat Movarounnahr, balki Hirot muhitiga mansub ijod ahli orasida ham mazkur tariqatga mansub shoirlar borligidan dalolat berishi. Alisher Navoiyning naqshbandiylik sulukiga rasman kirishi vaqti Jomiyga qo'l berishi (1476-77 y.) bilan belgilansada, aslida Navoiy e'tiqodidagi uzoq evolyutsiyaning rasmiy natijasi bo'lgani.

Navoiy «ota masobasida» bo'lgan, «tasavvufda tab'i xo'b» Sayid Hasan Ardasherni pir va ustoz sifatida e'tirof etishi, uning xonadonida bo'lib turadigan oriflar majlisining muntazam ishtirok etishi. Navoiyning naqshbandiya tariqatiga amaliy tavajjuhi juda erta boshlangani. Alisher Navoiyning yoshlik va yigitlik davriga mansub she'rlari tarkibida uchraydigan ayrim bayt va g'azallar nafaqat yosh ijodkor she'riyatining tasavvufiy mohiyati, balki ularning ko'p masalalar (xilvatni inkor qilish, majoz va haqiqat, himmat, faqru fano)da naqshbandiya ta'limotiga muvofiq ekaniga dalolat qilishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jild. – T.: Fan, 1987–2003.
2. Akram B. Fasohat mulkingning sohibqironi. – T.: O'zbekiston, 1991. – 244 b.
3. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari – T.: O'qituvchi, 2005. – 399 b.
4. Усманов И. Суфизм. Т.: ТИУ, 2011. – 168 с.

5. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat / Nashrga tayyorlovchi, soʻzboshi va koʻrsatkichlar muallifi H.Isloimiy. – T.: Movarounnahr, 2011. – 472 b.

6. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.

7. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyy; Axloqi Muhsiniy. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 376 b.

8. Xolmoʻminov J. Jomiy va vahdat al-vujud taʼlimoti. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 232 b.

9. Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari / N.Komilov, A.Quronbekov va boshqalar. – T.: ToshDSHI, 2010. – 200 b.

Mustaqil ish topshiriqlari:

«Nasoyim al-muhabbat»da zikr etilgan tariqatlar va ularning peshvolari.

19-MAVZU: IMOM RABBONIY VA UNING “VAHDAT ASH-SHUHUD” TA’LIMOTI

Reja:

1. Ahmad as-Sirhindiyning hayot yo’li.
2. Vahdat ash-shuhud ta’limoti yuzaga kelishining tarixiy shart-sharoitlari.
3. Vahdat al-vujud va vahdat ash-shuhud ta’limotlarining muqoyasasi.

Ma’ruzaning asosiy mazmuni:

1. Ahmad as-Sirhindiyning hayot yo’li. XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida naqshbandiya tariqati taraqqiyotining yangi yuksalish davri boshlanishi. Naqshbandiyaning Hindistonda tarqalishi. “Naqshbandiya-mujaddidiya” tariqati yuzaga kelishida Ahmad as-Sirhindi al-Foruqiy ar-Rabboniy (1564–1624)ning o’rni. As-Sirhindi “Maktubot” nomli asarida naqshbandiya nazariyasi va amaliyotiga, xususan, “zikr”, “vahdat”, “pir va murid odobi” masalalariga ko’pgina islohotlar kiritishi. Ahmad as-Sirhindi faoliyati Hindistonda boburiy Jaloliddin Muhammad Akbarshoh (1551–1605) hukmronligi davriga to’g’ri kelishi. As-Sirhindi – mujaddidi alfi soniy. As-Sirhindiyning “vahdat al-vujud” ta’limotiga qarshi chiqishi va “vahdat ash-shuhud” ta’limotini tizimga keltirishi. Hind tariqatlari o’z g’oyalarini *malfuzot* orqali tashviq qilganda, as-Sirhindi o’z ta’limotini yozishmalar – *maktubot* orqali tarqatishi.

2. Vahdat ash-shuhud ta’limoti yuzaga kelishining tarixiy shart-sharoitlari. Imomi Rabboniyning “vahdat ash-shuhud” va Ibn al-Arabiyning “vahdat al-vujud” nazariyalari o’zaro o’xshash jihati va o’zak maqsadida ayricha ekani. Kubraviya tariqati namoyandasi Alouddavla as-Simnoniy (vaf. 1336 y.) tomonidan ishlab chiqilgan “vahdat ash-shuhud” ta’limoti. As-Simnoniy tavhidni – Allohni mushohada etish, U bilan muloqot qilish, deb tushuntirishi. Tavhidni

ittihod, U bilan qo‘shilib ketish, Unda erib ketish, deb tushunishni rad etishi. Shariatga so‘zsiz amal qilibgina ma’rifatga erishish mumkinligini ta’kidlab, haqiqat-tariqat-shariat bosqichlarini taklif etishi. Naqshbandiya tariqatining ko‘zga ko‘ringan a’zolari vahdat al-vujud ta’limotini qabul qilib, Ibn al-Arabiy asarlariga hurmat nazari bilan qarashlari. Imomi Rabboniy ham otasining izidan borib, avvalida vahdat al-vujud nazariyasini qabul qilishi. Keyinchalik bu ta’limotni nuqsonli deb hisoblab, vahdat ash-shuhud ta’limotini yoqlab chiqishi va tizimga keltirishi. Hind hukmdori boburiy Akbarshoh dinlarni qorishtirish siyosatini olib borishda vahdat al-vujud ta’limotiga asoslanishi. As-Sirhindiyni diniy sinkretizm va unga asos bo‘lgan vahdat al-vujud ta’limotiga keskin qarshi chiqishi. Naqshbandiyalar o‘rtasida vahdat al-vujud ta’limoti yoyilishiga as-Sirhindiyni salbiy munosabati. Naqshbandiya-mujaddidiya vahdat ash-shuhud ta’limotini tarqatishi. Movarounnahrda Musoxon Dahbediyni naqshbandiya-mujaddidiya g‘oyalarini targ‘ib qilishi.

3. Vahdat al-vujud va vahdat ash-shuhud ta’limotlarining muqoyasasi. Imom Rabboniy olam – Alloh ikkiligi mavzuida so‘z borganda, Ibn al-Arabiy qarashidagi “vujud” jihatidan olam bilan Allohni bir xillashtirishni rad etishi. Rabboniyni aytishicha, Allohning ism va sifatleri zotini soyasi, olam esa Uning ism va sifatleri ni soyasi va zuhur etadigan joyidir. Faqatgina ism va sifatleri ni Iloh zotidan bo‘lak “vujud”leri bo‘lganidek, olamni ham ism va sifatleri dan ayri “vujud”leri bor. “Fano” maqomiga erishgan solikni olamda Allohni ni sifatleri dan boshqa bir narsani mushohada qilmasligi olamni borligini inkor qilishi degan ma’noni bildirmaydi. Biroq xuddi quyosh nurini ta’siri bilan yulduzlarni ko‘rmagan va ularga qiziqmagan kishi kabi Allohni ni tajallilariga guvoh bo‘lgan kishini ko‘z oldida olam yo‘qoladi. Aks holda, quyosh yorug‘ligida yulduzlar batamom yo‘q bo‘lmaganidek, solikni ko‘z oldidan yo‘qolgan olam mavjuddir. Shunday ekan, Alloh bilan olam orasida “ittihod” (birlashuv), “ayniyat” (bir xillik), “ihota” (qamrash), “maiya” (birga bo‘lish) turidagi munosabat

yoʻqdir. “Vahdat al-vujud” ta’limotida olamdagi borliqlarga “vujud” deya nisbat berilmaydi. Ular misli soya borliqlardir.

Imom Rabboniyga koʻra, vahdat al-vujud ilm al-yaqin bosqichida, vahdat ash-shuhud esa ayn al-yaqin bosqichida idrok etilishi. Vahdat ash-shuhud ta’limot sifatida tushunilishi oson boʻlgani, an’anaviy qabul qilingan me’yorlarga zid kelmagani uchun uning tanqidchilari deyarli boʻlmagani. Bu ta’limot keyinchalik naqshbandiylar tomonidan keng oʻzlashtirilishi. Naqshbandiya-mujaddidiya tariqati faoliyatida vahdat ash-shuhud ta’limotining oʻrni.

Mavzu boʻyicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar roʻyxati

1. Imomi Sirhindiy. Maktubot. 2 jildli. – Bayrut: Dor an-nashr, 2003.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqol, 1999. – 180 b.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм : Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
6. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Vahdat al-vujud va vahdat ash-shuhud ta’limotlari oʻrtasidagi farqli va oʻxshash jihatlar. Imomi Rabboniy faoliyati va naqshbandiya-mujaddidiya tariqati shakllanishi.

20-MAVZU. TASAVVUF TARIQATLARINING PAYDO BO‘LISHI

Reja:

1. Tariqatlar shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Tariqatlarning o‘ziga xos jihatlari.
3. Tariqatlarda pir-murid munosabatlari evolyusiyasi.

Ma’ruzaning asosiy mazmuni:

1. Tariqatlar shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari. XII asrdan e’tiboran islom olamida tariqatlar shakllana boshlashi. Tariqatlarga as-Sulamiy, al-Xaraqoniy, Abu Said Abulxayr, Abdulloh al-Ansoriylar atrofida tashkil bo‘lgan sufiy halqalar asos bo‘lgani. Tariqatlar odatda maxsus manzillarda o‘rnashishi. Sufiylar u yerda kundalik hayot tashvishlaridan chetlashib, jamoaviy va individual marosim, zikr, riyozat bilan mashg‘ul bo‘lishi. Vaqt o‘tishi bilan tariqatlarda aniq intizom, ichki tartib, zikr qoidalari, kundalik mashqlar ishlab chiqilishi. X asrgacha bo‘lgan tasavvufda ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabat ancha erkin bo‘lib, muayyan qoidalarga bo‘ysunmagani kuzatilishi: bir shogird – murid bir vaqtning o‘zida bir necha ustoz – shayxdan (pir) saboq olishi. X asr oxiridan esa Xuroson va Movarounnahr hududlarida norasmiy pir-murid munosabatlari o‘rniga muayyan tartib-intizomga bo‘ysundirilgan muhit shakllanishi. Shayxlar aholining keng qatlamiga o‘z homiylari yordami bilan aksar hollarda bepul ta’lim olish imkoniyatlarini taklif qilishi va shogirdlardan boshqa pirga bormaslikni talab etishi. Har bir shayxning alohida ruhiy ta’lim yo‘li – tariqat nomini olishi. Tariqat – shayxning o‘z shogirdlarini gunohlardan poklanib, dunyo tashvishlarini yengib, ma’naviy kamolotga yetishishi uchun ta’lim bergan qoidalar, riyozat va mujohada yo‘llari, zikr, marosimlar

va duolar majmui. Vaqt o'tishi bilan tariqat so'zi muayyan bir shayx tartib bergan sufiylik nazariyasi va amaliyotga ergashuvchi sufiy jamoasiga nisbatan ishlatiladigan bo'lishi. Pir va murid munosabatlari sufiy jamoasi ichida rasmiylashgan holat yuzaga kelishi. Shayx qo'lida ta'limni yakunlagan murid, o'zi ham endi shogirdlar chiqarishi uchun yozma yoki og'zaki ruxsat – ijozat olishi kerakligi. Ta'lim jarayonini yakunlagan muridga tantanali ravishda sufiy xirqasi kiydirilishi. Movarounnahr va Xurosonda sufiy yig'ilishlar asosida pir-murid tartibi (instituti) shakllanishi (XI–XII asr o'rtalari). Bu davrda tasavvuf xos kishilar tasavvufidan omma tasavvufiga aylanishi. Tariqatlarning silsila instituti – uzluksiz ma'naviy vorislik zanjiri shakllanib (XII asr oxiri), sulukdagi xususiy uslublarning jamiyatda “qonuniylashtirish” jarayonida asosiy o'rin tutishi. XII–XIV asrlarda tasavvufda asosiy 12 tariqat: rifo'iya, yassaviya, shoziliya, suhravardiya, chishtiya, kubraviya, badaviya, qodiriya, mavlaviya, bektoshiya, xalvatiya, naqshbandiyalar vujudga kelishi. Bu usul tariqatlar keyinchalik vujudga kelgan barcha tariqat tarmoqlari yoki alohida tariqatlarning o'zagi hisoblanishi. Abdulqodir al-Giloniy (al-Jiloniy) (vaf. 1166 y.) ta'sis etgan qodiriya tariqati dastlabki tariqatlardan biri hisoblanishi.

2. Tariqatlarning o'ziga xos jihatlari. Tariqatlarning institutlashish jarayonlari Saljuqiylar davridan boshlanib, ayniqsa mo'g'ullar bosqini va undan keyingi davrlarda ommalashuvi. Mo'g'ul xonlari, joylardagi voliyalar sufiy jamoalariga homiylik ko'rsata boshlashi. Musulmon olamida shoziliya, rifo'iya, xalvatiya, burhoniya, naqshbandiya, kubroviya, yassaviya va qodiriya kabi tariqatlar katta ta'sir doirasiga ega bo'lishi. Vaqt o'tishi bilan har bir tariqat o'z usul va metodlari aks etgan maxsus adabiyotini shakllantirishi. Tariqatlar doirasida yaratilgan adabiyotlarning asosiy mavzulari:

1. Silsila – shayxning Muhammad (a.s.)gacha boradigan ma'naviy shajarasi. Bu tariqatning legitimligini namoyish uchun kerak bo'lgan.

2. Pir-murid – ustoz-shogird munosabatlari.

3. Zikr: zikr tushish qoidolari, vaqtlari, miqdori.

4. Chilla: chillada o'tirish bo'yicha ko'rsatmalar, zikr va duolar, o'y-xayollarni boshqarish bo'yicha nasihatlar.

5. Manzil va maqomlar: sufiylar riyozat va mujohada orqali erishadigan manzil va maqomlar. Turli tariqatlarda ularning soni turlicha bo'lgan.

6. Sufiy jamoasida yashash qoidalari: bunday adabiyotlarda sufiylar jamoa ichi va tashqarisida o'zini qanday tutishi kerakligi, samo, tahorat, ro'za kabi masalalar bo'yicha ham muayyan yo'l-yo'riqlar berilgan.

Bu kabi adabiyotlar har bir sufiy jamoasiga o'ziga xoslikni ta'minlab berishi. Tariqat shayxiga bag'ishlab yozilgan manoqib asarlar tariqat a'zolari uchun ma'naviy namuna xizmatini bajarishi. Asosan shayxning ma'naviy qiyofasini bo'rttirib aks ettirishga bag'ishlangan manoqiblarda, ularning karomatlariga katta o'rin ajratilishi. Islomda avliyolar kultining shakllanishi.

Sufiylar homiylar tomonidan barpo etilgan maxsus xonaqo, rabot va zoviyalarda yashab o'ziga xos turmush tarzini kechirishi. Har bir tariqat uchun xos bo'lgan zikr duolari, virdlar, ularning davomiyligi va vaqtlari, zikr turlari – jahriy va xafiy, samo, hadralarni o'z shayxlari ko'rsatib bergan tartibda amalga oshirilishi.

Tariqatlarning tashqi qiyofalariga ko'ra farqlanishi. Tashqi ko'rinishda ajralib turadigan maxsus liboslar: tannura, kuloh, abo, xirqa, muraqqa', kamar; maxsus turar joylar: tak'ya, rabot, zoviya, xonaqoh; maxsus ashyolar: tug', bayroq, po'stin, muttako, gul va boshqa unsurlar joriy qilinishi. Ba'zi tariqatlarning turli xil marosim va moddiy unsurlarga ko'proq ahamiyat berib, tariqat va tasavvufning asl g'oyasidan uzoqlashishi.

3. Tariqatlarda pir-murid munosabatlari evolyutsiyasi. Tasavvufda pir-murid munosabatlarida ikki alohida e'tiborga molik holatning kuzatilishi: biri – murid o'z ma'naviy kamoloti uchun mas'ul bo'lgan pir huzurida saboq olishi va ta'limini yakunlagach, unga xirqai iroda berilishi; ikkinchisi – murid pir huzurida qisqaroq vaqt ta'lim olishi va unga xirqai tabarruk berilishi. Xirqai tabarruk bilan murid boshqa pirga borib ta'limini davom ettirish

imkoniga ega bo'lishi. O'rta asr va undan keyingi davr tasavvufida bir shayxda ko'plab shogirdlar ta'lim olishi hamda bir shogird bir necha shayxlardan saboq olish holatlari kuzatilishi. Tijoniya kabi tariqatlarda faqat bir shayxning etagini tutish ta'kidlanishi. Tariqatlar tashkiliy tuzilmasidagi katta o'zgarishlar (XIV–XV asrlar). Tariqatlar kengayishi va bir shayxning muridlar ta'lim jarayonini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmay qolishi. Shayxlar o'z vazifalarining ma'lum qismini o'z yordamchilari – *muqaddam* va *xalifalariga* topshirishi. *Muqaddam* va *xalifalar* o'z shayxlari nomidan ma'ruza qilib, omma o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borishi. Tariqatning uzoq joylardagi sho'balari shayxlari ham deyarli mustaqil faoliyat olib borishi. Vaqt o'tishi bilan har bir tariqat o'ziga xos tashqi ko'rinishi bilan ajratib turadigan atributlarga ega bo'lib borishi. Tasavvufdagi tashqi qiyofaga doir har qanday predmet mazmun va hikmatga ega ekani haqida izohli adabiyotlar paydo bo'lishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov N. Tasavvuf. – T.: O'zbekiston, 2009. – 448 b.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqolol, 1999. – 180 b.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм : Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
6. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Movarounnahr tariqatlarining o'ziga xos tashqi ko'rinishlari.

21-MAVZU. MOVAROUNNAHR TARIQATLARI

Reja:

1. Yassaviya tariqati.
2. Kubraviya tariqati.
3. Naqshbandiya tariqati.

Ma'ruzaning asosiy mazmuni:

1. Yassaviya tariqati. Yassaviya tariqati asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy (vaf. 1160 y.) Sayram qishlog'ida dunyoga kelishi. Go'dakligida Yassiga ko'chib o'tishi va u yerda Arslonbob ismli mashhur shayxning xayr duosiga erishishi. Dastlabki tahsildan keyin o'sha davrning eng yirik ilm markazi Buxoroi sharifga borib, mashhur shayx Yusuf al-Hamadoni (vaf. 1140 y.) qo'lida ta'lim olishi. Al-Hamadoni vafotidan so'ng, bir muddat uning maqomida o'tirgach, shayxning ma'naviy buyrug'iga ko'ra maqomini Abdulxoliq G'ijduvoniya qoldirib, Yassiga qaytishi va irshod faoliyatini asosan u yerda olib borishi. Oddiy xalq ommasiga angelaydigan uslubda sufiyona hikmatlari – she'rlari bilan atrofdagilarni o'z yo'liga solishi. She'r-hikmatlari keyinchalik “Devoni hikmat” nomi ostida kitob holiga keltirilishi. Ahmad Yassaviy hayotligidayoq uzoq o'lkalarga muridlarini jo'natib, o'z tariqatini keng tarqatishga harakat qilishi. Yassaviy riyozat, chilla, zikr va mujohadaga kuchli ahamiyat berib, hayotining aksar qismini chillaxonada o'tkazishi va Yassida vafot etishi.

Yassaviya tariqatida jahriy zikrga amal qilinishi. Zikr chog'ida darveshning tomog'idan arraning sasi kabi ovoz chiqqani uchun yassaviya zikriga “Zikri arra”, “Zikri minshor” deyilishi. Ushbu zikr ijrosi: Darvish ikki qo'lini tizzasi ustiga qo'yib nafasini qorniga chiqarib “ha” deb, yana qorni tomonidan nafas olib bosh, bel,

yelka qimirlamagan holda “hayy” deydi va zikr shu tarzda davom etadi. Yassaviylikda xilvatga ham katta ahamiyat berilishi. Yassaviylikda ma’rifatulloh, mutloq jo’mardlik, rostgo’ylik, haqq al-yaqinda istig’roq bo’lish, tavakkul va teran tafakkurga ahamiyat berilishi. Yassaviya tariqati sunniy e’tiqodga amal qilish bilan birga Xuroson malomatiyligidan biroz ta’sirlangani sababli terma madaniyat bazasiga ega ekanligi. Ayrim manbalarda naqshbandiyani yassaviylikning bir shahobchasi, deb qayd etilishi. Yassaviylik Onado’lida shakllangan axiylik xarakatiga kuchli ta’sir ko’rsatishi. Ahmad Yassaviyning mashhur xalifalari Hakim ota (Sulaymon Boqirg’oniy, vaf. 1186 y.), Zangi ota, Uzunhasan ota, Sayyid Ahmad ota (Sayyid ota), Sadruddin Muhammad ota (Sadr ota) va Badruddin Muhammad (Badr ota) tariqatning institutlashuvida muhim o’rin tutishi. Yassaviya tariqatida murid rioya qiladigan odoblar:

1. O’z shayxini afzal ko’radi.
2. Murid zakovatli va idrokli bo’lib, shayxning ishorotlarini tez anglab oladi.
3. Shayxning har bir so’ziga sidqidildan ishonadi.
4. Shayxning barcha xizmatlarini dangasalik bilan emas, ehtirom bilan bajaradi.
5. So’zda sodiq, ahdga vafoli, dinda sog’lom va hech shakshubhaga bormaydi.
6. Mol-mulkini shayx uchun ayamaydi.
7. Shayxning sirlarini saqlab, ularni hech qachon fosh etmaydi. Uning o’gitlarini doimo nazarda saqlaydi.

Yassaviylikda shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat keng targ’ib etilishi. Shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqat yo’q ekani. Bularning har biri alohida bosqich bo’lib, bir-birini to’ldirishi va takomillashtirishi. Murid o’z piri rahnamoligida mazkur bosqichlardan o’tishi va ilohiy ishq sari intilishi, kamolotga erishishi zarurligi.

Turkiy qavmlar islom diniga kirishda yassaviya tariqatining o’rni katta bo’lishi. Amir Temur Yassaviy qabri ustida mahobatli maqbara

qurdirishi (1395-97 yy.). XVI asrga kelib yassaviya o'zining avvalgi mavqeini yo'qotib borishi.

2. Kubraviya tariqati. Kubraviya – tasavvufning O'rta Osiyodagi maktabi. Ma'naviy vorislik zanjiri Ma'ruf al-Karxiy (vaf. 816 y.) orqali Abu Bakr yoki Ali ibn Abu Tolibga taqalishi. Tariqat asoschisi Najmiddin Kubro 1145 yilda Xiva shahrida dunyoga kelishi. Unga «Najmiddin», «Kubro», «Abuljannob», «Valiytarosh» unvon va kuniyatlari berilishi. Abdurahmon Jomiyning «Nafahot al-uns» asarida Najmiddin Kubro Xorazmning ko'zga ko'ringan ulamolaridan o'zib ketib, ilmiy bahslarda g'olib chiqishi va unga «Tammat al-kubaro», ya'ni ulamolarning yetugi, ulug'vori yoki "ulkan balo" degan laqab berilishi haqidagi ma'lumotlar.

Najmiddin Kubro taxminan o'n olti-o'n yetti yoshligida Vatani Xorazmni tark etib, tahsilni chuqurlashtirish maqsadida Eron, Misr, Shom va Iroq mamlakatlarini kezishi.

Najmiddin Kubro ilk daf'a Misrga borib, Shayx Ro'zbehon al-Vazzon Misriy (vaf. 1189 y.)ga murid tushishi.

Shayx Ammor Yosir va Shayx Ismoil Qasriy (vaf. 1183 y.) kabi pirlari Najmiddindagi takabburlik, zohiriy ilmlarga bino qo'yish maylini sindirib, ma'naviy-ma'rifiy kamolot bosqichlariga ko'tarilishga yordam berishlari. Najmiddinda botiniy ajoyibot paydo bo'lib, valiylik alomati ko'ringach, Shayx Ismoil unga irodat xirqasini kiydirib, Xorazmga qaytib, u yerda tariqatni joriy etishni tavsiya qilishi.

Najmiddin Shayx Ismoil qo'lidan «irodat xirqasi»ni olgach, Shayx Ro'zbexon ta'limotni yoyishi mumkin deb yozma hujjat – «ijozat» xati berishi.

Najmiddin Kubro Xorazmga qaytishi (1185 y.). U Xorazmda katta xonaqoh kurdirib, yangi tariqatga asos solishi. Muridlari orasidan shayx Majdiddin Bag'dodiy, shayx Sa'diddin Hammuya, shayx Sayfiddin Boxarziy, shayx Aynuzzamon Jamoliddin Geyli, shayx Bobo Kamol Jandiy, shayx Najmiddin Roziy Doya, Shayx Rukniddin Alouddavla as-Simnoniy singari musulmon olamiga nomi ketgan

valiy zotlar yetishib chiqishi. Najmiddin Kubroning Chingizxon toʻdalariga qarshi jangda (1221 y.) shahid boʻlishi.

Kubraviya tariqati silsilasi. Najmiddin Kubroning tariqat yoʻlidagi pirlari – Shayx Roʻzbehon Misriy, Shayx Ammor Yosir va Shayx Ismoil Qasriy Shayx Abulnajib Suhravardiyning muridlari ekani. Kubraviya tariqati Movarounnahr, Eron, Misr, Iroq va Afgʻonistonga kirib borishi. Kubraviyadan firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, zahabiya, nurbaxshiya kabi yoʻnalishlar ajralib chiqishi. Kubraviya aʼzolari ichida Aliparastlikning avj olishi, XV asrda tariqat ichida ikki mustaqil shialik tariqati shakllanishiga olib kelishi: zahabiya va nurbaxshiya.

Kubraviyada avvalida zikri jahr amal qilishi, keyinchalik zikri xafiya oʻtilishi. Najmiddin Kubrodan kichik hajmli risolalar yetib kelgani. Najmiddin Kubroning asosiy qarashlari aks etgan uch asari: “Favoyih al-jamal va favotih al-jalal”, “al-Usul al-ashara”, “Risolat al-xaif al-haim min lavmat al-laim”. Bu asarlarda solikning maʼnaviy darajasini namoyon etuvchi ruhiy kechinmalari, koʻradigan tushlari, ranglar muhokamasiga katta oʻrin berilishi. Najmiddin Kubro solikka taʼsir koʻrsatadigan oʻylar va timsollar – *xavotir* mavzusi hamda ruhiy sezgi aʼzolari hisoblanuvchi *latoif* mavzusiga alohida ahamiyat berishi. Kubraviylikda ranglar ramzi tizimi ishlab chiqilib, har bir rang solikning irfon yoʻlida egallagan bosqichini bildirishi: oq rang – islom, sariq – imon, toʻq koʻk rang – ilohiy marhamat (ihsan), yashil – xotirjamlik (itmiʼnan), havo rang – haqiqiy ishonch (iyqon), qizil – irfon, qora – ilohiy ishq. 10 usul va ranglar ramzi boshqa tariqatlar (qodiriya, naqshbandiya, xalvatiya) tomonidan oʻzlashtirilishi.

Najmiddin Kubroning «al-Usul al-ashara» asarida murid tarbiyalashning 10 ta bosqichi qayd etilishi: Tavba, Zuhd, Tavakkul, Qanoat, Uzlat, Zikr, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Rizo.

Tavba – barcha amallarning boshi. Oʻz gunohlarini anglab Alloh taolo oldida tavba qilgan va bundan keyingi hayotini faqat ilohiy ezgulik va xayrga bagʻishlashga ahd qilgan odamgina tariqatga kira oladi. Tavba qilgan odam bir hayot tarzini tark etib, ikkinchisiga

o'tadi, axloqini o'zgartira boshlaydi, o'zini anglash sari safarga chiqadi.

Zuhd fi-d-dunya – taqvo, parhez. Tavba qilgan kishi endi haromdan hazar qilib, halollikka yuz tutishi, Allohdan qo'rqib, Alloh man etgan ishlarni qilmasligi lozim.

Tavakkul alalloh – o'z amallari, fikri va ishlarida yolg'iz Allohga suyanish. Rizqni Alloh beradi, inson taqdirini Alloh belgilaydi va inson amallari ham Alloh irodasi doirasida bo'lishi kerak.

Qanoat – kamolotning eng maqbul yo'li hisoblanadi. Modomiki, inson farishta bilan hayvon orasida turuvchi maxluq ekan, unda ruh va jism kurashi muqarrar bo'lib, kamolot ana shu jism talablarini yenga borish va ruh talablarini ko'paytirish bilan qo'lga kiradi. Qanoat insonni inson qiladi, ma'naviyat bezagi bilan bezatadi.

Uzlat – insonning ruhi, agar u poklanishiga moyil bo'lsa, tabiiy ravishda yakkalanish va go'shanishin bo'lishni talab qiladi. Inson ruhi tajrid (ajralish) va tafrid (yolg'izlanish) bosqichlarini bosib o'tmasa, mutlaq poklanmaydi. Uzlat – sufiylarning chilla o'tirishlari, xilvatlari bilan amalga oshadi.

Tavajjuh ilalloh – kurash, nafsi bilan kurash. Solik hamma vaqt yaratganiga yuzlanib, undan madad so'rab, uning sari qalban intilmog'i darkor.

Sabr – solikning e'tiqodi, niyatini sinash. Haq yo'li og'ir va mushkul yo'l, uning azobu izzatiga chidagan kishilargina maqsadga erishadi. Tariqat yo'lovchisi sabr manzilidan o'tsa, ajib bir ruhiy dovondan o'tgan, yangi kuch-qudrat topgan bo'ladi.

Muroqaba – kuzatish, tafakkur-shuurga berilish. Tavba-tazarru qilib, zikru toat, sabru sadoqat bilan o'zining ma'rifatini oshirib borgan solik, bora-bora osoyishta bir holga keladi, Alloh diydori yodida tafakkurga g'arq bo'ladi, olamlarni ruhan sayr qilib chiqadi, ko'z oldiga Haq taolo jamoli va Payg'ambar siymosini keltira oladi. Ruhi to'lishib tasavvur va taxayyuli kengayadi, g'ayb asrori eshiklari yuziga ochiladi.

Mulozamat az-zikr – sufiy odam har yerda, har doim Allohning ismlarini tilidan qo‘ymasligi bilan qalbiga Alloh taolo sifatleri va zoti joylanadi. Alloh nuri porlay boshlaydi.

Rizo – solik Alloh qudratini, ilmini chuqur his qilgan holda, o‘zini butkul Uning irodasiga topshiradi va Alloh olami bilan huzurlana boshlaydi. Haq unga va u Haqqa yaqinlashadi.

Najmiddin Kubroning tasavvuf tarixidagi javonmardlik g‘oyalari tariqatga joriy etishi va sufiylar hayotiga yanada izchilroq singdirib yuborishi. XV asrda kubraviyaning Movarounnahr sahnasidan ketishi va naqshbandiya tariqatining yeyilishi.

3. Naqshbandiya tariqati. Dunyoda qodiriyadan keyin eng keng tarqalgan naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshband (vaf. 1389 y.) Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog‘ida dunyoga kelishi. Bahouddin Naqshbandni yoshligida Xojagon tariqati shayxlaridan Muhammad Bobo Samosiy uni ma’naviy farzandlikka qabul qilishi. Bir muddat keyin Samosiy uning tarbiyasini Amir Kulolga topshirishi. Bahouddin Naqshband “uvaysiylik” yo‘li orqali tarbiyalanishi. Abu Yusuf al-Hamadoni (vaf. 1140 y.) va Abdulxoliq al-G‘ijduvoni (vaf. 1220 y.) xojagon-naqshbandiyaning asoschilari hisoblanishi. Bahouddin Naqshbandning Qosim Shayx, Xalil ota va Mavlono Orif kabi yassaviy shayxlaridan ko‘p yillar ta‘lim olishi. Ali Safiyning “Rashahot ayn al-hayot” risolasi naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma‘lumot beruvchi manba ekani. Naqshbandiyaning silsilasi ikki mustaqil yo‘l orqali hazrati Ali va hazrati Abu Bakrga borib yetishi. Mashoyix silsilasiga qaraganda tariqat Abu Bakrdan Boyazid al-Bistomiya qadar siddiqiya, al-Bistomiydan Abdulholiq al-G‘ijduvoniya qadar tayfuriya, al-G‘ijduvoniya Bahouddin Naqshbandga qadar xojagoniya, Naqshbanddan Xoja Ubaydulloh Ahrorga qadar naqshbandiya, Xoja Ubaydulloh Ahrordan Imom Rabboniya qadar naqshbandiya-ahroriya, Imom Rabboniydan Shamsiddin Mazharga qadar naqshbandiya-mujaddidiya, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolid Bag‘dodiyga qadar naqshbandiya-mazhariya, Xolid Bag‘dodiydan keyin esa naqshbandiya-xolidiya

deya tilga olinishi. Bu tariqatning silsilasidan bo'lgan Abdulxoliq al-G'ijduvoniylar bilan Ahmad Yassaviyning shayxlari Yusuf al-Hamadoniylar. Naqshbandiya yanada taraqqiy etishida Bahouddin Naqshbandning vafotidan keyin xalifalari Alouddin Attor (vaf. 1400 y.) va ayniqsa, Xoja Muhammad Porsoning (vaf. 1420 y.) o'rni. Naqshbandiya o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy mavqeiga Xoja Ahror Valiy (vaf. 1490 y.) davrida erishishi. XIX asrda naqshbandiyaning dunyo bo'ylab keng tarqalishiga mashhur olim va mutasavvif Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy (vaf. 1893 y.) qo'shgan ulkan hissasi.

Naqshbandiya ahli sunnat e'tiqodiga amal qiluvchi tariqat bo'lib, xafiy zikrga asoslanishi. Zohiran ko'zga tashlanadigan xatti-harakatlardan yiroq, suhbat va robitaga kuchli e'tibor berishi. Ko'pchilik bilan qilinadigan naqshbandiya zikriga "Xatmi xojagon" deyilishi. Naqshbandiya tariqatiga kirgan solikning amal qiladigan shartlari: tavba qilish, sunnatlarga amal qilmoq, shariatga zid bid'atlardan qochish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzini to'lash, rozilik so'rash, Allohni har lahzada zikr qilish.

Naqshbandiya tariqati quyidagi 4 asos ustiga qurilgan:

1. Shariat bilan zohirni poklash.
2. Tariqat bilan botinni poklash.
3. Haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq.
4. Ma'rifat bilan Allohga erishmoq.

Naqshbandiya tariqati a'zosi rioya qilishi kerak bo'lgan 11 rashhaning 8 tasi Abdulxoliq al-G'ijduvoniylar va 3 tasi Bahouddin Naqshband tomonidan ishlab chiqilishi:

1. Hush dar dam: "hush" – aql, "dam" esa nafas degani. Hush dar dam – nafas olib chiqarishda hushyor bo'lish, g'aflatga tushmaslik, har lahza Allohni eslash demakdir. Nafas olib chiqarishdagi "he" ovozi, "huviyat (mohiyat, insonning o'zligi)ning "he"siga dalolat etishini doimo xotirda tutish kerak. Ya'ni, har nafas olish-chiqarish chog'ida Allohni zikr qilish, agar g'aflatga tushsa, istig'for aytish lozim.

2. Nazar bar qadam: solik qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, yurayotganida oyoq uchiga qarab yurishi kerak. Toki qalb ko‘zi va nazari bo‘lmag‘ur manzaralarga qarashdan xalos bo‘lgay. Ma’naviy safarda ro‘para keladigan tahlikalar tezda oshib o‘tiladi. Bu tamoyil – kamtar bo‘lish va holiga shukr qilishni o‘zida mujassam etadi.

3. Safar dar vatan: solikning yomon axloqdan yaxshi xulqqa, bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga yo‘nalishi demakdir. Solik bir murshidi komil topgunga qadar badanan (jismonan) sayohat qilishini bildiradi. Naqshbandiylar fikricha, sayru suluk chog‘ida solikni umidsizlikka tushirib, qiyinchilik keltirib chiqargani uchun murid murshidi komil topgach, sayohat qilmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu tamoyil sayru suluk martabalarini bosib o‘tishni o‘zida mujassam etadi.

4. Xilvat dar anjuman: zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan birga bo‘lish demakdir. Solik moddiy borlig‘i bilan xalqqa aralashib, turli bashariy va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashib, hayot talab qilayotgan amallarni ijro etayotib, qalban doimo Allohning huzurida ekanini, Uni bir lahza bo‘lsa-da, esdan chiqarmasligidir. Bu hol doimiy zikr ma’nosini ham bildirib, zikrda erishiladigan eng oxirgi bosqich-maqomdir. Bahouddin Naqshband naqshbandiyaning tamalini “xilvat dar anjuman” tashkil etishini ta’kidlagan. “Xilvatda shuhrat bor, shuhratda esa ofat bor” deya naqshbandiyada xilvatga ko‘p rag‘bat ko‘rsatilmaydi. Shu bois bu tariqatda suhbat va xalq bilan aralashib, ularning dardlariga sherik bo‘lib, Haq roziligi yo‘lida xalqqa xizmat qilish muhim o‘rin tutadi.

5. Yod kard: eslash, zikr etish, ya’ni Allohni yod etib, mosivodan ko‘nglini uzish; naqshbandiyada bu zikrning usuli quyidagichadir: murid o‘zini huzur ichra shayxining ko‘ngli ro‘parasida tasavvur qilib, ko‘zi-og‘zini yopadi, tilini tanglayiga yopishtirib, tishlarini bir-biriga jipslab, nafas olmay, xoksorlik bilan qalban kalimai tavhidni zikr qiladi. Bir nafas olib chiqarishda uch daf’a zikr etishga urinadi. Bu zikrni nafiy va isbot shuuri bilan qilishi kerak.

6. Bozgasht: zikr qilib bo'lgach, "Ilohi anta maqsudi va rizoka matlubi" (Allohim, maqsadim Sensan, talabim – istagim Sening rizoligingdir) deb, ma'nosini tadabbur qiladi. Shu zaylda nafiyy va isbot zikrining ma'nosi va fayzi qalbga naqsh etilib, ko'ngil mosivodan aloqasini uzadi.

7. Nigohdosht: qalbdagi fikr va xotiralarni muroqaba qilish demakdir. Nafiyy va isbot zikrining ma'nosini o'ylab, ko'ngliga mosivoni kiritmaslikka harakat qiladi. Shu holni ikki soat yoki undan ko'p saqlay olgan kishining qalbiga boshqa xotiralar ortiq kirmaydigan holga keladi.

8. Yoddosht: har lahza Haqdan xabardor bo'lish demakdir. Nigohdoshning bir pog'ona yuqorisidir.

9. Vuqufi zamon: solik har lahza o'z holidan xabardor bo'lishi, vaqtdan unumli foydalanishi, shukr, tavba istig'for etishni, shunga ko'ra xatti-harakat qilishi demakdir.

10. Vuqufi adadiy: murid, shayx bergan zikr vazifasining sanog'iga rioya qilish demakdir. Zikrdan nazarda tutilgan ma'no hosil bo'lgach, sanog'i muhim bo'lmasa ham, farz ibodatlarida bo'lganidek, zikrda ham shaxs o'zini muayyan sanoq va vaqt bilan qayd ostiga olishi, hayotining tartib-intizomli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etishi aniq.

11. Vuqufi qalbiy: qalbning Haqdan xabardor bo'lishi demakdir. Bu martabada ko'ngil Allohdan boshqa hech narsani o'ylamaydi.

Naqshbandiya tariqatining eng mashhur shahobchalari: ahroriya, mazhariya, mujaddidiya va xolidiya. Naqshbandiya bilan ta'limotining asosida «ko'ngil Xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin» – «dil ba yoru, dast ba kor») shiori yotishi. Naqshbandiya O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida muhim o'rin egallashi. Jomiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar naqshbandiya tariqatida bo'lib, o'z asarlarida tariqat ta'limotini targ'ib etishlari. Naqshbandiya O'rta Osiyodan tashqari, Kichik Osiyo, Kavkaz, Kurdiston, Afg'oniston, Eron, Pokiston, Hindiston, Turkiya va AQShda keng tarqalishi.

Mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilov N. Tasavvuf. – T.: O'zbekiston, 2009. – 448 b.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм : Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
6. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 с.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Movarounnahr tariqatlarining mintaq ilmi-fan, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar taraqqiyotidagi o'rnini. "Rashahot ayn al-hayot" asarida Movarounnahr tariqatlari zikri.

FANNI O‘QITISH JARAYONINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘qitish texnologiyasi (Namuna)

MAVZU: FUTUVVAT

Vaqt – 2 soat	Talabalar soni: 20 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Axborot, vizual ma’ruza.
Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	1. “Futuvvat” so‘zining kelib chiqishi va ma’nolari, unga bag‘ishlangan asarlar. 2. Futuvvat tashkilotlarining siyosatga jalb qilinishi. 3. Futuvvat – yaxshi xulqlar majmuasi. 4. Navoiy va futuvvat.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Futuvvat to‘g‘risidagi bilimlarni chuqurlashtirish, ularga taalluqli ma’lumotlarni tahlil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - “futuvvat” so‘zining mazmun-mohiyatini ochib berish; - futuvvatga bag‘ishlangan asarlar bilan tanishtirish; - futuvvat tashkilotlarining siyosatga jalb qilinishi bilan bog‘liq jarayonlarni ko‘rsatib berish; - futuvvatning inson axloqini yuksaltirishdagi ahamiyatini tushuntirish; - Navoiy asarlarida fatiy mavzusi.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> Talabalar: - “Futuvvat” so‘zini tavsiflaydilar; - futuvvatga bag‘ishlangan asarlar haqida muayyan bilimga ega bo‘ladilar; - futuvvat tashkilotlarining siyosatga jalb qilinishiga oid tarixiy ma’lumotlar bilan tanishadilar; - futuvvatning inson axloqini yuksaltirishdagi ahamiyati anglaydilar; - Navoiyning turli timsol va obrazlar orqali futuvvatni ulug‘laganini o‘rganadilar.
O‘qitish uslubi va texnikasi	Ma’ruza, sinkveyn, B B B - j a d v a l i , blits-so‘rov, klaster.
O‘qitish vositalari	Proektor, tarqatma material, doska, bo‘r
O‘qitish shakli	Individual, umumjamoa va juftlikda ishlash
O‘qitishsharoitlari	Proektor va kompyuter bilan ta’minlangan auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, Vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchining	Talabaning
1-bosqich. Kirish (5min.)	1.1. Mavzu, maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Reja va muammoli holatlarni ifodalovchi savollarniekrangachiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni va ma'ruza oxirida yechiladigan masalalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlari ma'lum qilinadi.	2.1. Aniqlik kiritadilar. Savollar beradi.
3-bosqich. Asosiy (55min.)	3.1. Quyidagi savolni o'rtaga tashlaydi: "Futuvvat" so'ziga qanday ta'riflar berilgan? Ana shu savol bo'yicha bilimlarni mustahkamlash uchun "Sinkveyn" usulidan foydalangan holda (1-ilova) har bir ta'rifni alohida sharhlaydi. "Futuvvat"ning ma'nolarini ochib beruvchi chizmani namoyish qiladi. Berilgan ta'riflarni turkumlarga ajratadi (1-ilova). 3.2. Futuvvatga bag'ishlangan asarlarning mazmun-mohiyati bilan tanishtiradi, asosiy asarlarga alohida to'xtaladi (2-ilova). - as-Sulamiy (vaf. 1021 y.) "Malomatiya haqida risola"; - al-Qushayriy (vaf. 1072 y.) "Qushayriy risolasi"; - Kaykovus (XI asr) "Qobusnoma"; - Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) "Futuvvatnomai sultoniy" va boshqa asarlar tarkibiy tahlilini tushuntiradi. 3.3. Futuvvat tashkilotlarining siyosatga jalb qilinishi bilan bog'liq ma'lumotlarni keltiradi. Ali ibn Abu Tolib, "sayyidu-l-fityon", Abbosiy xalifa Nosir (1180-1225), Abu-n-Najib as-Suhravardiy (vaf. 1168 y.) va Abu Hafs as-Suhravardiy (1145-1234) kabi shaxslar faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar orqali mavzuni yoritadi (3-ilova). 3.4. Nima uchun Navoiy asarlarida javonmardlar faqat ramzlar va obrazlar orqali parda ortida aks ettirilishi haqida savol tashlanadi.	3.1. Ta'riflarni sanaydi. Ta'riflarni yozib oladilar. Berilgan ta'riflarni turkumlaydi. 3.2. Yozib oladilar, muhokama qiladilar. 3.3. Guruhlash mezonini tushuntiradilar. Yozadilar. 3.4. Navoiyning futuvvatga munosabati haqida ma'lumotlar beriladi. Sarbadorlar ham futuvvat vakillari hisoblangani bois, ular haqida Navoiy ehtiyotkorlik qilib, turli ramz va timsollar orqali hikoya qiladi.
4-bosqich. Yakuniy (10min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. BBB-jadvali asosida olingan bilimlarni tekshiradi (5-ilova) 4.2. Mustaqil ishlash va nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun savollarni beradi: javonmardlik, futuvvat, pir, martaba tushunchalariga "Sinkveyn" misoli yordamida ta'rif berishni (6-ilova) hamda "Futuvvat maktablari" mavzusida mustaqil ish tayyorlashni topshiradi.	4.1. Eshitadi. Aniqlashtiradi. 4.2. Topshiriqni yozib oladilar.

VIZUAL MATERIALLAR

1-ilova

Futuvvat – (arab, yigitlik, mardlik) – tasavvufdagi mardonavorlik, ya’ni boshqalarni o’zidan yuqori tutish, faqat yaxshilik qilish, ezgu xulq-atvorga ega bo’lish, piru ustozlar, do’st-birodarlar sharafini himoya qilishga o’zini bag’ishlash, eng olijanob odob va xislatlarni o’zida kamol toptirish. Futuvvat arabcha “fatiy” – “yigit” so’zidan olingan.

“FUTUVVAT” TUSHUNCHASIGA BERILGAN TA’RIFLAR

Mashhur sufiy al-Junayd al-Bag’dodiyning ta’rifiga ko’ra futuvvat – “Saxovatpeshalik, birovga zarar yetkazmaslik va shikoyat qilmaslik (noshukr bo’lmaslik)”.

Shia sufiylarida Ali ibn Abu Tolib futuvvat mayog’i hisoblanadi, shuning uchun ham ularda “Zulfiqordan boshqasi qilich emas, Alidan boshqasi “fatiy” emas” iborasi keng tarqalgan edi.

Futuvvat ahlini javonmardlar (fors. mard yigit), axiylar (arab. birodar) deb ham atalishi.

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – “Futuvvat” tushunchasiga xarakteristika berish

1-qator – futuvvat;

2-qator – javonmardlik, axiylilik;

3-qator – o’zgani o’zdan afzal bilmoq, mehmondo’sklik ko’rsatmoq, saxovatli bo’lmoq;

4-qator – ahdga vafo, qalb pokligi, vatan himoyasi, zaiflar yonini olmoq;

5-qator – mardlik va muruvvat.



2-ilova

Manbalarda “javonmard” soʻzi koʻplab sufiylarga, ayniqsa malomatiylarga nisbatan keng qoʻllanilgan. “Malomatiya haqida risola” muallifi as-Sulamiy (vaf. 1021 y.) futuvvatga bagʻishlab alohida bitgan risolasida haqiqiy javonmardning 212 taʼrif va sifatini keltiradi.

Tasavvuf tarixnavisi al-Qushayriy (vaf. 1072y.) oʻzining “Qushayriy risolasi” asarining bir bobini futuvvat mavzusiga bagʻishlaydi.

Kaykovusning (XI asr) “Qobusnoma”sida 44-bob “Javonmardlik zikrida” deb atalib, unda futuvvat odobi, bu tur insonlarga xos goʻzal axloq namunalari haqida soʻz boradi.

Hirotlilik Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida futuvvatning yetmish bir shartini sanab oʻtadi hamda “Kimdaki, mazkur shartlardan birortasi topilmasa, u futuvvatdan bebahradir”, deb taʼkidlaydi. Koshifiy futuvvatni tariqatning tarkibiy qismi, deb qaraydi.

Vaholanki, baʼzi manbalarda garchi tariqat va futuvvat oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlsada, ammo ular alohida tushunchalar ekani aytilgan. Chunonchi, futuvvat tasavvufiy qarashlarning amaliy tatbigʻi sifatida eʼtirof etiladi. Javonmardlar xuddi sufiylar muridga muraqqaʼ yoki xirqa kiydirgani singari oʻz saflariga yangi qoʻshilganlarga ajratib turuvchi maxsus shalvor kiydirganlar. Manbalarda sarbadorlar ham futuvvat ahli sifatida eʼtirof etiladi.

Abbosiylar xalifa Nosir (1180-1225) o'z mavqe'ini mustahkamlash uchun birinchi bo'lib futuvvatga rasmiy tashkilot tusini berib, Ali ibn Abu Tolibni esa futuvvatning eng yorqin misoli sifatida targ'ib qildi. Uning o'zi ham futuvvat shalvorini kiyib, "sayyidu-l-fityon" laqabini oladi. Shu yo'l bilan u Bag'dod aholisining qo'llab-quvvatlashiga erishib, saljuqiylarning ta'siridan qutulishga hamda rofiziylarni yo'q qilishni maqsad qilgan edi.

Xalifaga suhravardiya tariqati asoschisi Abu-n-Najib as-Suhravardiyning (vaf. 1168 y.) jiyani Abu Hafs as-Suhravardiy (1145-1234) futuvvat g'oyalarini aholining keng qatlamlari orasida o'zining otashin va'zlari bilan tarqatish orqali yordam ko'rsatadi. Abu Hafs as-Suhravardiy "Sufiylik yo'li oddiy musulmon uchun mashaqqatli va og'ir bo'lgani sababli omma uchun futuvvat tariqatning bir bo'lagidir" deya e'tirof etdi. Abu Hafs as-Suhravardiy maqsadli ravishda futuvvatga xos bo'lgan sharaf kodeksini tasavvufning ma'naviy ko'rsatmalari bilan bog'lashga urindi.

Futuvvat kontsepsiyasi tasavvufdagi iysor – o'zgalarning manfaatini o'z manfaatlaridan ustun qo'yish g'oyasini eng yuqori cho'qqilarga olib chiqdi. Futuvvat guruhlar ko'p davrlar mobaynida jamiyatda yuksak axloq, saxovat, mardlik, adolatparvarlikning oliy namunasi sifatida e'tirof etib kelindi.

Futuvvat g'oyalari Movarounnahrda ham keng tarqalgani haqida o'rta asr arab sayyohi ibn Battuta (vaf. 1368 y.) "Safarnoma" asarida juda to'liqlanib ifoda etadi. Arab sayyohining yozishicha xonaqoh va zoviyalarning aksari javonmardlar ixtiyorida bo'lgan.



5-ilova

B.B.B.usuli asosida bilimlarni sinash uchun tarqatma materiallar

Nº	Tushunchalar	Bilaman "+", Bilmay man "-".	Bildim "+", Bila olma dim "-".
1.	"Futuwwatnomai sultoniyy"		
2.	Abu Hafs Suhrawardiy		
3.	Futuwwat g'oyalari		
4.	Javonmardlik		
5.	Sayyidu-l-fityon		
6.	Futuwwat konsepsiyasi		
7.	Sarbadorlar futuwwat ahli		
8.	"Safarnoma"da javonmardlik g'oyalari		
9.	Koshifiy belgilagan 3 marta		
10.	"Qushayriy risolasi"		
11.	"Qobusnoma"dagi futuwwat bobi		
12.	Xalifa Nosir va futuwwat rivoji		
13.	Isor		
14.	Navoiy va futuwwat tashkilotlari		

"Sinkveyn" (5 qator) texnikasi**Maqsad – tushunchalarga xarakteristika berish****Sinkveyn sxemasi:****1-qator – tushuncha;****2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat;****3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to'g'risidagi 3 ta fe'l;****4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to'g'risidagi 4 so'zdan iborat so'z birikmasi;****5-qator – ushbu tushuncha sinonimi****SINKVEYN (AXBOROTNI YIG'ISH) METODI**

Metodni qo'llash jarayonida talabalarda mavjud bo'lgan tarqoq axborotli jarayonlar asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich yo'naltirilgan axborotli jarayonga aylanib boradi. Ya'ni, noaniq bilimlar mavzuni o'rganish davomida aniqlashtiriladi, u yoki bu ob'ektiv voqelik to'g'risida yakdill fikrga kelinadi. Buning uchun talabalarda besh imkoniyat mavjud bo'ladi yoki sinkveyn besh katoridan iborat o'ziga xos "oq she'r" (qofiyasiz) bo'lib, o'rganilayotgan mavzuga oid tushunchalar (hodisa, jarayon, voqea) qat'liyan ketma-ketlikda qatorlarga yozib chiqiladi. Sinkveyn tuzish orqali talabalar o'z fikrlarini bir joyga to'plash ko'nikmasini egallashadi, ularni ixcham ifodalashga, turlicha mulohazalarni sintezlash va o'tilayotgan mavzu bo'yicha to'g'ri xulosalarni shakllantirishga o'rganishadi.

Sinkveyn tuzish tartibi:

1. Birinchi qatorga mavzudagi bosh g'oya (tayanch tushuncha) bir so'z (ot) bilan qayd etiladi.

2. Ikkinchi qatorda bosh g'oya ikki sifat bilan ifodalanadi.

3. Uchinchi qatorda mavzuga oid tushunchalar (jarayonlar) uchta so'z bilan bayon qilinadi.

4. To'rtinchi qatorga mavzuga oid fikr (nazariya, fakt) lar to'rtta so'zdan iborat bo'lishi lozim.

5. So'nggi qatorga mavzu mohiyatini oydinlashtiriladigan (yoki ma'no jihatidan yaqin bo'lgan) bitta so'z yoziladi.

Bu ketma-ketlikni quyidagicha loyihalash mumkin.

1. ----- topshiriq

2. -----

3. -----

4. -----

5. ----- natija

Odatda sinkveyn mavzu bo'yicha birorta muammoli vaziyatni yechish yoki alohida o'quv elementlariga ishlov berishda talabalar tafakkurini charxlash uchun tuziladi. Agar birinchi qatordagi mavzu muammosi so'z turkumi - ot orqali o'qituvchi yoki talaba tomonidan ifodalansa, ikkinchi qatorda topshiriqning muhim xossalarni belgilovchi bir juft sifatni talabalar o'ylab turishi, ko'p variantli javoblardan eng maqbulini ajratib olishi lozim bo'ladi. Shu kabi keyingi qatorlarda yoziladigan javob so'zlar ham talabalarning tezkor fikrlashi natijasida izlab topiladi va sinkveyndan ko'zlangan maqsad yakuniy natijaga erishiladi

SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

1-Mavzu: Tasavvufdagi ilk yo'nalishlar (2 soat)

Reja:

1. Tasavvufdagi ilk yo'nalishlarning paydo bo'lishi va faoliyati. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. Ilk yo'nalishlar asoschilari.
2. Tasavvuf so'zining etimologiyasi. Diniy manbalardagi asoslari.
3. Tasavvufshunoslik ilmiy-tadqiqot markazlari.
4. Tasavvufdagi tarkidunyochilikka emas, jo'shqin hayot kechirishga targ'ib etuvchi g'oyalar.
5. Tasavvuf va milliy g'oya.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O'qituvchi, 2005. – 399 b.
2. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
4. Usmonov I. "Navodir al-usul" hikmatlari. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 175 b.
5. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
6. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
7. Islom ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
8. Акимущкин О.Ф. Суфийские братства: сложный узел проблем / Предисловие к Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989. – С. 3-17.
9. Из истории суфизма: источники и социальная практика / сборник статей. Под ред. М.Х.Хайруллаева. –Т.: Фан, 1991. – 146 с.
10. Эрнст К. Суфизм / Пер. с англ. А. Горькавого. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. – 320 с.

2-Mavzu: Tasavvuf va globallashuv (2 soat)

Reja:

1. Globallashuv sharoitida tariqatlarning yoyilish xaritasi.
2. Tariqatlar va modernizatsiya: yangi uslub va zamonaviy texnologiyalar.
3. Zamonaviy sharoitlarda inson ongi uchun kurashda noan'anaviy tasavvuf tariqatlari faoliyati.
4. Globallashuv va pir-murid munosabatlari.
5. G'arb va Sharq mamlakatlarida tariqatlar faoliyati tahlili.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 175 b.
2. Ochildiev A. Globalashuv va mafkuraviy jarayonlar. – T.: Muharrir, 2009.
3. Lukashuk I., Saidov A. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. – T.: Adolat, 2006.
4. Milliy manfaatlar va boshqaruv mas'uliyati. Mualliflar jamoasi. – T.: G'ulom nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
5. Jo'rayev T., Paxrutdinov Sh. Dunyoviy davlatchilik va siyosiydoshgan diniylik. – T.: Akademiya, 2008.
6. Акимущин О. Суфийские братства: сложный узел проблем / Предисловие к Тримингэм Дж.С. Суфийские ордена в исламе. – М.: Наука, 1989. – С.3-17.
7. Komilov N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. – 448 b.
8. Плещунов О. Политика мультикультурализма в Великобритании и радикализация исламской молодежи страны // Восток (Oriens) № 1, – М.: Наука, 2009. – С. 100-103.
10. Долгов Б. Арабский мир в начале XXIв.: между демократией и исламизмом // Восток (Oriens) № 5, – М.: Наука, 2009. – С. 89-92.
11. Тихонравов Ю. Геополитика. – М.: ЗАО. "Бизнес школа "Интел-Синтез", 1999.
12. Тримингэм Ж. Суфийские ордены в исламе / Пер. с англ. А.Ставиской. – М.: Наука, 1989.
13. Yo'ldoshxo'jayev H. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari. – T.: Toshkent islom universiteti, 2010.

14. Кныш А. Суфизм. – М.: Диля, 2004. – 464 с.
15. Бабаджанов.Б.М. Возрождение деятельности суфийских групп. / Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования) Сб. ст. памяти Ф.Майера (1912-1998) // Сост. и отв. Редактор А.А.Хисматулин. СПб ГУ: 2001. – 394 с.
16. Эрнст К. Суфизм / Пер. с англ. А. Горькавого. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. – 320 с.

3-Mavzu: Ilk zohidlik maktablari.

Robiya al-Adaviya va ilohiy ishq mavzusining tasavvufga kirib kelishi (2 soat)

Reja:

1. Madina, Kufa, Basra, Movarounnahr va Xuroson zohidlik maktablari.
2. Robiya al-Adaviya va ilohiy ishq mavzusi.
3. Robiya haqidagi rivoyatlarning tasavvufiy adabiyotda aks etishi.
4. Tasavvufdagi “muhabbat” va “uns” tushunchalari.
5. Robiya al-Adaviya va g’arb adabiyoti.
6. Ibn al-Javziy va tasavvuf.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М: Наука, 1965. – 524 с.
2. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
3. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
4. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
5. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. – T.: Sharq, 2004. – 208 b.
6. Усманов И. Суфизм. Т.: ТИУ, 2011. – 168 с.
7. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. 315 с.
8. Muhammad Siddiq Rushdiy. Avliyolar sultoni, Turonlik valiyalar / Ostonaqulov I. nashrga tayyorlagan. – T.: Kamalak, 1995. – 171 b.

9. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1966. – 400 с.

10. Ibn Javziy. Talbis al-Iblis. / Muhammad al-Foziliy nashrga tayorlangan. – Bayrut: Maktaba al-asriyya, 2000. – 592 s.

11. Гольдцигер И. Лекции об исламе / Перевод с нем. А.Н. Черновой. Брокгауз- Ефрон, 1912. – 272 с.

4-Mavzu: Iroq tasavvufi va mahalliy zohidlik harakatlari

Reja:

1. Iroq tasavvufining shakllanish jarayonlari.
2. Suf kiyish amaliyoti haqida dastlabki qarashlar.
3. Iroq tasavvufining xalifalikning katta qismiga yoyilib ketishiga xizmat qilgan tarixiy jarayonlar.
4. Iroq tasavvufi va boshqa mahalliy zohidlik harakatlari o'rtasidagi munosabatlar.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.

2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.

3. Usmonov I. "Navodir al-usul" hikmatlari. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 175 b.

4. Zarrinko'b A. Jo'stujo' dar tasavvufi Iron. // Sino. – 2002. – № 8. –B.10-13.

5. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Перевод с англ. А.А.Ставиской, под ред. и предисл. О.Ф. Акимовской. – М.: Наука, 1989.

6. Juzjoni A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.

7. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1966. – 400 б.

5-Mavzu: Tasavvuf psixologiyasi va borliqni anglash tushunchalari

Reja:

1. Horis al-Muhosibiy – ilk sufiy psixologi.
2. Tasavvufda ranglar psixologiyasi.
3. Ma’rifat va irfon.
4. Kashf, mukoshafa.
5. Ilhom, fath, fayz, yaqin, tajalliy.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Вилкокс Л. Суфизм и психология. - СПб.: Диля, 2005. – 254 с.
2. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
3. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlof, 1999. – 180 b.
4. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – 336 b.
5. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
6. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
7. Najmiddin Kubro. Al-usul al-ashara. – T.: Mavarounnahr, 1999.
8. Эрнст К. Суфизм / Пер. с англ. А. Горькавого. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. – 320 с.

6-Mavzu: Tasavvufdagi qalb holatiga oid tushunchalar

Reja:

1. Sahv va sukr.
2. Fano va baqo.
3. Xavf va rajo.
4. Qabz va bast.
5. G’aybat va huzur.
6. Mahv va isbot.
7. Mansur al-Halloj va sukr.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Zarrinkoʻb A. Joʻstujoʻ dar tasavvufi Iron. // Sino. – 2002. – № 8. – B.10-13.
2. Usmonov I. Tasavvuf fanidan glossariy – T.: TIU, 2011. – 125 b.
3. Islom ensiklopediyasi. – T.: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
4. Йылмаз. Х.К.Тасаввуф и тарикаты. – М.: Сад, 2007. – 300 с.
5. Hifniy A. Al-mavsua as-sufiyya. Qohira: Maktabat madbuli, 2006. – 1375 b.

7-Mavzu: Movarounnahrda IX–X asrlarda tasavvufiy muhit

Reja:

1. IX–X asrlarda Movarounnahrda siyosiy-ijtimoiy hayot va tasavvufiy muhit.
2. Movarounnahrda malomatiya harakati.
3. Karromiya harakati.
4. Malomatiya va naqshbandiya.
5. Movarounnahr va Xurosonda futuvvat tashkilotlari.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Usmonov I. Tasavvuf fanidan glossariy – T.: TIU, 2011. – 125 b.
2. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Дия, 2004. – 464 с.
3. Из истории суфизма: источники и социальная практика – сборник статей. Под ред. М.Х.Хайруллаева. – Т.: Фан, 1991. – 146 с.
4. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 с.
5. Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning oʻrni. – T.: Akademiya, 2005. – 84 b.
6. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1966. – 400 с.
7. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniyy / forschadan N.Komilov tarj.; Axloqi Muhsiniy. T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 376 b.

8-Mavzu. Tasavvufda valiylik haqidagi qarashlar

Reja:

1. Valiylik haqidagi qarashlarning vujudga kelishi.
2. Valiylik ierarxiyasi va valiylik haqidagi qarashlarning tizimga solinishi.
3. “Rijol al-g‘oyb” tushunchasi.
4. Al-Hakim at-Termiziy ilmiy merosida valiylik mavzusi.
5. “Xatm al-avliyo” tushunchasi.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1966. – 400 с.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
3. Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning o‘rni. – T.: Akademiya, 2005. – 84 b.
4. Гольдцигер И. Лекции об исламе / Перевод с нем. А.Н. Черновой. Брокгауз-Ефрон, 1912. – 272 с.
5. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
6. Radtke B. Al-Hakim at-Tirmidi. – Freiburg: Klaus Schwarz Verlag, 1980. – 192 p.
7. Usmonov I. “Navodir al-usul” hikmatlari. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 175 b.
8. Уильям Ч. Суфизм / пер. с англ. М.Г.Романов, Я.Эшотс. – М.: Восточная литература, 2012. – 245 с.
9. Ishoqova Z. Tasavvuf ta’limotida oriflik va valiylik talqini. T.: Abu matbuot konsalt, 2011. – 296 b.
10. Эрнст К. Суфизм / Пер. с англ. А. Горькавого. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. – 320 с.

9-Mavzu. Tasavvuf adabiyotlari annotatsiyasi

Reja:

1. Tasavvuf tarixiga oid manbalar.
2. Tasavvufiy-falsafiy manbalar.
3. Tasavvuf ilmini izohlagan asarlar.
4. Zamonaviy tasavvufiy asarlar.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Дия, 2004. – 464 с.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
3. Гольдцигер И. Лекции об исламе / Перевод с нем. А.Н. Черновой. Брокгауз- Ефрон, 1912. – 272 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.

10-Mavzu. Abu Bakr al-Kalabodiy va uning “Ta’arruf” asari

Reja:

1. Abu Bakr al-Kalabodiy faoliyati.
2. “Ta’arruf” asari haqida. Asardagi mavzular tasnifi.
3. “Ta’arruf” asarida Iroq tasavvufi an’analari aks etishi.
4. Asarga yozilgan sharhlar, tarjimalar.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Kalobodiy. Kitob at-ta’arruf bi mazhab ahl at-tasavvuf / Mavloqulova M. tarj. – T.: G’afur G’ulom, 2002. – 142 b.
2. Kalabodiy. Kitob at-ta’arruf li mazhab ahl at-tasavvuf / Abdulhalim Mahmud., Toho Surur nashrga tayyorlagan. – Damashq: Dor al-Imon, 1986. – 168 b.
3. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 б.
4. Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning o’rni. – T.: Akademiya, 2005. – 84 b.
5. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Дия, 2004. – 464 с.

11-Mavzu. As-Sulamiyning «Sufiylar tabaqasi» kitobida tasavvuf tarixi aks etishi

Reja:

1. Sulamiyning tasavvufiy qarashlari.
2. “Tabaqot as-sufiyya” asari tuzilishi.

3. «Tabaqot as-sufiyya» asaridagi movarounnahrlik olimlar biografiyasi tarjiması.

4. “Tabaqot as-sufiyya” asarida malomatiya harakati shayxlari tavsifi.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.

2. As-Sulamiy Abu Abdurahmon. Tabaqot as-sufiyya / Nuriddin Shariba nashrga tayyorlagan. Qohira: Maktabat al-Xonaji, 1986. – 570 b.

12-Mavzu. Abu Homid al-G‘azzoliy va tasavvuf

Reja:

1. Abu Homid al-G‘azzoliyning tasavvufiy qarashlari va ilmiy merosi.

2. Abu Homid al-G‘azzoliyning “Ihyo ulum ad-din” va “Kimyoi saodat” asarlari tahlili.

3. Al-G‘azzoliy asarlarida islom ilohiyoti aks etishi.

4. Al-G‘azzoliy va falsafa tanqidi.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.

2. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1966. – 400 с.

3. Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoi saodat. T.: Movarounnahr, 1998.

4. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. T.: Movarounnahr, 2001.

5. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.

13-Mavzu. “Vahdat al-Vujud” ta’limotining tasavvuf tarixidagi o‘rni.

Reja:

1. “Vahdat al-vujud” ta’limotida borliq mavzusi.

2. “Vahdat al-vujud” ta’limoti tanqid qilingan asarlar obzori.

3. “Panteizm” va “Vahdat al-vujud”.
4. “Vahdat al-vujud” ta’limotining sharq adabiyotiga kirib borishi.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf. T.: O‘zbekiston, 2009. – 448 b.
2. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O‘qituvchi, 2005. – 399 b.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
6. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
7. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 с.
8. Ибн ал-‘Арабий. Мекканские откровения / А. Кныш араб тилидан тарж. – Санкт-Петербург: Петербургское востоковедение, 1995. – 240 с.

14-Mavzu. Tasavvuf va badiiy ijod

Reja:

1. Tasavvuf va badiiy ijod o‘rtasidagi munosabatlar.
2. Badiiy adabiyotda ramziy timsollar va tasavvuf g‘oyalarining talqini.
3. Tasavvufiy badiiy ijod namunalari.
4. Sanoiy va Attor ijodi.
5. Tasavvuf va falsafa.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf. T.: O‘zbekiston, 2009. – 448 b.
2. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O‘qituvchi, 2005. – 399 b.
3. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
4. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
5. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy hikoyalariga sharhlar. Naynoma / Masnaviy hikmatlari. Nashrga tayyorlovchi A.Tilavov. – T.: Muharrir, 2011. – 404 b.

6. Homidiy H. Tasavvuf allomalari. – T.: Sharq, 2004. – 208 b.
7. Muhammad Siddiq Rushdiy. Avliyolar sultoni, turonlik valiyalar / I.Ostonaqulov nashrga tayyorlagan. – T.: Kamalak, 1995. – 171 b.
8. Fariduddin Attor Nishopuriy. Tazkirat al-avliyo. T.: Movarounnahr, 1999.
9. Уильям Ч. Суфизм / пер. с англ. М.Г.Романов, Я.Эшотс. – М.: Восточная литература, 2012. – 245 с.
10. Эрнст К. Суфизм / Пер. с англ. А. Горькавого. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. – 320 с.

15-Mavzu. Jomiy va Navoiy asarlarida tasavvufiy g'oyalar tarannumi

Reja:

1. Jomiy asarlarida avliyolar zikri.
2. Navoiy asarlarida tasavvufiy timsollar.
3. “Nasoyim al-muhabbat” asarida turkiy avliyolar.
4. Husayn Voiz Koshifiyning tasavvufiy asarlari.
5. Jomiy, Navoiy va Koshifiy asarlarida vahdat al-vujud mavzusi.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf. T.: O'zbekiston, 2009. – 448 b.;
2. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – 336 b.
3. Из истории суфизма: источники и социальная практика – сборник статей. Под ред. М.Х.Хайруллаева. – Т.:Фан, 1991. – 146 с.
4. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М: Наука, 1965. – 524 с.
5. Nabiev F.Sh. Priroda i poetika Alishera Navoi. T.: Fan, 2008. – 148 s.
6. Akram B. Fasohat mulkining sohibqironi. T.: O'zbekiston, 1991. – 244 b.
7. Alisher Navoiy asarlari to'plami. T.: Fan, 2012.
8. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniyy; Axloqi Muhsiniy. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 376 b.
9. Xolmo'minov J. Jomiy va vahdat al-vujud ta'limoti. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 232 b.

16-Mavzu. Jaloliddin Rumiy ijodida masal va timsollar

Reja:

1. “Masnaviyi ma’naviy” asarida masallar va didaktika.
2. “Fiyhi ma fiyhi” asarida vahdat al-vujud mavzusi.
3. “Devoni kabir” asaridagi ramz va timsollar.
4. Rumiy asarlarida diniy bag’rikenglik g’oyalari.
5. Amir Temurning Rumiyga munosabati.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Komilov N. Tasavvuf. T.: O‘zbekiston, 2009. – 448 b.
2. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – 336 b.
3. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
4. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy hikoyalariga sharhlar. Naynoma / Masnaviy hikmatlari. Nashrga tayyorlovchi A.Tilavov. – T.: Muharrir, 2011. – 404 b.
5. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – М: Наука, 1965. – 524 с.
6. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.
7. Брион М. Я – Темур властелин вселенной. Т.: Национальная библиотека Узбекистана им. А.Навои. – 505 с.
8. Эрнст К. Суфизм / Пер. с англ. А. Горькавого. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. – 320 с.

17-Mavzu. Imomi Rabboniyning “Maktubot” asarida “vahdat ash-shuhud” g’oyalari

Reja:

1. “Vahdat ash-shuhud” ta’limotining mohiyati (“Maktubot” asari asosida).
2. “Vahdat ash-shuhud” ta’limoti yuzaga kelishiga sabab bo’lgan tarixiy omillar.
3. “Maktubot” asarida naqshbandiylikning madhi.

4. Naqshbandiya-mujaddidiya yoʻnalishining paydo boʻlishi.
5. Musaxon Dahbediyning naqshbandiya-mujaddidiya taʼlimotini Movarounnahrda targʻib qilishda tutgan oʻrni.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С.-П.: Диля, 2004. – 464 с.
2. Шиммель А. Мир исламского мистицизма. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
3. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
4. Islom ensiklopediyasi. – T.: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
5. Imomi Sirhindiy. Maktubot. 2 jildli. Bayrut: Dor an-nashr, 2003.
6. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1966. – 400 с.
7. Из истории суфизма: источники и социальная практика – сборник статей. Под ред. М.Х.Хайруллаева. –Т.:Фан, 1991. – 146 с.
8. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
9. Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фритца Майера (1912-1998) / Сост. и отв. редактор А.А. Хисматуллин. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2001. – 394 с.

18-Mavzu. Tasavvufda tariqatlar paydo boʻlishining oʻziga xos jihatlari

Reja:

1. Tariqatlarning institutlashuviga xizmat qilgan omillar.
2. Ilk paydo boʻlgan tariqatlar.
3. Tariqatlarning tashqi koʻrinishdagi oʻziga xosliklar.
4. Jahriy zikr va xafiy zikr.
5. Tariqatlarning islom dinini yoyishdagi oʻrni.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фритца Майера (1912—1998) / Сост. и отв. редактор А. А. Хисматуллин. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2001. — 394 с.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. — Т.: Istiqlol, 1999. — 180 b.
3. Из истории суфизма: источники и социальная практика — сборник статей. Под ред. М.Х.Хайруллаева. —Т.:Фан, 1991. — 146 с.
4. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. — М.-С.-П.: Диля, 2004. — 464 с.
5. Акимушкин О.Ф. Суфийские братства: сложный узел проблем / Предисл. к Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. — М.: Наука, 1989. — С. 3-17.
6. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Перевод с англ. А.А.Ставиской, под ред. и предисл. О.Ф. Акимушкина. — М.: Наука, 1989.
7. Ислам: Энциклопедический словарь. — М.: Наука, 1991. — 315 с.
8. Эрнст К. Суфизм / Пер. с англ. А. Горькавого. — М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. — 320 с.

19-Mavzu. Markaziy Osiyo tariqatlari: moziy va zamonaviy holat

Reja:

1. Yassaviya tariqati.
2. Naqshbandiya tariqati.
3. Qodiriya tariqati.
4. Kubraviya tariqati.
5. Tariqatlarda zikr mavzusi.
6. Tariqatlarda pir-murid munosbatlarining o'ziga xos jihatlari.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фритца Майера (1912—1998) / Сост. и отв. редактор А. А. Хисматуллин. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2001. — 394 с.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. — Т.: Istiqlol, 1999. — 180 b.

3. Из истории суфизма: источники и социальная практика – сборник статей. Под ред. М.Х.Хайруллаева. – Т.:Фан, 1991. – 146 с.

4. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.

5. Акимусшкин О.Ф. Суфийские братства: сложный узел проблем / Предисл. к Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989. – С. 3-17.

6. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе / Перевод с англ. А.А.Ставиской, под ред. и предисл. О.Ф. Акимусшкина. – М.: Наука, 1989.

7. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 с.

8. Islomiy H. Sulton al-orifin Xoja Ahmad Yassaviy. T.: Fan, 2005. – 40 b.

20-Mavzu. Tasavvufdagi ayrim muhim tushunchalar tahlili

Reja:

1. Hol.
2. Maqom.
3. Zikr.
4. Samo.
5. Chilla.

Seminar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история. – М.-С-П.: Диля, 2004. – 464 с.

2. Islom ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.

3. Йылмаз. Х.К.Тасаввуф и тарикаты. – М.: Сад, 2007. – 300 с.

4. Hifniy A. Al-mavsua as-sufiyya. Qohira: Maktabat madbuli, 2006. – 1375 b.

5. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniyy; Axloqi Muhsiniy. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 376 b.

6. Qushayriy Abdulkarim. Ar-Risala al-Qushayriyya. Qohira: Dor ash-sha’b, 1989. – 633 b.

7. Эрнст К. Суфизм / Пер. с англ. А. Горькавого. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. – 320 с.

Seminar jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

1.2.Seminar mashg'ulotini o'tkazish texnologiyasi (Namuna)

MAVZU: TASAVVUF VA BADIY IJOD

Vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 20 nafar
O'quv mashg'uloti shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha seminar mashg'uloti
O'quv mashg'uloti rejasi	1. Tasavvuf va badiiy ijod o'rtasidagi munosabatlar. 2. Sharq mumtoz adabiyotiga tasavvuf g'oyalarining kirib kelishi. 3. Badiiy adabiyotda ramziy timsollar va tasavvuf g'oyalarining talqini. 4. Tasavvufiy badiiy ijod namunalari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tasavvuf va badiiy ijod to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish, ularga taalluqli ma'lumotlarni tahlil qilish	
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - o'quv adabiyotlari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - tasavvufiy badiiy ijod namunalarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: – tasavvuf va badiiy ijod o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatib beradi; – sharq mumtoz adabiyotiga tasavvuf g'oyalarining kirib kelishini yoritadi; – she'riyat va tasavvuf orasidagi bog'liqlikni ochib beradi; – badiiy adabiyotda ramziy timsollar va tasavvuf g'oyalarining talqin etilishini tahlil qiladi; - tasavvufiy badiiy ijod namunalarini tavsiflaydi
O'qitish uslubi vatexnikasi	Bu seminar mashg'uloti jarayonida savollar va muammolar borasida suhbat o'tkaziladi. Darsda "aqliy hujum", klaster usullarini qo'llash, test va masalalar yechish mumkin.

O'qitish vositalari	Ma'ruza va seminar matni, o'quv qo'llanmasi, proektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish sharoitlari	Kompyuter texnologiyalari, proektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Seminar mashg'ulotining texnologik kartasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzuning maqsadi rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulot hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tilishini ma'lum qiladi. 1.2. Blits-so'rov o'tkazadi va auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: 1) Tasavvuf va badiiy ijod o'rtasida qanday munosabatlar mavjud? Mavzu mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadilar va savollarga javob beradilar.

2-bosqich. Asosiy (60 min.)	2.1. Talabalarni 4 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi. Guruh bilan ishlash qoidalarini eslatadi (1-ilova). 2.2. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza va seminar matni, o'quv qo'llanma) laridan foydalanish mumkinligini aytib o'tadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.3. Tayyorlangan taqdimotni namoyish etadi. 2.4. Talabalar javobini sharhlaydi, xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.5. Insert usulida 3-ilovadagi topshiriqni tayyorlashni, 4-ilovadagi testlarni yechishni taklif etadi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. To'ldiradilar. 2.3. Topshiriqni tayyorlaydilar. Testlarni yechadilar.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, mavzu bo'yicha umumiy xulosalarni shakllantiradi. Guruhlarga umumiy ball beradi. Talabalarni baholaydi va rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida test beradi.	Eshitadilar. Topshiriqni oladilar.

1-ilova

Guruh bilan ishlash qoidalarini

Guruhning har bir a'zosi:

- o'z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim;
- berilgan topshiriqlar bo'yicha faol, hamkorlikda va mas'uliyat bilan ishlashlari lozim;
- o'zlariga yordam kerak bo'lganda so'rashlari mumkin;
- yordam so'rganlarga ko'mak berishlari lozim;
- guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim;
- "Biz bir kemadamiz, birga cho'kamiz yoki birga qutilamiz" qoidasini yaxshi bilishlari lozim.

Guruhlar uchun topshiriqlar.

1-guruh.

Tasavvuf va badiiy ijod o'rtasidagi munosabatlar mazmunini yoriting.

“Tasavvufiy she'riyat” so'ziga klaster tuzing.

2-guruh.

Sharq mumtoz adabiyotiga tasavvuf g'oyalarining kirib kelishini ochib bering.

“Tasavvuf maqomoti” tushunchasiga klaster tuzing.

3-guruh.

Badiiy adabiyotda ramziy timsollar va tasavvuf g'oyalarining talqin etilishini yoriting.

“Tasavvuf timsollari” tushunchasiga klaster tuzing.

4-guruh.

Tasavvufiy badiiy ijod namunalarini tavsiflang.

“VIII – XI asrlar tasavvuf adabiyoti” tushunchasiga klaster tuzing.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
VIII – XI asrlar sufiylar ijodi				
Robiya al-Adaviya				
Mansur al-Halloj				
Jazba				
Darveshlik iste’dodi				
Shams Tabriziy				
Jaloliddin Rumi				
Qalb ko’zi				
Mutrib va mug’anniylar				
May – ilohiy ishq ramzi				
Mayxona				
Xarobot				
Soqiy				
Xum				

TEST

1. Alloh ishqı bobıda “İloho, senga jahannamdan qo‘rqqanim uchun ibodat qilayotgan bo‘lsam, meni do‘zax olovida yoq. Agar jannatingni orzu qilib, ibodat qilayotgan bo‘lsam jannatingni menga harom qil. Agar yolg‘iz seni sevganim uchun senga ibodat qilayotgan bo‘lsam, meni azaliy jamolingdan mahrum qilma, Yo Parvardigoro!” iborasi kimga tegishli?

- A. Zunnun al-Misriy
- B. Boyazid al-Bistomiy
- S. Robiya al-Adaviya
- D. Sufyoni as-Savriy

2. So‘fi Olloyorning asarlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. “Maslak al-muttaqin”, “Murod al-orifin”, “Maxzan al-mute’in”, “Sabot al-ojizin”
- B. “Tazkirat al-avliyo”, “Maxzan al-mute’in”, “Favz an-najot”
- S. “Sabot al-ojizin”, “Lubob al-albob”, “Maslak al-muttaqin”
- D. “Murod al-orifin”, “Al-munqiz min az-zolal”, “Maxzan al-mute’in”, “Sabot al-ojizin”

3. Jaloliddin Rumi nomi bilan bog‘liq tariqatni belgilang.

- A. Tayfuriya
- B. Mavlaviya
- S. Hululiya
- D. Firdavsiya

4. XV asrda naqshbandiya tariqatining yirik rahnamosi sifatida maydonga chiqqan kim edi?

- A. Boborahim Mashrab
- B. Xoja Ahror Ubaydulloh Valiy
- S. Alisher Navoiy
- D. Abdurahmon Jomiy

5. “Fiyhi ma fiyhi” hamda “Masnaviyi ma’naviy” asarlari muallifi kim?

- A. Najmiddin Kubro
- B. Fariduddin Attor

S. Jaloliddin Rumi
D. Muhammad Porso

6. Tasavvuf namoyandalari haqidagi “Rashahot ayn al-hayot” – “Obi hayot tomchilari” asari muallifini aniqlang.

A. Husayn Voiz Koshifiy
B. Faxriddin Ali Safiy
S. Xoja Ahror Ubaydulloh Valiy
D. Xoja Muhammad Porso

7. “Bu asar bo’lmaganda, biz tasavvuf nima ekanligini bilmagan bo’lardik” Yahyo as-Suhravardiy bu gapida qaysi asarni nazarda tutgan?

A. “Tarix as-sufiyya”
B. “Tabaqot as-sufiyya”
S. “At-Ta’arruf li mazhab ahl at-tasavvuf”
D. “Haqoyiq at-tafsir”

TASAVVUFGA OID SHAXSLAR, TUSHUNCHA VA ISTILOHLAR LUG'ATI⁴

1. ABDOL (arab. – avliyo(lar)) – tasavvufda valiylikning muayyan bir darajasiga erishgan guruh. Keng ma'noda avliyolar va shayxlarni ham anglatadi. Rivoyatlarda abdollar qirqta bo'lishi, birlari vafot etsa o'rinlariga boshqasi o'tishi, ular tufayli yer qoim turishi haqida aytiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodida "chiltan" so'zi bilan ifodalanadi. Islom dunyosida abdollar haqidagi ilk tizimli qarashlar al-Hakim at-Termiziy tomonidan yaratilgan.

2. ABROR (arab. – yaxshilar, pok kishilar) – tasavvufga ko'ra, darajalari o'rta hol kishilar. Ularning darajasi avliyolardan quyi, oddiy xalqdan esa, yuqori hisoblangan. Ular Allohning buyruqlarini bajaradilar, man qilgan ishlaridan saqlanib yuradilar. Tasavvufda "Abrorlarning kundalik qilib yurgan savobli ishlari aziz-avliyolarning gunoh ishlari bilan barobardir" degan arab naqli bor. Demak, avliyolar uchun shariatda buyurilgan amallarni bajarish bilan cheklanib qolish noqislik hisoblanadi. Ular o'z zimmalariga bir qancha qo'shimcha ibodatlarni olgan bo'ladilar.

3. ABU SA'YID MAYXONIY (Mixoniy, Mixni), Fazlulloh Ahmad ibn Abu-l-Xayr (967-1049) – tasavvufning sharqiy (Xuroson) maktabi asoschilaridan biri. Xuroson viloyatining Mayxona degan shaharchasida tug'ilib, o'sha yerda vafot etgan. Uning otasi sufiy doiralar bilan aloqador bo'lib, o'g'lini ham shu davralarga olib kirgan. Ana shunday sufiyona yig'inlardan birida Mayxoniylar shoir Abu-l-Qosim Bishr ibn Yasin (vaf. 990 y.) bilan tanishtiriladi va u Mayxoniyning sufiylikdagi birinchi ustoz bo'lib, keyinchalik Mayxoniy o'z va'z-nasihatlarida uning she'rlaridan iqtiboslar keltirgan. O'smirlik chog'larida Mayxoniy Marvga borib, besh yil mobaynida Abu 'Abdulloh Muhammad al-Xisriy (vaf. 983-1000

⁴ Ushbu lug'atni tayyorlashda N.Komilov, A.Jo'zjoniy, A.Mansur hamda boshqa bir qancha taniqli o'zbek, arab va rus olimlarining tasavvufga oid kitoblaridan foydalanildi.

y.lar oralig'i), so'ngra yana besh yil Abu Bakr 'Abdulloh al-Qaffol (vaf. 1026 y.)dan shofe'iylik fiqhi bo'yicha tahsil olgan; Saraxsda shofe'iy faqihi Abu 'Ali Zohir ibn Ahmad (vaf. 999 y.) rahbarligida tafsir, hadis va kalom ilmlarini o'rgangan. Devonai Luqmon Saraxsiy o'sha yerda (taxm. 997 y.) Mayxoniyni Abu-l-Fazl Muhammad as-Saraxsiyning xonaqohiga boshlab kelgan. U Mayxoniyni ilohiyot fanlarini o'rganmaslikka ko'ndiradi, unga o'zi pir bo'lib, Mayxonaga qaytishni va faqat "Alloh" deb, zikr bajo etishni topshirgan. Mayxoniy Mayxonada 15 yil umr kechirib, shundan deyarli yetti yilini to'liq uzlatda o'tkazdi va o'zini odamlardan chetga olib, majburiy ochlikda yashagan. Bu davrda u "chillai ma'qus"ni (boshini pastga qilib osilgan holda 40 kunlik ro'za davrida zikr ado etish) mashq qilgan va bu holat uning 40 yoshga to'lgunicha (yoki hatto undan ham ortiq muddat – 1016 y.gacha) davom etgan. Mayxoniy birinchi sufiylik xirqasini mashhur sufiy Abu 'Abdurrahmon as-Sulamiydan (vaf. 1021 y.) Nishopur shahrida olgan, ikkinchisini esa, Amulda sufiy Abu-l-'Abbos Ahmad ibn al-Qassobdan olgan. Mayxoniy hayotining qolgan qismini taniqli murshid sifatida o'tkazgan. U Mayxonadagi o'z uyida, shuningdek, shahar chetidagi yolg'iz hujrasida, ba'zan Nishopurga borganda o'zining ko'plab muridlariga va'z, pand-nasihatlar qilgan. Mayxoniy tomonidan musiqa, raqslar va shahvoniy mazmundagi qo'shiqlarning samo' tarkibiga kiritilishi unga nisbatan keskin tanqid qiluvchilarning ko'payishiga sabab bo'ldi, u shariat yo'lidan chekinishda va hatto ilohiyotchilar tomonidan kofirlikda ayblandi. Mayxoniy o'zining xonaqohlarda yashovchi muridlari uchun o'nta banddan iborat odob-axloq qoidasini ishlab chiqqan birinchi sufiy shayx hisoblanadi. Bunga qo'shimcha tarzda u murshid uchun majburiy bo'lgan o'nta sifatni va muridlar uchun zaruriy bo'lgan o'nta xususiyatni belgilab berdi. Mayxoniy tasavvufning mahalliy maktabiga asos soldi. Keyinchalik, uning ko'plab avlodlari bu qarashlarni o'zlari yashagan viloyat hududidan tashqarisida tarqata olmadi. Bu mahalliy maktab 1154 yilgacha mavjud bo'lib, shu yili qo'zg'olon ko'targan sahroyi urug'lar butun Xurosonni talon-toroj qilib, Mayxonani egallagach, Mayxoniy avlodlaridan

bo'lgan 115 kishini qatl qildilar. Mayxoniyning qarashlari ancha ziddiyatli bo'lib, "Xudo ishq bilan mast" sufiylar g'oyasiga yaqin. "Bechoralarga xizmat qilish" shiori Mayxoniy qarashlariga xos xususiyat edi. U malomatiya ta'limotiga muvofiq, qalandarlik bilan xayru ehson to'plab, shogird va muridlari hamda yon-atrofidagi aholining manfaat va ehtiyojlarini qondirishni o'ylagan. Keyinroq u yaratgan maktab amaliyoti Movarounnahr hududida ham tarqalgan.

4. ABU TUROB an-NAXSHABIY (vaf. 875 y.) – Naxshablik (hoz. Qarshi) avliyo. An-Naxshabiy Xuroson mashoyixlari orasida mashhur bo'lgan. Qirq marta haj qilgani rivoyatda uchraydi. O'zining ma'ruza va suhbatlarida kishilarni nafsni tiyish, sabr-qanoatli bo'lish, shariat, tariqat va ma'rifat yo'lini tutishga chaqirgan. Zamondoshlari uni "ma'no shohining mardoni", "taqvo osmonining oyi", "haqiqat ilmining orifi", "qutbi zamon" deya ta'riflashgan. An-Naxshabiy haqida el orasida ko'plab naqlar yoyilgan. Shulardan yigirmaga yaqini Muhammad Siddiq Rushdiyning "Avliyolar sultoni, turonlik avliyolar" kitobida (Toshkent, 1995) keltirilgan. Basra dashtida vafot etganligi rivoyat qilinadi. Qabri Qarshi shahrida.

5. AVLIYO (arab. – "valiy" so'zining ko'pligi, Xudoning do'sti) – tasavvufda Allohning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, uning buyurganlarini bajarib, gunoh ishlardan o'zini saqlovchi, dunyo lazzati va shahvoniy ishlardan yuz o'g'irgan kishini anglatadi. Islom an'anasida avliyolar qaysidir bir ishi, xizmati yoki xislati tufayli Allohning marhamatiga erishgan, duolari mustajob, solih, qobil va kamtar kishilar bo'lib, ularning darajasi payg'ambarlar darajasidan keyin turadi, deb hisoblanadi. Hanafiy mazhabida mozorlarni, jumladan, avliyolarning mozorlarini ziyorat qilib, ibrat olish savobli amallardan biri sifatida qaraladi. "Do'st" ma'nosini bildiruvchi valiy (ko'pligi "avliyo") Qur'onda ikki xil ma'noda kelgan: 1) "Allohning panohida bo'lgan va ishlarini Alloh boshqarib turgan hamda uni nafsiga o'lja qilib tashlab qo'ymaydigan kishi" sifatida. 2) "Allohgga itoat – ibodatini o'rniga qo'ygan kishi" ma'nosida. Qur'onda Allohning do'stlari ko'p marotaba zikr qilingan, shulardan eng mashhuri: «Ogoh bo'lingizkim, albatta, Allohning do'stlariga

biron-bir xavf-xatar yo'qdir va ular g'amgin bo'lmaydilar. Ular imon keltirganlar va taqvo qilganlardir» (Yunus 10:62-63) bo'lib, bu yerda imon keltirgan va parhezkor bo'lgan har qanday kishini Alloh o'ziga do'st tutishi zikr qilinadi.

Bir kishining valiy bo'lishi uchun mazkur ikki fazilatga ega bo'lmog'i kerak. Bu fazilatlarga ega bo'lgan valiy – bandalik vazifalarini eng mukammal tarzda bajaradigan, Allohdan qo'rquvchi, shu tariqa Unga do'st bo'lgan, Alloh ham uni bu fazilatlari tufayli har qanday holatda omonlikda va O'z hifzu himoyasida saqlaydigan zot demakdir.

Valiylilik o'z darajasiga ko'ra ikki xil bo'ladi: umumiy va xos. Umumiy valiylilik – barcha ixlosli mo'minlar erishishi mumkin bo'lgan daraja. Xos valiylilik – yuqori maqomlarga erishgan sufiylarning darajasi. Mashhur sufiy al-Hakim at-Termiziy (vaf. 932 y.) xos avliyolarning tabaqaviy bosqichlari mavzusiga birinchilardan bo'lib batafsil to'xtalib o'tgan. Mazkur tabaqaviy bosqichlarning yuqori nuqtasida *qutb* turadi, undan quyida uch *naqib*, keyin esa, to'rt *avtod*, yetti *abror*, qirq *abdol*, uch yuz *axyor* va yana to'rt ming ko'z ilg'amas avliyolar o'rab turadi. Shunday qilib, valiylilik ma'naviy-ahloqiy barkamollik timsoli bo'lib, shariatning barcha buyruqlarini bajarish barobarida sulukning talablarini ham ado etgan har qanday ixlosli kishi erishishi mumkin bo'lgan martaba hisoblanadi.

Tasavvuf agiografik manbalarining asosiy mavzularidan biri ham avliyolarning ibratli hayot yo'llari hamda ularning ko'rsatgan karomatlaridir. Avliyolarning suv yuzasida yurish, havoda uchish, uzoq masofalarga bir zumda ko'chib o'tish, o'z muridlari ichidagi fikrlarni o'qiy olish, kasallarni bir nazarning o'zi bilan davolash, muridlarining og'irlarini masofadan turib yengillashtirish, ularning mashaqqatlariga uzoqdan turib sherik bo'lish, yegulikning g'oyibdan paydo bo'lib qolishi kabi ko'rsatgan karomatlari tasavvufiy adabiyotning doimiy diqqat nazarida turgan mavzulardir. Bu esa, avliyolarning hayotlik vaqtlarida ham, vafotlaridan keyin ham odamlar o'rtasida ularga nisbatan o'ziga xos munosabat va marosimlarning shakllanishiga olib kelgan. Bu munosabatlar

ba'zan xalqona urf-odatlarga ham singib ketgan. Masalan, befarzand ayollarning avliyo manzili yoki uning maqbarasini ziyorat qilib, o'yinchoq beshik yoki latta bog'lashi hamda agar ziyoratdan so'ng farzand tug'lsa, uni shu avliyoga nazr qilishi, Nazirjon, Hazratqul, Pirimqul, Niyozbek, Ho'jamberdi, Pirniyoz kabi ismlar qo'yish, qurbonliklar keltirish va boshqa marosimlar. Turklarda yovuz kuchlardan saqlanish uchun yangi tug'ilgan farzandni avliyoga ramziy ma'noda "sotish" marosimi tarqalgan. Bunday holatda bolalar Satilmish, deb atalgan. O'zbeklarda esa Sotiboldi, Sotqinoi kabi ismlarning qo'yilishi bolani "sotish" marosimi bilan bog'liq. Avliyolar mozarlarini ibrat olish uchungina ziyorat qilish hanafiy mazhabida savobli ish hisoblanadi. Islomda qabrlar ustiga sag'analar barpo etish ko'p ham ma'qullanmasada, o'rta asrlardan boshlab avliyolar qabrlari ustiga maqbaralar qurish keng tarqaldi. Keyinchalik ba'zi maqbaralar atrofida xonaqoh, zoviya, tak'ya, chillaxona va zikrxonalar paydo bo'lgan. XII asrdan keyin agiografik manbalarda avliyolarning karomatlari haqidagi rivoyatlar ko'paygani kuzatiladi. Bu ayrim muridlarning o'z shayxlarini ulug'lash va o'z va'zlarini ta'sirchan qilish nuqtai nazaridan ba'zan mubolag'a bilan keltirgan rivoyatlaridir. Xalq orasida esa avliyolarning karomatlari haqidagi ba'zi rivoyatlar avloddan-avlodga o'tib kelib, mubolag'ali tafsilotlar bilan boyitilib, folklor namunasiga aylanib qolgan. Avliyoning karomatlari haqidagi rivoyatlar o'z navbatida uning qabrining boshqalarga nisbatan "fayzliroq" bo'lishiga, natijada esa ko'proq ziyorat qilinishiga sabab bo'lgan.

6. ADAB (arab.) – tasavvufda tariqatdan saboq beruvchi pir yoki shayx va saboq oluvchi murid yoxud solikning rioya qilishi zarur bo'lgan qonun-qoidalar. Shayxlar va soliklar adabi xususida ko'plab asarlar yozilgan.

7. AYNU-L-YAQIYN (arab. "ko'z bilan ko'rib hosil qilingan ishonch") – islom dini manbalarida ishonch uch darajaga bo'lingan:

1. Ilmu-l-yaqiyn – bunda biror bir xabar eshitib yoki o'qib bilinadi, lekin o'sha xabarning rost yoki yolg'onligi aniqlanmagan bo'ladi.
2. Aynu-l-yaqiyn – bunda eshitib yoki o'qibilingan narsani ko'z

bilan ko'rib ishonch hosil qilinadi, lekin bu ishonch hali mukammal emas. 3. Haqu-l-yaqiyn – bunda eshitib yoki o'qib, so'ng ko'z bilan ko'rgandan keyin o'sha narsani qo'l bilan ushlab ko'rish, iste'mol qilish va boshqa sinov yo'llari bilan uning haq ekaniga qanoat hosil qilinadi. Misol: bir odam kelib bozorda xurmo sotilayotgani haqida xabar berdi (ilmu-l-yaqiyn). Borib ko'rsangiz, haqiqatdan bir odam xurmoga o'xshagan narsa sotyapti (aynu-l-yaqiyn). Bir dona olib yeb ko'rib, uning xurmo ekaniga qanoat hosil qildingiz (haqu-l-yaqiyn).

8. 'AYNU-L-QUZOT, asl ismi 'Abdulloh ibn Muhammad ibn 'Ali Miyonjiy al-Hamadoni (1099-1132) – shayx va mutasavvif. Hamadon shahrida tug'ilgan. Uning ilohiy hikmat va tabiatshunoslik ilmlariga oid "Yazdon shenox" ("Xudoni tanish"), tasavvufning o'n asosini talqin qiluvchi "Tamhidot" ("Tekislash"), Xudoning sifatlari va zotiga bag'ishlangan "Zubdatu-l-haqoyiq" ("Haqiqatlar qaymog'i") kitoblari bor. U aqlni bilim hosil qilishning muhim vositasi, deb bildi. Mufakkir fikricha, aql faqat moddiy dunyodagi voqealarnigina tushunib yetishi mumkin, Haqning mohiyatini anglashda esa, ojizdir. Aynu-l-quzot insonning mohiyatini ishq tashkil etadi, ishq vositasidagina inson kamolotga erishadi, ishq dunyoni harakatlantirib turadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, oliy darajadagi ilohiy ishq quyi darajadagi insonning dunyoviy ne'matlarga bo'lgan rag'batini inkor etmaydi, balki uni to'ldiradi. "Kimki Xudoni sevsan, uning Rasuli, o'zining piru murshidi va o'z hayotini ham sevishi lozim", – deb yozadi. Aynu-l-quzot bir necha yil qozi'u-l-quzot – bosh qozi bo'lib ishlagan va adolat yo'lini tutgan, diniy ixtiloflarga qarshi turgan. Uning ijtimoiy-axloqiy fikrlari O'rta Osiyo, Ozarbayjon, Eron mufakkirlariga ta'sir o'tkazgan.

9. ARSLONBOB (taxm. XI a.) – turkistonlik mashhur sufiy. Arslonbobning hayoti, sufiylik faoliyati haqidagi ma'lumotlar nasabnoma (shajara)larda va qo'lyozma manbalarda qisqa berilgan. Ahmad Yassaviyning birinchi ma'naviy ustози bo'lgan. Yosh Ahmad uning rahbarligida sufiylik tariqatining murakkab amaliy va nazariy bilimlarini olgan. Rivoyat qilinishicha, Arslonbob Qirg'iziston

hududidagi shu nom bilan ataluvchi qishloqqa dafn qilingan. Maqbarasi hozirgacha saqlanib qolgan va ziyoratgoh hisoblanadi.

10. 'ATTOR 'Alouddin, Xoja 'Alouddin 'Attor, Muhammad ibn Muhammad al-Buxoriy (vaf. 1399 y.) – mashhur mutasavvif shayx. Bahouddin Naqshbandning xalifasi va kuyovi. 'Attor madrasani tugatmasdanoq Naqshband sulukiga kirgan, bir umr piri yonida bo'lgan. Buxoroda vafot etgan. Naqshbandning boshqa bir xalifasi – Xoja Muhammad Porso 'Attor iltimosi bilan “Risolai qudsiya” (“Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari”) kitobini bitgan va unda 'Attor tilidan o'z piri haqidagi o'nlab rivoyat va xotiralarini keltirgan. Ularda Naqshbandning tarjimai holi, hayot tarzi, odatlariga oid qimmatli ma'lumotlar, hikmatli so'zlar bayon etilgan. Ular keyinchalik Naqshband hayoti va tariqati haqidagi ko'pgina risolalar, jumladan, ular ichida eng e'tiborlisi – Muhammad Boqir ibn Muhammad 'Alining “Maqomoti Xoja Naqshband” (“Bahouddin Naqshband”, Toshkent, 1993) asari uchun muhim manba bo'lgan.

11. 'ATTOR Fariduddin, Muhammad ibn Abu Bakr ibn Ibrohim (1148/51-1220) – fors mutafakkiri, mutasavvif shoir. Nishopur yaqinidagi Xadkana (Kadkon) qishlog'ida tug'ilgan. Otasining izidan borib, dorishunoslik va tabiblik qilgan. Hajga borgan, Misr, Iroq, Shom safarida bo'lgan, atoqli sufiylar bilan uchrashib, din va tasavvuf arboblarning hayoti hamda faoliyatini o'rgangan. Zamonasining tariqat peshvolaridan biri bo'lib, “Fariduddin” (“dinda yagona”) va shayx unvonlarini olgan. Mo'g'ullarning Eronga birinchi bosqini paytida dushman qo'lida halok bo'lgan, degan rivoyatlar bor. Nishopurda dafn etilgan. “Ilohiynoma”, “Musibatnoma”, “Mazharu-l-ajoyib”, “Asrornoma”, “Haydarnoma”, “Javharu-z-zot”, “Hayloj”, “Muxtornoma”, “Xusravnoma”, “Sharhu-l-qalb”, “Bulbulnoma”, “Me'rojnoma” kabi asarlarida ilohiy ma'rifat g'oyalarini targ'ib etgan. Haq va haqiqat sirlarini kashf qilishga uringan. Asosiy asarlaridan biri “Mantiqu-t-tayr” (“Qushlar tili”) dostoni (1175) sufiylikning eng yirik adabiy yodgorligi hisoblanadi. “Tazkirat ul-avliyo” asari ham tasavvuf doiralarida mashhur bo'lib, unda o'nlab aziz-avliyolarning

hikmatli soʻzlari, ibratli hayoti va koʻrsatgan karomatlari bayon etilgan. ‘Attor oʻz sheʼrlarida darvishlik axloqiga oid gʻoyalarni mujassamlantirgan. Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda “Mantiqu-t-tayr” va “Ilohiynoma” dan ayrim parchalar (“Ilohiynoma”, Toshkent, 1994) hamda “Tazkiratu-l-avliyo” (“Avliyolar kitobi”, Toshkent, 1997) asari oʻzbek tilida nashr etildi.

12. AHROR (arab. – “hur” soʻzining koʻpligi) – islomda “hur”, “ozod” maʼnolarini anglatuvchi tushuncha. Tasavvufda uch xil asirlikdan xalos topgan kishiga “hur” unvonini beriladi. Birinchisi – hayvoniy va shahvoniy xohish-istaklarni yengib, ularning asirligidan qutulish. Bu martabaning nomi – “hurriyati omma”. Bu xususiyat hammada ham boʻlishi mumkin. Ikkinchisi – ortiqcha orzu-havaslardan voz kechish. Bu – “hurriyati xossa” atalib, u tasavvuf ahlining koʻpchiligida topilishi mumkin. Uchinchisi – barcha dunyoviy amallar, anʼana va mashgʻulliklardan dilni pok tutish. Bu – “hurriyatu xossati-l-xossa” atalib, u tasavvuf ahlining ayrimlarigagina nasib etadi, deb hisoblanadi.

13. BADAVIY, Abu Fityon (yoxud Abu-l-‘Abbos) Ahmad Sayyidiy ash-Sharif al-Badaviy (1199-1276) – badaviya (yoki ahmadiya) tariqati asoschisi, Misr xalqi hozirgacha eʼzozlaydigan mashhur sufiy. VII asr oxirida Fes shahridan Magʻribga koʻchib kelgan va oʻz shajarasini ‘Aliga (r.a.) bogʻlagan oilada tugʻilgan. 1210 yil Makkaga kelgan. Bu yerda al-Badaviy shofeʼiylik huquqi va Qurʼon yod olish bilan mashgʻul boʻlgan. 1230 yilda otasi vafotidan keyin al-Badaviy odamlardan uzoqlashib, yolgʻiz zohidona turmush kechirgan, u faqat imo-ishora vositasida odamlar bilan muloqotda boʻlgan. 1236 yil al-Badaviy oʻz tushining taʼbiriga amal qilib Iroqqa borgan va u yerda ‘Abdulqodir al-Giloniy (al-Jiloniy) va Ahmad ar-Rifoʻiy maqbaralarini ziyorat qilgandan soʻng Batoʻik shahrida rifoʻiylar tariqatiga qabul qilingan. 1237 yilda al-Badaviy Misrning Tanta shahriga koʻchib kelib, shu yerdagi rifoʻiylarga rahbarlik qilgan. Bu yerda u oʻzining darvishona turmush tarzi bilan xalq orasida shuhrat qozongan. Tantada vafot etgan. Xalq orasida uning “moʻjizakor” kuchi haqida koʻplab rivoyatlar tarqalgan. Al-Badaviyning vafotidan soʻng, uning

xalifasi va vorisi Solih ‘Abdulol (vaf. 1333 y.) uning qabri ustiga masjid qurdirgan, u avliyoni ziyorat qilish markaziga aylangan. Al-Badaviyga sig‘inish Misrning qadimiy qibtiiy-xristian urf-odatlarini o‘zida uyg‘unlashtirib yuborgan. Ko‘pchilik misrlik musulmonlar al-Badaviyning Tantadagi maqbarasini ziyorat qilib, keyin haj ziyoratiga borishgan. Shundan uning “Bob un-nabiy” (“Payg‘ambar darvozasi”) laqabi kelib chiqqan. Oddiy xalq orasida u as-Sayyid (“janob”), tariqat a‘zolari uni – “qutb” deb ataganlar. Mag‘rib badaviylari kabi bosh kiyim kiygani uchun “al-Badaviy” laqabini olgan, deb hisoblanadi. Al-Badaviy Misrda xonanda ayollar va raqqosalar uyushmasining rahnamosi ham hisoblangan, shuningdek, u yo‘qolgan narsalarni, jumladan yo‘qolib qolgan bolalarni topishda ko‘mak beruvchi shaxs sifatida mashhur bo‘lgan. Al-Badaviy qabriga va shaxsiga sig‘inishni, ayniqsa Tantaga ziyorat qilishni ulamoyu fuqaholar doimo qoralab kelishgan. 1498 yil ularning qat’iy talabi bilan mamluk sultoni az-Zohir Chaqmoq al-Badaviy qabrini ziyorat qilishni taqiqlash haqida farmon chiqargan. Al-Badaviyga e’tiqod qilish xalq orasida juda chuqur ildiz otib ketganligi bois farmonning ta’siri bo‘lmagan. Usmonli turk saltanati davrida mavlaviylik, bektoshiylik, naqshbandiylik kabi qudratli sufiy tariqatlari tarafdorlarining talabi bilan Badaviy qabrini dabdabali suratda ziyorat etish ancha kamaygan.

14. BADAVIYA al-badaviya (yoxud ahmadiya) – sufiylik tariqati. Misrda Ahmad al-Badaviy asos solgan. Badaviya amaliyotda qodiriylar va rifo‘iylarga yaqin turadi. Badaviyaning tashkiliy asoslari aniq belgilanmagan. Mahalliy zoviya va jamoa rahbarlari nomigagina tariqat rahbariga itoat etib, kamdan-kam hollarda undan fatvo olganlar. Tariqat qarorgohi asosiy ziyoratgoh – Tanta shahrida joylashgan. 1333 yil tariqat asoschisining vorisi Solih ‘Abdulol vafotidan so‘ng badaviyaga rahbarlik qilish meros bo‘lib o‘ta boshlagan. XIV–XV asrlarda ayrim mamluk sultonlari badaviya bilan aloqa bog‘lashgan. Badaviya uzoq vaqt mobaynida (XX asrning 50-yillarigacha) Misr xalqi orasida o‘z ta’sirini saqlab kelgan. Badaviyadan kamida 15ta tarmoq ajralib chiqqan, ularning

ayrimlari (mas., dasuqiya-burhoniya) mustaqil tariqatga aylangan. Badaviyaga Misr xalqining qadimiy islom va xristianlikdan avvalgi diniy e'tiqodlari, urf-odatlarini qorishib ketgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, 'Abdolvahhob ash-Sha'roniy (1493-1565) badaviyani shariat yo'lidan og'ganlikda ayblagan. Badaviya tarafdorlari o'ziga xos qizil rangda kiyim kiyib, ularning xirqasi va 12 shokilali uzun qalpoqlari, shuningdek, bayroqlari ham qizil bo'lgan. Ular odatda chorshanba kunlari Tantadagi markaziy ziyoratgohda, maxsus xonalarda va Qohiradagi al-Husayn masjidida jamoa bo'lib zikr tushishgan. Unda maxsus qo'shiqchi xonishi va nog'ora sadosi ostida davra bo'lib zikr tushganlar. Davra bo'ylab aylanayotgan zikr ishtirokchilari vaqti-vaqti bilan chuqur ta'zim bajo keltirib, shu holatda qo'llarini oldinga cho'zganlar. Tariqat a'zolari o'zaro uchrashganlarida qo'l siqishib ko'rishganlar. Tariqat yilda uch bayramni nishonlagan. Bayram sanalari qadimiy qibtiy quyosh taqvimiga qarab belgilangan. Birinchi bayram sanasi "ilohiy cho'qintirish" kuniga to'g'ri keladi, qolgan ikki sana Nil daryosi suvining ko'tarilishi muddati bilan bog'liq (hosildorlikka bag'ishlangan marosim). Bayramlar vaqtidagi tartib ustidan badaviya a'zolaridan tuzilgan maxsus qo'riqchilar – Nuh avlodlari nazorat yurgizishgan. Ularning belida yog'och qilich, qo'llarida arqon qamchin, bo'yinlarida turli rangdagi munchoq shodasi bo'lib, u ko'krakka tushib turgan; bosh kiyimlarining tepasida rangli tizimchalardan qilingan tutama (o'ram) bo'lgan.

15. BAQO VA FANO (arab. baqo – boqiylik, barqarorlik; fano – foniylilik, yo'qolish, o'tkinchilik) – islomdagi tasavvuf bilan bog'liq tushuncha. Islom dinida baqo – Alloh sifatlaridan biri. Tasavvufda baqo Allohning boqiy do'sti bo'lib qolish uchun o'zidan voz kechish, barcha yaxshi sifatlarni o'zida mujassam qilish, deb ham tushuniladi. Fano – o'zidagi barcha yomon sifatlarni yo'q qilish yo'li bilan Allohga yaqinlik hosil qilishdir. Tasavvufda solik fano maqomiga yetgach, Allohning haqligi va ulug'ligi to'g'risidagi fikru zikrga g'arq bo'lib, bu foniyl dunyodagi jamiki narsalarni unutib yuboradi. Bu maqom "fano filloh" deb ataladi.

16. BAHOUDDIN NAQSHBAND, Muhammad ibn Muhammad Bahouddin an-Naqshband al-Buxoriy (ko'proq Bahouddin yoki Xoja Bahouddin Balogardon, Xojai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashhur) (1318-1389) – mashhur avliyo, naqshbandiylik tariqatining eponimi. Buxoro viloyatining hozirgi Kogon tumanidagi Qasri Hinduvon qishlog'ida tug'ilib, shu yerda vafot etgan. Bu qishloq keyinchalik Bahouddin Naqshband sharafiga Qasri Orifon deb atalgan. Bahouddin Naqshbandning oilasi va farzandlari to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Otasi to'quvchi hamda o'yma naqsh soluvchi (naqshband) bo'lgan. Bahouddin Naqshbandning bobosi sufiylar bilan yaqin munosabatda bo'lib, nabirasida ham tasavvufga katta qiziqish uyg'otdi. Bahouddin Naqshband Muhammad Boboyi Samosiy, Sayyid Amir Kulol, mavlono Orif Revgariy, Xalil ota, Qusam Shayx kabi ustozlardan saboq oldi. Bahouddin Naqshbandning deyarli butun umri Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda sufiylik targ'iboti bilan o'tgan. U ikki marta haj qilgan. G'aribona hayot kechirgan, faqat o'z mehnati – dehqonchilik va keyinroq duxobaga naqsh (gul) solish bilan kun kechirgan. Yusuf Hamadoniy va 'Abdulxoliq G'ijduvoni g'oyalari va ta'limoti asosida vujudga kelgan “Dil-ba yor-u dast-ba kor” (“Ko'ngil Xudoda bo'lsin-u qo'l ish bilan band bo'lsin”) degan shiori uning ta'limotini mashhur qildi. Bahouddin Naqshband tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Uningcha, Allohga intilish ko'ngil bilan amalga oshishi kerak. Qo'l esa, mehnat bilan band bo'lsin. Bahouddin Naqshbandning tarkidunyochilik qilmay, bu dunyo ishlaridan ochiq-oshkor qo'l silkimay turib ham Allohga mukammal itoat etish mumkinligi haqidagi g'oyasi musulmon olamida tasavvufning juda keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minladi. Bugungi kunda Bahouddin Naqshbandning Buxorodagi qabri ziyoratgoh hisoblanadi. Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti hamda naqshbandiy shayxlar to'g'risida talay asarlar yaratilgan. Birgina O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasining o'zida naqshbandiylikka doir 195ta kitob mavjud. Bahouddin Naqshband

tavalludining 675 yilligi 1993 yil O'zbekistonda keng nishonlandi. Unga bag'ishlab qator asarlar nashr etildi, xalqaro ilmiy anjumanlar bo'lib o'tdi. Bahouddin Naqshband nomi bilan bog'liq yodgorliklar qayta tiklandi.

17. BEDIL (taxallusi; asl ismi Mirzo 'Abdulqodir) (1644-1721) — shoir va mutafakkir. Ota-bobosi kesh(shahrisabz)lik, turkiy barlos urug'idan. Yoshligidan turli fanlarga qiziqqan. Shayx Kamol, Shoh Fozil va Mirza Abu-l-Qosim kabi olimlardan ta'lim olgan. Hindiston bo'ylab ko'p sayohat qilgan, 1685 yildan umrining oxirigacha Dehlida yashagan. Uning falsafiy-axloqiy qarashlari tasavvuf ta'limoti ta'sirida shakllangan. Bedil dunyoqarashi tasavvufning "vahdatu-l-vujud" ta'limotiga asoslanadi, ya'ni olamni Allohning ko'zgusi, inson qalbini shu ko'zguning markazi, deb biladi. Inson qalbi qanchalik sayqal topsa, u shunchalik Alloh nurini aks ettiradi, deb hisoblaydi. Bedil 120 ming misradan ortiq she'riy, ko'pgina nasriy asar yozgan. Yirik asari "Chor unsur" ("To'rt unsur", 1703 y.) nasrda yozilgan bo'lib, uning dastlabki boblarida Bedil o'z hayoti haqida hikoya qiladi. So'nggi ikki bobda esa, to'rt unsur – havo, suv, yer, olov to'g'risida; o'simliklar, hayvonlar va odamning paydo bo'lishi, mutlaq ruh, ruh va narsalar, din hamda ruhoniylarning o'rni haqida fikr yuritadi. Kitobda parilar, jinlar, uyqu, tush ko'rish haqida hikoya va afsonalar ham mavjud. Bedil "Irfon" ("Bilim", 1711-12; "Komde va Mudan", "Nukot" asarlari ham shuning tarkibida) dostonida falsafa, tarix, tibbiyot, adabiyot va ilohiyotning xilma-xil masalalariga to'xtalgan. Borliq, yo'qlik, fano, baqo singari falsafiy-tasavvufiy masalalar haqida fikr bildirgan. U hind falsafasidagi tanosux nazariyasi hamda islom falsafasidagi tavakkul ta'limotini tanqid qiladi. Bedilning ijtimoiy qarashlarida ma'rifatparvarlik, muruvvat va odamiylik mavzulari asosiy o'rinni egallaydi. Bedil asarlari XIX asrda O'rta Osiyoda keng tarqaldi. Bedil Turkistonda "Abu-l-ma'oni" ("Ma'nolar otasi-egasi") degan nom olgan.

18. BEKTOSHIYLAR, bektoshiya – Turkiyada tarqalgan tasavvuf tariqati. Kichik Osiyoda XII a. oxiri – XIV a. boshida mahalliy turk ko'chmanchi va o'troq aholisi orasida paydo bo'lgan. Tariqatning

nomi Hoji Bektosh Rumiyan boshlanadi. Bektoshiya tariqatining haqiqiy asoschisi va'xon va qalandar Hoji Bektoshi Valiy Nishopuriy Xurosoniy (1208-1270) hisoblanadi. Uning silsilasi esa, turkistonlik shayx Ahmad Yassaviyga, undan esa, shia imomi Muso al-Kozimga taqaladi. Bektoshiya a'zolari shialardek hazrati 'Ali va 12 imomga, ayniqsa, 6-imom Ja'far as-Sodiqqa alohida ehtimom ko'rsatadilar. Hoji Bektosh Kichik Osiyoda tez shuhrat qozondi. Bu tariqat ko'proq qishloq aholisi orasida qo'llab-quvvatlangan. Vaqti kelib bektoshiya keng tarmoq yoygan tashkilotga aylangan, o'zining belgisi va maxsus kiyimiga ega bo'lgan. Bektoshiya tariqatining qat'iy uyushgan jamoaga aylanishida "Ulug' pir" Balim Sultonning (vaf. 1516 y.) ta'siri katta. Ilmiy adabiyotda uni "Ikkinchi pir" ("Piri soniy") deb atashadi. Balim Sulton o'zini Hoji Bektosh Rumiyning avlodi, deb e'lon qilgan va tariqat tuzilishiga aloqador bir qator islohotlarni amalga oshirgan. Bektoshiya ayni Balim Sulton zamonida keng tarqalib, yanicharlar (Turkiyadagi imtiyozli maxsus askarlar) orasida yoyilgan, ular orqali davlat ishlariga o'z ta'sirini kuchaytirgan. 1826 yilda Sulton Mahmud II yanicharlar korpusini tugatgach, bektoshiya faoliyati taqiqlandi. Uning yirik rahnamolari qatl etildi. Bektoshiya tarafdorlari esa, Bolqonga va Albaniyaga tarqalib ketdi. Lekin hozir ham bektoshiya tarafdorlarini Turkiya va Iroqda uchratish mumkin. Bektoshiya turk xalqi diniy-mistik dunyoqarashining shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, uning madaniyati, musiqasi va ayniqsa adabiyotining rivojiga ham katta hissa qo'shgan.

19. BISTOMIY, Abu Yazid (Boyazid) Tayfur ibn Iso ibn Surushon al-Bistomiy (vaf. 875 y.) – fors tasavvufida tayfuriya sufiylik yo'nalishining piri. Uning bobosi islomni qabul qilgan zardushtiylardan bo'lgan. Abu Yazid butun umrini, asosan, Bistomda o'tkazgan. Vafotidan keyin uni "Sulton al-orifin" laqabi bilan atay boshladilar. Bistomiy ta'limotiga ko'ra, inson zikr holatida o'zligini unutadi (g'alaba) va Xudo ishqidan mast bo'lib (sukr) butun vujudini his-tuyg'u qamrab oladi, pirovardida u Xudoda fano (yo'q) bo'lib (erib) ketadi. Bunday holatni u fano (mavjudlikni yo'qotish) deb

atadi va musulmon tarki dunyochiligining muhim ahamiyatli holati bo'lgan “sen mendirsan, men esa sendirman” iborasining ta’rifini berdi. Buning ma’nosi shuki, go’yo shaxs o’zligini tark etib, ilohiylikda erib ketadi va uning sifatlarini qabul qiladi. Bunday xulosa an’anaviy islom tarafdorlarining keskin qarshiligiga uchradi va Bistomiy “hulul” (ilohiylik insonga ko’chib o’tishi haqidagi ta’limot)da ayblandi. Bistomiy tasavvufning ayrim tushunchalarini ishlab chiqqan bo’lsa ham, o’zining bir butun ilohiy tizimdagi ta’limotini ishlab chiqmadi. U nazariyada ilohiy (lohut) va insoniy (nosut) ruhni bir-biriga birlashtirishga harakat qildi, ya’ni ma’naviy va moddiy ibtidoi bir-biriga qo’shishga intildi. Bistomiy o’zidan asar qoldirmagan. Uning aytgan gaplari, yo’l-yo’riq va ko’rsatmalari izdoshlari tomonidan yozib olingan. Ayrim tasavvuf kishilari Bistomiy obro’sidan foydalanib o’zlarining shariatga unchalik to’g’ri kelmaydigan fikrlarini ham Bistomiy fikri deb ko’rsatishga uringani qayd etilgan. Junayd Bag’dodiy uning hikmatlarini to’plab, an’anaviy islom normalariga moslashtirib arab tiliga tarjima qilgan.

20. VASL (arab. – “etishish”, “visol”) – tasavvufda “fano” maqomidan keyingi martaba. “Fano” maqomiga yetgan solik Allohning haqligi va ulug’ligi to’g’risidagi fikru zikrga g’arq bo’lib, foniy dunyodagi borliq narsalarni unutib yuborgan bo’lsa, “vasl” maqomiga erishgan solik Allohdan o’zga barcha borliqdan ajralib, Unga “etishgan” bo’ladi.

21. VAHDATU-L-VUJUD (arab. – birlik va borliqning bir butunligi) – abadiy yagona Allohgina bor, deb hisoblovchi ta’limot. Bu ta’limotga ko’ra, moddiy olam va narsalar dunyosi haqiqiy emas, haqiqat faqat Allohda mujassamlangan, moddiy olam Allohning tajallisidir, shu’lasidir. Vahdatu-l-vujud namoyandalari Xudo butun borliqni yaratib turadi, deb hisoblashgan. Vahdatu-l-vujud ayniqsa XVII–XIX asrlarda Hindiston va Turkistonda tasavvufning keng tarqalishiga sabab bo’lgan.

22. VAHDATU-L-MAVJUD (arab. – mavjudot birligi) – Alloh bilan birga yagona moddiy olam bor, deb hisoblaydigan ta’limot. Bu

ta'limot tarafdorlari tabiatni abadiy, deb biladi. Alloh olamning o'zida, unga singib ketgan, deb qaraydi. Vahdatu-l-mavjud vakillari odam bu dunyodan voz kechmay, tarki dunyo qilmay yashashga intilishi kerak degan fikrni olg'a suradi. Hindistonda vahdatu-l-mavjud qadimdan mavjud bo'lib, olamni moddiylik asosida tushunishga ahamiyat bergan. Shuning uchun ko'pchilik musulmon ruhoniylari bu ta'limotga shubha va ehtiyotkorlik bilan qarashgan edi. Al-Kindiy, Ibn Rushd bu ta'limotning namoyandalari hisoblanadi. Vahdatu-l-mavjud namoyandalari fikricha, tabiat abadiy, undagi narsa va hodisalar o'zaro bog'liq, dunyo hamisha o'zgarish, rivojlanish holatida turadi. Vahdatu-l-mavjud tarafdorlari musulmon sharqida tabiatshunoslik bilimlarining rivojlanishi uchun falsafiy asoslar yaratib berdi.

23. VIRD (arab. – vazifa) – tark qilmay doim bajarib turiladigan vazifa, duo; tasavvufda shayx va muridlarning kundalik o'qib yurishlari uchun zarur bo'lgan Qur'oni karim tilovati, zikr, tasbeh o'g'irish, duo va salavotlar. Ular kechki va tungi ibodatlar orasida ado etilib, tariqatning asosi hisoblanadi.

24. GURGONIY Abu-l-Qosim 'Ali (vaf. 1058 y.) – tasavvufning Xuroson maktabi shayxlaridan. Tug'ilgan va vafot etgan yili, qabrining qayerdaligi haqida aniq ma'lumotlar yetib kelmagan. 'Ali ibn 'Usmon Hujviriy (vaf. 1072 y.) "Kashf ul-mahjub" asarida Gurgoniy bilan bir necha marta (aksariyat Tus shahrida) uchrashib, ba'zi masalalarni undan so'rganligi haqida yozadi. Gurgoniyning Tusda xonaqo va masjidi bo'lib, u o'z davrining qutbi deya e'tirof etilgan. "Silsilat uz-zahab"dagi 9-piri murshid. Tasavvuf ta'limini Abu 'Usmon Mag'ribiy va Abu-l-Hasan Xarraqoniy (vaf. 1034 y.)dan olgan. Tasavvufdagi nisbasi, bir tomondan, Abu 'Usmon Mag'ribiy, Abu 'Ali al-Kotib, Abu 'Ali ar-Rudboriy orqali Junayd Bag'dodiy (vaf. 910 y.)ga, ikkinchi tomondan, Abu-l-Hasan Xarraqoniy orqali Boyazid Bistomiy (vaf. 848 yoki 875 y.)ga borib bog'lanadi. Manbalarda Gurgoniy ikki yo'nalish "sahv" va "sukr"ni o'zida birlashtirgan murshid sifatida zikr etiladi. Gurgoniy Abu 'Ali Farmadiy (1011-

1085)ning tasavvufdagi ustozidir. Shayx Abu Said Abu-l-Xayr (967-1049) bilan yaqin aloqada bo'lgan. Hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar "Tabaqotu-s-sufiya", "Risolai Qushayriya", "Nafahotu-l-uns", "Nasoyimu-l-muhabbat» singari asarlardan joy olgan.

25. DARVESH, qalandar (fors.-turkcha – qashshoq, kambag'al; arab. faqir) – tasavvufda o'zini Alloh yo'lida xizmat qilishga bag'ishlab, o'z-o'zini kamolotga yetkazish yo'liga kirgan inson. "Sufiy" so'ziga sinonim sifatida ham qo'llaniladi. Darveshlik ta'limotining asosini zikr tushish orqali Xudo bilan "yaqinlashish" va hatto, u bilan "qo'shilib ketish" mumkin, degan g'oya tashkil qiladi. Eron, O'rta Osiyo va Turkiyada darvesh so'zi tor ma'noda shaxsiy mulki bo'lmagan kambag'al, daydi zohidni (XVI asr boshigacha – "qalandar" atamasining sinonimi) anglatgan. Darveshning boshlang'ich ma'nosini bildirgan "kambag'al" so'zi sufiylikning ixtiyoriy kambag'allik, oz narsaga qanoat qilish haqidagi ta'limotidan kelib chiqqan. Darveshlar muayyan maslak (suluk)ka birlashgan va uning g'oyalarini targ'ib qilgan. Darveshlik g'oyalari aksini topgan suluklar: naqshbandiylik, yassaviylik, kubraviylik va boshqalar. Ta'limoti, amaliyoti, odati va kiyimlaridan qat'i nazar, darveshlar ikki guruh – daydi, doimo darbadarlik qilib yuruvchilar hamda shayx va pirlar rahbarligida muqim yashovchilarga bo'lingan. Darveshlarning birinchi guruhi erta bahorda dunyo bo'ylab safarga otlanganlar. Shuning uchun ularni "darbadar", eshikma-eshik yuruvchi, deb ham ataydi. Ikkinchi guruhi hunarmandlar, savdogarlar, turli darajadagi amaldorlar va boshqalardan iborat bo'lib, o'z uyida yashab, ishlari bilan shug'ullangan. Ular har kungi ibodatni bajargan, hafta yoki oyning aniq belgilangan kuni umumiy zikr tushishga qatnashganlar. Inqilobdan oldin O'rta Osiyoda ham darveshlik keng yoyilgan, darveshlarning faoliyati bilan bog'liq qalandarxonalar va xonaqohlar mavjud bo'lgan. Pokiston, Hindiston, Indoneziya, Eron va Afrikaning ayrim mamlakatlarida darveshlik suluklarining hozirgi kunda ham ta'siri bor.

26. DAHA (fors. – o‘n kunlik) – eshonlarning xonaqohlarida bo‘lib o‘tadigan o‘n kunlik toat-ibodat. Dahaning eng kattasi ramazon oyida bo‘lgan. Murid va xalifalar (erkak va ayollar) eshon huzuriga kelib, dahada talab etilgan vazifalarni bajarishgan, o‘z murshidlarining pand-nasihatlarini tinglab, undan yana “vird” (ko‘rsatmalar) olib tarqalishgan. Tasavvuf ta’limotida dahaga o‘tirish Xudo oldida tavba qilish, gunohlarni yuvish, Xudoning rahmatiga erishish hisoblangan. Daha 3 davrga: ramazonning birinchi o‘n kunligi – “dahayi rahmat”, ikkinchi o‘n kunligi – “dahayi mag‘firat”, uchinchi o‘n kunligi – “dahayi itqun minannor”ga bo‘lingan. Daha ramazondan boshqa ba’zi oylarda ham o‘tgan, ammo unga xohlagan kishilar, ko‘proq ayollar borgan. Taqvodorlar uchun xonaqoh ichida bo‘zdan pashshaxonaga o‘xshagan bo‘lmalar qurilgan. Dahaga o‘tirganlar uning ichiga kirib, ro‘za tutib, Qur’oni karim, salavot va duolar o‘qigan. Dahaning o‘xshashi e’tikof, deb ham ataladi.

27. DORU-L-FANO (arab. – foniyluk uyi) – islom dinida inson yashayotgan dunyo (bu dunyo) “foniyluk” (o‘tkinchi) ekanini bildiruvchi tushuncha. Unga ko‘ra, bu dunyo yaxshi va ezgu amallar, savob ishlar qiladigan joy; Doru-l-fanoda doru-l-baqo uchun tayyorgarlik ko‘riladi. Tasavvufda doru-l-fano g‘oyasi yanada rivoj topdi, bu dunyoga befarq qarash, dunyo lazzatlaridan voz kechish ayrim tasavvuf arboblari xos amallardan hisoblanadi. Bu dunyoni doru-l-fano deb atash IX–X asrlarda ayniqsa, malomatiylar tariqatida keng rasm bo‘lgan.

28. JAZAVA (arab. – “jazba” so‘zining buzilgan shakli) – kuchli asab qo‘zg‘alishi, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olmay qolish, xayolot va voqelik o‘rtasidagi muvozanatini yo‘qotish natijasida yuzaga keladigan ruhiyl holat. Jazavaning eng ko‘p turlari odatda shialikdagi “shaxsey-vaxsey” marosimida uchraydi. Tasavvuf istilohida esa, jazava tariqat ahlining ilohiy ishq ta’sirida shavqu zavqqa to‘lishi, zikr va samo‘ asnosida o‘zidan ketish holatlari sifatida talqin etiladi.

29. JUNAYD al-BAG'DODIY, Abu-l-Qosim al-Junayd ibn Muhammad al-Qavoririy al-Hazzoz al-Bag'dodiy (vaf. 910 y.) – tasavvufdagi ikki asosiy oqimdan biri – junaydiya asoschisi. Bag'dodda (yoki Naxovand sh.) tug'ilgan va butun umri shu yerda o'tgan. Go'dakligida otasidan yetim qolib, tog'asi, sufiy Sari as-Saqatiy (vaf. 867 y.) qo'lida tarbiyalangan. Shofe'iy huquqi va hadislarni mashhur faqih Abu Savr Ibrohim al-Bag'dodiy (vaf. 854 y.)dan o'rgangan. Tasavvufda Junaydning ustozlari Sari as-Saqatiy va al-Horis al-Muhosibiy (taxm. 781-857) bo'lgan. Ular Bag'dod sufiylik maktabi asoschilari hisoblanib, Allohning yagonaligi (tavhid)ni psixologik tajriba va his etish asosida bilish haqidagi ta'limotni ishlab chiqqanlar. Junayd Bag'dodiy sufiylikni doimiy ruhiy poklanish va turli qarashlar kurashi vositasi, deb bilgan. Uning fikricha, sufiyning hayoti Allohning yagonaligini bilish yo'lida tinimsiz sa'y-harakat qilish, o'zini Allohga abadiy tobe va uning oldida o'zini naqadar ojiz ekanini his etishdan iborat. Junayd al-Bag'dodiyning birgina asari – "Rasoil" saqlanib qolgan. Unda al-Bag'dodiyning maktublari, sufiylikka doir maqola, risolalari jamlangan bo'lib, ularning bir qismi Qur'onning ayrim oyatlariga sharh shaklida yozilgan.

30. JO'YBOR XOJALARI – Jo'ybor shayxlari – naqshbandiyluk tariqatining vakillari. Ularning Jo'ybor xojalari nomini olishi Xoja Muhammad Islomning bobosi Xoja Muhammad Yahyo Buxorodagi Jo'ybor degan yerga ko'chib kelishi bilan bog'liq. Jo'ybor xojalari o'zlarini islom dinini targ'ib qilish uchun Makkadan Nishopurga, undan Buxoroga kelgan Imom 'Ali Murtazo avlodi, deb hisoblaganlar. Jo'ybor xojalaridan Abu Bakr Sa'dga va uning avlodlariga somoniylar davrida Buxoroning shayxu-l-islomi mansabi beriladi. Abu Bakr Sa'dning nevarasi Muhammad Islom Jo'ybor xojalarining iqtisodiy va siyosiy jihatdan katta nufuzga ega bo'lishida muhim o'rin tutgan. U XVI asrning 50-yillarida Shayboniylar davlatidagi toj-taxt uchun bo'lgan kurashlarga aralashib, o'z muridi Abdullaxon II ning taxtga chiqishiga yordam beradi. Bu davrga kelib Jo'ybor xojalariga Buxorodagi Sumiton qishlog'i in'om etiladi. Jo'ybor xojalarining

ota-bobolari Buxorodagi Chor Bakr mozoriga qo'yilgani uchun XVI asrdan boshlab Jo'ybor xojalari bu joydagi qabrlar ustiga hashamatli maqbara qurib, ziyoratgohga aylantirishgan. Bu ziyoratgohlar atrofidagi katta vaqf yerlariga ega bo'lib, ularga Jo'ybor xojalari merosxo'rlar tariqasida egalik qilishgan va bu yerlar Jo'ybor xojalari xo'jaligining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Jo'ybor xojalari katta yer-mulkka, yuzlab qullarga, ko'plab chorva mollarga, sug'orish inshootlariga, savdo korxonalariga ega bo'lganlar. Ularning savdo karvonlari XVI asrning 2-yarmidayoq xorij bilan savdo aloqalari olib borgan. Mustahkam iqtisodiy poydevorga ega bo'lgan Jo'ybor xojalari shayboniylar davlatining siyosiy hayotida juda katta rol o'ynagan. Ingliz sayyohi A. Jenkinson 1559 yilda Buxoroda bo'lib, bu yerdaga ruhoniylarning rahbarlari bo'lgan Jo'ybor xojalari haqida shunday degan edi: "Buxoroda diniy rahbar bor. Unga qirolga nisbatan ko'proq quloq soladilar, u o'z xohishi bilan qirolni o'rnidan olib, boshqasini qo'ya oladi". Jo'ybor xojalari XVII asrning 1-yarmida mamlakatda paydo bo'lgan qiyin siyosiy vaziyatdan so'ng o'zlarining oldingi mavqeini yo'qotganlar.

31. ZAVQ – tasavvufda avliyolar qalbiga Alloh tomonidan ato etiluvchi ma'rifat nuri. Uning yordamida avliyolar haq va nohaq narsalarni bir-biridan osongina ajratish qudratiga ega bo'ladilar.

32. ZAYNIDDIN BOBO, Shayx Abu Bakr Zayniddin Ko'hi Orifoniy Toshkandiy (1164-1259) – tasavvuf tariqati shayxi. Otasi – Shayx Shahobiddin Abu Hafs 'Umar Suhravardiy, Bag'dodning katta mutasavviflaridan bo'lgan, suhravardiya tariqatiga asos solgan. Shayx Shahobiddin Suhravardiy 1215 yil Bag'dod xalifasining elchisi sifatida xorazmshoh Muhammad huzuriga kelgan. Shunda Shayx Zayniddin ham otasi bilan Movarounnahrda kelgan va keyinchalik Shosh(Toshkent)da, shaharning keyinchalik Ko'kcha (asl. Ko'hcha – tepalik) dahasi deb nomlangan Ko'hi Orifon hududidagi (laqabi shundan) mavjud maqbara chillaxonasida hayot kechirgan va tasavvuf targ'iboti bilan shug'ullangan. Shayx Zayniddin tarixiy manbalarda "sayyidlarning ulug'i va sharif kishilarning karomatlisi

va buyugi”, “oriflarning qutbi va ishonchli rahnamosi” deb ta’riflanadi. Shayx Zayniddin Toshkentda vafot etgan va qabri ham o’zi yashagan chillaxonaning yonida joylashgan bo’lib, keyinchalik uning ustiga maqbara qurilgan. Amir Temur 1391-92 va 1402 yillarda Shayx Zayniddin maqbarasini ziyorat qilgan va ta’mir ettirgan.

33. ZIYORAT (arab. – biror yerga yoki shaxs huzuriga borish) – muqaddas qadamjolarga, mozor va qabristonlarga borib, muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish. Ziyorat marosimi odatda qabr tepasida Qur’on o’qib, marhum haqqiga duo qilish, shuningdek xayrehson, sadaqa berish kabilardan iborat. Islom dini aqidasiiga ko’ra, mozorlarga ziyorat uchun borilganda marhumlarning ruhlaridan madad tilash, hojatlar ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishini so’rash nojoizdir. Chunki, bu kabi amallarni ro’yobga chiqarish faqat Allohning ixtiyoridadir. Ziyorat qilinuvchilar payg’ambar bo’ladimi, avliyo yoki tariqat shayxi bo’ladimi, ulardan najot so’rash o’rniga haqlariga duoi xayr qilish, sadaqa-ehson savoblarini ularning ruhlariga hadya etish o’rinlidir. Muhammad (s.a.v.) o’zlarining bir hadisi shariflarida aytadilar: “Qabristonni ziyorat qilib turinglar, zero u oxiratni eslatadi”. Ziyorat o’z navbatida mozorlar, muqaddas joylar bilan bog’liq bo’ladi. Muqaddas joylar, qadamjolar – dindorlar muqaddas deb hisoblaydigan va sig’inadigan joylardir. Bular – payg’ambar, shayx, eshon, avliyolar nomi bilan bog’liq hisoblangan va ziyoratgohga aylanib ketgan shahar, maqbara, chashma, daraxt, tepalik, g’or va boshqalardir. Har bir ziyoratgoh atrofida o’ziga xos qadimgi rivoyat va afsonalar to’plangan bo’lib, ular hissiyotlarga ta’sir qilish orqali ziyoratchilarni yuqori ruhiyat bilan marosimlarni ado etishga undaydi. Ziyorat uchun kelinadigan muqaddas joylar turli dinlarga e’tiqod qiluvchi hamma xalqlarda ko’pgina shahar va mamlakatlar bor. O’zbekistonda Imom Buxoriy (Samarqand viloyati), Bahouddin Naqshband (Buxoro viloyati), Zangi ota (Toshkent viloyati), Shayx Xovand Tohur (Toshkent shahri), Termiziy (Termiz shahri) dafn etilgan joylar va boshqalarni misol qilib ko’rsatish mumkin. Sunniylarda Makka, Madina va Quddus

shaharlari, shialarda esa bularga qo'shimcha ravishda Karbalo va Najaf shaharlari ham muqaddas ziyoratgoh shaharlari hisoblanadi. Hindlar uchun Ganga daryosi, yahudiylar va xristianlar uchun Quddus shahri muqaddas sanaladi. Ibn Taymiya ziyorat qilish uchun faqat Makkadagi Muqaddas masjid, Madinadagi payg'ambar masjidi va Quddusdagi Aqso masjidiga safarga chiqish mumkinligi ta'kidlab, Quddusdagi Ibrohim payg'ambar qabri, Alloh Muso payg'ambar bilan gaplashgan Tur tog'i, Muhammad payg'ambarga ilk oyatlar nozil bo'lgan Makkadagi Hiro g'ori, Qur'onda zikr etilgan Savr tog'idagi g'or va boshqa shu kabi joylarga ziyorat qilish uchun safarga o'tlanish ma'siyat ish ekaniga alohida urg'u beradi. Imom G'azzoliy esa qabrlarni ziyorat qilish uchun safarga chiqish mumkin ekanini aytgan. Qabristonlar o'zbek tilida "mozor", ya'ni "ziyosat qilinadigan joy" deb ham atalib, aslida aziz-avliyolarning qabrini anglatgan bo'lsada, keyinchalik bu so'z keng ma'noni ifodalay boshladi. Bu kabi ziyoratlar turli balo, ofatlardan saqlab, mushkullarni oson qilishiga e'tiqod qilingan. Asrlar davomida muqaddas joylarga qilinadigan ziyoratlar turli asossiz tafsilotlar bilan boyitilib, uni o'ziga xos qamrovli marosimga aylanishiga olib keldi. Qadamjolarga ziyorat omma orasida o'ziga xos etiketni ham shakllantirgan. Bularga amal qilmaslik esa "ziyosatdan murod hosil bo'lmasligiga sabab bo'ladi" deb ishonilgan. Omma orasida ziyorat haqidagi qarashlar quyidagi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq: Xizr, shahidlar, avliyolar, mozorlar, ziyorat bilan bog'liq tushlar, tog' va g'orlar, ziyoratgohdagi buloq va muqaddas hayvonlar, daraxt, muqaddas tosh, mo'yi muborak, muqaddas qadamjoldagi tovushlar, ziyoratgohdagi muqaddas buyumlar va boshqa narsalar. Islomda ayollarning mozorlarga ziyorat maqsadida borishi masalasi juda ko'plab ixtiloflarni keltirib chiqargan. Islomning ilk davrlarida barcha musulmonlarga qabrlarni ziyorat qilish Payg'ambar (s.a.v.) tomonidan taqiqlangan edi. Ayollarga esa janozalarda tobut ketidan ergashib borish, mozorlarni ziyorat qilish, o'lik ortidan o'kirib yig'lash, sochini yulish kabi odatlar butkul man qilingan edi. Manbalarda keltirilishicha, Rasululloh

(s.a.v.) bu masalaga juda qattiq e'tibor bilan qaraganlari uchun hatto bay'at vaqtida ham ba'zi ayollardan o'lik ortidan uvvos tortib yig'lamaslikka ahd olganlar. Ammo keyinchalik islomda erkaklarga ibrat olish uchun mozorlarga borishga ruxsat berildi. Ayollar xususida esa, Payg'ambar alayhissalom hech narsa demadilar, ya'ni erkaklardangina mozorlarga bormaslik haqidagi to'siq olib tashlandi. Hattoki, juma kuni ota-onasining mozorlariga borib ziyorat qilgan kishining gunohlari mag'firat etilishi, uning mozorini farishtalar ziyorat qilishi haqida hadislar vorid bo'lgan. Ayollarning mozorlarga bormasligi haqidagi hukm to'g'risida hech narsa aytilmadi. Manbalarda keltirilishicha, Rasululloh (s.a.v.) ayollarning zaifliklari, ta'sirchanliklari va fitnalarga tez berilib ketishlarini bilgan holda ular xususida indamadilar. Mana shu tufayli hozirgacha bu masalada turli fikrlar va qarashlar vujudga keldi. Shuncha taqiqlarga qaramasdan ayollarning mozorlarga boraverishini islomdan ilgarigi diniy e'tiqodlarga bog'layverish ham unchalik to'g'ri emas. Zero, islom dinida ham bu holatga xos bo'lgan munosabatlar shakllangan. Jumladan, al-Hakim at-Termiziy (vaf. 932 y.) "Navodiru-l-usul" asarida yozadiki: «Ayollarning mozorlarga borishida fitnalarga berilib ketish xavfi bor va bu xatar qiyomatga qadar saqlanib qoladi. Ammo kim bunday salbiy xulqlardan xoli bo'lsa, johiliyat davri amallarini, mozorlarni masjid qilib olish va chiroq yoqib qo'yish odatlarini qilmasa, mozorga qabrni tuzatib (ta'mirlab) qo'yish, mozor ahliga salom berish, o'lganlarni duo qilish va ibrat olish uchungina kelsa, fitnalarga berilmasligiga ishonchi komil bo'lsa, his-tuyg'ularini jilovlay olsa, bunday ayollar yuqorida zikr qilingan ta'qiqdan tashqaridalar. Fotimadan (r.a.) rivoyat qilishlaricha, ular har yili Hamzaning (r.a.) qabriga borib, uni tuzatib qo'yar ekanlar. Yana bir qancha ayollarning shahidlar qabristonlariga borib, ularga salom berib kelishlari haqida rivoyatlar uchraydi. Muhammad (s.a.v.) qizlari Fotima bir kuni ta'ziyaga borib kelganida, undan "Ishqilib, mozorga bormadingmi, agar borgan bo'lganingda jannatni ko'rmas eding" – deb, marhamat qilganlari haqidagi rivoyatlar esa islomning

ilk davrlariga oiddir”. Shuningdek, Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odobu-s-solihin” asarining “Ziyorat odoblari” nomli bo‘limda “Ayollar kam holatlardagina faqat erlarining ruxsati bilangina mozorlarga borishi mumkin” – deb keltiriladi. Ammo Saudiya Arabistonida bir qancha yil muftiylik qilgan va islom olamida o‘ziga xos nufuzga ega bo‘lgan marhum Shayx ‘Abdulaziz ibn Bozz o‘z asarlarida qabrlarni ziyorat qilish mavzusini ko‘rib chiqib, yakunida qisqa va keskin ohangda: “Ayollarga qabr ziyorati mumkin emas”, deb qat’iy xulosa keltirgan. Hanbaliylarda ayollarning mozorlarga ziyorat uchun borishi “makruh” amal deb bilinsa, ba’zi hanafiy mazhabi manbalarida bu amal “mandub” hisoblanadi. Ma’lumki, ziyoratgohlar atrofida shakllangan ibratli hikoya, hikmat, rivoyat va afsonalar xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida madaniy merosimizning bir bo‘lagini tashkil etadi. Ziyoratgohlar uchun xos tarzda bunyod etilgan me’moriy obidalar esa madaniyatimizning asriy jihatlarini namoyon etib kelmoqda.

34. ZIKR (arab. yodga olish, eslash) – tasavvufda Xudoni yodga olish bilan bog‘liq marosim. Ko‘pchilik Allohni yodga olish zarurligini Qur’oni karimning “Allohni zikr qilish bilan qalblar orom olur” (13:28) degan oyati bilan bog‘laydilar. Zikr ovoz chiqarib (az-zikr al-jahriy) va ovoz chiqarmasdan (az-zikr al-xafiy) aytiladi. Ovoz chiqarib zikr tushish O‘rta Osiyoda ham keng tarqalgan. Bunda bir guruh sufiylar avval davra qurib o‘tiradi, bir kishi (qavvol) muayyan iboralarni ma’lum ohangda o‘qiydi, unga ayrim musiqa asboblari jo‘r bo‘ladi; bora-bora kishilar o‘rnidan turib, o‘ziga xos harakatlar qila boshlaydilar. Zikr vaqtida sufiy va darveshlar “Alloh hayy” (Alloh tirik); “la ilaha illalloh” (Allohdan o‘zga iloh yo‘q); “Allohu akbar” (Alloh – eng ulug‘); “al-hamdu lilloh” (Allohga hamdu sanolar) va boshqa so‘zlarni takrorlaydi. Uzoq vaqt takrorlangan so‘zlar, musiqa va raqs natijasida zikr tushayotganlar o‘zligini unutadi, Allohdan boshqa hech kim va hech narsani yodiga keltirmay qo‘yadi. Zikr mavlud va boshqa diniy marosimlarning tarkibiy qismiga aylangan.

35. Zoviya (arab. – burchak, hujra) – sufiylar, darveshlar tushadigan va yashaydigan maskan. Arab mamlakatlarining ba’zilarida rabot, ba’zilarida zoviya deb atalgan. Eron va Afg‘onistondagi tak’ya, O‘rta Osiyodagi xonaqohga to‘g‘ri kelib, sufiylar, darveshlar, musofirlar, faqirlar to‘xtab, istiqomat qiladigan manzil. Ba’zan zoviya deb, jome’ bo‘lmagan, ya’ni minbarsiz kichik masjidga ham aytiladi. Qadimda zoviyalar ko‘p bo‘lib, ular islom olamida tasavvufning keng tarqalishiga xizmat qilgan. Zoviya ma’lum bir shayxning tasarrufida bo‘lgan hamda aksar hollarda muayyan bir tariqatning ta’lim, targ‘ibot va tashviqot markazi vazifasini ham o‘tagan. O‘rta asrlarda zoviyalar Movarounnahrda juda keng tarqalgan bo‘lib, ular musofirxona vazifasini ham bajargan. Jumladan, o‘rta asrlar mashhur arab sayyohi ibn Battuta (1304-1377) o‘zining “Safarnoma” nomi bilan taniqli “Tuhfat an-nuzzor” asarida Movarounnahrda qilgan sayohati davomida ellikdan ortiq zoviyaga tushgani, ularning har birida musofirlar uchun barcha qulay shart-sharoitlar muhayyo qilingani, bularning evaziga esa hech narsa talab qilinmasligi haqida to‘lqinlanib yozadi. Ibn Battuta Buxoroda avliyo shayx Sayfiddin Boxarziy maqbarasi yonida joylashgan zoviyaga tushgani haqida hikoya qiladi. Bu zoviyaning vaqf mulklari juda ko‘pligi, zoviya shayxi Sayfiddin Boxarziy zurriyotlaridan ekani haqida to‘xtalib o‘tib, mazkur shayx uni zoviyaga katta ziyofatga chaqirgani, bu mehmondorchilikda shaharning eng taniqli zotlariishtirok etgani, bu yerda chiroyli ovoz bilan Qur’on tilovati, ma’ruzalar qilingani so‘ngra bularning ketidan turkiy va forsiy tillardagi qo‘shiqlar ajoyib tarzda ijro etilganini zikr etadi.

Zoviya – xonaqoh va rabotlardan hajmining kichikroq bo‘lishi va aksar hollarda uzlatni ixtiyor qilgan shayxlar huzurida bo‘lishi bilan farqlanib turgan. Ammo ba’zi manbalarda «zoviya» va «xonaqoh» so‘zlari sinonim sifatida ham qo‘llanilgan.

36. ZOHID (arab. bee’tibor, moddiy manfaatga befarq bo‘luvchi) – tasavvufda tarkidunyo qilgan kishini anglatuvchi atama sifatida

qo'llaniladi. Zohidlar musulmonlarni bu dunyo rohat-farog'atidan voz kechishga, Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etishga undaydilar.

37. ZOHIDLIK – tarkidunyochilik, Xudoning marhamatiga musharraf bo'lish, jannatga tushish uchun tarkidunyo qilish zarurligi haqidagi diniy-mistik tasavvur. Zohidlik islomda darveshlik, chilla o'tirish, ro'za tutish, zikr tushish kabilarda namoyon bo'ladi. Tasavvufda zohidlik Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etish, demakdir. Bunda Allohga shirk keltirishdan saqlanish va ibodatda riyodan xoli bo'lish; barcha gunohlardan va harom narsalardan saqlanish va nihoyat, ortiqcha dunyoviy ashyolarga mehr qo'ymaslik nazarda tutiladi. Shariat va tariqat qoidalariga bu xilda rioya etishni Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror, Najmiddin Kubro va boshqa pirlar ham targ'ib etganlar.

38. ZUNNUN al-MISRIY, Abu-l-Fayz Savbon ibn Ibrohim Zu-n-Nun al-Misriy (taxm. 796-860/61) – Misrdagi ilk tasavvuf vakili, sufiy shayxlardan biri. Misrdagi Axmim degan joyda tug'ilgan. Targ'ibot ishlari bilan Makka, Damashq, Antioxiyada safarda bo'lgan. Tarixchi va Molikiylik mazhabi faqihi 'Abdu-l-Hakam Zu-n-Nun al-Misriyni tasavvufni targ'ib qilgani uchun tanqid qilgan va sufiylik ta'limotini "noma'qul bid'at", deb hisoblagan. Zu-n-Nun al-Misriy mu'taziliylar ta'limotiga qarshi bo'lgani uchun hokimiyat tomonidan ta'qibga uchragan. Zu-n-Nun al-Misriyning o'n beshga yaqin asari mavjud bo'lgan, deb hisoblaydilar. Bizgacha yetib kelgan she'riy parchalarida aziz-avliyolar tarkidunyochiligining afzalliklari va tasavvuf ahlining eng oliy orzusi – Allohga "yaqinlashish" holatlari bayon etilgan. Bunga ma'rifat orqali erishiladi, ma'rifat esa, uning fikricha, dunyoviy ishlardan, o'z tabiiy ehtiyojlaridan voz kechish, nafsni tiyish orqali o'zini kamolotga olib chiqish bilan belgilanadi. Tasavvuf an'anasiga ko'ra, Zu-n-Nun al-Misriy sufiylikning "maqomot va ahvol" to'g'risidagi ta'limot asoschisi hisoblanadi. Zu-n-Nun al-Misriy Allohni antropomorf qiyofada tasavvur etishni rad etadi, uning butunlay ilohiy olam ekanligini ta'kidlaydi. Zu-n-Nun al-Misriyning

g'oyalari keyingi sufiylar tomonidan o'zlashtirildi, rivojlantirildi. Jomiy, 'Attor o'z asarlarida Zu-n-Nun al-Misriy shaxsini ulug'lab, afsonaviy darajaga ko'targanlar.

39. IBN al-'ARABIY, Muhyiddin Abu 'Abdulloh Muhammad ibn 'Ali al-Xotamiy at-Toiy (1165-1240) – diniy-mistik faylasuf, “vahdatu-l-vujud” ta’limoti asoschisi, tasavvufning yirik vakili. “Ulug’ shayx” (muallim), “Aflotunning (Platon) o’g’li” nomlari bilan ulug’langan. Andalusiyaning (Ispaniya) Mursiya shahrida tug’ilgan va diniy bilim olgan. Dunyoqarashi sufiylar ta’sirida shakllanib, Andalusiya va Shimoliy Afrika bo’ylab safarga chiqqan, mashhur olim va mutafakkirlar bilan muloqotda bo’lgan. Shuningdek, Ibn al-‘Arabi Sharqdagi yirik musulmon sufiy va ilohiyotchilari Xarroz, al-Hakim at-Termiziy, Mansur al-Halloj, Muhammad al-G’azzoliyning asarlarini ham o’rgangan. 1200 yilda haj ziyoratiga borib, so’ngra umrining oxirigacha Andalusiya qaytmadi. 1201-yilda Makkada yashagan, bu yerda mashhur she’riy to’plami – “Tarjumonu-l-ashvoq” (“Ishqiy shavq tarjimoni”) hamda sufiylikka oid risolalarini yozgan. Shu yerda ko’p jildli “al-Futuhotu-l-Makkiyya” (“Makkadagi kashflar”) asari ustida ish boshlagan. Ba’zilar bu asarni “sufiylik qomusi” deb atashadi. Ibn al-‘Arabiyning eng mashhur risolasi “Fususul-hikam” bo’lib, unga 150dan ortiq sharhlar yozilgan. Umuman, Ibn al-‘Arabi ijodiy merosi 300ga yaqin asarni tashkil etadi. Olim Damashq shahri yaqinidagi tog’ yonbag’riga dafn qilingan. Sulton Salim I buyrug’i bilan XVI asr boshida uning qabri ustiga mahobatli maqbara qurilgan, bu maqbara hozirda ham mavjud. Ibn al-‘Arabi zamonasining barcha ilmiy oqimlaridan xabardor edi. U Ibn Rushd, Suhravardiy, ar-Roziylar bilan uchrashgan hamda yozishib turgan. Uning falsafiy dunyoqarashida, hamma narsaning yagona asosi g’oyaviy substantsiya (ruh, ideya) asosiy o’rin tutadi. Mashhur shaxslarga sajda qilishni inkor qilgan, turli dinlarning ahamiyati barobar, deb hisoblagan. Sufiy sifatida Xudoni oliy, mutlaq haqiqat holda anglash va unga ko’ngilni poklash orqali erishishni tan olgan. Ibn al-‘Arabi o’rta asrlar musulmon olamida

eng ziddiyatli shaxslardan biri boʻlib, uning qarashlarini Ibn Taymiya, Taftazoniy singari ilohiyotchilar, shuningdek, arab tarixchisi Ibn Xaldun keskin tanqid qilgan. Baʼzi yirik mutasavviflar esa, uning fikrlarini yoqlaganlar.

40. IBN al-FORIZ, Sharafiddin ‘Umar ibn ‘Ali Abu Hafs (yoxud Abu-l-Qosim) al-Misriy as-Sa’diy (1181-1235) – yirik arab mutasavvif shoiri. Qohirada mol-mulkni taqsimlash boʻyicha vakil (foriz) oilasida tugʻilgan, Ibn al-Foriz laqabini olishiga shu sabab boʻlgan. Yoshligidan otasi diniy ilmlarni oʻrgatgan. Ibn Asokir va al-Munziriydan hadis ilmi sabogʻini olgan. Ibn al-Foriz oʻsmirlik chogʻidanoq odamlardan xoli boʻlib yashashni yoqtirgan, otasining roziligi bilan al-Muqattam togʻiga borib uzoq vaqt yolgʻizlikda yashagan. 15 yilga yaqin Hijozda yashab, aksariyat asarlarini oʻsha yerda yozgan. Qohiraga qaytgach, Ibn al-Foriz valiy sifatida kutib olindi. U al-Azhar masjididan qoʻnim topdi, uni boylar va kambagʻallar ziyorat qilishdi. Vafotidan soʻng uning al-Muqattam togʻidagi qabri ziyoratgohga aylandi. Ibn al-Foriz tasavvufga oid ikki mashhur qasida – “al-Xamriya” va “Nazmu-s-suluk” (uni koʻpincha “at-Ta’iyatu-l-Kubro” deb atashadi) muallifi boʻlgan.

41. ILHOM – koʻngilga solish; tasavvufda solik qalbida Alloh tomonidan paydo etilgan fikr. Shariat ulamolari fikricha, ilhom qatʼiy maʼlumot manbai boʻla olmaydi. Tasavvuf ahli, aksincha, ilhomni ilohiy fayz deb qabul qilib hamda unga asoslanib, soʻz va ish yuritadi. Ilhom oʻz mohiyatiga binoan “aqliy ilm”dan ham farqlanadi, chunki ilhom fikr-mulohaza yuritish va xulosa chiqarish yoʻli bilan vujudga kelmaydi. Tasavvufga koʻra, ilhom moʻmin dilini yorituvchi ilohiy nurdir, Qurʼonning botiniy maʼnosini ham ilhom orqali anglab yetish mumkin.

42. ITTIHOD (arab. – birlashish) – tasavvuf tushunchasi. Sufiyning jazavaga tushish holatida Xudo bilan ruhan “qoʻshilib ketishi” tushuniladi. Baʼzi sufiylar Xudoga boʻlgan muhabbatni (ishq) ittihadning zaruriy qismi, deb qaraydi. Ittihad turli davrda turlicha talqin qilingan. Sunniy tasavvufda ittihad qatʼiy rad etilgan.

43. ISHROQ (“porlash”) – sufiylikdagi falsafiy ta’limot; Yahyo as-Suhravardiy (vaf. 1191 y.) tomonidan ishlab chiqilgan. Yorug’lik va zulmat ramzlaridan, shuningdek, zardushtiylikdagi muqaddas kitoblardan olingan obrazlardan keng foydalanib, as-Suhravardiy aslini olganda o’ziga xos ta’limot yaratgan. Ishroq haqidagi ta’limotga asosan har qanday mavjudlikning manbasi va energiyasi «Oliy nur» (nuru-l-anvor) bo’lib, u o’zining borlig’i bilan birinchi maxluq – «farishta», Baxman nurini «yoritadi». Ishroq ta’limotiga ko’ra bayon etilgan dunyo manzarasi sufiyning o’ta berilib zikr tushishi paytida o’ta sezgir va ongli bilimga ega bo’lishi mumkinligiga isbot bo’lib xizmat qiladi. Sufiyning ruhi moddiy olamning har xil «chiqitlari»dan zohidlik tajribasi orqali poklangach, ilohiy nur bilan «nurlanadi», u «dunyoning sir-asrorlaridan» boxabar bo’ladi va o’z manbasi tomon uchib, u bilan qo’shib ketadi.

44. ISHQ (arab. – muhabbat) – tasavvufda Allohga bo’lgan ishq. Allohdan o’zga har qanday mahbubga bo’lgan ishq yoki muhabbat soliklar nazdida majoziy ishq sanalgan. Tasavvufona bitilgan g’azal va boshqa turdagi she’rlarda majoziy ishq orqali haqiqiy ishq tarannum etiladi.

45. KALABODIY (yoxud al-Kaloboziy), Abu Bakr Muhammad ibn Ishoq al-Kalabodiy al-Buxoriy (vaf. 990/ 995 y.) – hanafiy mazhabining mashhur faqihi, sufiy. Tasavvufga doir arab tilida yozilgan eng dastlabki tartibli asarlardan birining muallifi. Buxorodagi Gulobod mahallasida tug’ilib, shu yerda yashagan va vafot etgan. Muhammad ibn Fazldan huquqdan ta’lim olgan va sufiy shayx Qosim Forisning shogirdi bo’lgan. Kalabodiy yozgan besh yoki olti asardan bizgacha ikkitasi yetib kelgan: Payg’ambar (a.s.)ning axloqqa doir ba’zi hadislariga yozilgan qisqacha sharh – “Ma’oniyy al-axbor” va “at-Ta’arruf li-mazhab ahl at-tasavvuf” – islomning dastlabki uch asri davrida islom tasavvufini o’rganishda asosiy hisoblangan asarlardan biri. Kitob keyingi davr sufiylari tomonidan yuqori baholangan, xususan, shayx Yahyo as-Suhravardiy al-Maqtul (vaf. 1191 y.) bu haqda “Agar at-Ta’arruf bo’lmaganda edi,

biz sufiylikni (tasavvufni) bilmagan bo'lardik", degan. "At-Ta'arruf" – bizgacha yetib kelgan sufiylar qarashlari tizimi va tajribasi bayon etilgan birinchi asar bo'lib, unda tasavvufdagi g'oyalarni shariat qoidolari bilan kelishtirishga, tasavvuf to'lig'icha musulmonchilik doirasida shakllangan tizim sifatida shubha tug'dirmasligi kerakligini tushuntirishga harakat qilingan. Asar 75 bobdan iborat bo'lib, ularni uch qismga ajratish mumkin: 1-(1-4, 64-75-boblar) tarixiy: sufiy va tasavvuf tushunchalarini belgilash, eng muhim shaxslar, ularning sufiylikdagi jasoratlari haqidagi hikoyalar va afsonalar; 2-(5-30-boblar) apologetik (madh etuvchi): tasavvuf qarashlari tizimi, uning "islomiy"ligini isbotlash; 3-(31-63-boblar): tasavvuf amaliyoti, zohidlik yo'lining asosiy bosqichlari, darveshlar orasida qabul qilingan texnik atamalar. Kalabodiy asariga ko'plab sharhlar yozilgan. Ayniqsa, Abu Ibrohim Ismoil ibn Muhammad al-Mustamliy (vaf. 1042 y.) tomonidan fors tilida yozilgan "Nur al-muridin" kitobi mashhur bo'lgan. Bu sharh tasavvuf tarixi bo'yicha manba sifatida original asardan deyarli qolishmaydi. Uning nusxalaridan biri 1081 yil ko'chirilgan bo'lib, u bizgacha yetib kelgan eng qadimiy forsiy qo'lyozmalardan hisoblanadi.

46. KOMIL INSON – tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri. Har jihatdan yetuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to'liq bilimga ega bo'lgan va natijada Haqqa yetishgan (yoki Qur'on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh komil insonda o'zining barcha xislat va alomatlarini bamisoli ko'zguda ko'rgandek ko'rib turadi. U borliqning bir-biriga zid ikki jihat: ma'naviy va moddiy jihatlarini birga qo'shadi. Uning butun olam uchun bo'lgan favqulotda ahamiyati ana shundan kelib chiqadi, u – Koinotning botiniy hukmdori, Olam yaratilishining sababchisi va maqsadidir. Komil inson haqidagi ta'limot sufiy faylasuf Ibn al-'Arabiy tomonidan yaratilgan, keyinchalik uning izdoshlari, jumladan, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy va boshqa tasavvuf arboblari tomonidan rivojlantirilgan. O'zbekiston

mustaqillikka erishgach, komil insonni voyaga yetkazish milliy istiqlool mafkurasining asosiy vazifalaridan qilib qo'yildi. Prezident I.Karimov asarlarida komil insonni voyaga yetkazish vazifalari atroflicha bayon etilgan.

47. KUBRO, Ahmad ibn 'Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiy (laqablari: "Najmiddin" ("Dinning yulduzi"), "Kubro" ("Ulug'"), "Abu-l-jannob" ("Dunyodan chetlanuvchi, parhez etuvchi"), "Valiytarosh" ("Valiylarni tarbiyalovchi"); 1145-1221) – shayx, sufiylikning mashhur vakillaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisi. Xiva (Xorazm)da tug'ilgan. Yoshligidanoq hadis va kalomni o'rganadi, ilm istab Misrga boradi. U yerda shayx Ro'zbixon Vazzon al-Misriydan ta'lim oladi va uning qiziga uylanadi Keyinchalik Tabriz, Hamadon, Dizfulga kelib ilohiyotdan saboq oladi. Kubro Misrga qaytgach, Ro'zbixon uni to'la komil inson bo'lib yetishdi, deb hisobladi va o'z vataniga qaytishni maslahat beradi. Kubro Xorazmga kelgach, xonaqoh quradi va o'z diniy maktabini yaratadi. Kubroning shogirdlari orasidan tasavvufning taniqli nazariyotchilari, sufiylik bo'yicha mumtoz adabiyot vakillari yetishib chiqdi. Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jangda shahid bo'lgan. Uning qabri xonaqohi bilan birga Ko'hna Urganchda joylashgan. Bilishning Kubroga xos tasavvufiy yo'li bo'yicha inson o'z mohiyati bilan kichik olamdir, u katta olam bo'lgan koinotdagi barcha narsalarni va sifatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Ammo, ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o'ziga xos maqomlarda joylashganidan, haqiqat yo'lini qidiruvchilar bunday kamolotga erishish uchun ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishlari zarur. Kubro ana shu kamolotga erishish asoslarini ishlab chiqdi. Kubro o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir necha risolalarida bayon etgan. Ulardan asosiylari: "Favoihu-l-jamol va favotihu-l-Jalol", "O'n usul", "Rislatu-l-Xoifi-l-hoim min lavmi-l-loim". Bu asarlar arab mamlakatlari va Turkiyada chop etilgan. U Qur'onga sufiylar nuqtai nazaridan sharh berishni oxirigacha yetkaza olmadi, bu ishni shogirdlari tugalladilar. Tasavvuf ta'limotining rivoji va keng tarqalishida katta omil bo'lgan Kubro merosi respublikamizda

mustaqillik tufayli o'rganila boshlandi. 1995 y.da O'zbekistonda Kubro tavalludining 850 yilligi nishonlandi. «Najmiddin Kubro» (Toshkent, 1995), «Sharhi risolayi odobu-z-zokirin» (Urganch, 1997) kitoblari nashr etildi.

48. KUBROVIYLIK – tasavvuf tariqati. XIII asr boshida Xorazmda Najmiddin Kubro asos solgan. Kubroviylik tasavvufning O'rta Osiyodagi maktabi bo'lib, ma'naviy vorislik zanjirini Ma'ruf al-Karxiy (vaf. 816 y.) orqali Abu Bakr yoki 'Ali ibn Abu Tolibga yetkazadilar. Kubroviylikda tariqat a'zolarining yagona tashkiliy tizimi bo'lmagan. Ularni ta'limotning ruhi va maqsadi birlashtirgan. Kubroning shogirdi Sayfiddin Boxarziy tomonidan Buxoro yaqinidagi Suktariy qishlog'ida tashkil etilgan xonaqoh Najmiddin Kubro nomi bilan atalgan. Bu yerda Kubroviylik tariqati XVIII asrning oxirlarigacha keng tarqalgan edi. Uning a'zolari Kubro g'oyalarini Xitoyning g'arbiy chegaralarigacha yoydi. Keyinchalik Kubroviylikning bir qancha mustaqil shahobchalari vujudga keldi. Bular – firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, oliya, ig'tishoshiya, zahabiya, nurbaxshiya. Kubroviylik ta'limotiga ko'ra, har bir kishi kamolotga erishish uchun 10 asosga tayanmog'i kerak. 1. Tavba – o'z xohishi bilan Haq taolaga qaytish; Xudoning amrisiz, kishining o'z ixtiyori bilan Xudoni sevishi, o'zining “men”idan kechishi. 2. Zuhd fi-d-dunyo – barcha dunyoviy narsalardan tiyilish. 3. Tavakkul – barcha ishlarni qilishda Xudoning mehribonligi va qudratiga umid bog'lash. 4. Qanoat – hayot kechirishda oz narsa bilan qanoatlanish, mo'tadillik, tuban mayllardan ozod bo'lish. 5. Uzlat – tanholikda bo'lish, ruhni mustahkamlash, his-tuyg'ularni jilovlash. Uzlatga ketish hissiyotlarning bosilishiga olib keladi. 6. Mulozamatu-z-zikr (uzluksiz zikr) – Xudoning ismini yod qilib turish, butun qalbni U bilan to'ldirish. Shundagina pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik kabi razilliklar kishi ko'ngliga yo'l topa olmaydi. 7. Tavajjuh – butun vujud bilan Xudoga murojaat qilish, Unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslik. 8. Sabr – o'z ixtiyori bilan mashaqqatlar chekib bo'lsa

ham, nafs doirasidan o'zini olib qochish. To'g'ri yo'ldan adashmasdan borish uchun kishi o'z mayllarini so'ndirishi lozim. Shundagina dil kuduratlardan poklanadi, ruh nafs natijasida zanglab qolgan bo'lsa, jilo topadi. 9. Muroqaba (tafakkurga g'arq bo'lish) – qalb poklangani va tuban ehtirolardan xoliligini tuyib, xotirjam bo'linganini eslab xayolga cho'mish, Haq taolo rahm-shafqatini kutib turish holati. 10. Rizo – sufiy endi Xudo uni sevib qolganligini, Alloh undan rozi, u ham Allohdan rozi ekanini sezadi, uning uchun ana shu narsa muhimdir. Xudoga bo'lgan muhabbat sufiyning shaxsiy his-tuyg'u sifatini yo'qotib, yangi ko'rinishda – Allohning istak-xohishi tarzida namoyon bo'ladi. Rizolik maqomi Haqqa yetishganlikni bildiradi. Hozirda ham Kubroviylik ko'rinishlarini uchratish mumkin.

49. KULOH – qadimiy bosh kiyim. Qalin va dag'al (ko'pincha jun) matodan konussimon shaklda, ichiga paxta solib tikilgan. Kulohni ko'pincha qalandarlar va shayxlar kiygan.

50. MAVLAVIYLAR, mavlaviya – sufiylik tariqati. Taxminan 1240 yilda Jaloliddin Rumi Ko'niya shahrida (Kichik Osiyo) asos solgan. Rumiyni ko'pincha "mavlono" ("janobimiz") deb atashgan. Shundan tariqat nomi olingan. Tariqat faoliyati Eron, so'ngra Turkiya hududi bilan cheklangan. Mavlaviya tariqatiga avval shahar aholisining o'rta va quyi qatlamlari, keyinroq xos tabaqalari kirgan. Mavlaviya o'z mavlaviyaxona va takyalariga ega bo'lib, bu yerda zikri samo' qilishgan. Boshqa tariqatlardan farqli o'laroq, mavlaviya jamoa bo'lib, musiqa tinglash, kuylash va gir aylanib zikr tushish marosimiga alohida e'tibor berishgan. Mavlaviylar fikricha, mutlaq ruh – Ilohning inson qalbidagi zarrasi musiqa ta'sirida, zikr tushish paytida tiniqlashib, poklanadi, ya'ni o'z o'zagiga yaqinlashadi, Allohga o'z muhabbatini to'laroq ifodalashiga yordam beradi. Mavlaviya "gardi darveshlar" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Mavlaviyaning birinchi rasmiy boshlig'i shayx va xalifa unvonini olgan Hisomiddin Hasan Chalabiy (vaf. 1264 y.) edi. Rumiyning o'g'li, Sulton Valad (1226-1312)ni uning vorisi, tariqatning amaldagi tashkilotchisi, deb hisoblash mumkin. Sulton Valaddan boshlab

Mavlaviya rahbarlik lavozimi – asosan katta o‘g‘li Ulug‘ Orif Chalabiy (1272-1320) orqali vorislik lavozimiga aylangan. Mavlaviya ilk Usmonli turk sultonlari davrida (XIV asr) Kichik Osiyo bo‘ylab tarqalib, juda mashhur bo‘lib ketgan. Mavlaviya tariqati Turkiyada to 1925 yilga qadar faoliyat ko‘rsatgan va shu yili Kamol Otaturk dekreti bilan tarqatib yuborilib, barcha yerlari, ko‘chmas mulki va bankdagi mablag‘i musodara qilingan.

51. MALOMATIYLAR (arab. – ta’na ahli, ta’naga qoluvchilar) – sufiylik tariqatlaridan birining tarafdorlari. Malomatiylar ta’limotining asosiy qoidalarini Hamdun al-Qassor (vaf. 884 y.) ishlab chiqqan. Al-Muhosibiy, Abu Yazid al-Bistomiy va Sahl at-Tustariy kabi Iroq zohidlarining qarashlari mazkur ta’limotning shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Malomatiylar harakati umuman yagona tashkiliy tuzilmaga ega bo‘lmay, mustaqil mahalliy to‘garaklar shaklida edi. Dastlab Nishopurda yuzaga kelib, g‘arbga – Iroq va Suriyaga, sharqqa – Movarounnahr va Turkistonga tarqalgan. Malomatiylar ayrim ruhoniylarning o‘z taqvodorligini boshqalarga pesh qilib, ibodat va marosimlarni yuzaki, namoyishkorona bajo etishiga e’tiroz bildirishgan. Vaqt o‘tishi bilan Malomatiylar tariqati yo‘qolib, uning tarafdorlari qolmadi. Bu ta’limotning ba’zi jihatlari naqshbandiylik tariqatida namoyon bo‘lgan.

52. MANOQIB (arab. – fazilatlar) – tasavvuf tushunchasi sifatida biror ulug‘ zotning fazl va martabasini maqtab, ta’rif-tavsif qilish. Ko‘pincha shu haqdagi risola yoki asar tushuniladi. Masalan, “Manoqibi Xoja Ahror” (Xoja Ahror ta’rifi), “Manoqibi Shoh Abdulloh” (Shoh Abdullohning ta’rif va tavsifi) va h. k.

53. MAXDUM (arab. – xizmatga yollovchi odam, janob) – pir va ustozlarga beriladigan laqab. Odatda, pir va ustozlarga o‘z muridlari va shogirdlari xizmat qilishgan. Mahdum atamasi ba’zi joylarda pir, ustoz va ulamolarning o‘g‘illariga nisbatan ham ishlatilgan. Naqshbandiylik tariqati shayxlaridan Sayyid Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy Dahbediy “Maxdumi A’zam”, ya’ni “Ulug‘ Maxdum” laqabi bilan mashhur bo‘lgan.

54. MAXDUMI A'ZAM (Buyuk hazrat; asl ismi Sayyid Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy Dahbediy, 1463/64-1542) – movarounnahrlik alloma, yirik diniy arbob, naqshbandiylilik piri. Fargʻona vodiysining Koson shahrida tugʻilgan, ilk taʼlimni shu yerda olgan. Madrasani bitirgach, Shayx Mir Sayyid Aliga shogird tushadi, soʻng Shoshga kelib, Xoja Ahrorning shogirdi Muhammad Qozi (vaf. 1516 y.) Maxdumi Aʼzamni shogirdlikka oladi va tez orada oʻziga xalifa etib tayinlaydi. Manbalarga qaraganda, u ustoz bilan Hirotga safar qiladi, Abdurahmon Jomiy bilan uchrashadi. 1503 y. Buxoroga koʻchib keladi. Biroz vaqt oʻtgach, Axsikatga borib naqshbandiylilik tariqatini targʻib eta boshlaydi. Muhammad Qozi vafotidan soʻng tariqat shayxlari Maxdumi Aʼzamni oʻz peshvolari sifatida eʼtirof etishdi va uning shuhrati Movarounnahr hamda uning atrofidagi mamlakatlarga yoyildi. Buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Bobur uni chuqur hurmat qilgan va Maxdumi Aʼzamga ruboiylar bagʻishlagan. Maxdumi Aʼzam ham shoir haqidagi “Boburiya” risolasini yozib, Hindistonga joʻnatgan. Shayboniy sultonlari va hokimlari Maxdumi Aʼzamni oʻzlarining piri deb bilganlar. Maxdumi Aʼzam tasavvuf nazariyasi va amaliyoti, xususan, naqshbandiylilik taʼlimotini rivojlantirish sohasida barakali faoliyat koʻrsatdi. Uning “Asroru-n-nikoh” (“Nikoh sirlari”), “Ganjnoma”, (“Boylik haqida risola”), “Risola samʼiyya” («Samoʻ risolasi»), “Bayoni zikr” (“Zikr bayoni”), “Risola-i silsila-i Xojagon” (“Xojagon silsilasiga oid risola”), “Meʼroju-l-oshiqiyn” (“Oshiqlar meʼroji”), “Murshidu-s-solikiyn” (“Soliklar murshidi”), “Risola-i Naqshbandiyya”, “Risola vujudiyya” (“Vujudlar haqidagi risola”) kabi 30dan ortiq risolasi bor. U oʻz asarlarida ulamolar, sufiy shayxlar va davlat arboblari orasidagi munosabatlarga toʻxtalgan. Tariqat odobu qoidalarida murid va shayx munosabatlari oʻzaro hurmat-izzat asosida qurilmogʻi lozimligini uqtiradi. Maxdumi Aʼzam fikricha, tariqat aʼzolari xalqqa yaqin boʻlib, uning dardlari va ehtiyojlariga qaygʻudosh boʻlsa, bu ham tariqatga, ham xalqqa foydalidir. Maxdumi Aʼzam asarlari Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda.

55. MA'RIFAT (arab. – bilish, anglash, idrok etish) – tasavvuf tushunchasi; tasavvufdagi bosqichlardan biri; solik ma'naviyatining kundan-kunga ortib borishi, koinot va tabiat ilmu hikmatidan, shuningdek, insoniy va ilohiy sir-asrordlardan voqif bo'lib borishi. Hadisi sharifda: “Kimki o'zini yaxshi tanisa, Parvardigorini ham, albatta, tanib oladi”, deyilgan. Ya'ni, inson o'zining tuzilishi, murakkab tarkibi, jismoniy va ruhoniy vujudini qanchalik chuqur tafakkur bilan o'rganib, bilib borsa, Allohning ulug' hikmati va beqiyos qudratining buyuk ekanini shunchalik idrok etadi. Inson o'zidagi kamchilik va xatolarni qancha ko'p sezib iqrar etsa, Allohning benuqson komil zot ekanini shuncha payqab oladi. Har bir inson o'z ma'rifatini bilimiga qarab yuqori darajalarga ko'tarishi mumkin.

56. MAQOM (arab. – joy, o'rin, manzil) – tasavvuf tushunchasi; har bir sufiy bosib o'tishi lozim bo'lgan bosqichlar. Tariqatlarda maqomlarning soni har xil keltiriladi, lekin ko'p hollarda 4 maqom tilga olinadi: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat (q. Tasavvuf). Lekin, tasavvufning ayrim yirik namoyandalari maqomlarni ko'proq, deb hisoblagan. Masalan, Fariduddin 'Attor 7 maqom, G'azzoliy 9 maqomni ta'riflagan. Har bir maqom ham o'z navbatida bir necha kichik bosqichlarga bo'linadi (ayrim sufiylarda bu bosqichlar 8 dan 10 gacha ko'rsatilgan) va ular “manzil” deb ataladi.

57. MIR KULOL BUXORIY (taxm. 1288, Buxoro yaqinidagi (hozirgi Kogon tumani) Suxor qishlog'i – 1371) – xojagon-naqshbandiya silsilasining yirik namoyandasi, buxorolik yetti pirning oltinchisi. Xoja Muhammad Boboyi Samosiydan tahsil olgan. Kulolchilik bilan shug'ullangani sababli Mir Kulol nomi bilan mashhur. «Silsilai Sharif»da 15-halqaning piri sifatida kelgan. Uning 114 xalifasi bo'lib, Bahouddin Naqshband, Shamsuddin Kulol (Amir Temurning piri), Orif Deggaroniy eng mashhurlari sanalgan. Uning hayoti haqida “Maqomoti Mir Kulol” kitobi yaratilgan. Tug'ilgan qishlog'ida dafn etilgan. Qabri ustida maqbara o'rnatilgan.

58. MURID (arab. – istovchi, aniq bir maqsadni xohlovchi) – tasavvufda ixtiyoriy ravishda izdan boruvchi, shogird. Atama sifatida tariqat murshidlaridan dars oluvchi shogird ma’nosida anglatadi. Murid shayx, pir, murshid oldida o’z zimmasiga muayyan majburiyatlar oladi, ular bilan pinhona ishonchli munosabatlar o’rnatadi va ularning irodasiga bo’ysunadi. Umuman murid atamasi sufiy va hatto oddiy musulmon ma’nolarini ham anglatishi mumkin.

59. MURIDCHILIK – sufiylikning Shim. Kavkazda yoyilgan shakli. Muridchilik sufiylik ta’limotining zohidlik, murshidlik va imomat g’oyalari asoslangan. Muridchilik XIX asrda o’ziga xos diniy-siyosiy va harbiy uyushma sifatida tarqalib, G’oziy Muhammad, Hamzat, Shomil kabi imomlar rahbarligida tog’liklarning Rossiyaga qarshi urushida namoyon bo’lgan. Imomlar bu urushga diniy tus berib (g’azovot e’lon qilib), islom dini va shariatga asoslangan teokratik davlat – imomlik tuzishga uringanlar. Lekin, tog’liklarning olib borgan bu kurashlari muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

60. MUROBITLAR (arab. – rabotda yashovchilar) – Shimoliy Afrikadagi zohid va darveshlarning harbiylashgan diniy jamoasi a’zolari. XI–XII asrlarda murobitlar Marokashni zabt etgan va al-Murobitun sulolasi va davlatiga asos solgan. Keyinroq musulmon avliyo, yo’lboshchilarini yoxud darvesh jamoalarining tashkilotchilarini ham murobitlar deb atashgan.

61. MURSHID (arab. – yo’l ko’rsatuvchi) – tasavvufda tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, shayx va ustoz.

62. MUHOSIBIY, Abu ‘Ali al-Horis ibn Asad al-Anaziy (taxm. 781-857) – bag’dodlik ilohiyotchi, sufiylikning ilk nazariyotchilaridan biri. Basrada tug’ilgan. Hadislar va fiqhni mashhur alloma Yazid ibn Horun (vaf. 821 y.)dan va Abu Ishoq al-Qurashiy degan shaxsdan o’rgangan. Yoshligida Bag’dodga ko’chib o’tib, o’qishni mustaqil davom ettirgan. U zohidona turmush kechirgan, otasi qoldirgan katta merosdan voz kechgan. U mo’taziliylarning “inson irodasi erkinligi” haqidagi ta’limoti tarafdori bo’lgan. Muhosibiyning taqvodor va bilimdonligi unga katta shuhrat keltirgan va uning atrofida ko’plab

shogirdlar to'planishiga olib kelgan. Biroq, taxminan 846 yil Ibn Hanbal boshchiligidagi hanbaliylarning quvg'inlari natijasida u o'z va'zlari va darsini to'xtatishga majbur bo'lgan. Uni bid'atda ayblashgan va Bag'dodni tark etishga majbur qilishgan. U qolgan umrini butunlay darveshona hayot kechirib, har qanday ijtimoiy faoliyatni to'xtatgan, qashshoqlikda vafot etgan. Muhosibiy "Qalblar va xotiralar" asarida sufiylik "psixologiyasi"ning asosiy qoidalarini ta'riflab bergan. Shaxs o'z-o'zini kamolotga yetkazishining asosiy vositasi o'z-o'zini kuzatuv va o'zini nazorat qilishi (muroqaba va muhosaba) deb bilgan. Muhosibiy laqabi shundan olingan, ya'ni "o'zini-o'zi nazorat qilish, o'ziga-o'zi hisob berish tarafdori" degan ma'noni anglatadi. Muhosibiy 30dan ziyod asar yozgan, ulardan mashhurlari "Kitobu-r-ri'oya li-huquq Alloh» ("Allohning haqlariga rioya qilish"), "Kitobu-t-tavahhum" va "Kitobu-l-ba's va-n-nushur" ("Qayta tirilish va yig'ilish kitobi"), sufiylikka qadam qo'yanlar uchun o'gitlar sifatida "Kitobu-l-vasoyo" ("Tavsiyalar kitobi"). Muhosibiy Bag'dodning mashhur sufiylari an-Nuriy (vaf. 907 y.) va al-Junayd (vaf. 910 y.)ning ustози bo'lgan. Uning qarashlarini al-G'azzoliy ham qabul qilib, yuqori baholagan. "Kitobu-r-ri'oya" butun musulmon olamida mashhur bo'lib, uni muridlar uchun "shart bo'lgan adabiyotlar" sifatida tavsiya etilgan.

63. NAQSHBANDIYLIK – tasavvuf tariqatlaridan biri. Bahouddin Naqshband asos solgan. Naqshbandiylik ta'limotining asosida "ko'ngil Xudoda bo'lsinu qo'l ish bilan band bo'lsin" ("dil ba yoru dast ba kor") shiori yotadi. Unga ko'ra, dilni Alloh bilan bog'lagan holda kasb-hunar va qo'l mehnatini aslo tark etmaslik kerak. Faqirona yashash, xayr-ehson hisobiga emas, o'z mehnati hisobiga hayot kechirish lozim. Bu g'oya tariqat asoslanadigan o'n bir qoidada ham o'z ifodasini topgan. Turonzamin tasavvufida zikr tushishning ikki usuli amalda bo'lgan. Biri – zikri jahriy, ikkinchisi – zikri xufiya. Naqshbandiylikda zikri xufiya amalda bo'lib, bunda zikr tushayotgan solik so'zlarni til bilan talaffuz qilmaydi, ovoz chiqarmaydi, so'zlar faqat dilda aytiladi. Naqshbandiylik o'zidan oldingi oqimlardan

bevosita hayotga yaqinligi bilan ajralib turadi. Naqshbandiylik tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattiq qoidalarni bir qadar yumshatdi, mo'tadillashtirdi, kundalik turmushga mosladi. Bu esa, naqshbandiylikning keng aholi qatlamlari ichiga kirib borishini ta'minladi. Naqshbandiylik O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq halqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida muhim o'rin egalladi. Yusuf Hamadoniy, 'Abdulxoliq G'ijduvoniy naqshbandiylik tariqati rivojiga hissa qo'shdilar. XV asrda Xoja Ahror bu tariqatning eng yirik rahnamosi bo'lib maydonga chiqdi. Temuriylar davrida mashhur shaxslar naqshbandiylik pirlariga murid bo'lgan edi. Jomiy, Navoiy, Bobur, Mashrab kabi shoirlar naqshbandiylik tariqatida edilar. Ular o'z asarlarida naqshbandiylik ta'limotini targ'ib etdilar. Naqshbandiylik O'rta Osiyodan tashqari, Kichik Osiyo, Kavkaz, Kurdiston, Afg'oniston, Eron, Pokiston, Hindiston, Turkiya va hatto AQShda keng tarqaldi. Ayrim musulmon mamlakatlarida hozir ham bu tariqat katta mavqega ega.

64. NE'MATULLOH VALIY, Amir (sayid) Nuriddin Ne'matulloh ibn mir (sayid) 'Abdulloh (laqabi – Shoh Ne'matulloh Valiy) (1330-1431) – sufiy, shoir; ne'matullohiylar sufiylik tariqati asoschisi. Ne'matulloh Valiy sunniy-shofe'iy bo'lib, o'z shajarasini shialarning 5-imomi Muhammad al-Boqir orqali (21-bo'g'inda) Muhammadga (s.a.v.) yetkazgan. Halabda tug'ilgan, Iroqda, so'ngra Makkada shayx 'Abdulloh al-Yofe'iy (1298-1367) qo'lida tahsil olgan, 7 yildan so'ng uning xalifasi bo'lgan. Iroq, Misr, Tabriz, Ardabil, Movarounnahrda bo'lib, turkiy qabilalar orasida islomni faol targ'ib qilib, uni yoygan. O'zining zohidona turmush tarzi (40, 100 kunlik ro'za tutish, ma'lum muddat to'liq sukutga ketishi va b.) bilan xalq orasida shuhrat qozongan. Samarqand va Qarshida bir muddat yashagan. Amir Temurga (1336-1405) uning va'zlari yoqmagan, shundan so'ng Ne'matulloh Valiy Hirotga ketib, amir Imoduddin Hamza al-Husayniy al-Hiraviyning qiziga uylangan. U Hirotidan Yazdga, u yerdan Ko'hbanon muzofotiga (Kermon viloyati) o'tgan. Keyingi o'ttiz yillik umrini Yazd, Sheroz va Kermonda, so'nggi 25 yilni esa, Mohon

qishlog'ida (Kermon atrofida) o'tkazgan. Bu yerda u darveshlar uchun alohida binosi bo'lgan katta xonaqoh va masjid qurdirgan. Uning maqbarasi hozirgacha ommaviy ziyoratgoh hisoblanadi. Ne'matulloh Valiy tasavvufga doir 544ta risola yozganligi ma'lum, shundan 110ga yaqini bizgacha yetib kelgan. Bundan tashqari u 1541 g'azalni o'zida jamlagan katta Devon tuzgan, Ne'matulloh Valiy ta'limotida arab tasavvufi (Ahmad ash-Shoziliy va Abu Madyon), Ibn al-'Arabiyning vahdatu-l-vujud ta'limoti, Najmiddin Kubro g'oyalari va xojagon tariqati qarashlari uyg'unlashib ketgan. Sufiylik tajribasida u al-Junayd va Abu Yazid al-Bistomiy yo'lidan borgan. Ne'matulloh Valiy fikricha, sufiy 6 bosqichni (marhala) bosib o'tishi lozim. Bular – faqr, mehr, taslim, vara', rido va fano bo'lib, shundan so'ng sufiy Allohga yetishadi. Ne'matulloh Valiy hunarmand va dehqonlar mehnatini madh etgan.

65. NE'MATULLOHIYLAR – shialikdagi sufiylik tariqati tarafdorlari. Shialarning 5-imomi Muhammad al-Boqir avlodidan hisoblangan sayid Ne'matulloh Valiy (1330-1431) asos solgan. U Samarqand, Hirot, Yazd va ko'proq Kermonda yashagan. Xonaqohi va maqbarasi o'sha yerda. Sulton Shohruh (hukmronlik davri 1405-1447) ne'matullohiylar va ularning piri Ne'matullohni o'z panohiga olgan. XVI asrda Eronda shialik hukmron mafkuraga aylangach, ne'matullohiylar tariqati keng tarqalib, asosan shaharlarning savdo-hunarmand doiralarini o'ziga jalb qildi. Ne'matullohiylar siyosiy faolligi, davlatning ichki hayotiga ta'sir ko'rsatishi bilan boshqa tariqatlardan ajralib turardi. Ne'matullohiylarning tarafdorlari Hindistonda ham mavjud bo'lgan. Bu yerdagi ne'matullohiylar tariqatiga a'zo bo'lgan har bir shaxs ismiga 'Ali-shoh qo'shimchasi qo'shilishini shart qilib qo'yanlar, boshqa jihatdan Erondagi tariqatlardan farq qilmagan. Ne'matullohiylar 'Ali (r.a.) va tariqat asoschisi Ne'matulloh Valiyga sadoqatli bo'lishga qasamyod qilib, o'z zikrlarida 'Ali (r.a.) va yashiringan imom-mahdiyni madh etishgan. Tariqat a'zosi bir necha bosqichdan (taslim, zuhd, faqr, rido, mahabba, fano, vafo) iborat yo'lni (marhala) bosib o'tishi

kerak bo'lgan. Ne'matullohiylardagi qutb lavozimi merosiy bo'lgan. Tariqat XIX asr o'rtalarida ko'plab guruhlariga bo'linib ketgan. Uning tarafdorlari Eronda hozir ham bor.

66. NUJABO (arab. "oliy zot, zotdor") – tasavvufda bir toifa avliyolar faqat insonlarning manfaati uchun faoliyat ko'rsatadilar. Ularning odamlar haqqiga qilgan duolari mustajobdir. Nujabolarning adadi 70 tadan 40 tagacha qilib ko'rsatiladi.

67.OFOQXO'JA, OPPOQXO'JA (1625, Kumul, Sharqiy Turkiston - 1695, Qo'qo'n qishlog'i, Qashqar viloyati) – islom va tasavvuf ilmining yirik targ'ibotchilaridan biri va Yorkent xonligida taxtda o'tirgan xo'jalarning dastlabkisi; Turkiston tasavvuf ilmining rahnamalaridan Maxdumi A'zamning avlodi. Ofoqxo'janing ismi Hidoyatulloh bo'lib, u xalq orasida hurmat belgisi bo'lgan "Ofoq" ("Yorug' dunyo" yoki "yorug'lik egasi") – xo'ja nomi bilan mashhurdir. Ofoqxo'ja yoshligida otasi Muhammad Yusuf ibn Eshon Kalon bilan turli shaharlarda yurib, tarbiya va bilim oldi. 1638 yilda Qashqarga kelib, otasi vafotidan so'ng bu yerdagi oqtog'lik xo'jalarga bosh bo'lgan. 1670 yilda Yorkent xonligida yuz bergan ichki kurashlar natijasida Ofoqxo'ja Qashqarni tark etib Turkiston shaharlarida, qalmoqlar (oyrotlar) orasida va Xeshidagi (Xesi-szoulun) viloyatlarda diniy targ'ibot ishlari bilan shug'ullangan. 1678 yilda Tibetga borib, u yerda ikki yilga yaqin yashagan va bu yerdagi Budda dini vakillari bilan yaqin aloqada bo'lgan. 1680 yil Tibet zodagonlari yordamida oyrotlar xoni bilan tanishgan. 1681 yilda qalmoqlar tomonidan Yorkent xonligi taxtiga o'tqazilgan. Uning jasadi Yog'du deb nomlangan joydagi ota-bobolari qabri yoniga dafn etilgan. Shundan boshlab ushbu qabriston "Ofoqxo'ja mozori" deb nomlanib, ziyorat maskaniga aylangan.

68. PAHLAVON MAHMUD Pakayor Xorazmiy Puryorvaliy, Qitoliy (1247 — 1326, Xiva) – shoir va mutafakkir. Futuvvat ahlining ulug' peshvolaridan biri. Fors tilida ijod qilgan. Po'stindo'zlik, telpakdo'zlik bilan shug'ullangan. Hindiston va Eronda polvonlikda dong taratgan. Shunga ko'ra, Pahlavon Mahmud deb atalgan. Pahlavon Mahmudning

aynan qaysi tariqat vakili bo'lgani haqida turli qarashlar mavjud. U xilvatiylik va malomatiylik tariqatlari odobini o'zida mujassam etgan. Manbalarda aytilishicha, Pahlavon Mahmudning otasi ham futuvvat ahlidan bo'lib, shayx Najmiddin Kubrodan irshod ruxsatini olgan. "Nasoyim ul-muhabbat"da esa, Alisher Navoiy uni kubraviya tariqatiga mansub shayxlar sirasida zikr etadi. Shu e'tibordan ham Pahlavon Mahmudni futuvvat va malomatiylikni o'zida jamlagan kubraviy shayxlardan bo'lgan deyish mumkin. Pahlavon Mahmud fiqh, falsafa va mantiqqa oid bir necha risolalar yozgan. Rudakiy, Ibn Sino va Umar Xayyom an'analarini davom ettirib, fors va turkiy xalqlar adabiyotida Umar Xayyomdan so'ng faqat fors tilida ruboiy yozgan shoir hisoblanadi. U Xayyomning oddiy taqlidchisi bo'lmay, mushohada kuchi jihatidan u bilan barobar turgan. She'rlarida Puryorvaliy yoki Qitoliy taxalluslarini qo'llagan. Pahlavon Mahmud shahar hunarmand-kosiblarining futuvvat-javonmardlik harakati tashkilotchisi, ma'naviy rahnamosi bo'lgan. Ko'pchilik ruboiylarida mardlik, marhamat va shafqat, saxovat va olijanoblik kabi javonmardlik tamoyillari asos qilib olingan. Uning asarlarida tasavvuf ta'limotining nazariy g'oyalari bilan javonmardlikning amaliy qoidalarini o'zaro omuxta holda bayon qilingan. Pahlavon Mahmud she'rlarining mavzu ko'lami haqida so'z borganda, ularni uchga ajratish mumkin: tariqat qoidalarini ifodalovchi ruboiylar, pand-nasihati mazmunidagi ruboiylar hamda muayyan voqea-hodisa munosabati bilan ilhom kelishi natijasida aytilgan she'rlardir. Ammo shuni ham qayd etish lozimki, Pahlavon Mahmudga nisbat berilgan ruboiylar orasida ko'pincha Abu Said Abu-l-Xayr, Sayfiddin Boxarziy, Fariduddin 'Attor singari shoirlarning ruboiylari ham uchraydi. Bu esa o'z navbatida ular o'rtasidagi g'oyaviy, uslubiy mushtaraklikdan dalolat beradi. Pahlavon Mahmudga nisbat beriladigan "Hazrati Pahlavon ruboiylari"ning qo'lyozma nusxalari O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Pahlavon Mahmud hayotiga oid manbalarni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin. Bular a)

XV–XIX asr manbalari: Jomiyning “Nafahotu-l-uns”, Navoiyning “Nasoyimu-l-muhabbat”, Husayn Fanoiyning “Majolisu-l-ushshoq”, Muhammad Boqirning “Tazkirai Muhammad Boqir”, ‘Ali Safiyning “Latoyifu-t-tavoif”, Allohyor Mahzunning “Riyo-z-zokirin” tazkiralari. b) XIX–XX asr manbalari: Xiva xoni Muhammad Aminxon huzuriga 1852 yil yuborilgan Eron elchisi Rizoqulixon Hidoyatning “Safarnomai Xorazm” asari, Sayyid ‘Ali Hasanxonning “Subhi Gulshan”, Shamsiddin Somibekning “Qomusu-l-a’lom”, Muhammad G‘iyosiddinning “Giyosu-l-lug‘ot”, Lutf ‘Alibek Ozarning “Otashkadai Ozariy” nomli asarlari. Ba’zi manbalarda aytilishicha, Pahlavon Mahmud “Kanzu-l-haqoiq”, (“Haqiqatlar xazinasi”, 1319-1320) nomli masnaviy ham yozgan, lekin asar hali topilmagan. Xorazmda yozilgan qo‘lyozma manoqibda shoir hayoti haqida ma’lumotlar bor. Uning vasiyatiga ko‘ra, jasadi o‘zining po‘stindo‘zlik ustaxonasiga dafn etilgan. Maqbara atrofidagi hozirgi ko‘rinishdagi Pahlavon Mahmud me’moriy majmuasi Muhammad Rahimxon I (1806-1825) tashabbusi bilan vujudga kelgan. U Pahlavon Mahmudni Xivaning muqaddas avliyosi – puryorvaliysi deb bilgan. Maqbara majmuida Pahlavon Mahmud qabridan tashqari Muhammad Rahimxon I, Abu-l-G‘ozixon daxmalari, Elbarsxon II (1728-1740)ning marmar qabrtoshlari ham joylashgan bo‘lib, shu tariqa ushbu majmua Xiva xonlarining xilxonasiga aylanib qolgan. Maqbaraga taqab XX asr boshlarida qurilgan xonalarga keyinchalik xon oilasining a‘zolari dafn etilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi naqshinkor bezaklar bilan bezalgan bo‘lib, ularning orasiga shoirning ruboiylaridan namunalar ham joylashtirilgan. Uning ruboiylari To‘xtasin Jalilov, Muinzoda, Vasfiy, Matnazar Abdulhakimov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

69. PIR (fors. – keksa, qari) – sufiylik an‘anasida tariqatlarning oliy rahnamolari yoki obro‘li rahnamolar. Shuningdek, har bir murid o‘z murshidini ham pir deb atagan. Aholi orasida “Pir” tushunchasi

avliyo, ma'lum bir hunarning asoschi-homiysi ma'nosida ham ishlatiladi.

70. REVGARIY Xoja Orif, Mohitobon (XII asr o'rtasi – Shofirkon tumanidagi Revgar qishlog'i – 1259 y.) – xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, buxorolik yetti piring ikkinchisi. 'Abdulholiq G'ijduvoniyan tasavvuf ta'limotini o'rgangan. Ular G'ijduvon bilan Shofirkon o'rtasidagi Ro'yibinon qishlog'ida uchrashib, suhbatlashib turganlar. G'ijduvoniyni 4-xalifasi sifatida ustozi vafotidan so'ng xojagon silsilasini boshqargan. "Silsilai sharif"da "11-halqaning piri" sifatida zikr etiladi. "Qutbu-l-avliyo" ("Valiylar yo'lboshchisi") unvoniga sazovor bo'lgan. Xoja Mahmud Anjirfag'naviyga ustozlik qilgan. Shofirkon shahrida dafn etilgan. Qabri ustidagi maqbara va yon atrofidagi masjid mustaqillik yillarida ta'mirlangan. Bugungi kunda Revgariy mozori obod ziyoratgoh sifatida mashhurdir. Tasavvufning o'zak masalalari xususida so'z yuritilgan "Orifnoma" risolasi o'zbek tilida ham nashr qilingan (Toshkent, 1994). Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqul Revgariy haqida "Xoja Orif Mohitobon" eshesini yozgan (Toshkent, 1996).

71. RIBOT yoki rabot – 1) VII–X asrlarda Kichik va O'rta Osiyo hamda Shimoliy Afrikada musulmonlarning xristianlar (yoki butparastlar) bilan chegaradosh bo'lgan hududlarida barpo etilgan harbiy istehkomlar yoki qal'alar. Ribotlarda istiqomat qilgan musulmonlar "murobit" deb atalib, odatda ko'ngilli sufiylardan bo'lganlar hamda g'ayridinlardan himoya urushlarida qatnashganlar. Ribotlar g'ayridinlar bilan chegaradosh hududlarda islom dinini targ'ib va tashviq qilish markazlari sifatida ham tarixda mashhur bo'lgan. Murobitlar eng oliyjanob xulq namunasini namoyon qilganlari haqida ko'plab afsonalar ham tarqalgan. Islom dinida shahidlik eng yuksak martabalardan biri, deb hisoblangani uchun ham ko'pchilik sufiylar ribotlarda xizmat qilishni xonaqoh, zoviya va tak'yalarda o'tirib ibodat qilishdan ustun ko'rganlar. Hatto mashhur sahobiy Abu Hurayra ham "Alloh yo'lida bir kecha murobit bo'lish Laylatu-l-qadr kechasi Qora tosh oldida bedor bo'lishdan afzal"

ekanini ta'kidlagan. XI–XII asrlarda Marokashda paydo bo'lgan al-Murobitun harakati va davlati o'z nomini ribot atamasidan olgan. Taxminan XI asr boshlarida ribotlar Shom, Xuroson, Iroq va Misrda o'zining harbiy ahamiyatini yo'qota boshladi va darvesh-qalandarlarning qarorgohiga aylandi. Chunonchi XIV asr olimi Ibn Marzuq sufiylar nazdida ribot – “Hoyu havolarga qarshi jihodda nafsni qo'lga olish va zulmga nisbatan doimo ogoh bo'lish” deb tavsiflagan edi. Ya'ni, ribot endi g'ayridinlarga qarshilik ko'rsatish istehkomi emas, balki shaxsdagi nafs, hoyu havaslarga qarshi kurashish markaziga aylandi. Keyinchalik ribotlarning aynan shu ma'nosi butun musulmon dunyosiga yoyildi. Shomdagi Asqalon, Tartus ribotlari, Misrdagi Iskandariya riboti, Iroqdagi Abbadon va shu kabi boshqa ribotlar o'zining g'ayridinlar bilan chegara hududidagi istehkom vazifasini o'tab bo'lganidan so'ng ommaviy ziyoratgohga aylanib qolgan. Ibn Taymiya (1263–1328) o'z asarlarida mazkur ribotlarni zikr qilib, ularga ziyorat uchun borishda fazilat yo'qligini uqtirganlar.

72. RIYOZAT (arab. – “qiynalish”, “mashaqqatlanish”) – tasavvufda tariqatning asosiy shartlaridan biri. Darvish, murid sufiyning o'z istagidan o'zini tiyib, bu yo'lda qiynalishi, mashaqqat chekishi, azob uqubatlarga chidashi.

73. RIFO'IYLAR – sufiylik tariqati a'zolari. O'rta asrlarda vujudga kelgan. Bu tariqatga basralik Sayyid Ahmad Rifo'iy (vaf. 1182 y.) asos solgan. Rifo'iylar Yaqin Sharqda, xususan, Eronda keng tarqalgan darvishlardan iborat bo'lgan. Ular hozir ham mavjud.

74. ROBIYA al-ADAVIYA (713/714–801) – Basra zohidlarining taniqli vakilasi. Bolaligida cho'ri qilib sotilgan. Keyinchalik xudojo'yliги va zohidlarga xos turmush tarziga ixlos bilan rioya etgani sababli ozodlikka chiqarilgan. Bir necha yil sahroda yolg'iz yashagan. Robiya al-Adaviya Allohni sevishdan boshqa jamiki narsalarni rad etish tarafdori bo'lgan. U zohidlardan birinchi bo'lib Allohdan hech bir tama'-manfaat ko'zlamay, uni mutlaq sevish – inson ma'naviy hayotining mohiyati ekanligini ta'kidlagan. Robiya

al-Adaviya g'oyalari keyingi avlod sufiylari orasida keng tarqalib, al-Bistomiy, al-Halloj, Ibn al-Foriz, Ibn al-'Arabiy va boshqa sufiylar ta'limotining asosini tashkil etgan. Robiya al-Adaviya taqvodorlik, Allohni sevisht namunasi deb bilinib, "avliyo" sifatida ulug'lanadi.

75. ROBITA ("aloqa", "rishta") – Sharqdagi tasavvufga xos bo'lgan istiloh. Murid bilan uning piri (murshid) yoki avliyo (valiy) o'rtasida paydo bo'ladigan ruhiy aloqa. Muridning butun fikru zikrini murshid qiyofasiga jamlashi, u bilan muloqotga kirishi va o'zligini unda qo'shib ketishi bilan erishiladi. Naqshbandiylik va qodiriya tariqatlarining ayrim risolalarida robita zikrdan afzal sanalgan.

76. ROMITANIY Xoja 'Ali, Xojai 'Azizon (XIII asr o'rtasi, Romitan tumanidagi Qo'rg'on qishlog'i – 1316/1321) – xojagon-naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi, buxorolik yetti pirning to'rtinchisi. Xoja Mahmud Anjirfag'naviydan tahsil olgan. Uning vafotidan so'ng xojagonlik silsilasini boshqargan. "Silsilai sharif"da 13-halqaning piri hisoblanadi. Romitaniyning "Risolai 'Azizon" asari mashhur bo'lib, unda tasavvuf maqomlari xususida so'z yuritilgan. Fors tilida bitgan she'rlarida tasavvuf g'oyalari aks etgan. Xoja Muhammad Boboyi Samosiyga ustozlik qilgan. Qo'rg'on yaqinidagi Saribo'ston qishlog'ida dafn etilgan. Qabri ustida maqbara qurilgan.

77. SAYFIDDIN BOHARZIY (1190, Xurosonning Boharz qishlog'i – 1261, Buxoroning Fathobod qishlog'i) – kubroviylik tariqatining yirik namoyandasi, shayx. Uning faoliyati Movarounnahr va Xurosondagi diniy hamda ijtimoiy-siyosiy hayotda muhim o'rin tutgan. Hirot va Nishopur madrasalarida o'qigan, Xorazm va so'ngra Buxoroda muqim yashagan. Najmiddin Kubroning sevimli shogirdi bo'lib, ustozlari vafotidan so'ng tariqatni yanada rivojlantirdi. Sayfiddin Boharziydan kubroviylik tariqatining hind tarmog'i – firdavsiyya boshlanadi. Sayfiddin Boharziy mo'g'ullar istilosi va hukmronligiga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Uning xalq ommasi o'rtasidagi kuchli nufuzidan cho'chigan mo'g'ul hukmdorlari u bilan kelishishga intilganlar. "Tarixi Banokatii" (XV asr) asarida yozilishicha, mo'g'ul xonlari Munkexon (1251-1257), Xulaguxon

(1256-1265) va Xubilayxonlarning (1259-1294) onasi Buxoroda maxsus madrasa va xonaqoh kurdirib, unga juda ko'p qishloqlarni vaqf qilgan va mutavalli qilib shayx Sayfiddin Boharziyni tayinlagan. Chingizxonning nevarasi, Oltin O'rda xoni Berkaxon (1255-1266) atay Buxoroga kelib, Sayfiddin Boharziydan islom dinini qabul qilgan va unga murid tushgan. U musulmon bo'lgach, o'ziga Barakaxon ismini qabul qilib olgan. Barakaxon Shimoliy Kavkazdan Sibirgacha cho'zilgan ulkan davlati hududida islom dinini joriy qilgan, masjid va madrasalar qurdirgan. Bu voqeadan so'ng Sayfiddin Boharziyga "Shayxu-l-olam" unvoni, Buxoro shahriga esa, "Buxoroyi Sharif" nomi berildi. Sayfiddin Boharziy qabri Buxoro yaqinidagi Fathobodda bo'lib, daxma 1261 yilda qurilgan. Ibn Battuta 1333 yil bu yerda bo'lganligini yozib qoldirgan. Keyinchalik Chig'atoy ulusi xoni Buyonqulixon (1348-1358) va Turon hukmdori Amir Temur tomonidan daxma atrofida Boharziy maqbarasi va xonaqosi hamda katta ziyoratxona kurilgan.

78. SALMON al-FORISIY, Abu 'Abdulloh Salmon al-Forisiy (vaf. 658 y.) – sahobiy; Rasulullohning (s.a.v.) mavlolaridan. Asli isfahonlik bo'lib, e'tiqod qilish uchun to'g'ri din izlab safarga chiqadi. Majusiy dinidagi otasidan qochib, avval nasroniy dinini, bir necha vaqtdan keyin Madinaga borib, islom dinini qabul qilgan. 627 yildagi Xandaq jangida Muhammadga (s.a.v.) Madina shahri atrofiga xandaq qazish va unga kamonchilarni joylashtirishni aynan Salmon al-Forisiy maslahat bergan. Arabistonda ilgari ko'rilmagan bu yangi taktik usul makkaliklar harbiy kuchining asosiy zarbdor qismini tashkil etgan badaviylar otliq qo'shinining jangovarlik imkoniyatlarini ancha pasaytirdi. Bu ular uchun kutilmagan hol bo'lib, sarosimaga solgan, natijada musulmon qo'shini zafar qozongan. Salmon al-Forisiy manoqiblarda tasavvufning asoschilaridan biri hisoblanadi. Shialar Salmon al-Forisiyni 'Alining sodiq safdoshi sifatida juda qadrlaydilar. Madoin shahriga (Iroq) hokim bo'lganda, maoshini muhtojlarga sadaqa qilib, o'zi esa bo'yra to'qib sotib, mehnati evaziga tirikchilik o'tkazgan. Ko'plab hadislar rivoyat qilgan.

79. SAFAVIYA – sufiy-darveshlik tariqati. XIII asr oxirida Eron Ozarbayjonida paydo bo'lgan. Asoschisi – shayx Safiyuddin Ishoq (1252-1334). Safaviya dastlab o'z tarafdorlarini hukmdorlarning jabr-zulmlaridan himoya qiladigan diniy jamoa sifatida shakllangan. XV asrda Safaviya Ardabil hukmdorlari hokimiyatining tayanchiga aylandi. Qizilboshlar safaviya shayxlarining harbiy tayanchi bo'lgan. Safaviya tarafdorlari shialikdan mafkuraviy qurol sifatida foydalangan. 1499 yil Ismoil I (1487-1524) boshchiligidagi Safaviya tarafdorlarining Oq Qo'yunli davlatiga qarshi harakatlari g'alaba qilgandan so'ng safaviylar davlati (1502-1736 yillar) tashkil topdi, shialik bu davlatning rasmiy dini deb e'lon qilindi. Safaviylar davlati tarkibiga Ozarbayjon, Armanistonning bir qismi, Eron, hozirgi Afg'oniston (Balx viloyatidan tashqari), Iroq (vaqt-vaqti bilan) kirgan edi. Bu davlat Usmonli turk imperiyasi va o'zbek xonlari bilan uzluksiz urush olib borgan.

80. SILSILA (arab. – zanjir, halqalar) – tasavvufda tariqat mashoyixlarining ikki xil nisbiy bog'lanishlari: 1) har bir shayx o'z pirining (shayxi, murshidi) ustoz, ustozining ustoz va ulardan yuqorilarini birma-bir to Payg'ambarga (s.a.v.) qadar nomma-nom bayon qilishi; 2) har bir shayx o'z ota-bobolari (yetti pushti) kimlar bo'lgani va qaysi mashhur zotga borib taqalishini isbotlab beradigan shajara. Silsila pir va murid o'rtasidagi barqaror munosabatga asoslanib, XII asr oxiri va XIII asr o'rtalarida sufiylik tariqatlarining tashkiliy tuzilmasi rivojlanishi bilan mustahkamlandi. Hadislardagi isnod tizimi ham silsilaga bevosita ta'sir o'tkazgan.

81. SOLIMIYLAR – Basrada X–XI asrlarda mavjud bo'lgan mutasavvif va sufiylar maktabi, Sahl at-Tustariy izdoshlari. Unga at-Tustariyning eng yaqin safdoshi Abu 'Abdulloh Muhammad ibn Solim (vaf. 909 y.) asos solgan. Ba'zi bir xususiy masalalardan tashqari uning qarashlari ustozinikidan farq qilmagan. Muhammad ibn Solim qat'iy zohidlikni targ'ib etgan: o'zini to'liq Alloh irodasiga topshirish (tavakkul), sinovlarga bardosh berish, turmush qurmaslik, to'xtovsiz nafl ro'za, ibodatlar. Solimiyaga Muhammad ibn Solimning o'g'li

Ahmad ibn Solim boshchilik qilgan vaqtda, mazkur maktab uzil-kesil shakllangan va ta'sir kuchiga ega bo'la boshlagan. Unga ba'zi masalalarda (xususan, inson irodasi erkinligi va taqdirni oldindan Alloh tomonidan belgilanganligi haqidagi qarashlar muvozanati borasida) Basra mu'taziliylariga yon bosgan molikiy mazhabidagi ilohiyotchi va sufiylar kirgan. Bag'dodning mashhur olimlaridan 'Abdulqohir al-Bag'dodiy, Abu-l-Muzaffar al-Isfaroiniy, ular bilan bir qatorda sufiy-hanbaliy 'Abdu-l-Qodir al-Giloniy ham as-Solimni al-Halloj qarashlariga xayrixohligi uchun qattiq tanqid qilishgan va uni "Allohni insonda mujassam bo'lishi" (hululiya) tarafdorlari qatoriga kiritganlar. Bundan ilgariroq uni mashhur sufiy-shofe'iy Ibn Hafif tanqid qilib "Ibn Solimni rad etish" ("ar-Radd ala Ibn Solim") asarini yozgan.

82. SOLIK (arab. – yo'lchi, yo'ldan yuruvchi) – tasavvufda suluk-tariqatni ixtiyor qilib, uni o'zlashtirish harakatiga tushgan, lekin hali biror maqom yoki martabaga erishmagan murid. Solik o'ziga xos odob-qoidalar majmuiga rioya etsagina, tariqat ahli sirasidan joy olgan.

83. SULAYMON BOQIRG'ONIY (vaf. 1186 y.) – mutasavvif, shoir. Uni "Hakim ota" deb ham ataganlar ("Boqirg'oniy" adabiy taxallusi, tug'ilgan joyiga ishora). Ahmad Yassaviy ta'limotining davomchisi. She'rlarining tili va ruhi Ahmad Yassaviy ijodiga g'oyat hamohang bo'lib, tasavvuf, din, shariat aqidalari shoirona targ'ib qilinadi. "Bibi Maryam kitobi", "Oxir zamon kitobi" kabi dostonlar muallifi. She'rlari "Boqirg'on kitobi" nomi bilan to'plam qilingan. Bu kitob 1877 yil va undan keyin yana 2 marta Qozonda, 1991 yil esa Toshkentda ham nashr etilgan.

84. SULAMIY, Abu 'Abdurrahmon Muhammad ibn al-Husayn (937 yoki 942-1021) – Xuroson sufiylik maktabining yirik vakili, ko'plab asarlar muallifi. Nishopurda tug'ilgan. Sulamiy xirqani otasidan olgan, lekin uni sufiy bo'lib shakllanishida bobosi – mo'tadil malomatiya vakili Ismoil ibn an-Nujayd katta ta'sir ko'rsatgan. Hadis va fiqhni as-Sibaiy, al-Asamm, ad-Doraqutniy va boshqalardan

o'rgangan. Sulamiy ko'p sayohat qilgan, jumladan Iroq, Suriya, Hijoz va xalifalikning sharqiy viloyatlarida bo'lgan. Uzoq vaqt Bag'dodda yashagan. Nishopurga qaytib kelib, o'zining katta uyini kutubxonaga aylantirgan va uni sufiylar ixtiyoriga topshirgan. Sulamiy vafotidan keyin ham sufiylar undan foydalanishni davom ettirganlar. Sulamiy asos solgan sufiylar dargohi (duvayra sufiya) uning nomi bilan atalgan. Sulamiy 100 dan ziyod asar yozgan, shundan 30 ga yaqini bugungi kungacha yetib kelgan. Eng mashhurlari – “Tabaqot as-sufiyya” IX–X asrlardagi sufiylar haqida qimmatli manba sanaladi. Sulamiy ko'plab shogirdlar qoldirgan, ularning orasida uning ishini davom ettirgan al-Qushayriy va xurosonlik mashhur tarixchi olim al-Bayhaqiylarni ko'rsatish mumkin.

85. SULUK (arab. – yo'l) – solikning tariqat yo'lini o'tish jarayoni. Ilohiy ma'rifatni egallashga bel bog'lagan muridning ruhiy-axloqiy kamolotga erishish yo'li.

86. SUFIY – sufiylik tariqatiga mansub shaxs, murid; “Tasavvuf” va “sufiy” so'zlarining o'zagi va mazmuni to'g'risida olimlar fikri turlicha. Bu so'zlar arabcha “suvf” (jun, po'stin) so'zidan kelib chiqqan, degan fikr ko'pchilik ulamolar tomonidan ma'qullangan. Chunki, tasavvuf yo'liga kirganlarning ko'pchiligi o'zlarini xilvatda tutish bilan birga egnilariga po'stin kiyib yurishar edi. Lekin sufiylar orasida po'stin kiymaydiganlari, quroq, xirqa yoki boshqa xildagi kiyim kiyib yuradiganlari ham bo'lgan. Ammo, po'stin kiyishga odat qilgan sufiylar ko'pchilikni tashkil qilgan.

87. SUHRAVARDIY, al-Maqtul Shihobuddin Yahyo as-Suhravardiy (1155-1191); – Eron tasavvufi faylasufi, “porlash” (ishroq) haqidagi ta'limot asoschisi, shu tufayli uni Shayxu-l-ishroq deb ham atashadi. E'tiqodsizlikda va ismoiliylikni targ'ib qilishda ayblanib, Salohiddin Ayyubiy amri bilan Halab shahrida qatl qilingan. Suhravardiy falsafiy qarashlarida zardushtiylik bilan hamnafas unsurlar uchraydi. U borliqqa xilma-xil tezlikdagi ranglar majmui sifatida qaradi, ularni esa, Avesto qahramonlarining nomi bilan atadi. Suhravardiy o'ziga xos qorishiq ta'limot yaratdi, bu ta'limotda

zardushtiylik belgilari bilan birga tasavvufga oid qarashlar qo‘shilib ketgan edi. Suhravardiy juda ko‘p g‘oyalarni sufiylik merosidan olgan, biroq u amalda sufiy bo‘lmagan, balki musulmon falsafasiga yaqinroq turgan. Uning g‘oyalari Eron mutafakkirlari orasida keng tarqalgan.

88. SUHRAVARDIYLIK, suhravardiya – sufiylik tariqati. XII asr oxiri – XIII asr boshida Iroqda, Ikki daryo oralig‘i hududida zohidlik maktabi doirasida tarkib topgan. Aslida Suhravardiylikni yaratgan kishilarning aksari arablardan emasdi. Suhravardiylik musulmon zohidligi tarixida tuzilgan dastlabki sufiylik tashkilotlaridan. Suhravardiylik shofe‘iylik mazhabiga mansub bo‘lib, qat’iy sunniylik yo‘lini tutgan. O‘z silsilasini Ziyouddin Abu Najib as-Suhravardiy (1097-1168)dan boshlab Ahmad al-G‘azzoliy (vaf. 1126 y.) va al-Junayd al-Bag‘dodiy (vaf. 910 y.) orqali ‘Ali ibn Abu Tolibga (vaf. 661 y.) bog‘lagan. Suhravardiylik shaharliklar tariqati bo‘lib, a‘zolari soni savdo-hunarmand ahli va jamiyatning o‘qimishli qatlamlari hisobiga ko‘payib borgan. Zohidlik falsafasi va diniy amaliyotining (tariqati) mustaqil yo‘li bo‘lgan suhravardiylik asoschisi Shihobiddin Abu Hafs ‘Umar as-Suhravardiy (1145-1234/35) hisoblanadi. Abu Hafs ‘Umar as-Suhravardiy sufiylikka oid bir necha kitoblar va maktublar, jumladan, “Avorifu-l-maorif” asarini yozgan. Bu kitob keyingi davrlarda yashagan barcha sufiylarning avlodlari uchun axloq va amaliyot bo‘yicha qo‘llanma sanalgan. Keyinchalik, suhravardiylik Hindistonda (Sind, Panjob, Mo‘lton, Gujarot) ham keng tarqaldi va chishtiylik bilan bir qatorda eng ta’sirli tariqatlardan biri sanalgan, dastlabki davrda bu mamlakatga kelib qolgan kamsonli musulmonlarni birlashtirishda muhim rol o‘ynagan.

89. SO‘FI OLLOYOR, So‘fi Allohyor (1644, Kattaqo‘rg‘on bekligi, Minglar qishlog‘i 1724, Denov); – turkiy tasavvuf adabiyotining yirik vakili va naqshbandiya tariqati arbobi, sufiy shoir. Buxorodagi Jo‘ybor shayxlari madrasasida ta’lim olgan. O‘z davrining an’anaviy hisoblangan barcha ilmlarini egallagan, arab va fors tillarini o‘rgangan. Buxoro xoni ‘Abdulazizxon tomonidan bojxonaga ma’mur etib tayinlangan. Sufiyona fe’li, shoirona tabiati

tufayli bu lavozimdan iste'foga chiqib, mashhur shayx Navro'zga murid tushgan, uning qo'lida o'n ikki yil tarbiya topib, shayxlik martabasiga yetishgan. Mansabdorlik paytidagi qattiqqo'lligi va o'zgalarga yetkazgan zulmlaridan qattiq pushaymonligini baytlarida hamda o'g'liga qilgan nasihatlarida aks ettirgan. So'fi Olloyor turkiy va forsiy tillarda ijod qilib, unda asosan diniy saviyasi pasayib ketayotgan, axloqsizlik va tubanlikka yuz tuta boshlagan, aqidaviy masalalarda omi bo'lib, turli soxta ta'limotlar ketidan ko'r-ko'rona ergashib ketayotgan, ruhiy-ma'naviy ozuqaga muhtoj keng xalq orasida islom ma'rifatini yoyish va tasavvufdagi inson ma'naviy kamoloti bilan bog'liq g'oyalarni targ'ib etdi. U "Maslaku-l-muttaqin" ("Taqvodorlar maslagi"), "Murodu-l-orifin" ("Oriflar murodi"), "Maxzanu-l-mute'in" ("Itoatkorlar xazinasi") asarlarini forsiy, "Sabotu-l-ojizin" ("Ojizlar saboti"), "Favzu-n-najot" ("Najot tantanasi") masnaviylarini turkiy tilda yaratgan. Forsiy va turkiyda bitilgan boshqa she'rlari ham mavjud. "Mevalar munozarasi" nomli manzuma ham unga nisbat beriladi.

So'fi Olloyorning shoh asari "Maslaku-l-muttaqin" 12 ming bayt, 135ta katta-kichik boblardan iborat. Bu kitobning yozilish sabablaridan biri shoir yashagan davrlarda islom dinining odamlar hayotidagi o'rni zaiflashuvi, yuzlab soxta shayx va eshonlarning "karomatlari" tufayli dinga nisbatan e'tiborning susayishi, natijada axloqsizlikning kuchayishi edi. Fors tilida yozilgan mazkur asar el orasida mashhur bo'lib, yaqinlari undan turkiy tilda ham shunday bir qo'llanma yozishni iltimos qiladilar. Bunga javoban, u "Maslaku-l-muttaqin"ni birmuncha qisqartirib, turkiy tilda nazmiy asar bitadi va unga "Sabot ul-ojizin" deb nom beradi. Bu kitob aqida, shariat va tasavvuf ta'limotlari haqida so'z yurituvchi turkiy falsafiy-didaktik adabiyotining yetuk namunasidir. Umuman olganda, "Maslaku-l-muttaqin" va "Sabotu-l-ojizin" ikki mustaqil asar bo'lsada, ularda g'oyaviy va ma'naviy tomondan bir-birini to'ldiradigan ko'plab baytlar uchraydi. Asarda aqida masalalariga alohida e'tibor ajratiladi. O'sha davrda Afg'onistondan kirib kelayotgan va aholi

orasida keng tarqala boshlagan botil sufiy oqim – ravshaniylarning yot mafkurasining islom ta’limotiga zid ekani asoslab beriladi. 1806 yili tatar olimi Tojiddin Yolchig‘ul o‘g‘li o‘zining Aziza ismli qiziga atab “Sabotu-l-ojizin” asariga “Risolai Aziza” nomli sharh yozadi. Bu sharh orqali So‘fi Olloyor butun turk dunyosida tanildi. So‘fi Olloyor birinchi navbatda yirik ilohiyotchi va faqih, Abu Hanifa an‘analarini omma orasida tarqatishda faol ishtirok etgan din arbobi edi. Asarlarida islom ahkomlari, tariqat talablari, insoniy komillik shartlarini birma-bir ta’riflab bergan. Xususan, “Maslaku-l-muttaqin” va “Sabotu-l-ojizin” asarlari maktab va madrasalarda asosiy darsliklar qatorida o‘qitilib kelingan. Uning tasavvufiy ruhdagi pandu hikmatga yo‘g‘rilgan asarlari nafaqat Turkiston, balki Qashqardan tortib Volga, Ural daryolari havzalari, Astraxan, Orenburg va boshqa mintaqalarda yashovchi xalqlar orasida ham keng tarqalgan va ko‘p nusxalarda ko‘chirilgan. XIX asrning oxirlariga kelib esa, Toshkent, Qozon, Boku, Istanbul va boshqa shaharlarda toshbosma yo‘li bilan bir necha marta chop etilgan.

90. TAVAKKUL (arab. – “biror-bir zotga umid bog‘lash”, “suyanish”) – o‘zini Alloh irodasiga topshirish, faqat Uning irodasiga umid bog‘lash. Tavakkul amallari zohidlar va sufiylar orasida keng yoyilgan. Ular Qur‘onga asoslanib, tavakkulni imon bilan bog‘lashgan, Allohdan chinakam umidvor bo‘lgan insongina kundalik turmush tashvishlaridan yuz o‘girib, Alloh yo‘lida xolis xizmat qilishga qodir, deb hisoblashgan. Keyinchalik sufiylik yo‘lining (tariqat) boshlang‘ich maqomlaridan biri tavakkul istilohi bilan atala boshlandi. Tavakkul sufiylikning boshqa bir maqomi – “qoniqish” (rizo) bilan ham bog‘langan. Tavakkulga amalda rioya etish ba’zi sufiylarning deyarli har qanday mehnat faoliyatini to‘xtatib qo‘yishida ham namoyon bo‘lgan. Faqihlar va ilohiyot olimlarining aksariyati bunday yondashuvga e’tiroz bildirganlar. Ular fikricha, tavakkul mehnatdan butunlay voz kechishni bildirmaydi, ya’ni inson ishlashi, tijorat bilan shug‘ullanishi mumkin. Ammo bu

kabi ishlarni hayotning asosiy maqsadi qilib qo'ymay, o'z ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli darajada ishlab rizq topish, u yog'iga esa, Allohga tavakkul qilib, uzoq va mavhum kelajak to'g'risida xayol surib, xom orzu-havaslariga berilmaslik nazarda tutiladi.

91. TAVBA (arab. – qaytish, pushaymon bo'lish) – tasavvufda solikning tariqat sari qadam qo'yishidan oldin qilgan barcha gunohlaridan tavba qilib, kelajakda biror gunoh ishni qasddan qilmaslikka azmu qaror etishi. Tavba solikning 1-maqomi sanaladi. Alloh tomonidan tavba qabul bo'lishining 2 sharti bor: 1) yomonlikni bilmasdan qilish; 2) tavbani kechiktirmaslik. Kimki tavbani kechga sursa, insoniy fazilatlardan mahrum va aksincha tavba qilishga shoshilsa, o'zini isloh qilgan bo'ladi. Tavba – insonning o'z-o'zini tarbiyalashda muhim axloqiy vosita sanalib, yomonlikdan yuz o'girib, yaxshilik sari qadam qo'yishga, ezgu ishlar qilishga undab turuvchi xislat sanaladi.

92. TAJALLI (ko'pligi tajalliyot) – “Xudoning namoyon bo'lishi”, Allohning dunyoda namoyish etishi. Tajalli tushunchasini dastlab basralik zohid Raboh ibn Amr al-Qaysiy (vaf. 796 y.) kiritgan. Mashhur sufiy Sahl at-Tustariy (vaf. 896 y.) tajallining uch turini farqlagan: a) ilohiy mohiyatning namoyon bo'lishi (tajalliyu-z-zot), yoki ilohiy vahiy (mukoshafa); b) ilohiy mohiyatning o'z sifatlarida namoyon bo'lishi (tajalliyu sifati-z-zot), yoki nur taratish; v) ilohiy hukmning namoyon bo'lishi (tajalliyu hukmi-z-zot), yoki kelajak hayot (al-oxira va ma fiyha). Mansur al-Hallojga ko'ra, Alloh doimo insonlarga narsa va atrofdagi hodisalar ko'rinishida namoyon bo'ladi (yatajalli), lekin Uni faqat ozchilik xos insonlarga tanishlari mumkin. Tajalli atamasini sufiylar – vahdatu-l-vujud ta'limoti tarafdorlari keng ishlatganlar.

93. TAK'YAXONA, Tak'ya (turk.) – forslarning xonaqohiga muqobil ravishda turkiylar tomonidan barpo etilgan. Xonaqoh ta'lim berish vazifasini ham o'tagan bo'lsa, tak'yaxona asosan darvesh, qalandar va musofirlar uchun yashash joyi sifatida qurilgan. Bajaradigan vazifasiga ko'ra ham xonaqoh va tak'yaning qurilish

tuzilmasi bir-biridan farqlanadi. Odatda tak'yaxonalar bog'chali va o'rtasida hovuz yoki favvora bo'lgan hovlili hamda hovlini o'rab turuvchi kichik qubballi ochiq ayvonlar, masjid va darveshlar yashaydigan hujralardan iborat bo'lgan. Saljuqiy va usmoniylar hukmronligi davridagi tak'yalar atrofida ko'pincha qabriston, hammom, masjid, molxona va ba'zan tegirmon joylashgan. Agar darvesh tak'yaxonada vafot etsa, u shu yerning o'zida dafn etilgan. Mavlaviylar tariqati tak'yalari usmoniylar imperiyasining barcha joylarida tarqalgan edi. Tak'yalarning iqtisodiy ta'minoti sultonlar, shuningdek, saxiy amaldorlarning ajratgan vaqflari hisobiga amalga oshirilgan. Natijada tak'yalar hukmron doiralarga birqadar tobe ham bo'lib qolgan. Aksariyat tak'yalarda shayxlik otadan o'g'ilga o'tadigan an'ana vujudga kelgan.

94. TARIQAT (arab. – yo'l, usul) – sufiylikka xos tushuncha. Uch ma'noda ishlatiladi: 1) umuman sufiylik yo'li; 2) sufiylikning muayyan tarmog'i, yo'nalishi; 3) sufiylik bosqichlaridan biri. Lekin tariqatni sufiylik yo'nalishlari (suluklari), tarmoqlari ma'nosida qo'llash kengroq tarqalgan. Sufiylikning bosqichi sifatida tariqat sufiylar oldiga qo'yiladigan o'ziga xos talablar majmuasini, xilma-xil ruhiy-jismoniy xatti-harakatlarni qamrab oladi. Tariqatga qadam qo'yish – tirikchilikning barcha tashvishlaridan yuz o'girish hamda ixtiyorni piri murshidga topshirishdan boshlanadi. Undan keyin tariqat yo'lida sufiy yana bir necha bosqich (maqom)larni, jumladan, doim kambag'allikda, tasodifiy rizq hisobiga yashash (faqr), tarki dunyo qilish (zuhd), har narsani faqat Xudoga solish (tavakkul), uni sevish va unga intilish (muhabbat, shavq) va boshqa bosqichlarni o'taydi. Sufiylikning ba'zi yo'nalishlari insonni nafaqat zohidlik, balki mutaassiblik yo'liga ham yetaklaydi. Sufiylikda tariqatlar tarmog'i ko'p bo'lgan. Hozirgacha ayrim Sharq mamlakatlarida saqlanib kelayotgan qodiriya (Eron va Afg'onistonda), rifo'iya (Eron), tayfuriya (arab mamlakatlari), mavlaviya (Turkiya), chishtiya (Hindiston, Pokiston), bektoshiya (Turkiya), safaviya (Eron) va boshqalar

shular jumlasidandir. Oʻrta Osiyoda esa, ilgaridan naqshbandiylik, kubroviylik, yassaviylik va qodiriylik tariqatlari tarqalgan.

Sufiylikka xos tushuncha sifatida, tariqat – pir-shayxlar oʻz muridlari Allohga yaqinlashmoq va Uning roziligiga erishmoq maqsadida joriy etgan qoida va rusumlar majmuasidir. Har bir tariqatda murid oliy maqsadga erishishi uchun oʻziga xos va bir-biridan farqlanuvchi uslub va yoʻllar ishlab chiqilgan. “Tariqat” soʻzi tarixiy jihatdan quyidagi tadrijiy bosqichlarni bosib oʻtgan. 1. IX–X asrlarda tasavvuf nazariyotchilari (al-Muhosibiy, al-Junayd al-Bagʻdodiy, al-Kalabodiy, as-Sarroj, al-Hujviri, as-Sulamiy) tariqatni odob-axloq va maʼnaviy-ruhiy qoʻllanmalar majmui, deb hisoblaganlar. Uning vositasida ruhiy poklanishni maqsad qilgan haqiqatni chuqur tafakkur hamda ruhiy va jismoniy mashqlar yoʻliga kirib, ular orqali ilohiy haqiqatni anglashga intiladi. Bu bosqichda tariqat tasavvuf mohiyatini anglash usuli boʻlgan.

2. XI–XII asr oʻrtalarida Xurosonda sufiy yigʻilishlar asosida pir-murid tartibi (instituti) shakllandi va butun musulmon olamiga keng tarqalib ketdi. Ushbu tuzilmaning asosiy figurasi pir boʻlib, barcha muridlar sulukdagi yoʻlboshchi sifatida unga soʻzsiz itoat qilishlari lozim boʻlgan. Mazkur bosqichda tariqat suluk yoʻlini taʼlim berish maskaniga aylandi. Tariqat oʻz ichiga jismoniy, maʼnaviy-ruhiy, asketik mashqlar, oʻziga xos marosimlar majmuasi (xilvat, chilla, zikr, samoʻ, roʻza)ni qamrab olgan hayot tarziga aylandi. Bu davrda tasavvuf xos kishilar tasavvufidan omma tasavvufiga aylandi.

3. XII asr oxirlariga kelib tariqatlarning silsila instituti – uzluksiz maʼnaviy vorislik zanjiri shakllanib, sulukdagi xususiy uslublarning jamiyatda “qonuniylashtirish” jarayonida asosiy oʻrin tutdi. Silsila tariqatning hayotiy oʻzagi sifatida eʼtirof etilib, unga eʼtibor doimo yuqori boʻlgan. Bayʼat berib, tariqatga kirgan har bir murid silsiladan maʼnaviy madad olgan. Bu institutning paydo boʻlishi sulukni taʼlim beruvchi maktablarning tashkiliy tizimi va ierarxiya tuzilmasining shakllanish jarayonini tezlashtirib

yubordi. Bu jarayon esa tasavvufiy tariqatlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Tariqat – unga asos solgan pirning silsila orqali yetib kelgan sulukdagi o'ziga xos yo'lini tatbiq qiluvchi, ma'lum intizom va qoidalarga asoslangan, markazlashgan ierarxik tuzilmani tashkil etuvchi sufiylarning ixtiyoriy jamoasiga aylandi. Shunday qilib, tariqat yagona uslub, yagona silsila va tashkiliy tizilma xolatiga keldi.

XII–XIV asrlarda tasavvufda asosiy 12 tariqat: rifo'iya, yassaviya, shoziliya, suhravardiya, chishtiya, kubraviya, badaviya, qodiriya, mavlaviya, bektoshiya, xalvatiya, naqshbandiyalar vujudga keldi. Bu tariqatlar keyinchalik vujudga kelgan barcha tariqat tarmoqlari yoki alohida tariqatlarning o'zagi hisoblanadi. 'Abdul-Qodir al-Giloniy (al-Jiloniy) (vaf. 1166 y.) ta'sis etgan qodiriya tariqati dastlabki tariqatlardan biri hisoblanadi. Keyingi o'rinda vujudga kelgan tariqatlardan biri Ahmad ar-Rifo'iy (1106-1183) asos solgan rifo'iya tariqati deyiladi. Ma'lumki, mazkur tariqat o'z asoschisining hayot paytida to'laqonli tariqat sifatida e'tirof etib bo'lingan edi. Suhravardiya kabi ba'zi tariqatlar esa tashkiliy tuzilmasi yo'qligi tufayli tom ma'nodagi tashkilot sifatidagi tariqatga aylana olmadi. Tariqatlarni bir-biridan farqlanishida zikr katta ahamiyat kasb etadi. Tariqatlarning asosiy xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: silsila orqali o'tadigan baraka merosxo'ri sifatida tariqat shayxiga to'liq itoat etish tamoyili; ierarxik itoat asosiga qurilgan yagona tashkilot tizimining mavjudligi; tariqat shayxiga bay'at berish; jismoniy, asketik va ruhiy mashqlar (uzlat, zikr, nafl ro'za, bedorlik va h.k.)ni bajarishda ichki tartib-qoidalarining mavjudligi; jamoaviy zikrning marosim sifatidagi ahamiyati; tariqatda avliyolar qabri bilan bog'lik e'tiqodning mavjudligi.

O'rta Osiyoda esa, ilgaridan yassaviylik, kubraviylik, naqshbandiylik va qodiriylilik tariqatlari tarqalgan. Ba'zi tariqatlarda tashqi qiyofaga, kiyimlarga katta ahamiyat beriladi (mavlaviya, bektoshiya). Naqshbandiya tariqatida esa oddiy va pokiza libos kiyish va salla o'rash bilan kifoyalaniladi. Tariqatlarda xirqa, kuloh,

kamar, shadd, abo, po'stak, tannura kabi liboslar kiyiladi. Mazkur liboslar ham o'z o'rnida ma'lum bir tasavvufiy ma'noni ifodalaydi. Masalan, xirqa tariqat ahli kiygan keng, uzun, oldi ochik, yoqasiz, yengi uzun bo'lgan libos. Xirqa kiyish shayxga taslim bo'lishni ifoda etadi. Xirqa ikki xil bo'ladi: tabarruk xirqa va iroda xirqasi. Tabarruk xirqa tariqatga kirishga moyil bo'lgan, zikr majlislari, shayx suhbatlarida ishtirok etadigan, ammo hali tariqatga kirmagan kishining o'z istagiga ko'ra unda tariqatga mehr paydo qilish, pirga qo'l berishga undash maqsadida kiydiriladi. Tasvufda xirqa kiyish an'anasi payg'ambar Ibrohimga (a.s.) borib taqaladi, deb aytiladi. Zero, Ibrohim (a.s.) gulxanga tashlanganlarida farishta Jabroil (a.s.) Allohning amri bilan jannatdan ipak ko'ylak olib kelib, payg'ambarga kiydirgan, uning barakoti tufayli payg'ambar olovdan saqlanib qolgan. Ushbu ko'ylakni Ibrohim payg'ambar o'g'li Ismoilni (a.s.) qurbon qilmoqchi bo'lganda kiydirgan. Keyinchalik bu ko'ylak payg'ambarlar orasida qo'ldan-qo'lga o'tib, Yusuf payg'ambarning quduqdan qutilishi, Ya'qub payg'ambarning ko'zlari ochilishiga vosita bo'lgan, deyiladi. Sufiylar xirqada bu ko'ylakning ma'naviy barakasini timsol qiladilar. Shu bilan birga, Muhammad (s.a.v.) ham sahobiylarga libos kiydirganlari haqida turli rivoyatlar yetib kelgan. Tariqatlarning tashqi qiyofasini ifodalovchi yana bir muhim ko'rinishlardan biri bu "kuloh"dir. Kuloh jundan tikilgan bosh kiyimi bo'lib, uning ustiga turli shakllarda salla o'raladi. Kuloh ham xirqa kabi maxsus marosim asnosida kiydiriladi. Kulohning tikilish shakli, rangi va sallani o'rash usullari sufiyning tariqati, uning tariqatdagi maqomi va yana boshqa ma'nolarni ifoda etadi.

95. TARKIDUNYOCHILIK – odamlardan, tashqi dunyodan, shuningdek, jamiyat va oiladan ajralib yashash, kimsasiz joylarga bosh olib ketish, darbadarlikda hayot kechirish – islomdan boshqa yirik dinlarga (brahmanizm, buddaviylik, yahudiylik, xristianlik) ham xos xususiyatdir. Uning mohiyati – din yo'lida riyozat chekish. Tarkidunyo qilganlar odamlardan uzoqda va g'orlarda hayot kechirishgan, o'zlarini xilma-xil uqubatlarga duchor qilganlar,

och-yalang'och yashaganlar. Ayniqsa, uylanish, avlod qoldirishga, kundalik hayot tashvishlari bilan yashashga nafrat bilan qarashgan. Garchi tarkidunyochilik islom dinida ma'qullanmasada, o'rta asrlarda keng tarqalgan, sufiylik oqimlarining vujudga kelishi bilan bog'liq bo'lgan. Ular faqir, darvesh, qalandar, zohid deb atalgan. Ular gadolik va xayr-ehson bilan kun kechirganlar. Ilgari O'rta Osiyoda ham tarkidunyochilik keng yoyilgan, darveshlar va qalandarlarning faoliyati bilan bog'liq qalandarxonalar va xonaqohlar mavjud bo'lgan.

96. TASAVVUF, sufiylik – islomda insonning ruhiy olamiga bog'liq qarash va amaliyotlar majmui. Bu atama kelib chiqishi haqida turli taxminlar bor. Lekin aksariyat olimlar nazdida tasavvuf “suf” – “jun”, “po'stin” so'zidan kelib chiqqan. Chunki, tarkidunyo qilgan zohid, “o'zini Xudoga bag'ishlagan odam” odatda dag'al jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurgan. Tasavvufga asos solgan tarkidunyochilik kayfiyatlari islom dini bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ladi. Muhammad (s.a.v.) atrofidagi Abu-d-Dardo uning ayoli Ummu-d-Dardo, Abu Zarr al-G'iforiy, Huzayfa ibn al-Yamoni, Salmon al-Forisiy kabi ayrim sahobiylarda zohidona qarash va turmush tarzi “tasavvuf” degan tushunchaning o'zi hali paydo bo'lmasidan ilgari namoyon bo'lgan edi. Zero, “tasavvuf” istiloh sifatida IX asrning boshlaridagina Iroq va Suriyadagi zohidlarga nisbatan qo'llana boshlagan. Manbalarda “nussok”, “zuhhod”, “ubbod” kabi nomlar bilan keltirilgan bu toifaga muhaddislar, sayyor baxshilar va nasihatgo'y voizlar (qussos), qori-yu qurrolar, Vizantiya bilan chegara urushlarida qatnashayotgan mujohidlar, taqvodor hunarmandlar va savdogarlar, shuningdek, islom dinini qabul qilgan nasroniylarning bir qismi kiritilgan. Islomda zohidlik an'analari paydo bo'lishi va rivojlanishining sabablari orasida musulmon jamoasi yashay boshlagan dastlabki ikki asrdagi ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar, chuqur g'oyaviy va ma'naviy izlanishlar bilan davom etgan diniy hayotning umumiy murakkablashuvi, boshqa diniy-falsafiy tizimlar ta'sirini ko'rsatish mumkin. Ilk sufiylar, ya'ni zohidlarning o'ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo'lgan:

Qur'on oyatlari mazmuni ustida uzoq muddat mushohada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va payg'ambar hadislaridagi ko'rsatmalarga qat'iy rioya etish, ko'p nafl ibodatlar qilish, tungi bedorlik, nafl ro'zalar tutish, tarkidunyochilik, har ishda taqvodor bo'lish, halol va haromni qat'iy ajratish, hukmdorlar bilan hamkorlik qilmaslik, tavakkul kilib, o'z taqdirini Allohga topshirish kabilar bo'lgan. Shuningdek, faqirlikni ulug'lash, oxiratni o'ylash va doimiy tavba qilish kayfiyati, berganiga shukr qilish, azob-uqubatlarga sabr-toqatli bo'lishdan iborat edi. Ular o'z navbatida, Allohdan haqiqiy ma'noda qo'rqadigan banda o'tkinchi dunyodan, uning barcha gunoh va ma'siyatlaridan voz kechish kerakligini ta'kidlar edilar. O'z tarkidunyochiliklarining tashqi ifodasi sifatida ko'pincha dag'al po'stak kiya boshladilar. Bu bilan ular o'zlarini shoyi va paxta kabi matolardan ishlangan kiyimlar kiyadigan oddiy odamlardan ajratib ko'rsatardilar. Dag'al po'stin kiyish xristian rohiblarining odati ekaniga ishora kilib, ilk davrlardagi musulmon olimlar bu ko'rinishga salbiy munosabatlarini bildirganlar. "O'zini faqir qilib ko'rsatish – Alloh o'zining taqvoli bandalarini yetarli darjada ta'minlamagan", deya da'vo qilish bilan barobar deb, hisoblab po'stak kiyishni qoralaganlar. Ammo shunga qaramay, Suriya va Iroqda tarkidunyochilik kayfiyatidagi kishilar orasida po'stak kiyish odati keng tarqaldi.

Asta-sekin sufiylik ta'limoti asosiy e'tiborni inson qalbi, uning ruhiyati, ko'ngil hollari, nafs tarbiyasi, komil inson, yuksak ma'aviyat, go'zal odob-axloq, ruhiy kamolot kabi mavzularga qarata boshladi. Tasavvufning dastlabki davrida ilm sifatida shakllanish jarayonini tobe'iy Hasan al-Basriy (642-768) shaxsiyati bilan bog'laydilar. U manbalarda inson qalbining nozik jihatlarini anglay oladigan ruhshunos sifatida gavdalanadi. Uning aytgan hikmatlari keyingi davr tasavvufiy adabiyot uchun ulkan ozuqa bo'ldi. Tariqat silsilalarining aksariyatida Hasan al-Basriy ismi uchrashi odatiy holga aylangan. Hasan al-Basriyning izdoshlari Raboh ibn Amr, ad-Daroniy (VIII asr oxiri – IX asrning boshi) larning da'vatlarida Xudoga muhabbat, ilohiy ishq mavzulari

namoyon bo'la boshladi. Bu mavzu tasavvufga yangi shakl va mazmun bera boshladi. IX asr davomida tasavvuf nazariyoti va amaliyotida katta o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Bu davrda bir qancha sufiylik maktablari paydo bo'lib, ular orasida Basra maktabi bilan bir qatorda Bag'dod va Xuroson maktablari ham birmuncha ta'sirga ega bo'ldi. Bu tariqat vakillari asosiy e'tiborni ko'proq solikning ichki holatiga, uning botiniy maqom va manzillariga, holiga qaratar edilar. Har bir amalda "sidq" va "ixlos"ni birinchi o'ringa qo'yidilar. Bu esa o'z navbatida Horis al-Muhosibiy (781-857) tomonidan o'z-o'zini nazorat qilish – "muroqaba" va "muhosaba" usullarini ishlab chiqishiga olib keldi. Bu usullar eng avvalo insonning niyatlari va qalbdagi nozik o'zgarishlarga qaratilgan edi. Zero, ular oxir-oqibatda insonning faoliyatini belgilab beradigan omillar hisoblanadi. Al-Muhosibiyning "muhosaba" haqidagi ta'limoti Movarounnahr va Xurosonda malomatiylik yo'nalishi shakllanishiga turtki bo'ldi. Malomatiylik g'oyalari ko'plab tariqatlarga, jumladan, naqshbandiylikka ham ta'sir ko'rsatgan. Tasavvuf o'z taraqqiyoti davomida shialik va undagi oqimlardan biri – ismoiliylik ezoterizmi bilan yaqinlashib, shu yo'l bilan "xoslar"gina egallashi mumkin bo'lgan "Qur'on oyatlarini ramzlar orqali ta'vil qilish", "botiniy, yashirin ma'nolarni kashf qilish" kabi g'oyalarni o'zlashtirdi. "Xoslar" uchun mo'ljallangan g'oyalarning keng omma orasiga tarqab ketishi, bu g'oyalar mualliflarini tazyiq va ta'qiblarga uchrashlariga sabab bo'lardi (Sahl at-Tustariy, al-Hakim at-Termiziy, Abu-l-Husayn an-Nuriy, Ibn al-'Arabiy). Mashhur sufiy Husayn ibn al-Mansur al-Halloj "Ana-l-Haq" ("Haq menman") degani uchun 922 yil Bag'dodda qatl etildi. Ba'zi nufuzli sunniy ulamolarning tasavvufga shubha bilan munosabatda bo'lishi sufiylarni ehtiyotkorlikka, murosali yo'llar izlashga majbur etdi. Ularga doimo Qur'on va sunna ko'rsatmalaridan tashqariga chiqmaslik, keskin va "tuturiqsiz" fikrlarini oshkor etmaslik lozimligi ta'kidlanar edi. Sufiylar ham o'z navbatida, turli yo'l va usullar bilan o'z maslaklarini niqoblab, shariat me'yorlariga moyil ekanlarini

ko'rsatishga harakat qilar edilar. Shunday mavqe'ni egallagan sufiylardan biri al-Junayd al-Bag'dodiy (vaf. 910 y.) edi. Aynan u Boyazid al-Bistomiy tomonidan "sukr"ga asoslangan jazavali sufiylikka ters o'laroq "mo'tadil" sufiylik an'anasini boshlab berdi.

Ilk tasavvufning ijtimoiy asosini asosan shaharliklar – mayda savdogarlar, hunarmandlar va h.k. tashkil etgan edi. Tasavvufning ilk bosqichidayoq murid-shayx (murshid, pir) rahbarligida sufiylik nazariyoti va amaliyotini egallash muhim hisoblangan. Muridlar shayxga barcha diniy va dunyoviy masalalarda butunlay bo'ysunishi shart edi. O'zining taqvodorligi, bilimi bilan tanilgan yirik sufiy murshidlarni esa, vaqt o'tishi bilan "valiy", ba'zan esa "qutb" deb ham atay boshladilar. Muridlarga ergashib, oddiy xalq ham ularning "ma'sumligi", g'ayrioddiy karomatlar ko'rsatishi, payg'ambarga kelgan vahiyning "yashirin" ma'nosini izohlab berishga qodirligi, Xudo bilan bevosita aloqa qila olishi haqidagi islom ta'limotiga zid bo'lgan turli uydirmalarni gapira boshladilar. Bular ham o'z navbatida, xalq og'zaki ijodi namunalari hamda ba'zi tasavvuf nazariyotchilarining asarlarida ifodasini topa boshladi. Tasavvufiy bilimlar va baraka shayxdan muridga uzoq muddatli ta'lim jarayoni orqali o'tadi, deb hisoblangan. Saboq berish tugagach, shayx shogirdiga o'ziga xos "guvohnoma" vazifasini o'tovchi sufiylik xirqasini kiydirgan. Bu esa, o'z navbatida muridga mustaqil targ'ibot olib borish huquqini bergan. Islom olamining turli chekkalaridan kelgan muridlar, ruxsat olganlaridan so'ng o'z yurtlariga qaytib borib, u yerda zoviya, xonaqoh va sufiylik halqalarini tashkil qilib, o'zlari ham shogird yetishtira boshlaganlar. Bu jarayon tasavvufning tez tarqalishiga olib kelgan.

X–XI asrlarda tasavvufiy hayot va tafakkur tarzi jamiyatning keng qatlamlarini qamrab oldi. Tasavvuf tarafdorlari soni doimiy ravishda ortib bordi. Bu davrda sufiylik an'analari shakllanib, tasavvuf asoslarini yoritib bergan ilk yozma manbalar vujudga keldi. Mazkur kitoblarning asosiy maqsadi tasavvuf o'z nazariyoti va amaliyoti bilan islom ta'limotlariga batamom muvofiq ekanini

ko'rsatib berish hamda tasavvufning og'zaki tarzda yetib kelgan merosini tasniflashdan iborat bo'lgan.

X asr oxiri XI asr boshlarida tasavvufning mumtoz yo'riqnoma asarlari yozildi. Bundan at-Tusiyning (vaf. 988 i.) "al-Luma'", al-Kalabodiyning (vaf. 990 yoki 995 y.) "at-Ta'arruf", Abu Tolib al-Makkiyning (vaf. 998 y.) "Qutu-l-qulub", as-Sulamiyning (vaf. 1021 y.) "Tabaqotu-s-sufiyya", al-Qushayriyning (vaf. 1072 y.) "ar-Risola", al-Hujviriyning fors tilidagi (vaf. 1072 yoki 1076-77 y.) "Kashfu-l-mahjub", al-Ansoriyning (vaf. 1089y.) "Manazilus-soiriy", Abu Nu'aym Isfahoniyning (vaf. 1038 y.) "Hilyatu-l-avliyo" asarlari bizgacha yetib kelgan. Bu davrda yaratilgan as-Sulamiyning "Haqiqi-t-tafsir" asari Qur'onning ilk tasavvufiy tafsirlari sirasida alohida o'rin egallab, tasavvufiy, ezoterik talqin an'analarini namoyon etadi. Bu mualliflar tasavvufga doir bilimlarni tartibga soldilar, sufiylik istilohlarini tushuntirib berdilar hamda tasavvufni islom ta'limotlariga zid emasligini ko'rsatib bera oldilar.

XII–XIII asrlar musulmon jamiyatlarida tasavvufning mavqe'i omma orasida kuchayishi bilan belgilanadi. Bu davrda tasavvufning rasmiy ta'limot sifatida e'tirof etilishida al-G'azzoliyning (vaf. 1111 y.) o'rni beqiyos bo'lib, "al-Munqiz min az-zolal" asarida tasavvuf axloqi oxirat uchun asosiy zaxira ekani, "Ihyo ulum ad-din"da barcha ilmlarni zikr etib turib, xotimada tasavvufiy bilimni yuqori qo'yishini aytib o'tadi. Uning islom olamidagi nufuzi tasavvufning shariat tomonidan batamom tan olinishiga sabab bo'ldi. Hanbaliy mazhabiga mansub bo'lgan 'Abdu-l-Qodir al-Giloniy (al-Jiloniy, vaf. 1161y.) faoliyati tasavvufiy g'oyalarning ommallashuvida katta ta'sirga ega bo'lgan. Uning ma'ruzalari turli murakkab va ziddiyatli masalalardan xoli bo'lib, aholi orasida keng shuhrat qozondi. Umuman, tasavvuf jamiyatda o'z ta'sir doirasini tobora kengaytirib borgani sari, hukmron tabaqalar, zodagonlar ham u bilan hisoblasha borib, ular ham pirlarning maslahatlariga quloq osadigan bo'ldilar. Valiy shayxlarning qabrlari

esa, ziyoratgohga aylantirilib, odamlar ularni muqaddaslashtirish darajasiga yetdilar. Shuni ham qayd qilish lozimki, bu davrlarda islom dini jahongashta qalandar-darveshlar orqali islomlashmagan mintaqalarga yoyila boshladi. Ular o'zlari borgan joylarda xonaqo va zoviyalar tashkil etib, keyinchalik bunday joylar targ'ibot-tashviqot va diniy turmush tarzi markazlariga aylanib bordi.

XII asr o'rtalari – XIII asr boshlarida sufiylar tashkil etgan zoviyalar atrofida, xususan, shaharlarda tariqatlar shakllana boshladi. Dastlab, Bag'dodda paydo bo'lgan suhravardiya va qodiriya tariqatlari butun musulmon olamiga tarqaldi. Tariqatlarning shakllanishi tasavvufning ta'siri yanada kuchayishiga olib keldi. Umuman olganda, sufiylar xalq ommasi bilan yaqinlashib, ularning diniy ehtiyojlarini qondirishga yuz tutgan edi. Hunarmandchilik uyushmalarining qarashlarida ham sufiylik tamoyillari – “futuvva” va “ayyorlik” o'z aksini topa boshladi.

Avliyolar kulti omma e'tiqodi va diniy qarashlarida mustahkam o'rin egalladi. Chunonchi, hatto ayrim avliyolar ba'zi kasblarning homiy pirlariga ham aylanib bordi. Tasavvufning bu yo'sinda rivojlanishi ba'zi nufuzli mutasavviflar bilan bir qatorda shariat peshvolarini ham tashvishga solar edi. Ibn al-Javziy (116-1201) “Talbisu-l-iblis”, Ibn Taymiya (1263-1328) “Fatovo”, Ibn Xaldun (1332-1406) “al-Ibar” kabi qat'iy sunniy qarashlar ifoda etilgan asarlarda shariatga zid keladigan, ular “bid'at” deb e'tirof etgan sufiylikdagi ba'zi jihatlar: juldur kiyinish, uylanmaslik, doimiy ro'zadorlik, avliyolar qabrlarini muqaddaslashtirish, rijolu-l-g'ayb, tinimsiz ibodatlar, avliyolar muhri va boshqa mavzularni keskin tanqid ostiga oldilar. Bunday sharoitda Boyazid al-Bistomiy tomonidan kiritilgan “sukr”, ya'ni shath va jo'shqin xatti-harakatlarga asoslangan tasavvufdan ko'ra al-Junayd al-Bag'dodiy tomonidan ta'kidlangan hamda “sahv” va “tamkin”ga asoslangan mo'tadil tasavvuf, barcha taraflarni qoniqtirar edi. Shu jihatdan ham hozirgacha mavjud bo'lgan aksariyat tariqatlarning poydevori al-

Junayd al-Bag‘dodiy ishlab chiqqan asosga binoan barpo qilingan. Har qaysi alohida mintaqada sufiylik tashkilotlarining faoliyati mahalliy xususiyatlar va an‘analar, urf-odat va udumlar bilan qorishib ketdi. Shuning uchun ham tasavvuf ko‘p qirrali mintaqaviy ko‘rinish kasb etdi.

XII–XIII asrlarda tasavvuf g‘oyalarining musulmon jamiyatining turli qatlam va ijtimoiy guruhlari o‘rtasida keng tarqalishi natijasida undagi ichki farqlanishlar yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Asosan ommaning ma‘naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan “amaliy” tasavvuf bilan bir qatorda tasavvuf ta‘limotining ziyoli tabaqalarga qaratilgan ezoterik jihati yanada rivojlandi. Mazkur “falsafiy” tasavvufning asosiy qoidalarini ishlab chiqishda as-Suhravardiy al-Maqtul (vaf. 1191 y.), Ibn al-‘Arabiy (vaf. 1240 y.), Ibn Sab‘in (vaf. 1268 yoki 1271 y.), ‘Abdu-r-Razzoq al-Qoshoniy (vaf. 1329 y.), ‘Abdu-l-Karim al-Jiliy (vaf. 1428 y.) kabi tasavvuf namoyandalari faol ishtirok etib, nomusulmon xalqlarning falsafasiy qarashlarini tasavvuf ruhida talqin eta boshladilar. Bularning orasida Ibn al-‘Arabiy “vahdatu-l-vujud” deb nomlangan nazariyaga asos solgani bilan ajralib turadi. Ibn al-‘Arabiy o‘zidan avvalgi sufiylarning tavhid va boshqa mavzularga oid qarashlarini tartibga solib, tizimli falsafa holiga keltirgan. Bu falsafa tasavvuf muhitida keng miqyosda qabul qilingan. Vahdatu-l-vujudni keskin tanqid qilib, unga qarshi chiqqan ‘Alauddavla as-Simmoniy (1261–1336) va naqshbandiylik shayxi Imom Rabboniy nomi bilan mashqur Ahmad as-Sirhindiy (1564–1624) “vahdatu-sh-shuhud” nazariyasini ilgari surdilar. Ammo “vahdatu-sh-shuhud” asosan naqshbandiya tariqatiga ta’sir ko‘rsatdi. “Falsafiy” tasavvuf XIII–XIV asrlarda yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilgach, asta-sekin o‘zining ijodkorlik salohiyatini yo‘qota bordi. “Komil inson”, “borliqning birligi” (“vahdatu-l-vujud), “tajalli” kabi g‘oyalar bahs va munozaralar manbaiga aylanib, bu bahslar ham ko‘pincha besamarligicha qolib ketdi.

Tasavvuf g'oyalari ko'plab she'riy asarlarda ham o'z ifodasini topdi. Sufiylilik ramziy ifodalari, timsollari va mavzulari butun diniy va dunyoviy fors she'riyatiga (Jaloliddin Rumiy, Sanoiy, Sa'diy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz, Jomiy, Ansoriy, Nizomiy va b.), shuningdek, ma'lum darajada arab she'riyati hamda turkiy xalqlarning (Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Alisher Navoiy), Bolqon yarim oroli, shimoliy Hindiston, Indoneziya musulmonlari adabiyoti va folkloriga singib ketdi.

VIII–IX asrlarda Robia al-Adaviya, Mansur al-Halloj singari yirik sufiylar ijodi bilan boshlangan sufiy she'riyat, X–XIII asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o'ziga xos obraz va timsollar, ramzlar va usullar olami paydo bo'ldi. Tasavvuf adabiyot bilan bir qatorda boshqa badiiy ijod yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatdi. Zero, tasavvuf o'z musiqasi, tasviriy san'ati, raqs san'atini, hattoki o'z sufiy teatrini ham vujudga keltirdi. Chunonchi, samo' majlislari ko'pincha sahnalashtirilgan tomoshaga aylanib ketar, ularni tomosha qilgani ayollar ham yig'ilar edi. Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi mushtaraklik jihatlarini sufiylar va ijod ahlining ruhiy yaqinligidan izlash darkor bo'lsa kerak. Zero, ijod zavqi va sufiyona zavq inson ruhiy holati nuqtai nazaridan umumiylikka egadek go'yo. Tariqatda ijodga moyil, qalbida ilohiy ishq jo'sh urgan soliklar ko'proq muvaffaqiyatga erishganlar. Ibn al-'Arabiy ham sufiy shoir bo'lib, mashhur "Fususul-hikam" va "al-Futuhotul-Makkiyya" asarlarida ba'zi joylarni badiiy bezak berish uchun nazmda ifoda etgan. Chunki, tasavvufning nozik masalalarini aqliy-nazariy usullardan ko'ra hissiy-obrazli tafakkur vositasi bilan ifoda etish samaraliroq bo'lib tuyuladi. She'r va musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir kuchini sezgan tasavvuf shayxlari honaqolardagi yig'inlarda ulardan keng foydalanganlar. Ayniqsa, samo' yig'inlarida raqs bilan bir qatorda she'r va musiqa soliklarni o'zini yo'qotib atrof-muhitni anglay olmay qoladigan darajaga borib qolishida ahamiyati katta edi.

Davr oʻtishi bilan tasavvuf maxsus istilohlari, ramz va timsollarini ifodalaydigan sheʼriy adabiyot paydo boʻldi. Natijada sufiyona yashirin maʼnolarni ifodalovchi maxsus til shakllanib, bu tilda yozilgan gʻazal va ruboiylar adabiyotni murakkablashtirib, uni faqatgina “xos kishilar” anglaydigan boʻlib qoldi. Ikkinchi tomondan esa, Ahmad Yassaviy, Soʻfi Olloyor kabi sufiylar tomonidan sufiyona pand-nasihatlari juda sodda til va xalqchil usulda ifoda etilgan tasavvufiy sheʼrlar ham bitildi.

Tasavvufiy adabiyotni shartli ravishda ikki qismga boʻlish mumkin: tasavvuf tarixi va taʼlimotini bayon etgan, sufiy istilohlar vositasida tushuniladigan asarlar: Abu Bakr al-Kalabodiyning “Taʼarruf”, Jomiyning “Sharhi ruboiyot”, Soʻfi Olloyorning “Sabotul-ojizin”, Mahmud Shabistariyning “Gulshani roz”, Bedilning “Muhiti aʼzam” asarlari. Ikkinchisi tasavvuf gʻoyalari kechinma va hayajonlar, siymo va timsollar orqali tavrirlanib talqin qilinadigan adabiyot: Jaloliddin Rumiyning “Masnaviy-yi maʼnaviy”, Fariduddin Attorning “Ilohiynoma”, Alisher Navoiyning “Hayratu-l-abror”, “Lisonu-t-tayr” kabi asarlari. Tasavvuf adabiyoti turli adabiy janrlardan unumli foydalandi. Chunonchi, ruboiy, gʻazal, qasida, masnaviy kabi janrlar sufiy adabiyotiga yangi ruh kiritib, oʻzgacha talqin bilan rivoj topdi.

Tasavvufning moslashuvchanligi va tashqi taʼsirlarga “ochiqligi” uni koʻpyoqlamali oqimga aylanishiga olib keldi. Moʻmin-qobillik, itoatkorlik va dunyo halovatidan voz kechishni targʻib qilgan tasavvuf, baʼzan isyonkorlik harakatlarining, (Andalusiyadagi “muridlar isyoni” (XII asr), Antaliyada shayx Badriddin (1416 y.da oʻldirilgan) boshchiligidagi diniy-siyosiy harakat, bobiyalar, shoziliylar) keyinroq esa, mustamlakachilikka qarshi kurash (sanusiylar, qodiriylar, Shomil, Dukchi Eshon) mafkurasiga aylandi. Tasavvuf koʻpchilik musulmon peshvolari tomonidan eʼtirof etilgach, uning soyasida turli xil ashaddiy jamoa va oqimlar – hurufiylik, alaviylik, ravshaniylik, ahlu-l-haqq va boshqalar faoliyat olib bordilar. Anatoliyadan keyin esa, Bolqon, Oʻrta Osiyo

va Eronda shialik-sufiylik aralash ta'limotiga amal qiluvchi tariqatlar (bektoshiya, mavlaviya, nurbaxshiya, ne'matullohiya, kubraviya, xalvatiya, zahabiya) tarqaldi. XIV–XVII asr shia mutafakkirlari tasavvufning falsafiy merosiga, ayniqsa, vahdatu-l-vujud konseptsiyasiga murojaat qilib, u yerdan o'z ta'limotlari uchun ko'p qarashlarni o'zlashtirdilar.

XIX–XX asrlar boshida tasavvuf musulmon davlatlari siyosiy va diniy hayotida muhim rol o'ynashda davom etdi. Musulmon olamining u yoki bu mintaqasidagi muayyan vaziyatga qarab bu holat ham reaksion, ham nisbatan ilg'or bo'lishi mumkin edi. Sharqda jamiyatning yoppasiga dunyoviylashishga yuz tutishi, iqtisod va madaniy hayotdagi o'zgarishlar, yangi ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tomon yuzlanish tasavvufning mavqeiga qattiq zarba berdi. Ko'pchilik arab mamlakatlarida tasavvuf diniy-siyosiy doiralar tomonidan keskin tanqidga uchradi. Ular islom dinini zamon talablariga muvofiq moslashtirishga yoxud sufiylik ta'limotlaridan xoli bo'lgan ilk islomning "sof ko'rinishi"ni ortga qaytarishni talab qilib chiqar edilar. Arab-islom sotsializmi tarafdorlari hamda progressiv yosh avlod o'z mamlakatining qoloqligida bir jihatdan tasavvufni ham ayblab, uni taraqqiyot va yurt gullab-yashnashi yo'lidagi g'ov,deb bildi. Bir qancha musulmon mamlakatlarida tariqatlar faoliyati qisman yoki butunlay man qilindi. Garchi tasavvuf o'zining avvalgi obro'sini ancha yo'qotgan bo'lsa-da, u shahar va qishloq aholisining muayyan qatlamlari orasida o'z ta'sirini saqlab kelmoqda. Ular ruhiy taskin va madad izlab, sufiylik tariqatlari safiga kirmoqda. XX asrda ham yangi suluklar paydo bo'lganligi tasavvufning yashovchanligidan dalolat beradi. Bu suluklarga Jazoirdagi al-alaviya, (asoschisi Ahmad al-'Alaviy. vaf.1934 y.) Qohiradagi al-hamidiya ash-shoziliyani (asoschisi – Salama ar-Radiy, vaf. 50-yillar oxiri) kiritish mumkin. Hozirgi davrda sufiylar orasida birmuncha zamonaviy kasb vakillari – o'qituvchilar, turli darajadagi davlat xizmatchilari va boshqalar ham bor. Ularning

suluk yo'lida yurishlari o'z ijtimoiy faoliyatlarini olib borishlariga halal bermayapti.

Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlarining rivojida o'lkadan yetishib chiqqan Ahmad Yassaviy, 'Abdulxoliq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror kabi allomalarning xizmatlari katta bo'lgan.

97. TERMIZIY al-HAKIM, HAKIM TERMIZIY (to'liq nomi Abu 'Abdulloh Muhammad ibn 'Ali at-Termiziy) (taxm. 820-932) Mashhur sufiy alloma al-Hakim at-Termiziyning to'liq ismi Abu 'Abdulloh Muhammad ibn 'Ali ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy bo'lib, uning tarjimai holiga oid muxtasar ma'lumotlar o'rta asr tabaqot asarlari hamda uning o'z qalamiga mansub "Buduvvu sha'ni Abi 'Abdulloh" nomli avtobiografik risolasida keltirilgan. U Termiz shahrida ziyoli xonadonda tavallud topgan. Uning otasi – 'Ali ibn al-Hasan va bobosi o'z davrida hadis ilmining yetuk bilimdonlaridan edi. Uning ilmiy kamolotida otasining xizmatlari benihoya katta bo'lgan. Al-Hakim at-Termiziyning o'z otasi haqida shunday yozadi: "Alloh taolo meni ustozim – validimdan judo qilganida men sakkiz yoshda edim. Uning sa'y-harakatlari bois men ilm olishga shunday berilib ketgan edimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg'ulot bo'lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengqurlarim o'yin-kulgi va vaqtixushlik bilan ovora bo'lardilar. Validim tufayli men shu yoshimda hadis ilmi va hanafiy mazhabi fiqhini chuqur egallab olgan edim..."

Al-Hakim at-Termiziy 27-28 yoshlarida haj safariga chiqadi. Yo'lda u o'sha davrning ilm markazlari Balx, Nishopur, Bag'dod, Kufa, Basrada to'xtab, u yerda asosan hadis to'plash bilan shug'ullanadi. Mana shu davrda to'plagan hadislarining keyingi ilmiy faoliyati, yozadigan ko'plab asarlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning asarlarida o'z fikrlarini asoslash uchun keltirilgan hadislar orasida iroqlik muhaddislardan rivoyat qilgan hadislar katta ulushni tashkil etadi. Al-Hakim at-Termiziyning ikkinchi marotaba Iroqqa safar

qilgani haqida ma'lumotlar esa, manbalarda uchramaydi. Ushbu safar davomida u bir qancha sufiylar bilan uchrashadi, Abu Turob an-Naxshabiy, Yahyo ibn Jallo, Ahmad ibn Xazravayh kabi sufiylar bilan muloqotda bo'ladi, ularning asarlari bilan tanishadi.

Shu yo'sindagi asarlar ichida unga suriyalik Ahmad ibn al-Osim al-Antokiyning asari katta ta'sir o'tkazadi. Haj safaridan Termizga qaytib kelganida al-Hakim at-Termiziy ruhiy yangilanishni boshidan o'tkazib, suluk yo'liga kiradi va zohidona hayot tarzi kechira boshlaydi. Umrining mana shu pallasi uning hayotida burilish nuqtasi bo'ldi, deb aytishimiz mumkin. Taxminan 874 yil uning Allohga muhabbat va avliyolar haqidagi ba'zi qarashlari mahalliy din peshvolarida shubha uyg'otadi. Shundan so'ng u imon asoslariga putur yetkazishda ayblanadi va Balx hokimi uni o'z qarorgohiga chaqirtiradi. Balx hokimi bilan bo'lgan muloqotda al-Hakim at-Termiziy o'zining aybsiz ekanini isbotlab beradi. Hokim uni ozod etib, faqat ilohiy muhabbat mavzusida ortiqcha e'tiborni tortmaslikni tayinlaydi. Al-Hakim at-Termiziy ma'lum muddat Balx va Nishopurda yashab, bu yerlarda o'z g'oyalarini targ'ib qiladi va hadis ilmidan dars beradi. Unga nisbatan bo'hton uyushtirgan ulamolar Termizdan quvg'in qilingandan so'nggina Termizga qaytib keladi va u yerda taxminan 932 yillarda vafot etadi. Uning maqbarasi Termiz shahri yaqinida Amudaryo qirg'og'ida joylashgan.

Al-Hakim at-Termiziyning "xatmu-l-avliyo" – "payg'ambarlik muhri" (Muhammad s.a.v.) bo'lgani kabi "valiylar muhri" ham mavjudligi, oxiratda barcha anbiyolar «Xotamu-l-anbiyo» – Muhammadning (s.a.v.) shafolatlariga muhtoj bo'lgani kabi, avliyolar ham "Xotamu-l-avliyo"ning shafogatiga muhtoj bo'lishi haqidagi islom ta'limotida muqaddam uchramagan qarashlari turli davrlarda keskin munozaralarga sabab bo'ladi. Jumladan, Ibn al-'Arabiy bu g'oyalarni davom ettirib, o'zini "xatm al-avliyo" ekanini e'lon qilgan bo'lsa, Ibn Taymiya bu g'oyani kufr deb baholab, al-Hakim at-Termiziy ham, Ibn al-'Arabiyni ham keskin tanqid ostiga olgan.

Al-Hakim at-Termiziy juda sermahsul muallif bo'lgan. Manbalarda uning qalamiga mansub asarlar soni ikki yuzdan to'rt yuzgacha ekani keltiriladi. Bizning davrimizgacha bu bebaho merosning oltmishga yaqini yetib kelgan. Al-Xakim at-Termiziy o'z asarlarida doimo har qanday masalaning hikmatini, asl mohiyatini anglashga katta e'tibor qaratgan. U "Navodiru-l-usul", "Bayonu-l-farq", "Ilmu-l-avliyo", "Manozilu-l-'ibod" kabi asarlarida Qur'on tafsir qiladimi, yoki hadis sharhlaydimi, albatta uning asl tub mohiyatini, yashirin hikmatlarini ochib berishga harakat qiladi. Shuning uchun ham u "al-Hakim" – ya'ni, "hikmat va donishmandlik sohibi" degan unvonga sazovor bo'lgan. Al-Hakim at-Termiziy o'z davrida doimo jamiyatning diqqat-e'tibor markazida turgan. Zero, uning ilmiy merosining kattagina qismini aholi tomonidan diniy masalalarning ruhiy jihatlarini haqida berilgan savollarga javoblar tashkil etadi. Hatto o'sha davrda ommani o'z ortidan ergashtirgan ko'plab shayxlar ham undan maslahat so'rab maktublar yozganlar. Al-Hakim at-Termiziy aholi orasida katta ta'sirga ega bo'lgan karromiya va malomatiya ta'limotlarini hamda o'lkadagi yetakchi maq'e'dagi hanafiy fiqhida qiyos metodining ayrim jihatlarini keskin tanqid qilishi, uning o'ziga xos maslak sohibi bo'lganini namoyon etadi. Al-Hakim at-Termiziy "suf" – po'stak kiyib, shu nom orqali tanilishni riyo, deb hisoblagan. Chunonchi, u o'z asarlarida "suf (po'stak) kiydi" degan iborani ishlatsada, "sufiy" degan istilohni umuman ishlatmaydi. O'z zamonasidagi "po'stak kiyganlar"ga salbiy munosabat bildiradi. Chunki, al-Hakim at-Termiziy yashagan davrda "tasavvuf", "sufiy" istilohlari Iroqda urf bo'lib, o'sha yer mintaqasi tasavvufiga nisbatan qo'llanar edi. Movarounnahr va Xuroson tasavvufi esa hali ta'limot sifatida shakllanish jarayonida bo'lib, bu yerlarda ko'proq zuhd haqida munozaralar olib borilar, shu sababli bu davrda "sufiy" degan istiloh Iroq tasavvuf vakillariga yoki uning tarafdorlariga nisbatan qo'llanar edi.

Al-Hakim at-Termiziy ijodida “avliyo – Allohning do‘stlari” mavzusi katta o‘rin tutadi. Al-Hakim at-Termiziy avliyolar haqidagi bilimlarni bir tizimga solishga harakat qilgan birinchi sufiy olim hisoblanadi. O‘zining “Navodiru-l-usul”, “Ilmu-l-avliyo”, “Xatmu-l-avliyo” nomi bilan tanilgan “Siratu-l-avliyo” va boshqa asarlarida valiyalar ierarxiyasi haqida fikr yuritadi. Unga ko‘ra mo‘minlar “avliyou-t-tavhid” (tavhid ta‘limoti izdoshlari) bo‘lib, ulardan tepada ixlosli “sodiq”lar turadi. Ular Allohga ixlosli banda bo‘lganlari bilan, nafslarini to‘liq mahv etmaganlar. Ular nafslarining quroli bo‘lmish tana a‘zolari ustidan to‘liq nazorat o‘rnatishga intiladilar. Sodiqalar bu darajadan o‘tib “ahror kirom” (ozod va muhtaram zotlar) bosqichiga yetsalar, Alloh ularga nafs kirdikorlari bilan kurashishlari uchun O‘zining qurbat va rahmat nurini ato etadi. Bu bosqichda ham nafs o‘zini to‘liq mahv etishga imkon bermaydi. Kimki, bu bosqichda yuqori pag‘onalarga erishsa, u “siddiqalar” (eng ixloslilar) darajasiga yetishadi. “Siddiqalar” qirqta bo‘lib, ular ham nafs ta‘siridan to‘liq xoli emaslar, ammo ular Alloh muhabbatiga cho‘mganlar. Siddiqalar pastdagi bosqich egalaridan afzalliklari ilhom olishlari, bashoratli tushlar ko‘rishlarida bilinadi. Bu bosqichda siddiqalar Allohning o‘n sifatini o‘zida mujassam etib, keyingi bosqichga ko‘tariladilar. Keyingi bosqichga yetgan valiy “munfarid” (yagona) bo‘lib, u tushlari orqali ilohiy ilhom va kashf oladi. Bu ierarxiyani “xatm al-avliyo” yakunlab beradi.

Al-Hakim at-Termiziyning ilmiy merosi jahon tasavvufiy tafakkur taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Uning asarlari imom al-G‘azzoliy, Muhammad Porso, Qurtubiy, Suyutiy kabi jahon dardonalari ta‘lif etgan ko‘plab allomalarga ilhom manbai va dastak bo‘lgan. Al-Hakim at-Termiziyning abdol, avtod haqidagi qarashlari xalq og‘zaki ijodiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatib, omma o‘rtasida chilton yoki eranlar – qirq mard haqidagi hikoya va

rivoyatlarning shakllanishiga, joylarda ularning kulti bilan bog‘liq ziyoratgohlar paydo bo‘lishiga olib kelgan.

98. TUSTARIY, Abu Muhammad Sahl ibn ‘Abdulloh at-Tustariy (taxm. 818-896) – ilk mutasavviflardan, mutafakkir. Tustarda (Shushtar) arab yoxud fors oilasida tug‘ilgan. Sufiylik ta’limini amakisi Muhammad ibn as-Savvordan olgan. Yoshligida Basra va Abbadonga borib shayx Abu Habib Hamza al-Abbadoniydan ta’lim olgan. 834 yil Makkaga hajga borib, mashhur Zu-n-Nun al-Misriyni uchratgan va unga shogird tushib, g‘oyaviy merosxo‘ri bo‘lgan. Tustarga qaytgach, at-Tustariy deyarli yigirma yil doimiy ro‘za, uzlat, nafl ibodatlari, tungi bedorliklar og‘ushida, zohidlikda yashagan. Faqat Zu-n-Nun vafotidan so‘ng (860 y.) u ochiq va‘z bilan chiqishga jur‘at etgan va bu bilan o‘ziga ko‘plab tarafdorlar va raqiblar orttirgan. Turli tazyiq va siyosiy notinchliklar (safforiylar isyoni, qul-zanjiylar qo‘zg‘oloni) at-Tustariyni Basraga ko‘chishga majbur qilgan. Bu yerda u umrining oxiriga qadar mudarrislik bilan shug‘ullangan. At-Tustariy o‘nga yaqin asar yozgan, deb hisoblanadi. Qur‘onni majoziy talqin qilgan at-Tustariy bir qator qoidalarni olg‘a surgan, ular sufiylik gnoseologiyasi, kosmogoniyasi va psixologiyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning an’anaviy islomiy bilimlar asosida shakllangan ta’limotiga ko‘ra, olam yaralishidan avval insonlarning ruhlari va Xudo o‘rtasida “bitim” (miysoq) o‘rin tutgan; ruhlar Xudoni o‘zlarining egasi – Robbi deb, e’tirof etishgan (Qur’on 7:17) va o‘zlarini Uning panohiga topshirishgan. Buning evaziga ularga Qiyomat kuni “Haqning jamolini ko‘rish baxti” (mushohadatu-l-Haq) ato etilgan. At-Tustariyning shogirdi Muhammad ibn Solim va uning o‘g‘li Ahmad ibn Solim Basrada ilohiyot maktabi barpo etishgan, u as-solimiya deb nomlangan. Bu maktab at-Tustariy qarashlarini keyingi avlodga yetkazgan.

99. UVAYS al-QARANIY (vaf. 657 y.) – sufiylikdagi uvaysiya yo‘nalishi asoschisi deb qaraladi. Muhammad (s.a.v.) davrida yashagan bo‘lsa ham, u zot bilan uchrashmagan. Rivoyatlarga ko‘ra,

Muhammad (s.a.v.) Uhud tog'i etagidagi jangda (625 y.) muborak ikki tishlaridan ajralganlarida (boshqa manbalarga ko'ra, oldingi pastki jag'laridagi bir tishga tosh tegib maydalab yuborgan) bundan xabar topgan Uvays Qaraniy Muhammadga (s.a.v.) bo'lgan yuksak hurmati yuzasidan, dushmanlar yetkazgan aziyatni o'zida his etish maqsadida avval bir tishini, so'ngra shubhaga o'rin qolmasligi uchun barcha tishlarini sug'urib olgan. Uvays yetmish yoshli onasidan Muhammad (s.a.v.) huzuriga borishga izn so'raydi. Onasi unga avval Payg'ambardan bu haqda so'rab ko'rishni maslahat beradi. Shunda Muhammad (s.a.v.) keksa onaning xizmatini ado etish barcha narsadan a'lo ekanini aytib, unga onasining yonida qolishga izn bergani, Muhammad (s.a.v.) 'Aliga (r.a.) o'z xirqasini Uvays Qaraniyga topshirishni vasiyat qilgani, Uvays Qaraniy 'Ali (r.a.) va Muoviya o'rtasida bo'lgan Siffin jangida halok bo'lgani rivoyat qilinadi. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Uvays Qaraniy Xo'tanda vafot etib, shu yerga dafn etilgan.

100. UZLAT (arab. – biror narsadan saqlanish; chekinish, kishilardan chetlashish; uzlat etish, yolg'izlikni ixtiyor qilish) – xoli joy; tanholik; hech nimaga bog'lanmaslik; dunyoning xilma-xil g'avg'olaridan forig'lik. Sufiylar uchun Muhammadning (s.a.v.) Hiro tog'ida o'tkazgan uzlatdagi hayotlari ibrat va namuna bo'lgan deyiladi. Tasavvufda uzlat deyilganda shayx, pir, murshid rahnamoligi va ko'rsatmalariga binoan muridning maxsus bir makonda berkinib, ibodat va zikr orqali ma'lum darajaga erishishni istashi tushuniladi. Kamida qirq kun davom qiladigan bu jarayonga xalq tilida "chilla" ham deyiladi. Islomda hech qachon hayotni batamom xilvatda o'tkazish lozimligi targ'ib etilmagan. Tasavvufga ko'ra, uzlat hayotdan qochish, kundalik turmushdan ajralib yashash, odamlardan bezish emas, balki ma'lum muddat ruhiy kamolotga erishib, yana faoliyatni davom ettirish hisoblanadi.

101. FAQIR – kambag'al, moddiy yoki ma'naviy jihatdan muhtoj odam. Kambag'al (fuqaro)ga, ya'ni ijtimoiy jihatdan nochor

odamlarga g'amxo'rlik qilish zarurligi Qur'onda va hadislarda alohida ta'kidlanadi. Zohidlik va sufiylik "kambag'allik"ni ("faqr", "fuqr") keng targ'ib qilgan. "Faqir" deyilganda "darvesh" va "sufiy"lar tushunilgan. Shoirilar, mualliflar, xattotlar ham o'zlarini kamtarlik bilan "faqir" deb atashgan.

102. FUTUVVAT (arab, yigitlik, mardlik) – tasavvufdagi mardonavorlik ya'ni, boshqalarni o'zidan yuqori tutish, faqat yaxshilik qilish, ezgu xulq-atvorga ega bo'lish, piru ustozlar, do'st-birodarlar sharaflari himoya qilishga o'zini bag'ishlash, eng olijanob odob va xislatlarni o'zida kamol toptirish. Futuvvat g'oyalarining paydo bo'lishi ilk tasavvuf davriga borib taqaladi. Futuvvat arabcha "fata" – "yigit" so'zidan olingan. Mashhur sufiy al-Junayd al-Bag'dodiyning ta'rifiga ko'ra futuvvat – "Saxovatpeshalik, birovga zarar yetkazmaslik va shikoyat qilmaslik (noshukr bo'lmaslik)". Shia sufiylarida 'Ali ibn Abu Tolib futuvvat mayog'i hisoblanadi, shuning uchun ham ularda "Zulfiqordan boshqasi qilich emas, 'Alidan boshqasi "fata" emas" iborasi keng tarqalgan edi. Futuvvat ahlini javonmardlar (fors. mard yigit), axiylar (arab. birodar) deb ham ataganlar. Javonmardlar oddiy xalq ichidan chiqqan hunarmandlar, qiziqchilar, sipohiylar va jamiyatning boshqa a'zolaridan tarkib topgan edi. Ularning har birining o'z jamoasi, piri, yig'iladigan joyi bo'lgan. Agiografik manbalarda "javonmard" so'zi ko'plab sufiylarga, ayniqsa malomatiylarga nisbatan keng qo'llanilgan. Chunonchi, "Malomatiya haqida risola" muallifi as-Sulamiy (vaf. 1021 y.) futuvvatga bag'ishlab alohida bir risola bitgan. Ushbu asarida haqiqiy javonmardning 212 ta'rif va sifatini keltiradi. As-Sulamiyga ergashib yana bir tasavvuf tarixnavisi al-Qushayriy (vaf. 1072y.) o'zining "Qushayriy risolasi" asarining bir bobini futuvvat mavzusiga bag'ishlaydi. Kaykovusning (XI asr) "Qobusnoma"sida 44-bob "Javonmardlik zikrida" deb atalib, unda futuvvat odobi, bu tur insonlarga xos go'zal axloq namunalari haqida so'z boradi. Hirotlik atoqli olim Husayn Voiz Koshifiy (1440-

1505) “Futuvvatnomai sultoni” asarida futuvvatning yetmish bir shartini sanab oʻtadi hamda “Kimdagi, mazkur shartlardan birortasi topilmasa, u futuvvatdan bebahradir”, deb taʼkidlaydi. Koshifiy futuvvatni tariqatning tarkibiy qismi, deb qaraydi. Vaholanki, baʼzi manbalarda garchi tariqat va futuvvat oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlsada, ammo ular alohida tushunchalar ekani aytilgan. Chunonchi, futuvvat tasavvufiy qarashlarning amaliy tatbigʻi sifatida eʼtirof etiladi.

Javonmardlar xuddi sufiylar muridga muraqqaʼ yoki xirqa kiydirgani singari oʻz saflariga yangi qoʻshilganlarga ajratib turuvchi maxsus shalvor kiydirganlar. Manbalarda sarbadorlar ham futuvvat ahli sifatida eʼtirof etiladi.

Abbosiy xalifa Nosir (1180-1225) oʻz mavqeʼini mustahkamlash uchun birinchi boʻlib futuvvatga rasmiy tashkilot tusini berib, ‘Ali ibn Abu Tolibni esa futuvvatning eng yorqin misoli sifatida targʻib qildi. Uning oʻzi ham futuvvat shalvorini kiyib, “sayyidul-fityon” laqabini oladi. Shu yoʻl bilan u Bagʻdod aholisining qoʻllab-quvvatlashiga erishib, saljuqiylarning taʼsiridan qutulishga hamda rofiziylarni yoʻq qilishni maqsad qilgan edi. Ushbu maqsadini amalga oshirishda xalifaga suhravardiya tariqati asoschisi Abun-Najib as-Suhravardiyning (vaf. 1168 y.) jiyani Abu Hafs as-Suhravardiy (1145-1234) futuvvat gʻoyalarini aholining keng qatlamlari orasida oʻzining otashin vaʼzlari bilan tarqatish orqali yordam koʻrsatadi. Abu Hafs as-Suhravardiy “Sufiylik yoʻli oddiy musulmon uchun mashaqqatli va ogʻir boʻlgani sababli omma uchun futuvvat tariqatning bir boʻlagidir” deya eʼtirof etdi. Abu Hafs as-Suhravardiy maqsadli ravishda futuvvatga xos boʻlgan sharaf kodeksini tasavvufning maʼnaviy koʻrsatmalari bilan bogʻlashga urindi.

Futuvvat konseptsiyasi tasavvufdagi iysor – oʻzgalarning manfaatini oʻz manfaatlaridan ustun qoʻyish gʻoyasini eng yuqori choʻqqilarga olib chiqdi. Futuvvat guruhlar koʻp davrlar mobaynida

jamiyatda yuksak axloq, saxovat, mardlik, adolatparvarlikning oliy namunasi sifatida e'tirof etib kelindi. Futuvvat g'oyalari Movarounnahrda ham keng tarqalgani haqida o'rta asr arab sayyohi ibn Battuta (vaf. 1368y.) "Safarnoma" asarida juda to'liqlanib ifoda etadi. Arab sayyohining yozishicha xonaqoh va zoviyalarning aksari javonmardlar ixtiyorida bo'lgan. Ayniqsa, Turkiyada javonmardlik harakati "axiylar" nomi bilan keng tarqalgan bo'lib, ularning sardorlari sultonlarning huzurida ham muayyan obro'-e'tiborga ega bo'lgan. X asrlarda paydo bo'lgan "ayyor"lik harakati ham aslida futuvvat bilan bog'liq. "Ayyor" so'zi o'sha davrda salbiy ma'noda emas, balki "topqir", "zukko", "dono", "zehnli", "hozirjavob", "hiylagar" kabi so'zlar bilan uyg'un bo'lgan. Ular turli nayranglarni ishlatib dushmanlarga zarar yetkazganlar, do'stlarni og'ir holatlardan chiqarishga yordam berganlar. Ammo hech qachon o'z nayranglarini xiyonat va gunoh ishlarga qo'llamaganlar. "Qobusnoma"da ham ayyorlik javonmardlikning zakovat jihatdan yuksak namunasi sifatida aks ettiriladi. Futuvvat tasavvuf bilan qo'shilgandan keyin javonmardlarga nisbatan "ayyor" so'zi ishlatilmaydigan bo'lib qoldi.

Tariqatlarda piri murshid bo'lganidek, futuvvat tashkilotlarining maslagiga mos ravishda payg'ambarlardan tanlab olingan pirlari bo'lgan. Chunonchi, hazrati Odam – dehqonlar piri, hazrati Shis – paxtachilar piri, hazrati Idris – tikuvchi va xattotlar piri, hazrati Nuh – savdogarlar, hazrati Solih – tuyakashlar, hazrati Ibrohim – sutchi va duradgorlar, hazrati Ismoil – ovchilar, hazrati Ishoq – cho'ponlar, hazrati Zulkifl – novvoylar, hazrati Lut – tarixchilar, hazrati Uzayr – bog'bonlar, hazrat Ilyos – to'qimachilar, hazrati Dovud – temirchilar, hazrati Luqmon – hakimlar, hazrati Yunus – baliqchilar, hazrati Iso – sayyohlar, Muhammad (s.a.v.) – bog'bon va savdogarlar piri.

103. XILVATIYA – sufiylik tariqati; XIV asr oxirida Shimoli-G'arbiy Eronda shakllangan. Tariqat dastlab shialikka e'tiqod qiluvchi

aholi o'rtasida vujudga kelib, O'rta Osiyo tasavvuf maktabining (Ahmad Yassaviy) ayrim g'oyalari va malomatiya va qalandariyaning kuchli ta'siri ostida faoliyat olib borgan. Xilvatiya ellikdan ziyod mustaqil suluk va tariqatlarni boshlab bergan. Xilvatiyaning asoschisi gilonlik Zohiriddin 'Umar al-Xilvatiy (vaf. 1397 y.) bo'lgan. U o'z izdoshlari uchun qoidalar ishlab chiqqan, unga ko'ra, qat'iy ravishda zohidlikka amal qilish (zuhd) va ko'p nafl ro'zalar tutish ko'zda tutilgan. Siyosiy sabablarga ko'ra, (Xilvatiya tarmoqlariga Usmoniylar rahnamolik qila boshlagach) xilvatiya ta'limoti vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarga uchrab, sunniylik tariqatiga aylangan. Xilvatiya ta'limoti asosini quyidagilar tashkil qiladi: ju' (ixtiyoriy ochlik), samt (sukut saqlash), sahar (bedor bo'lmoq), i'tizol (yolg'izlik), zikr, fikr (meditatsiya), rabt (murid qalbi bilan shayx qalbi o'rtasidagi aloqa) va ibodatda doimiy pokizalik. Xilvatiya tariqati yashil yoki qora rangdagi to'rtburchakli qalpoq kiyishi bilan ajralib turgan.

104. XIRQA (arab. – yamoq, quroq) – junli matodan tikilgan ustki kiyim. Asosan, sufiylar kiygan. Xirqa odatda sufiylikda pirdan shogirdga o'tib, uzoq vaqt kiyilgani sababli u ko'pincha eskirgan, quroq va yamoq bo'lgan. Xirqa o'zbeklar orasida “janda” deb ataladi.

105. XOJA AHROR (taxallusi; asl ismi 'Ubaydulloh; 1404-1490) – O'rta Osiyolik shayx, murshid, naqshbandiylik tariqati rahnamolaridan biri. Hozirgi Toshkent viloyati Bog'iston qishlog'ida tug'ilgan. Uning bolalik va yoshlik davri Toshkentda o'tgan. Shajarasi ona tarafdan mashhur Shayx Xovand Tohurga borib taqaladi. Toshkent va Samarqand madrasalarida tahsil olgan. Xoja Ahror ko'proq tasavvuf ilmiga qiziqadi va shu maqsadda Hirotga kelib Shayx Bahouddin 'Umar, Shayx Zayniddin Xavofiy kabi taniqli mutasavviflar suhbatida bo'ldi. So'ng Bahouddin Naqshbandning shogirdi shayx Ya'qub Charxiy (vaf. 1447 y.)dan naqshbandiylik tariqati asoslarini o'rgandi. Bahouddin Naqshband ta'limotining davomchisi sifatida ruhoniylar o'rtasida katta obro'ga ega bo'ldi va “valiy” (avliyo) deb tanildi. Ayni vaqtda dehqonchilik va tijorat

ishlari bilan shug'ullandi. Xoja Ahror juda katta yer-suv, mol-mulkka ega bo'lib, mamlakatning ichki va tashqi siyosiy hayotida yetakchi o'rin egalladi. Xoja Ahror qalamiga mansub uch risola – “Faqarotul-orifin” (“Oriflar so'zlaridan parchalar”), “Volidiya”, “Havroiyya” bizgacha yetib kelgan. Birinchi risolasida o'zining va ba'zi tasavvuf namoyandalarining tariqatga oid fikrlari, ikkinchi risolasida tariqat yo'liga kirgan kishining axloq-odobi, faqr va fano tushunchalari bayon etilgan. Inson zohiri va botinini pokiza qilish mavzui ham asardan joy olgan. Uchinchi risolasi mutasavvif shoir Abu Sa'id Abu-l-Xayr (XI asr) ruboiysi sharhiga bag'ishlangan. Xoja Ahror naqshbandiylikning murshidi sifatida shuhrat qozonib, o'z davrining ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy hayotida muhim o'rin tutdi. Jomiy, Navoiy, Bobur Xoja Ahrorni o'zlariga ma'naviy pir – ustoz deb bilganlar, unga bag'ishlab dostonlar bitishgan, asarlarini o'zbek tiliga o'g'irishgan. Xoja Ahror Samarqandda vafot etgan.

106. XOJA MUHAMMAD PORSO, to'liq ismi Muhammad ibn Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (1345-1419) – O'rta Osiyoda naqshbandiylik tariqatining yirik vakili, Bahouddin Naqshbandning xalifasi (o'rinbosari). Buxoro madrasalarida Qur'on, hadis va kalom ilmlarini puxta o'rgangan. Temuriylardan Xuroson hukmdori Shohruh u bilan turli diniy masalalar bo'yicha yozishib turgan. Mirzo Ulug'bek Xoja Muhammad Porsoning qomusiy bilimdonligiga tan bergan. Xoja Muhammad Porsoga Naqshbandning o'zi ta'lim va tarbiya bergan. Xoja Muhammad Porso “Risolai qudsiya” kitobida piridan eshitgan va o'zi jamlab yurgan ibratli kalimalaridan namunalar keltirib, ularni birma-bir sharhlaydi, piring hayoti va ma'naviy dunyosi, naqshbandiylik tariqatining asoslari haqida ma'lumotlar beradi. Xoja Muhammad Porso shariat va tariqatga oid o'nlab asarlar yaratgan. Jumladan, “Qur'on tafsiri”, “Tariqat mashoyixlarining qudsiy kalimalaridan”, “Tasavvuf istilohlari haqida risola”, “Murid odoblari haqida risola”, “Karomatlar haqida risola”, “Makka shahrining qisqacha tarixi”, “Etmish ikki firqa”, “Maqomoti

Xoja Alouddin Attor”, “Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband” asarlarida tasavvufga oid fikrlarini bayon etadi, eng mashhur sufiylarning faoliyati haqida ularning oʻz asarlari va mulohazalari asosida maʼlumot beradi. Mashhur asarlaridan biri – “Faslu-l-xitob bi-vasli-l-ahbob” (“Doʻstlar visoliga yetishda oq ila qorani ajratuvchi kitob”) esa, bir necha marta chop qilinib, tasavvuf vakillari tomonidan eng ishonchli qoʻllanma sifatida foydalanilgan, shariat, tariqat maqomlari, diniy firqalar toʻgʻrisida biror-bir munozara koʻtarilsa, shu asarga murojaat qilingan. Asarda bahsli hisoblangan besh yuzga yaqin masala batafsil yoritilib, tavsiflab berilgan. Xoja Muhammad Porso ikkinchi marta haj ziyoratidan soʻng kasallikka chalilib vafot etadi. Qabri Madinadagi “Jannatul-baqi” qabristonida.

107. XOKSOR – sufiylik tariqati; XVIII asr oxirida jaloliya-suhravardiya tariqatidan (Shim. Hindistonda Sayyid Jaloliddin Husayniy tomonidan XIV asr oʻrtasida asos solingan) mustaqil boʻlib ajrab chiqqan; oʻziga haydariya (Mir Haydariya) va qalandariyaning bir qancha guruh va jamoalarini, shuningdek, neʼmatullohiylarning turli tarmoqlarini birlashtirgan. Xoksorning ilk tarixi mavhum, chunki tariqatning adabiy anʼanasi yoʻq boʻlgan. Bizgacha yetib kelgan turli qoʻlyozma qoʻllanma va koʻrsatmalar bir toʻplamga keltirilib “Risolayi tariqa-yi faqr-i Xoksor” deb atalgan. Xoksor tariqatining mustaqil nazariy qoidalari ishlab chiqilmagan. Undagi tartib-qoidalar avvalgi tariqatlar taʼlimoti va qoidalarining qorishmasidan iborat boʻlgan. Xoksor tariqati toʻrt bosqichdan iborat, unda 20 yoki 44 manzil (maqom) bor. Xoksor darveshi tariqat yoʻlidan yurishi lozim, yaʼni oziga qanoat qilmogʻi, barcha boyligini boshqalar bilan baham koʻrmogʻi, ustozini doimo yodda tutishi, uni kundalik ibodatda eslashi, sochi, moʻylabi, qoshi va soqolini olib yurishi (hamma ham rioya etmagan) lozim boʻlgan. Hayoti davomida Xoksor darveshi toʻrtta safarni amalga oshirishga intilish lozim: a) odamlardan Xudoga; b) Xudodan odamlarga, soʻngra Xudoga, keyin Xudodan Xudoga; v) Xudo bilan Xudoda; g) Xudo bilan odamlar

orasida. Tariqat a'zolari o'z maslaklarini – “Tariqa-yi ‘alaviya-yi Xoksori Husayni-yi Jaloliy”, deb atashadi.

108. XONAQOH (fors-sug'd. – uy) – darveshlar, qalandarlar, shuningdek, g'arib va miskinlar istiqomat qiladigan uy – qalandarxona, darveshxona. Musulmon mamlakatlarida zoviya, tak'ya, rabot nomlari bilan ham yuritiladi. XII asr boshlarida tariqatlar shakllanish arafasida sufiylar yig'ilib to'planadigan joy sifatida xizmat qilgan muvaqqat manzillar talabga javob bera olmay qoldi. Bu paytda tasavvufga qiziqish ortib borishi, muridlarning soni o'sib, ixlosmandlarning tobora ko'payib borishi tufayli bu jarayonni tizimga solish ehtiyoji tug'ildi. Mana shu jarayonlar ta'siri o'laroq, sufiy markazlari – xonaqohlar paydo bo'ldi. Xonaqoh binolari ko'pincha alohida mustaqil bino sifatida aholi yashaydigan hududlardan uzoqroq joylarda yoki ba'zan masjidga tutashgan holda barpo etilgan. Odatda xonaqoh majmua sifatida faoliyat olib borib, oshxona hamda murid va ixlosmand tinglovchilar uchun mehmonxona, zikr tushish xonalari, chillaxona, ba'zan esa maktablarni ham o'z ichiga olgan. Aksar hollarda majmua hovlisida tariqatga asos solgan shayx, yoki biron-bir avliyo maqbarasi ham bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, eng birinchi xonaqoh Falastindagi Ramla shahrida VIII asr oxirlarida bunyod etilgan. Hamma sufiylar ham xonaqoh tizimini ma'qullamagan. Mashhur sufiy Abu Turob an-Naxshabiy (vaf. 859y.) bu tizimni tanqid qilib, uni tilanchilikka qiyos qilgan: “Kimki, muraqqa' (yamoqli kiyim) kiysa, u tilanchilik qilibdi, kimki, xonaqohda yoki masjidda o'tirib olsa, u tilanchilik qilibdi, kimki odamlarga yoqish uchun Qur'on tilovat qilsa, u tilanchilik qilibdi”.

O'rta asr xonaqohlari faqatgina zohidlar, darvesh va qalandarlar to'xtaydigan joy emas, balki aksar hollarda diniy ta'lim maktablari vazifasini ham bajargan. Zero, xonaqohlar huzurida kutubxona va o'quv xonalari bo'lib, u yerda o'qituvchilar ham faoliyat olib borganlar. Xonaqohlar davr o'tishi barobarida tobora takomillashib

borib, muayyan ko‘rinishdagi tizimli majmuaga aylanib borgan. Keyingi davr xonaqohlarida o‘ziga xos ma‘muriy tizimni ham ko‘rishimiz mumkin. Har bir xonaqohda shayx, imom, vaqf ishlari noziri, muazzin, kutubxonachi, “keldi-ketdi”ni qayd qiluvchi mirza, hammom mas’uli, oshxona mas’uli, hajjom (qon oluvchi), suvchi, go‘lax, farrosh, xizmatkorlar, bepul ovqat va kiyim hamda yuvinish uchun sovun tarqatuvchi xodimlar faoliyat olib borgan. Bunday xonaqohlar saxiy homiylarning ehsonlari, vaqf qilingan mulklardan tushadigan daromadlarga tayanib faoliyat olib borgan. Samarqanddagi Qusam ibn Abbos maqbarasi yonidagi xonaqoh ham taxminan ana shunday ko‘rinishga ega bo‘lgan. Sultonlar ham xonaqoh barpo etishga alohida e‘tibor bilan qaraganlar. Sulton Salohiddin Ayyubiy Misrda 1173 yil “Sa‘id Su‘ado” nomi bilan tanilgan “Salohiyya xonaqosi”ga asos solgan. Manbalarda aytilishicha, ushbu xonaqohda yashagan uch yuz darvesh juma nomoziga yo‘l olganda, ularni ko‘rish va baraka tilash uchun ko‘chalarda odamlar tiqilib ketgan. XV–sXVII asrlarda sufiylar hukmron tabaqalar bilan yaqinlashib, ulardan katta miqdorlarda moliyaviy yordam ola boshladilar. Bu jarayon xonaqohlarning binosida ham o‘z aksini topdi. Endi xonaqohlar hashamatli imoratlar majmuasi ko‘rinishida barpo etilib, “xonaqoh” so‘zi ushbu majmuadagi zikrxonaga nisbatangina qo‘llana boshladi.

Xuroson va Movarounnahrda xonaqohlarning paydo bo‘lishi Ibn Karrom (806-869) va u asos solgan karromiylar faoliyati bilan bog‘liq. Karromiylar mintaqada birinchilardan bo‘lib o‘z ta‘limotlarini targ‘ib va tashviq qilish uchun xonaqoh tizimidan unumli foydalandilar. Mazkur tizim tufayli o‘z g‘oyalarini omma o‘rtasida keng tarqalishiga va ma‘lum bir muddat izdoshlari soni keskin ravishda ortib ketishiga erishdilar. Movarounnahr xonaqohlarida turli davrlar uchun xos bo‘lgan me‘moriy yechimlarni ko‘rish mumkin. XVII asrga kelib esa peshtoqli, gumbazli, o‘rtada zikrxona va atrofida xujralar bino qilingan

shakldagi xonaqohlar keng tarqaldi. Movarounnahrdagi mashhur xonaqohlar: Samarqanddagi ‘Abdi Darun, Ulug‘bek xonaqolari (XV asr), Buxorodagi Labi Hovuz ansamblidagi Nodir Devonbegi xonaqosi (XVII asr), Termizdagi Kokildor ota, al-Hakim at-Termiziy maqbarasi oldidagi xonaqoh, Buxorodagi Xoja Porso (XV asr), Xoja Zayniddin, Chor Bakr (XVI asr), Yormuhammad Otaliq (XVII asr), Shayx Xudoydod, Bahouddin Naqshband xonaqohlari, G‘ijduvondagi Dehqon Bobo, Toshkentdagi Hazratilmom xonaqohlari.

109. CHILLA O‘TIRISH (fors. chilla – qirq kunlik) – sufiylar, muridlar va ba‘zi duoxon, azayimxonlar amaliyotida kuzatiladigan odat. Sufiylik tariqatlarida murid qirq kun davomida uydan chiqmasdan toat-ibodat qilishi “chilla o‘tirish” deb atalgan. Yirik sufiy namoyandalarining qarorgohlarida (mas., Turkiston sh.dagi Ahmad Yassaviy, Buxoro yaqinidagi Bahouddin Naqshband ziyoratgohlarida) chilla o‘tirish uchun alohida hujralar bo‘lgan. Chilla o‘tirish vaqti chilla o‘tiruvchi tomonidan oldindan niyat qilingan bo‘ladi. Bu odat ba‘zan e‘tikof deb ham ataladi.

110. CHISHTIYA – sufiylik tariqatlaridan biri. XII asrda Sharqiy Xurosonda shakllanib, XII–XIII asrda Hindistonda uzil-kesil rasmiy tus olgan. O‘rta asrda chishtiya suhravardiylik bilan birga Hindistonda eng ommaviy va keng tarqalgan tariqatlardan hisoblangan. Chishtiya asoschisi Xo‘ja Abu Ishoq ash-Shomiy (vaf. 1097 y.) bo‘lib, Iroqdan Chisht qishlog‘iga (Hirot yaqinida) ko‘chib kelgan (tariqatning nomi shundan) va u yerda xonaqoh qurgan. Uning 9 yoki 8-vorisi shayx Mu‘iniddin Hasan Sijziy Chishtiy (1142–1236) chishtiyaning Hindistonga tarqatdi. Chishtiya shayxlari o‘z silsilalarini Ibrohim Adham va Hasan al-Basriy orqali ‘Ali ibn Abu Tolibga bog‘laydi. Chishtiya tariqati Nizomiddin Avliyo (vaf. 1325 y. Dehli) davrida o‘zining yuksak cho‘qqisiga yetib, sufiylik Shimoliy Hindistonda ommaviy tus olgan hamda janub va sharq tomon keng yoyilgan. U chishtiyaning yangi tarmog‘i – nizomiyaga asos solgan. Chishtiya ta’limotining asosini vahdatu-l-vujud g‘oyasi

tashkil etgan. Chishtiya vakillari hokim-amaldorlar bilan har qanday aloqa bog'lashni inkor qilgan. Allohga tavakkul qilib, o'z mehnati bilan tirikchilik o'tkazishni targ'ib etganlar. Sufiy – och kishining qornini to'yg'azishi, mazlumlar iltimosini albatta bajarishi, kambag'al-qashshoqlarga baholi qudrat ko'mak berishi bilan Alloh marhamatiga sazovor bo'lishiga intilishi shart, deb hisoblangan. Shuningdek, muridlarga pulga mukkasidan ketish, gadoychilik bilan shug'ullanish, aroq ichish, giyohvandlik qilish, tamaki chekish batamom taqiqlangan. Chishtiya yo'li shariat, tariqat, haqiqat kabi uch bosqichdan iborat bo'lib, muridlik davri ming kun davom etgan. Zikr bilan birga qirq kun ro'za tutish rasm bo'lgan. Chishtiya tariqati a'zolari kigizdan qilingan cho'qqi kuloh kiyishi bilan ajralib turgan.

111. SHAYXIYLAR, ash-shayxiya (yoki al-hasaniya) – G'arbiy Xuroson (Eron)da XIV asrning 30-80-yillarida mavjud bo'lgan shialikdagi sufiylik tariqati. Uning asoschisi mozandaronlik darvesh-shayx Xalifa Shayx Baluyiy aslida Amoliyning muridi bo'lib, lekin ustozlari qarashlarida “nuqson” borligini bilgach, uni tark etib bir muncha vaqt shayx 'Alouddavla Simnoniy xonaqosidan qo'nim topgan. So'ngra Sabzavor jome masjidida yashab, “isyonkorlik ruhi”dagi va'zlar bilan chiqa boshlagach, uning izdoshlari ko'payib borgan. Sunniy faqihlar fatvo chiqarib, unda shayxiylar rahbarini masjidda dunyoviy nutqlar so'zlaganlik, ilohiyotchilarning taqiqlarini buzganlik va yashirin faoliyat yurgazganlikda qoralashgan. 1335 yil Shayx Xalifa yashirin suratda o'ldirilgan va 1342 yilgacha shayxiylar tariqatiga shayxning muridi Hasan Juriy bosh bo'lgan. U muridlarni yashirin ish ko'rish va qurolli chiqishga tayyorgarlik ko'rishga chaqirgan. Uning muridlari orasidan keyinchalik mo'g'ullar zulmiga qarshi ko'tarilgan harakat a'zolari – sarbadorlar ham yetishib chiqqan. Tarixchi Xondamirning fikriga ko'ra, shayx Hasan Juriy sarbadorlar amiri Mas'ud buyrug'iga ko'ra qatl etilgan (1342 y.), uning vorisi Darvesh Aziz ham o'ttiz yildan so'ng o'ldirilgan. Shayxiylar tariqati XIV asr 80-yillarigacha mavjud bo'lgan.

112. SHATH (ko‘pligi shatahot yoki shathiyot; arab. shataha fe‘lidan – “harakatda bo‘lmoq”, “qirg‘oqlar tomonidan qisib qo‘yilishi natijasida jo‘sh urmoq” – daryodagi suvga nisbatan) – ekstaz holatida (vajd, jazava) o‘zini nazorat qila olmay qolgan sufiy aytadigan iboralar. Shath istilohi ekstaz holatining o‘zini ham anglatadi. Fe‘lning ma‘nosidan kelib chiqib, tasavvuf nazariyotchilari shathga sufiyni zikr paytida Allohni mushohada qilishi (mushohadatu-l-Haq), undagi “men” “yo‘q bo‘lishi” (fano ‘an nafsihi), U bilan o‘zining birligini his etishi natijasida uni chulg‘ab olgan hissiyotlarining “otilib chiqishi” deya ta’rif berganlar. Bu holatdagi sufiylar og‘zidan chiqqan eng mashhur iboralardan Mansur al-Hallojning “Ana-l-Haq” (“Haq menman”), Bistomiyning “Subhani, subhani ma a’zama sha’ni!” (“Pok Zot menman, sha’nim naqadar buyuk!”), ash-Shibliyning “Sizning davringiz tugayapti, faqat mening vaqtimning na oxiri na boshi bor!”, Ibn Sab‘inning “Xudodan o‘zga hech narsa yo‘q” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Umuman olganda, shathni sufiyda sodir bo‘ladigan shaxsiy ichki kechinmalar, uni so‘z bilan ta’riflash mushkul bo‘lgan hissiyotlarinining beixtiyor yuzaga chiqib ketishi deb izohlash mumkin.

113. SHA’RONIY (yoki ash-Sha’roviy), ‘Abdulvahhob ibn Ahmad (1493-1565) – misrlik mashhur sufiy va ilohiyotchi. Saqiyat Abu Sha’ro qishlog‘ida tug‘ilgan, o‘z shajarasini Ziyoniylar sulolasidan chiqqan Tlemsen hukmdorlariga, ular orqali alaviy Muhammad ibn al-Hanafiyaga bog‘lagan. Qohirada yashab, ijod etgan. Shofe‘iylik fiqhini Misrning atoqli faqihi Zakariyo al-Ansoriydan o‘rgangan. Ibn al-‘Arabi qarashlari unga katta ta’sir ko‘rsatgan. Sha’roniy Qohirada sufiy va’zxon sifatida tezda shuhrat qozongan, tarafdorlari ko‘paygan. Badavlat qozi ‘Abdulqodir al-Mag‘oziliy unga atab madrasa qurdirib, vaqf sifatida bir qancha yer mulklari ajratib bergan. Undan Sha’roniy va uning avlodlari meros sifatida foydalanish huquqini olganlar. Shu tufayli Sha’roniy ko‘p xayr-sadaqalar qilgan, kambag‘allar, mayib-majruhlar, shuningdek, ko‘p sonli muridlarini boqqan. Bu faoliyat

tufayli uning shuhrati yanada ortib borgan. 1774 yil uning sagʻanasi ustiga nomi bilan ataladigan masjid bunyod etilgan, u hozir ham saqlangan. Masjid joylashgan koʻcha va yaqin atrofdagi mavze ham uning nomi bilan ataladi. Shaʼroniy hadis, fiqh, sufiylik va boshqa anʼanaviy diniy ilmlariga oid oltmishdan ziyod asar yozgan. Ibn al-ʼArabiyning kuchli taʼsiriga qaramay, Shaʼroniy uning vahdatu-l-vujud taʼlimotini qabul qilmagan. U “maʼrifatli” sufiylik tarafdori boʻlib, fiqh va islom aqidalarini chuqur bilish har bir sufiy uchun shart, deb hisoblagan. U tavakkulni bir taraflama – har bir ishni Allohning irodasiga tashlab qoʻyish va bu bilan sufiylikda “qashshoqlikda kun kechiruvchi bekorchilar va tekinxoʻrlarni” ortib borishiga qarshi chiqqan. Shaʼroniy fiqh sohasida mezon nazariyasini ishlab chiqqan, unga koʻra, islomdagi toʻrt asosiy mazhab oʻrtasidagi ixtiloflar asosan shariat qoidalariga amal qilishga oid. Shaʼroniyning fikricha, barcha mazhab asoschilari toʻgʻri yoʻlda boʻlib, diniy qonun negizida sobitqadam boʻlganlar. Ular oʻrtasidagi farq faqatgina shariatning u yoki bu qoidasini “kuchaytirish” (tashdid) yoki “engillashtirish” (taxfif)dan iborat boʻlgan.

114. SHIBLIY, Abu Bakr Dulaf ibn Jahdar (yoki Jaʼfar ibn Yunus) (861-946) – bagʻdodlik sufiy, al-Junayd va al-Hallojning eng yaqin shogirdi va safdoshi. Samarrada tugʻilgan, otasi xalifaning bosh hojibi, amakisi –Iskandariyada amiru-l-umaro mansabida boʻlgan. Shibliyning oʻzi xalifa al-Muvaffaqning hojibi vazifasida ishlagan. Qirq yoshida Shimoliy Erondagi Damovand viloyati voliysi etib tayinlangan, biroq toʻsatdan amaldan voz kechib, Bagʻdodning mashhur sufiylaridan Xayr an-Nassoj huzurida (majlis) “tavba” qilib sufiylikni ixtiyor etgan. Hissiyotga beriluvchan tabiatli Shibliy al-Halloj targʻib etgan “ashaddiy” sufiylikka moyillik bildirgan. Biroq, taʼqiblar, soʻngra al-Hallojning qatl etilishi uni oʻz qarashlarini oʻzgartirishga majbur etib, al-Junayd va tarafdorlari kabi ehtiyotkorona mavqeni tutishiga majbur etgan. Shibliy al-Hallojdan yuz oʻgirib, uni xos shaxslar “sirlari”ni ochganlikda ayblagan. 922

yilda al-Halloj qatl etilgach, Shibliyning xulqi o'zgarib qoladi. Uning g'alati qiliqlari (qimmatbaho kiyimlari va mushk anbarlarini yoqib yuborishi, o'zini o'zi qiynoqqa solishi va b.) hissiyotga o'ta beriluvchanligi oxir-oqibatda uni telba, deb hisoblashlariga olib keldi. Shuning uchun bu davrda hurfikrlilik va bid'atga qarshi kurash olib borayotgan Bag'dod hukmron doiralari unga e'tibor qaratmaganlar. Shibliyni badavlat xonadondan chiqqanligi va o'sha paytda ushbu kurash tashabbuskorlaridan bo'lgan molikiy mazhabiga mansubligi ham qutqarib qolgan bo'lishi mumkin. Olimlarning fikricha, avvaliga Shibliy Qur'on va fiqh ilmlarida bu sohadagi eng kuchli allomalardan qolishmagan va hatto ulardan ustun turgan. Shibliyg nisbat beriladigan sufiyona she'rlar badiiy qiymatga ega. Uning tarjimai holiga oid parchalar, aytgan so'zlari va she'rlarini barcha mo'tabar sufiylik risolalaridan topish mumkin. Uning Bag'doddagi qabri saqlangan va bugungi kunda ham ziyoratgoh sanaladi.

115. SHOZILIYLAR, ash-shoziliya – Shimoliy Afrikadagi eng yirik sufiylik tariqati. Asoschisi – Abu-l-Hasan ash-Shoziliy (1196/97-1258) mag'riblik bo'lib, shajarasini mashhur sufiy Abu Madyonga bog'lagan. Shoziliylarga g'oyaviy asos bo'lgan Shoziliy ta'limoti o'zining asosiy qoidalarida mo'tadil sufiylik g'oyalariga asoslangan. Ular o'z davrida al-Junayd va boshqa "mo'tadil" sufiylar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Abu Madyon tomonidan Shimoliy Afrika sharoitiga moslashtirilgan. Shoziliy Tunisdagi o'z tarafdorlariga yo'llagan maktubi va og'zaki va'zlarida itoatda bo'lishga, Allohdan qo'rqishga, hukumat bilan hamkorlik qilmaslikka, shariat ko'rsatmalariga qat'iy rioya etishga, sunnatga ergashishga, dunyo lazzatlaridan yuz o'girishga da'vat etgan. Shoziliylar bir necha asr mobaynida Afrikaning Sudandan to Maligacha bo'lgan ichki viloyatlarida muvaffaqiyat bilan islomni targ'ib etganlar. Shoziliya va uning tarmoqlari Marokash, Tunis, Jazoir, Sudan va boshqa Afrika mamlakatlarida bugungi kunda ham mavjud.

116. ESHON (forscha: ular) – sufiylik oqimlarida diniy rahnamalar unvoni. Odatda, eshonlar darveshlik, sufiylik oqimlarining biriga mansub boʻlgan. Ismoiliylar firqasi dindorlar jamoasining rahbari ham eshon deb atalgan. Oʻrta asrlarda sufiy rahnamalariga murojaat qilishda ularning ismlari oʻrnida “eshon” baʼzan «pir» soʻzlari ham qoʻshib ishlatilgan. Oddiy odamlar eshonlarga muridlarni sufiylik yoʻliga oʻrgatuvchi (murshid), bemorlar dardiga shifo beruvchi, kelajakni oldindan aytuvchi inson sifatida ham qarashlar boʻlgan. Ammo hozirda bu soʻz xalq orasida oʻzining maʼnosini bir oz oʻzgartirgan va asosan Paygʻambar avlodlaridan kelib chiqqaniga daʼvo qilgan shaxslarga nisbatan qoʻllanadi.

117. YASSAVIY Ahmad (taxalluslari: Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy, Qul Xoja Ahmad, Qul Ahmad va boshqa) (1105-1166/67) – donishmand, shoir, yassaviylik tariqatining asoschisi. Sayramda tugʻilgan. Otasi Shayx Ibrohim uzoq yillar Yassi va Sayramda shayxlik qilgan. Yassaviy piri Arslonbob maslahati bilan Buxoroga borib, Yusuf Hamadoniyan tasavvuf boʻyicha mukammal taʼlim olgan. Soʻngra, Turkistonga qaytib sufiylikni targʻib etgan. Muridlari koʻpayib, yassaviylik tariqati tashkil topgan. El orasida katta obroʻ orttirib, avliyo deb ulugʻlangan. Hatto Yassida vafot topganidan keyin “Madinada – Muhammad, Turkistonda – Ahmad” (qabriga nisbatan) degan ovozlar tarqalgan. Mozori muqaddas qadamjoga aylangan. 1395-97 yillarda Amir Temur Yassaviyning qabri uzra mahobatli maqbara qurdirgan. Yassaviy tuzgan tariqatning barcha qoidolari “Devoni hikmat” sheʼriy asarida bayon etilgan. Unda poklik, toʻgʻrilik, kamsuqumlik, mehr-shafqat, halol kun kechirish, nafsni tiyishga intilish, imonli boʻlish kabi asl insoniy fazilatlar maqtalgan. Zolimlar, poraxoʻrlar, mutaassib shayxlar, johil va nodon kimsalar esa qoralangan. Oʻzbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda Yassaviy hayoti, faoliyati va ijodi keng oʻrganildi, uning “Devoni hikmat” asari koʻp nusxada chop etildi.

118. YASSAVIYLIK – tasavvuf tariqatlaridan biri. Markaziy Osiyoda vujudga kelgan. Asoschisi Ahmad Yassaviy. Yassaviylik Yusuf Hamadoniy va ‘Abdulxoliq G‘ijduvoniy ta’limotlari negizida shakllangan deyiladi, lekin tariqatning suhravardiya an‘anasiga borib taqalishi haqida ham ma’lumotlar bor. Yassaviylikda tasavvufning asosiy to‘rt maqomi shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat keng targ‘ib etilgan. Unga ko‘ra, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma’rifat, ma’rifatsiz haqiqatga erishib bo‘lmaydi. Bularning har biri alohida bosqich bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi va takomillashtiradi. Murid o‘z piri rahnamoligida mazkur bosqichlardan o‘tib, ilohiy ishq sari intilishi, kamolotga erishishi zarurligi alohida ta’kidlanadi. Yassaviylikda murid rioya etishi shart hisoblangan odob qoidalar bo‘lib, unga ko‘ra, murid hech kimsani o‘z piridan afzal ko‘rmasligi, uning hamma topshiriqlarini bekamu ko‘st ado etishi, pand-nasihatlariga so‘zsiz amal qilishi zarur. Yassaviylikda zikri samo‘ga ham katta e’tibor berilgan, jahriya (a’loniya) usuli qo‘llanilgan. Pir va muridlar kundalik o‘qib yuradigan maxsus avrod va duolarni baland ovoz chiqarib aytishgan. Shu bois Yassaviylik “jahriylik” deb ham ataladi.

119. YA‘QUB CHARXIY ‘Usmon ibn Muhammad (taxm. 1363, G‘azna, Afg‘oniston – 1447, Halg‘atu, hozirgi Dushanbe yaqinida, Tojikiston) – olim va tasavvuf murshidi. G‘azna shahriga tobe bo‘lgan Charx qishlog‘ida tavallud topgan. Charxiy boshlang‘ich ta’limni avval Charxda, so‘ng G‘aznada olgandan keyin 1380 yil Hirotdan Buxoroga keladi. Buxoroda u Bahouddin Naqshband (1318-1389) bilan uchrashadi. U Charxiyni muridlikka qabul qilib, zikr qoidasidan ta’lim beradi. Charxiy Naqshband vafotidan so‘ng Badaxshonda, so‘ng Alouddin Attor (vaf. 1400 y.) taklifi bilan Chag‘oniyonda yashadi. Attor vafotidan so‘ng to umrining oxirigacha Halg‘atu (Dushanbe yaqinida) qishlog‘ida yashab, o‘z asarlari va faoliyati bilan naqshbandiya tariqati rivojiga katta hissa qo‘shdi. Charxiy Xoja Ahrorning (vaf. 1490 y.) murshididir. Charxiy

nafaqat tariqat murshidi, balki yetuk olim ham boʻlib, oʻz hayoti davomida tasavvuf, fiqh, tafsir va davlatchilikka oid oʻnga yaqin risola yozgani maʼlum, lekin bizgacha yettita asari yetib kelgan. Shulardan toʻrttasi tasavvufga, bittasi fiqhga, bittasi tafsirga, bittasi davlatchilikka oiddir. Ular quyidagilardan iborat: “Risolai qudsiya” (“Qudsiy kalimalar haqida risola”), “Risolai abdoliya” (“Abdollar haqida risola”), “Sharhi asmoilloh” (“Alloh ismlarining sharhi”), “Risolai unsiya” (“Doʻstlik haqida risola”), “Tafsiri Charxiy” (“Charxiy tafsiri”), “Kitob ul-faroiz” (“Meros taqsimi haqida kitob”), “Risola dar manoqib va aqoid” («Manoqib va aqoid haqida kitob»). Bugungi kunda Charxiyning qabri obod ziyoratgohlardan biri.

120. QALANDAR – tasavvuf yoʻliga kirib darbadarlik va xayrehson bilan kun kechiruvchi kishi. “Qalandar” soʻzi arab tiliga ikki xil: “qarandar” va “qalandar” koʻrinishda oʻtgan. Qalandar soʻzi arab tilida “faqir”, fors tilida “xunuk va besoʻnaqay” degan maʼnoni anglatadi. Turkchada bu soʻz “dunyo lazzatlaridan voz kechgan, darveshlarday sarguzashtga berilgan, haqiqatni va falsafani biluvchi kishi” maʼnosida aks etgan. Qalandar – oʻzini Alloh yoʻlida xizmat qilishga va ichki olamini kamolotga yetkazish yoʻliga kirgan insondir. Qalandar bu dunyo rohatlaridan voz kechib, sufiylar (darvesh) yoʻlini tutgan, kelajak hayoti va bugungi kun tashvishini butunlay unutgan, faqirlik, xokisorlik va malomatni oʻzi uchun shior qilib tanlagan, jamoa odatini tark etgan kishidir.

Oʻrta asr manbalarida ham qalandariya mavzusiga alohida eʼtibor berilgan. Jumladan, sufiy shoir Bobo Tohir Uryoniyning ruboiylarida, Abdulloh Ansoriyning “Qalandarnoma” deb atalgan kichik risolasida, Vohidiyning “Xodjai jihan va natjai jan”, fransuz sayyohi Nikolas de Nikolayning “Kemalar navigatsiyasi”, Shihobuddin Yahyo Suhravardiyning “Risolai qalandariya”, Abu Hafs Umar Suhravardiyning “Avorif” nomli asarlarida qalandarlar hayotiga oid maʼlumotlarni uchratamiz.

Mashhur sufiy Shihobuddin Yahyo Suhravardiy (vaf. 1234 y.) o'zining "Risolai qalandariya" (Qalandarlik haqida risola) deb nomlangan asarida qalandariya tariqati amaliyotiga oid masalalar: kuloh kiyish, bel (kamar) bog'lash, aso tutish, kashkul tutish, darvesh po'stagini to'shayotganda o'qiladigan duolar, tariqat g'usli niyati va boshqa turli mavzular batafsil tasvirlagan. Shu bilan birga pir va murid o'rtasidagi munosabatlar tasvirlangan va zikr qilishning tavsiyalari keltirilgan.

Odatda qalandarlar markazlashgan tashkilotlar tuzmagan. O'sha vaqtlarda ular boshqalardan ajralib turadigan tashqi ko'rinish va axloq normalariga ega edi. Qalandarlar dunyoga berilmaslikni o'zlariga qonun qilib olib, o'tkinchi dunyo lazzatlariga nafrat bilan qaragan, ot yolidan ishlangan kiyim kiygan, bo'yin, quloq va bilaklariga turli xil taqinchoqlar taqib, soch-soqollarini doimo qirtishlab yurganlar.

O'rta Osiyoda qalandarlarning faoliyati bilan bog'liq qalandarxona va xonaqohlar mavjud bo'lgan.

121. QALANDARLIK – sufiylik-zohidlik harakati. Qalandariya tariqati XI asr boshlarida malomatiya g'oyalari ta'sirida Xuroson va O'rta Osiyoda paydo bo'ldi. O'z taraqqiyoti davomida bir necha bosqichni bosib o'tdi. Dastlab, u aniq tashkiliy tuzilmaga ega emas edi. Lekin o'sha davr manbalarida qalandarlik "uyushma" ma'nosini beruvchi toifa sifatida tilga olinadi. Dastlab oz tarafdorlarga ega bo'lgan qalandariya tezda mashhur bo'lib, sharqda Farg'onagacha, g'arbda Iroq va Suriyagacha tarqaldi.

Manbalarda malomatiya bilan qalandariyaning o'xshashligi e'tirof qilinsada, ammo, malomatiyadagi "malomat" tamoyiliga qalandarlar ko'p ham e'tibor bermaganlar. Shuningdek, jamiyatda qabul qilingan normalarga zid hatti-harakatlari bilan odatlarni ochiqdan-ochiq inkor etish kabi holatlar malomatiyadagi o'z ichki dunyosini yashirish g'oyasiga teskari ekanini ko'rsatadi.

Qalandariya bilan malomatiyaning orasidagi farq shuki, malomatiya tarafdorlari o'z turmush tarzi va qarashlarini pinhon tutishgan, maxsus kiyim kiyishmagan, jahriy zikrdan xafiy zikrni afzal ko'rgan, maqsadsiz darbadar yurishdan qaytarishgan. Qalandariya tarafdorlari esa ba'zan boshqalarning g'ashini keltiruvchi yurish-turishlarini har tomonlama oshkor qilgan va shu orqali ularning qarshiligiga uchragan. Shuningdek, jamiyatda yashash va yurish-turish qoidalariga rioya qilmaslik uchun turli bahonalarini ro'kach qilganlar. Malomatiy va qalandar o'rtasidagi asosiy farq shuki, malomatiy sufiylik odatlariga rioya qiladi, qalandar esa aksincha, bu odatlarni buzishga harakat qiladi, malomatiy har narsadan fazilat axtarib, o'zining ahvoli va qilgan ishlarini yashirishni ma'qul ko'radi. Qalandar esa o'zi bilmagan narsaga intilmaydi, o'z qalbini o'zi uchun asosiy xazina deb biladi. Malomatiylar barcha yaxshilik yo'llarini tutgan va haqiqiy fazl shu yo'llarda deb bilishar, ammo barcha amallari maxfiy bo'lib, o'zlarining xatti-harakatlari, kiyinish uslubi va boshqa holatlarda go'yo avom xalq maqomida ko'rinar edilar. Ular Allohga yetishish, yaqinlashish umidida harakat qilar edi. Ular Alloh huzurida ixlosga erishish uchun nafsni ayb va illatlardan muolaja qilishga asosiy e'tiborni qaratadilar, o'z holatlari va amallarini yashirish bilan lazzatlanadilar va buni "ixlos" deb biladilar. O'z holat va amallari namoyon bo'lib qolishi, ularni xuddi osiy o'z gunohi ochilib qolgandek nafratlantiradi. Malomatiy ixlosga erishuvni, uni mustahkam ushlab turishni ulug'laydi.

Qalandarlar biror-bir holat bilan cheklanmaydigan, o'zining oxirat zaxirasi bo'lgan qalb xotirjamligidan boshqa narsaga parvo qilmaganlar.

XIII asr boshlarida Jamolliddin Muhammad Saviy (vaf. 1232 y) tufayli bu harakat muayyan tizimli tariqatga aylandi va mo'g'ullar bosqini ta'sirida g'arbga ko'chdi. Shu tufayli qalandariya tariqat sifatida 1219 yildan Damashqda o'z faoliyatini boshladi. Qalandarlar

muayyan jamoaga birlashib, o'z murshidi (shayx, eshon yoki pir) ning ko'rsatmalarini bajarishi shart hisoblangan. O'z zamonasida qalandarlik davrining keng tarqalgan harakatiga aylangan. Qalandarlikning o'ziga xos rasm-taomillari bo'lgan. Masalan, pirga qo'l berib, muridlikni o'z zimmasiga olgan har bir kishi to'rt qoidaga amal qilishi shart bo'lgan: Sirpo'sh – o'zganing sirini ochmaslik; Xomush – kamgaplik; Zahrno'sh – har qanday achchiq gapni yutish; Faromush – har qanday vaziyatda ham og'ir bo'lish, o'ch olishga urinmaslik.

Bu to'rt shart qabul qilingach unga kisvat (kiyim) berilgan. Kisvat degani quyidgilardan tarkib topgan:

1. Shaydoyi degan uchi burma do'ppi; 2. Chiltor o'ralgan. Chiltor – ustidan o'raladigan shokilali salla; 3. Kuloh – qalandarlarga ikki-uch yildan keyin beriladigan, ichi namat, usti duxoba, tuya junidan shokilali qilib to'qiladigan bosh kiyim; 4. Kamar – ich tomoni namat, usti duxoba qayish; 5. Janda – bu besh olti yil yurt kezgan qalandarlarga beriladigan kiyim.

Qalandarlarning tariqatga doir va ma'naviy yumushlari pir, eshon tomonidan belgilab berilgan. Eshoni murshidning xo'jalik sohasidagi ishlarini qalandarlar orasidan "G'olib" deb ataladigan sarkor bajargan.

Bu tariqatning ba'zi a'zolari bayroq, dasturxon, chiroq va kichik nog'orani qalandarlik tariqatining asosiy ramzlari deb hisoblashgan. Bayroq – piri valiy bo'lib, muridlar qiyomat kuni bayroq orqali o'z pirlarini topishlari mumkin bo'lgan. Dasturxon – qalandarning huddi Ibrohim (a.s.)dek mehmondo'stligi belgisi. Chiroq – qalandarlik aql-idrok va g'oyalarining tiniqligi ramzi. Kichik nog'ora ohanglari vositasida qalandarlar Allohga bo'lgan muhabbatini izhor etishgan. Shuningdek, qalandarlar boshqa tasavvuf tariqatlari vakillaridan farqli ravishda quyidagi ashyolarni o'zlari bilan doimo olib yurishgan: kashkul – xayr-sadaqa yig'iladigan qovoqsimon idish; matbag' –

nazr-niyoz, shamlar solib yurish uchun qovoqdan qilingan idish; rido – qo‘ltiqdan o‘tkazib, bo‘yinga bog‘lanadigan xalta. Ko‘pincha xudoyi qilingan nonlar solingan.

Qalandariya tariqati vakillarining tashqi ko‘rinishlari aksar hollarda quyidagicha bo‘lgan: bosh, qosh, yuzni doimo qirtishlab yurish; xirqa kiyish, bu kiyim o‘z ichiga tanani yopib turadigan oddiy yopinchiq va belni o‘rab turadigan paxtadan qilingan belbog‘ni olgan; bo‘yin va qo‘lga haydariya deb ataladigan temirdan qilingan taqinchoq taqish, jamoatdan o‘zini chetda tutish;

XIII asr boshlariga kelib, qalandarlik inqirozga yuz tutadi.

Tarafdorlarining bir qismi qalandariya tariqatiga birlashgan, ikkinchi qismi boshqa tasavvufiy tariqatlarga qo‘shilib ketgan. Qalandarlik o‘zining ilk davrida boshqa musulmon tariqatlari ta’limotlaridan farq qilgan. Bu bosqichda uzlatga chekinish, xonaqohlarda birga istiqomat qilishni rad etish, islom arkonlariga befarq munosabatda bo‘lish, juma namozida ishtirok etishdan bosh tortish, ro‘za tutmaslik, sufiylik amaliyotidagi haftaning muayyan kunlarida tutiladigan ro‘zani inkor etish, sadaqa hisobiga yashash, oz miqdordagi shaxsiy buyumlardan tashqari boshqa turdagi har qanday mulkdan voz kechish, darbadarlikdagi hayot tarzi bu tariqatning asosiy qoidalari hisoblangan. Qalandariya tariqatining bir qismi a’zolari uylanmaslikka ahd qilganlar.

Qalandariya tariqati g‘arbda Suriyadan Marokashgacha, sharqda esa Hindistongacha tarqalib borgan. Turkiyada ushbu harakat XIII asrning birinchi yarmida paydo bo‘la boshladi va u yerda XVIII asrning oxirlarigacha davom etdi. Istambulda esa Sulton Muhammad (1451-1481) davrida ularga yuksak ehtirom ko‘rsatilgan hamda qalandarlarga maxsus maskan, masjid va madrasa qurilgan.

Dehlilik sulton Shamsiddin Iltutmish (1211-1236) davrida ular o‘zlarining maxsus dargohlarini barpo etganlar. Hindistonda qalandariya ta’limotini Saviy shogirdi Xizr Rumiylar targ‘ib qildi. Bu

tarmoq keyinchalik qalandariya harakatining mustaqil tarmog'iga asos bo'ldi va 12 pirdan iborat XIX asrgacha yetib borgan shajaraga ega edi. U suhravardiylar va chishtiylar harakati bilan doimiy qarama-qarshilikda turar va dehlilik sultonlar davrida, ya'ni XIII–XV asrlarda katta ta'sirga ega bo'ldi, keyinchalik esa o'z ta'sirini yo'qotdi. Avrangzeb (1658-1707) davrida qalandariya boshqa tariqatlarga singib ketdi.

Ushbu tariqat a'zolari Makka va Madinaga boradigan karvonlarni qo'riqlovchi maxsus tuzilma shaklida ham faoliyat olib borgan. Ular boshqa tariqat vakillaridan farqli ravishda harbiylik san'atini ham yaxshi bilgan. Qalandarlar Hindiston, Iroq va O'rta Osiyoda darveshlar deb ham atalgan. Yurtimizda ham "qalandar" atamasi "darvesh" so'ziga ma'nodoshdir. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining 40-faslini "Darveshlar zikrida" deb nomlagan. Unda darveshlarga xos xudojo'ylik, kamtarlik, saxovatlilik kabi xususiyatlarni sanab o'tgan.

Qalandarlar avval sufiylarning bir jamoati bo'lib, keyinchalik islom normalariga zid xatti-harakatlari bilan ziddiyatlar keltirib chiqarib, turli xil firqalarga bo'linib ketgan. Ularning javlaqiya, haydariya, yunusiya, rifo'iya, haririya va boshqa firqalari mavjud bo'lgan.

Qalandariya tariqati ta'sirining ba'zi elementlari hozirgi kunda ham Pokiston, Hindiston, Indoneziya, Eron va Afrikaning ba'zi hududlaridagi tariqatlar amaliyotida, xalq urf-odatlarida namoyon bo'ladi.

122. QALB, yurak, dil – ilohiyot va tasavvuf tushunchasi. Qalb insonning diniy haqiqatlarni anglab oladigan, imon va taqvodorlik xislatlari jo bo'lgan a'zosi sifatida tavsiflanadi. Qur'onga ko'ra, Alloh gunohkor, imonsiz, zolim kimsalarning qalbini muhrlab qo'yadi (10:74/75; 7:101), ularni o'z marhamatidan, haqiqatni bilishdan mahrum etib, do'zax azobiga mahkum qiladi. At-Tustariy, Balxiy,

an-Nuriy, at-Termiziy, al-G‘azzoliy kabi allomalarning fikricha, qalb inson ichidagi ilohiy sir bo‘lib, shu tufayli inson hatto farishtalardan ham yuqori turadi; qalb Alloh bilan inson muomala qilib turadigan joydir; qalb narsalarning tub mohiyatini ko‘ra oladi; xudojo‘ylar qalbi billur singari tiniq, gunohkorlar qalbi esa, aksincha, zang bosgan (83:14) va u haqiqatdan yiroqdir. Qalb inson xatti-harakatlarini aks ettiruvchi ko‘zgu bo‘lib, savob amallar uni nurga to‘ldiradi, yomon amallar esa, aksincha, xiralashtiradi. Sufiy o‘z qalbini “yumshatib”, ilohiy bilimlarni o‘zlashtirish uchun o‘zini tayyorlab borishi, dunyoviy istaklardan voz kechishi zarur deyiladi. Tasavvufda qalb tushunchasi zikr bilan chambarchas bog‘liq. Zikrda til bilan birga insonning barcha a‘zolari qatnashadi, qalb esa, ular ichida eng muhimi sanalib, zikr tufayli Alloh sufiyning qalbidan joy olib, bajaradigan barcha amallarining birdan-bir sababi va harakatlantiruvchi kuchiga aylana boradi, deya talqin qilinadi.

123. QODIRIYLAR, qodiriya – sufiylik tariqati. XII asrda Iroqda ‘Abdulqodir al-Giloni (1077-1166) asos solgan. Qodiriyaning markaziy qarorgohi Bag‘dodda joylashgan. Unga al-Giloni qabri ustiga qurilgan madrasa, rabot va masjid ham kirib, Bag‘dodning asosiy qadamjolaridan biri hisoblanadi. Qodiriylar qarashlari jihatdan sunniylik oqimiga mansub, ular alohida guruhlardan tashkil topgan. Qodiriylar tasavvuriga ko‘ra, tariqat asoschisining tariqatga a‘zoli davom etaveradi, u tariqat tarafdorlarini vositachi orqali boshqaradi. Qodiriylarning bir guruhi ‘Abdulqodir al-Giloni shaxsini ilohiylashtirib yuborishgan. Hozirgi vaqtda Sharqiy va Shimoliy Afrikada, Sudan, Iroq va Pokistonda qodiriyaning mavqei ancha kuchli (Iroq va Pokistondagi qodiriylar guruhi Bag‘doddagi maskanni tariqatning markazi deb e‘tirof etadi). Qodiriylarning tashkiliy asosi mustaqil manzil (xonaqoh, rabot, zoviya) hisoblanadi, uni boshqarish an‘ana bo‘yicha nasldan naslga o‘tadi. Qodiriylarning ijtimoiy tarkibi har xil bo‘lgan. Ular jamoa bo‘lib (samo‘, xadra), ovoz chiqarmasdan

alohida (zikri xafiy) holda hamda baland ovozda umumiy (zikri jaliy) zikr tushishgan. Tariqat a'zolari boshlariga kigiz telpakcha kiyib yurgan. Telpakchada qodiriylarning timsoli – uch qator gulbargli yashil gul bor. 'Abdulqodir al-Giloniy sharafiga har yili bo'ladigan tantanalar ularning asosiy bayramidir.

124. QOSHONIY (yoki al-Qoshiy), Kamoliddin 'Abdurrazzoq ibn Ahmad (vaf. 1329 y.) – yirik mutasavvif va sharhlovchi. Uning tarjimai holiga oid ma'lumotlar oz. Qoshonda tug'ilib o'sgan. Nuriddin 'Abdussamadning shogirdi, Ibn al-'Arabiy va uning vahdatu-l-vujud ta'limotining ashaddiy muxlisi bo'lgan. Mana shu asosda u Ibn al-'Arabiyning tanqidchisi va vahdatu-sh-shuhud ta'limoti asoschisi bo'lmish Alouddavla Simnoniy (vaf. 1336 y.) bilan yozma munozaraga kirishgan va unda, Jomiyning so'zlariga qaraganda, g'olib chiqqan. Ibn al-'Arabiy, al-Ansoriy, Ibn al-Forizning tasavvufga oid asarlariga sharh yozgan. Qoshoniyning mustaqil asarlari jumlasiga Qur'onga yozilgan kamida ikki sharh, "Latoif al-a'lom", "Risola fi-l-qazo va-l-qadar", sufiylikka doir terminlarning mashhur lug'ati "Istilohot as-sufiyya" va boshqa asarlarini kiritish mumkin. Ibn al-'Arabiyning ko'plab g'oyalari Qoshoniyning mohirona sharhlari tufayli keyingi avlod sufiylariga yetib kelib, keng tarqalgan.

125. QUDDISA SIRRUHU (arab. – "Ruhi muqaddas bo'lsin") – bu arabiy ibora tasavvuf ahlidan biror shayx yoki pir-murshidning nomi zikr etilganda duo sifatida aytiladi. Ba'zan "Qaddasallohu ruhahu" tarzida ham keladi. Bunda mazmuni "Ul zotning ruhini Alloh muqaddas qilsin", bo'ladi.

126. G'AZZOLIY, Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy (1058-1111) – yirik ilohiyotchi olim, faylasuf. Tus shahrida (Xuroson) tug'ilgan. Nishopur shahrida ash'ariy ulamo Juvayniy qo'lida tahsil ko'rdi. Bag'dodda Saljuqiylar vaziri Nizomu-l-mulk huzurida xizmat qildi va Nizomiya madrasasida faqih-mudarris sifatida faoliyat ko'rsatdi. Ismoililar Nizomu-l-mulkni o'ldirganidan

soʻng al-Gʻazzoliy haj bahonasida Bagʻdodni tark etib, Damashqda 11 yil yashadi. Keyinchalik Nizomulmulk oʻgʻli Faxru-l-mulk taklifi bilan yana Nizomiya madrasasida mudarrislik qildi. Asosiy asarlari “Maqosidu-l-falosifa” (“Faylasuflarning maqsadlari”) “Tahofutu-l-falosifa” (“Faylasuflarni rad etish”), “Kimyoi saodat” (“Saodat kimyosi”), “Ihyo ulumi-d-din» (“Din ilmlarini tiriltirish”) va boshqalarda al-Gʻazzoliy islom ilohiyoti tizimini ishlab chiqqan, uni falsafiy jihatdan asoslashga uringan. Anʻanaviy sunniylik aqidalarini sufiylik ideallari bilan birga qoʻshib talqin etgan. Inson iroda erkinligi va ilohiy taqdir masalalarini koʻrib chiqib, “kasb” (“oʻzlashtirish”) gʻoyasini oldinga surgan. Al-Gʻazzoliyga koʻra, inson Alloh buyurgan yaxshi yoki yomon amallar orasidan oʻziga maqbulini tanlab olishda ixtiyoriydir va shu bois, mazkur xatti-harakatlari oldindan belgilab qoʻyilishiga (taqdir) qaramay, ular uchun aynan insonning oʻzi masʼuldir. Al-Gʻazzoliy bir necha asarlarida musulmon faylasuflari, Aristotelning Sharqdagi izdoshlari (Forobiy, Ibn Sino) bilan olamning yaratilganligi, koinot abadiyligi, ruhning oʻlmasligi muammolari, sababiyat nazariyasi va h.k. boʻyicha bahs yuritgan. Islom tafakkuri va oʻrta asr Yevropa falsafasiga katta taʼsir koʻrsatgan. Zamondoshlari tomonidan “Hujjatu-l-islom” (“Islom dalili”) deb ulugʻlangan.

127. GʻIJDUVONIY ‘Abdulxoliq, Xoja ‘Abdulxoliq ibn ‘Abduljamil Gʻijduvoni (1103-1179) – xojagon-naqshbandiya tariqatining asoschisi; buxorolik yetti pining birinchisi. Xojai jahon nomi bilan ham mashhur. Gʻijduvonda (Buxoro yaqini) imom oilasida tugʻilib, islomiy tasavvur va urf-odatlar muhitida tarbiya topdi. Yigirma ikki yoshida Buxoroga keldi va Yusuf Hamadoniyning muridi boʻldi. Gʻijduvoni dunyoqarashining shakllanishida malomatiylar taʼlimoti va qalandarlik harakati taʼsir koʻrsatdi. U zohidlikda yashashni, shariat koʻrsatmalari, Paygʻambar sunnatlariga qatʼiy amal qilishni targʻib etdi. U butun hayoti davomida ibodatu riyozat bilan mashgʻul boʻldi. Yusuf Hamadoniyning sufiylik taʼlimotini xufiya

zikir (soʻzsiz, qalban) bilan boyitdi hamda xojagonlik tariqatining sakkizta rashhasini (qonun-qoida) ishlab chiqdi. Bu rashhalar har nafasni zoe ketkazmaslik, har qadamni toʻgʻri bosish, azizlarning xizmatida boʻlish, har bir ishda Xudoni yoddan chiqarmaslik va tildan qoʻymaslik, niyatda mustahkam boʻlish kabilardir. Gʻijduvoniya taʼlimoti naqshbandiylik tariqatiga asos boʻlgan. Bahouddin Naqshband Gʻijduvoniyni axloqiy talablariga yana 3 talab qoʻshgan. Gʻijduvoniyni “Vasiyatnoma” risolasi Toshkentda 1993 y. chop etildi. Bugun uning Gʻijduvon shahridagi qabri tabarruk ziyoratgoh hisoblanadi. Bizgacha “Risolayi odobi tariqat”, “Risolayi sohibiya”, “Vasiyatnoma” va boshqa asarlari yetib kelgan. 2003 yilda Gʻijduvoniyni 900 yillik yubileyi nishonlandi. Gʻijduvoniya yodgorlik majmui qayta taʼmirlandi.

128. HALLOJ Husayn ibn al-Mansur (858-922) – tasavvufdagi “sukr” – “mastlik” oqimning yirik vakili. Gʻoyaviy jihatdan qarmatlarga yaqinlikda ayblangan. Tur, Bayda, Basra, Bagʻdod shaharlarida bilim olgan. Musulmonlarning ayrim odatlariga va shariatning baʼzi qoidalariga zid fikrlar aytgan. “Ana-l-Haq”, – “Haq menman”, mening oʻzligim – Xudoning oʻzligidir”, degan fikri uchun xudolikni daʼvo qilishda ayblangan. Uning bu qarashlari vahdatu-l-vujud taʼlimotiga yoʻl ochgan. Hallojning gʻoyalari butun islom oʻlkalarida tarqalib ketgan. Shariat peshvolari Hallojni bidʼatchilikda va shakkoklikda ayblab, 922 yil qatl etishga hukm chiqarganlar.

129. HAMADONIY YUSUF (1048, Hamadonning Buzanjird qishlogʻi – vaf. 1141 y., Afgʻonistonning Bomiya shahri) – tasavvufning yirik namoyandasi, mashhur olim. Bagʻdodda Abu Ishoq Sheroziydan tahsil olgan. Isfahon, Samarqand va Buxoroda oʻz bilimini oshirgan. Tasavvufni Abu ‘Ali Farmadiy, ‘Abdulloh Juvayniy va Hasan Simnonydan oʻrgangan. Zamonasining yetuk allomalari ‘Abdulqodir al-Giloniy, Imom al-Gʻazzoliy, shayx Hamiduddin Moʻltoniy bilan muloqotda boʻlgani, oʻttiz marta haj ziyoratiga

borgani haqida degan rivoyatlar bor. Hamadoniy Buxoroda uzoq muddat yashab, Ahmad Yassaviy va ‘Abdulxoliq G‘ijduvoniyni tarbiyalab, voyaga yetkazgan. U keyinchalik xojagon-naqshbandiya tariqatining bosh shiorlariga aylangan “xush dar dam”, “nazar bar qadam”, “safar dar vatan”, “xilvat dar anjuman” qoidalarini ishlab chiqqan. Xalifalaridan 4 nafari: Xoja ‘Abdulloh Barqiy (Barraqiy) Xorazmiy, Xoja Hasan Andoqiy Buxoriy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja ‘Abdulxoliq G‘ijduvoni ustozidan so‘ng muridlarning tarbiyasi bilan shug‘ullanganlar. Hamadoniy “Rutbat ul-hayot”, “Kashf”, “Risola dar odobi tariqat”, “Risola fi anna-l-kavna musaxxarun li-l-inson”, “Risola dar axloq va munojot” kabi asarlarni yozgan. “Hayot mezon” risolasi o‘zbek tilida ham nashr qilingan (Toshkent, 2003). Hirotdan Marvga qaytayotganda Bomiyon shahrida vafot etgan. Keyinchalik xoki muridlari tomonidan Marv shahriga ko‘chirilib, qayta dafn etilgan. Hamadoniy haqida ‘Abdulxoliq G‘ijduvoni, Fariduddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy o‘z asarlarida muhim ma’lumotlar keltirishgan.

130. HOL (ko‘pligi ahvol; yoxud holat, ko‘pligi holat) – buyum, inson va holati. Qur’onda ushbu ma’noda qo‘llanilmagan. Sufiylik “psixologiya”sida hol – Allohga intilish “yo‘lida” sufiy, uning irodasidan tashqari va mukammallikka erishganlik darajasidan qat’i nazar tushadigan holati.

131. HUVIRIY, Abu-l-Hasan ‘Ali ibn ‘Usmon al-G‘aznaviy al-Jullabiy (vaf. 1072-1076/77 y.lar oralig‘i) – fors tilida sufiylikka doir birinchi asar muallifi. Unda sufiylik tarixi va mohiyati, sufiylar dunyoqarashi va amaliyoti sistematik tarzda bayon etilgan. Hujvirda (G‘aznadagi mahalla) taqvodor oilada tug‘ilgan. Hanafiy mazhabiga e’tiqod qiluvchi Hujviriy al-Junayd (vaf. 910 y.) sufiylik maktabi izdoshi bo‘lgan. Hayotining ko‘p qismini safarda o‘tkazib, Farg‘onadan Huzistongacha, Hindistondan Suriyagacha bo‘lgan mamlakatlarni kezgan. Hayotining so‘nggi damlari Lohurda kechgan,

bu yerda u bizgacha yetib kelgan yagona (oʻntadan) asari – “Kashf al-mahjub li-abrori-l-qulub”ni yozgan. Asar ikki qismdan iborat. Birinchi – kirish qismi oʻn toʻrt bobdan tashkil topib, unda sufiylikdagi ixtiyoriy qashshoqlik va ruhiy poklik masalalari tahlil etilgan, yetmish toʻrt sufiy-shayxlar tarjimai holi keltirilgan, ikki asosiy oqim (gʻarbiy va sharqiy) borligi qayd etilgan, shuningdek, sufiylikdagi oʻn ikki tariqat taʼlimotlari tahlil qilinib, shundan oʻntasi maʼqul topilib, ikkitasi esa, rad etilgan. Ikkinchi qism, asosan, javoblardan iborat boʻlib, “Kashf al-hijob” deb nomlangan oʻn bir qismdan iborat. Unda falsafiy qoidalar, sufiylikdagi taʼlimotlar va amaliyot, ularni shariat meʼyorlariga mos kelishi, sufiylar orasida qabul qilingan atamalar va boshqa masalalar koʻrilgan. Asar keyingi davrda sufiylikka doir fors tilida yozilgan adabiyotlarga ulkan taʼsir koʻrsatgan.

NAZORAT SAVOLLARI

Joriy baholash savollari (yozma ish)

1. “Tasavvuf” istilohining paydo bo‘lishi.
2. Movarounnahrda ilk zohidlik harakatlari.
3. Tasavvufning nazariy asoslari yaralishi.
4. Futuvvat – yuksak axloq me‘yori.
5. Tasavvuf va badiiy ijod uyg‘unligi.
6. Tariqatlar rivojida xonaqohlarning ahamiyati.
7. Malomatiya harakatining Movarounnahr ijtimoiy tafakkuri rivojida tutgan o‘rni.
8. Tasavvufda “fano” va “baqo” tushunchalari.
9. Komil inson g‘oyasining tasavvufda paydo bo‘lishi.
10. Movarounnahr sufiylarining jahon tasavvufi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi.
11. “Dil ba-yor, dast ba-kor” shiorining amaliy ahamiyati.
12. Globallashuv sharoitida tariqatlar faoliyati.
13. Tariqatlar shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari.
14. Imom al-G‘azzoliy va uning falsafiy fanlarga oid qarashlari tahlili.
15. Naqshbandiyadagi 11 rashha.
16. Jaloliddin Rumi asarlarida masal va timsollar.
17. “Vahdat al-vujud” va “Vahdat ash-shuhud” ta’limoti muqoyasasi.
18. Tasavvuf ilmining kitobat qilinishi.
19. Movarounnahr va Xurosonda IX–X asrlarda tasavvufiy muhit.
20. Ilk zohidlik harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.

Joriy baholash savollari (og‘zaki)

1. Tasavvufdagi sahv konseptsiyasining mazmuni.
2. Tasavvufdagi sukr konseptsiyasining mazmuni.

3. “Ana-l-Haq”ning sharhlari.
4. “Muhosabat an-nafs” g’oyasining mohiyati.
5. Tasavvuf psixologiyasi tushunchasi.
6. Malomatiyaning asosiy g’oyasi va tarqalish geografiyasi.
7. Ma’ruf Karxiyning tasavvufda tutgan o’rni.
8. Yassaviy yashagan davri va muhiti.
9. Shayx-murid munosabatlari.
10. Movarounnahr amaliy san’at turlari rivojiga tasavvufiy ta’siri.
11. Yassaviyada tarki dunyochilik g’oyasi sabablari.
12. Tasavvufiy tabaqot asarlari kitobat tarixi.
13. Naqshbandiyada nafs tarbiyasi, faqr tushunchasi va qanoatga munosabat.
14. Abdurahmon Jomiy va naqshbandiya tariqati.
15. Naqshbandiyada komil inson ma’naviyati.
16. Naqshbandiya va ilm-hunar ahli.
17. Ilohiy ishqning mazmuni.
18. Al-Hakim at-Termiziyning valiylik haqidagi ta’limoti.
19. Futuvvatdagi “iysor” g’oyasi mohiyati.
20. Tariqatlar shakllanishiga ta’sir etgan omillar.
21. Tasavvufiy qadriyatlarning hozirgi kundagi ahamiyati.
22. Globallashuv sharoitida naqshbandiya tariqati.

Yakuniy nazorat savollari (yozma ish)

1. Tasavvuf paydo bo’lishining tarixiy shart-sharoitlari.
2. Bag’dod tasavvufiy an’analari Movarounnahrda kirib kelish tarixi.
3. Ilk tasavvufiy harakatlarning shakllanish bosqichlari.
4. Irfon va falsafa.
5. Imom al-G’azzoliyning tasavvuf tarixida tutgan o’rni.
6. Komil insonga xos ishqning tasviri.
7. Rumiyning “Ichindagi ichingdadir” asari tahlili.
8. “Masnaviy Ma’naviy” asari tahlili.
9. Tasavvufda insonning o’zini anglashi.
10. “Komil inson” g’oyasi.

11. Xojagon shayxlarining ma'naviy tarbiya uslublari.
12. Tasavvufiy qadriyatlarning hozirgi kundagi ahamiyati.
13. Tasavvuf – badiiy ijod – san'at uyg'unligi.
14. Tabaqot janriga oid asarlar turkumi.
15. Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlari.
16. Tasavvufiy tafsirlar.
17. Tariqatlar paydo bo'lishining asosiy bosqichlari.
18. Movarounnahr tariqatlari.
19. "Vahdat al-vujud" ta'limotining paydo bo'lishi.
20. "Vahdat al-vujud" ta'limoti va naqshbandiya.
21. Globallashuv sharoitida zamonaviy sufiy tariqatlar.
22. Futuvvat axloqining milliy madaniyatdagi o'rni.

TEST SAVOLLARI

(1-yarim yillik)

1. Mistitsizm, mistika soʻzlarining qadimiy yunon tilidagi maʼnosi:

- A. xavfli, xatarli
- B. yashirin, sirli
- S. falsafiy
- D. maʼnaviy-maʼrifiy

2. “Muroqaba” soʻzining maʼnosi:

- A. shayxga itoat
- B. tarkidunyochilik
- S. raqobat
- D. oʻz-oʻzini nazorat qilish

3. Imom Molikning talabasi va tasavvuf haqida ilk bahs yuritgan zot quyidagilardan qaysi biridir?

- A. Ibrohim Adham
- B. Boyazid al-Bistomiy
- S. Zunnun al-Misriy
- D. Sufyon as-Savriy

4. Quyidagilardan qaysi biri dastlabki sufiylarga kirmaydi?

- A. Yusuf al-Hamadoni
- B. Junayd al-Bagʻdodiy
- S. Maʼruf al-Karxiy
- D. Shaqiq al-Balxiy

5. Quyidagilardan qaysi biri Jaloliddin Rumiyning asari hisoblanadi?

- A. Fiyhi ma fhi
- B. Masnaviy
- S. Devon-i Shams Tabriziy
- D. Barchasi

6. “Ana-l-Haq” deganda nima nazarda tutilgan?

- A. Haq menman
- B. Haq menda
- S. Haqda foni boʻldim
- D. Haq U dir

7. Quyidagilardan qaysi biri al-Gʻijduvoniy tomonidan belgilab berilgan tamoyillardan emas?

- A. nigoh dosht
- B. boz gasht
- S. xush dar dam
- D. toʻgʻri javob yoʻq

8. Naqshbandiya tariqatining tayanchi nimadan iborat?

- A. suhbat
- B. uzlat
- S. itoat
- D. yod kard

9. Quyidagilardan qaysi biri naqshbandiya tariqati yoʻnalishlaridan hisoblanmaydi?

- A. Ahroriya
- B. Mazhariya
- S. Qodiriya
- D. Mujaddidiya

10. Tasavvuf soʻzining kelib chiqishi haqidagi aytilgan fikrlardan aksar qabul qilingani:

- A. soflik
- B. ahli suffa
- S. sophia – hikmat
- D. suf – jun chopon

11. Sufiylilikning ilk namoyandalari deb hisoblanuvchi sahobalar:

- A. Abu Hurayra, Umar ibn Xattob
- B. Abu Dardo, Abu Zarr, Huzayfa
- S. Abu Bakr Siddiq, Ali ibn Abi Tolib
- D. Abdulloh ibn Umm Maktum, Abdulloh ibn Umar

12. Islomda ilk tasavvuf namoyandalari qanday atalganlar?

- A. sufiy, mutasavvif
- B. obid, zohid
- S. shayx, murshid
- D. murid, ashob

14. Tasavvufning islomiy manbasi hisoblangan “zuhd” soʻzining maʼnosi

- A. gunohdan qaytish, voz kechish
- B. tavakkul qilish

S. voz kechish, nazarga ilmay tark etish

D. Nafsni jilovlash; e'tibor bermaslik

15. Murid –?

A. sayri sulukini davom ettirayotganlar

B. sayru sulukini tamomlab, Allohga vosil bo'lganlar

S. yo'lning yarmisiga kelgan

D. istagi qabul etilib, tariqatga olingan

16. Mansur al-Halloj haqida kompleks tadqiqot olib borgan g'arb olimi?

A. A.Knish

B. B.G.Martin

S. L.Massinon

D. L.Levinson

17. Mubtadiy –

A. sayru sulukini yangi boshlagan

B. yo'lning yarmisiga kelgan

S. sayru suluki ado bo'lib, vuslatga erishgan

D. sayru sulukini davom ettirayotgan

18. “Kitab al-luma” asari muallifi?

A. al-Hujviriy

B. al-Qushayriy

S. as-Sarroj

D. Bishr al-Hofiy

19. “Xotam al-avliyo” mavzusini ilk bor kim o'rtaga qo'ygan?

A. al-Hakim at-Termiziy

B. Shavkoniy

S. al-Qushayriy

D. al-Hujviriy

20. Al-Muhosibiyning “qiyomat dahshatlari”ni yoritgan asari?

A. “Kitab ar-rioya li huquqillah”

B. “Tabaqot as-sufiyya”

S. “Kitab at-tavahhum va-l-ahval”

D. “Kitab al-luma' fi-t-tasavvuf”

21. Al-Bistomiya berilgan laqab?

A. “Sulton al-sufiy”

B. “Sulton al-imom”

S. “Sulton al-orifiyn”

D. “Sulton al-faqihiyn”

22. “Tasavvuf” kalimasi bilan tasavvufni anglatgan ilk sufiy?

- A. Zunnun al-Misriy
- B. Sari as-Saqatiy
- S. Ma’ruf al-Karxiy
- D. Horis al-Muhosibiy

23. Tasavvufga “sahv” tushunchasini olib kirgan mutasavvif:

- A. Horis al-Muhosibiy
- B. Junayd al-Bag’dodiy
- S. Bishr al-Hofiy
- D. Abdulloh at-Tustariy

24. “Iysor”ning ma’nosi nima?

- A. nafsini tarbiyalash
- B birovni o’zidan past tutish
- S. birovni o’zidan yuqori tutish
- D. javonmardlik

25. Tasavvufda “ayyor” laqabi kimlarga nisbatan qo’llanilgan?

- A. zehni o’tkir odamlarga
- B. bilimdon kishilarga
- S. kazzob kimsalarga
- D. a va b javob to’g’ri

26. Ahmad ibn Hanbal tomonidan bid’atchi deb e’lon qilinib, Bag’doddan chiqib ketgan tasavvuf namoyondasini ko’rsating.

- A. Horis al-Muhosibiy
- B. Bishr al-Hofiy
- S. Boyazid al-Bistomiy
- D. al-Kolobodiy

27. Sari as-Saqatiy o’z ta’limotida 5 narsaga urg’u beradi, ular qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?

- A. sabr, humul, tavakkul, ixlos, riyodan qochish
- B. sabr, shukr, tavakkul, ixlos, riyodan qochish
- S. riyodan qochish, o’zini malomat qilish, ixlos, humul
- D. o’zini tergash, sabr, humul, tavakkul, ixlos

28. Junayd al-Bag’dodiyga qanday maqomlar berilgan?

- A. Shayx al-mashoyix
- B. Tovus al-fuqaro
- S. Sayyid al-fuqaro
- D. barcha javoblar to’g’ri

29. “Muraqqa’a”ning istilohdagi mazmuni qanday?

- A. yamoq, quroq, yamoqli
- B. sufiylarning parchalardan tikilgan kiyimi
- S. Mansur al-Hallojning kiyimi shunday nomlangan
- D. barcha javoblar to‘g‘ri

30. “Shukuftiyya”ning ma’nosi nima?

- A. xarobazor ahli
- B. kulba ahli
- S. askarlar joyi
- D. g‘or ahli

31. Abu Abdurahmon as-Sulamiyning asarini ko‘rsating.

- A. “Tarix as-sufiyya”
- B. “Tabaqot as-sufiyya”
- S. barcha javoblar to‘g‘ri
- D. “Haqoyiq at-tafsir”

32. As-Sulamiyning asarlar 3 kategoriyaga ajratiladi. 1-sufiy tabaqot asarlari, 2-Qur’on tafsirlari, 3-.....?

- A. tasavvuf tariqatlari
- B. tasavvuf odob-ahloqiga oid risolalar
- S. hadislar
- D. sufiylarning hayoti va ijodi

33. “Kashf al-mahjub” qaysi tilda yozilgan?

- A. turkiy tilda
- B. fors tilida
- S. arab tilida
- D. o‘zbek tilida

34. “Kashf al-mahjub” tuzilishi jihatdan qaysi asarga o‘xshaydi?

- A. “ar-Risola al-Qushayriyya”
- B. “Kitab al-luma”
- S. “Tabaqot as-sufiyya”
- D. “Tarix as-sufiyya”

35. Malomatiya tariqati yana qanday nom bilan ataladi?

- A. Qassoriya
- B. Tayfuriya
- S. Muhosibiya
- D. Junaydiya

36. Futuvvat hozirgi Turkiya mintaqasida qanday nom bilan yuritilgan?

- A. javonmardlik
- B. fatiylik

S. zohidlik

D. axiylik

37. Sabr timsoliga aylangan paygambar qaysi javobda ko'rsatilgan?

A. Idris (as)

B. Ayyub (as)

S. Ibrohim (as)

D. Iso (as)

38. "Rioya li huquqillah" va "Kitab al-vasoya" asarlari bilan sufiylarga kuchli ta'sir ko'rsatgan mutasavvif:

A. Abu Hoshim as-Sufiy

B. Fuzayl ibn Iyoz

S. Horis al-Muhosibiy

D. al-Qushayriy

39. "Sayyid at-toifa" va "Toj al-orifin" unvonlariga sazovor bo'lgan mutasavvif:

A. Junayd al-Bag'dodiy

B. Mansur al-Halloj

S. Boyazid al-Bistomiy

D. Abdulloh at-Tustariy

40. Qaysi harakat asoschilari o'z ta'limotini yoyishda birinchilardan bo'lib, xonaqohlar tashkil etgan?

A. Malomatiylar

B. Mavlaviylar

S. Karromiylar

D. Qalandariylar

41. "Xilvat dar anjuman" –

A. solikning yomon ahloqdan yaxshi xulqqa, bashariy sifatdan ilohiy sifatlariga yo'nalishi

B. zoxiran xalq bilan, botinan Haq bilan birga bo'lish

S. qalbdagi fikr va xotiralarni muroqaba qilish

D. solikning har lahza o'z holidan xabardor bo'lishi

42. Nishopurda IX asrlarda yuzaga kelgan, oxir-oqibat qalandarlikka singib ketgan harakat –

A. Mavlaviya

B. Karromiya

S. Malomatiya

D. Qodiriya

43. Malomatiya harakatining maxsus libosi:

- A. dag'al po'stak
- B. harir, ya'ni mayin libos
- S. maxsus kiyim kiyimaganlar
- D. abo va kuloh

44. Karromiylar harakatidagi asosiy 5-ta printsiplar:

- A. ixtiyoriy och yurish, ko'p Qur'on tilovat qilish, tungi bedorlik, kunduzlari och yurish, abrorlar bilan hamsuhbat bo'lish
- B. doimiy och yurish, ko'p Qur'on tilovat qilish, kunduzgi bedorlik, kunduzlari och yurish, abrorlar bilan hamsuhbat bo'lish
- S. muridlar suhbatida bo'lish, ko'p Qur'on tilovat qilish, tungi bedorlik, kunduzlari och yurish, abrorlar bilan hamsuhbat bo'lish
- D. yolg'izlikda Alloh zikri bilan mashg'ul bo'lish, ko'p Qur'on tilovat qilish, tungi bedorlik, kunduzlari och yurish, abrorlar bilan hamsuhbat bo'lish

45. Abdurahmon Jomiyning «Nafahot al-uns min al-hazarot al-quds» nomli asarida nechta shayxu-sufiyning nomi zikr etilgan?

- A. 664
- B. 764
- S. 608
- D. 965

46. Tasavvufga oid nazariy kitoblardan biri “ar-Risola fi-t-tasavvuf” asarining muallifi kim?

- A. al-Hujviri
- B. Fariduddin Attor
- S. Abu Nasr as-Sarroj
- D. al-Qushayriy

47. Tariqat maqomlaridan bo'lgan “rajo” qanday ma'noni anglatadi?

- A. qalbning ishonchdan, iymon amnidan chiqishi, ikkilanish, tahlika
- B. qalbdan qabohat-kirlarning ketishi, qazovu qadar hukmiga bo'ysunish, nafs roziligidan chiqib, Haq roziligiga kirish
- S. umidvorlik. Qalbning kelajakda Mahbub vasliga yetishidan umidvorligi, xavfdan qutilish umidi
- D. barcha yaxshi-yomon hodisalar, ishlarni Xudodan deb bilish, to'liqligicha Parvardigorga suyanish

48. Abdurahmon as-Sulamiyning “Tabaqot as-sufiyya” asari qanday tasavvufiy janrni o'zida qamrab olgan?

- A. tasavvuf ilmini izohlagan asar
- B. sufiylar biografiyasi

S. she'riy-tasavvufiy asar

D. sufiy-falsafiy asar

49. “Navodir al-usul”, “Masoil ahli Saraxs” kimning qalamiga mansub asarlar hisoblanadi?

A. Ahmad Yassaviy

B. Jaloliddin ar-Rumi

S. al-Hakim at-Termiziy

D. Qaffol ash-Shoshiy

50. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab kabi shoirlar mansub tariqatni aniqlang.

A. Naqshbandiya

B. Yassaviya

S. Kubraviya

D. Qodiriya

51. Turkistonda Ahmad Yassaviy qabri ustiga kim tomonidan maqbara qurilgan?

A. Alisher Navoiy

B. Zahiriddin Muhammad Bobur

S. Amir Temur

D. Sulton Husayn Boyqaro

52. “Tayfuriya” tasavvufiy yo‘nalishi kimning nomi bilan bog‘liq?

A. Mansur al-Halloj

B. Yahyo as-Suhravardiy

S. Junayd al-Bag‘dodiy

D. Boyazid al-Bistomi

53. So‘fi Olloyorning asarlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A. “Maslak al-muttaqin”, “Murod al-orifin”, “Maxzan al-mute’in”, “Sabot al-ojizin”

B. “Tazkirat al-avliyo”, “Maxzan al-mute’in”, “Favz an-najot”

S. “Sabot al-ojizin”, “Lubob al-albob”, “Maslak al-muttaqin”

D. “Murod al-orifin”, “Al-munqiz min az-zolal”, “Maxzan al-mute’in”, “Sabot al-ojizin”

54. Yassaviylikdagi zikr turini aniqlang.

A. jahriy zikr

B. xafiy zikr

S. jahriy-xafiy zikr

D. zikri samo

55. Jaloliddin Rumi nomi bilan bogʻliq tariqatni belgilang.

- A. Tayfuriya
- B. Mavlaviya
- S. Hululiya
- D. Firdavsiya

56. Naqshbandiya tariqatidagi zikr turini aniqlang.

- A. jahriy zikr
- B. zikri minshor
- S. xafiy zikr
- D. toʻgʻri javob yoʻq

57. Quyidagilardan biror shayx nomi bilan bogʻliq boʻlmagan alohida yoʻnalishlar toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni belgilang.

- A. Qodiriya, yassaviya, kubraviya, naqshbandiya
- B. Qalandariya, malomatiya, xalvatiya
- S. Junaydiya, suhravardiya, safariya, qodiriya
- D. Firdavsiya, nuriya, qushayriya, xalvatiya

58. Yassaviya va naqshbandiya ildizlari kimga borib taqaladi.

- A. Xoja Muhammad Bobo Samosiya
- B. Sayyid Amir Kulolga
- S. Xoja Yusuf al-Hamadoniya
- D. Imom Rabboniyga

59. “Al-Usul al-ashara” (10 ta usul) asarining muallifini aniqlang.

- A. Jaloliddin Rumi
- B. Bahouddin Naqshband
- S. Abdulqodir Jiloniy
- D. Najmiddin Kubro

60. Quyidagi mashhur tasavvuf vakillari qaysi qatorda xronologik jihatdan toʻgʻri koʻrsatilgan?

- A. Bahouddin Naqshband, Yusuf al-Hamadoni, Xoja Ubaydulloh Ahror
- B. Abdulxoliq al-Gʻijduvoni, Yusuf al-Hamadoni, Bahouddin Naqshband
- S. Yusuf al-Hamadoni, Abdulxoliq al-Gʻijduvoni, Bahouddin Naqshband
- D. Yusuf al-Hamadoni, Xoja Ubaydulloh Ahror, Bahouddin Naqshband

TEST SAVOLLARI

(2-yarim yillik)

1. Najmiddin Kubro qachon va qayerda tug'ilgan?

- A. 1143 yil, Xurosonda
- B. 1151 yil, Sayramda
- S. 1137 yil, O'trorda
- D. 1145 yil, Xivada

2. Bahouddin Naqshbandni kim ma'naviy farzandlikka qabul qilgan?

- A. Abduxoliq al-G'ijduvoni
- B. Muhammad Bobo Samosiy
- S. Ahmad Yassaviy
- D. Arslonbob

3. Jaloliddin Rumiyning eng katta asari nomi nima va qaysi usulda yozilgan?

- A. "Fiyhi ma fiyhi" – nasriy asar
- B. "Maktubot" – yozishmalar
- S. "Devoni kabir" – adabiy asar
- D. "Masnaviyi ma'naviy" – she'riy asar

4. Mavlono Jaloliddin Rumi tug'ilgan joy nomini ko'rsating.

- A. Ko'nya
- B. Balx
- S. Istanbul
- D. Rum

6. Abdulqodir Jiloni o'z tariqatida nimalarga ko'proq e'tibor qaratgan ?

- A. saxovat, rizo, faqr
- B. sabr, ishorat, junli libos kiyish
- S. g'urbat, sayohat
- D. barcha javoblar to'g'ri.

7. Naqshbandiya silsilasi qaysi sahobiylarga borib taqaladi?

- A. Abu Bakr va Umar ibn Xattob
- V. Abu Bakr va Usmon ibn Affon
- S. Abu Bakr va Ali ibn Abu Tolib
- D. Umar ibn Xattob va Ali ibn Abu Tolib

8. Abduxoliq G'ijduvoni Bahouddin Naqshbandni qaysi yo'l bilan tarbiyalagan?

- A. "ma'naviy farzandlik"ka olish
- B. "uvaysiqlik" yo'li

S. “murid bo‘lish” yo‘li

D. “qalandarlik” yo‘li

9. Qodiriya tariqatining markaziy dargohi qayerda ?

A. Samarqandda

B. Turkiyada

S. Eronda

D. Bag‘dodda

10. “Valiytarosh” laqabiga sazovor bo‘lgan shayx?

A. Ahmad Yassaviy

B. Naqshband

S. Abduxoliq al-G‘ijduvoni

D. Najmiddin Kubro

11. Naqshbandiya tariqati qaysi e‘tiqodga amal qiladi?

A. shialar e‘tiqodiga

B. mu‘taziliya e‘tiqodiga

S. karromiya e‘tiqodiga

D. ahli sunna e‘tiqodiga

12. Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma’naviy» asarini yozib borgan shogirdining ismini ko‘rsating.

A. Shamsi Tabriziy

B. Salohiddin Zarqub

S. Hisomiddin Chalabiy

D. Sulton Valad

13. Jaloliddin Rumiyning dinlar haqida qanday fikrda bo‘lgan?

A. barcha dinlar Allohga eltuvchi turli yo‘llardir

B. dinlar kufr va yakkaxudolikkka bo‘linadi

S. tasavvuf yo‘ligina to‘g‘ri yo‘l boshqa barcha dinlar botil

D. din degan tushunchaning o‘zi yo‘q

14. Qodiriya tariqatida qaysi rangga ustuvor ahamiyat qaratiladi?

A. qora

B. oq

S. sariq

D. yashil

15. Mavlaviyaning tariqat sifatida shakllanishini ta’minlab bergan kim edi?

A. Sulton Valad

B. Salohiddin Zarqub

S. Bahoyi Valad

D. Jaloliddin Rumiyn

16. Abdulqodir Jiloniy qaysi mazhabga mansub bo'lgan?

- A. hanafiy
- B. hanbaliy
- S. shofe'iy
- D. molikiy

17. Naqshbandiya tariqatining nechta printsiplari bor va u kim tomonidan ishlab chiqilgan?

- A. 8 ta – Abduxoliq al-G'ijduvoni
- B. 11 ta – Xoja Muhammad Porso
- S. 11 ta – Bahouddin Naqshband
- D. 6 ta – Yusuf al-Hamadoni

18. Naqshbandiya tariqati nechta asos ustiga qurilgan?

- A. 2 ta: Shariat bilan zohirni poklash
Tariqat bilan botinni poklash
- B. 4 ta: Shariat bilan zohirni poklash
Tariqat bilan botinni poklash
Haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq
Ma'rifat bilan Allohga erishmoq
- S. 5 ta: Shariat bilan zohirni poklash
Tariqat bilan botinni poklash
Haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq
Ma'rifat bilan Allohga erishmoq
Shariat bilan tasavvufni kelishtirmoq
- D. 6 ta: Shariat bilan zohirni poklash
Tariqat bilan botinni poklash
Haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq
Ma'rifat bilan Allohga erishmoq
Shariat bilan tasavvufni kelishtirmoq
Xafiy zikr tushmoq

19. Najmiddin Kubroning asarlari keltirilgan qatorni belgilang:

- A. "Favoyih al-jamol va favotih al-jalol", "al-Usul al-ashara", "Fi odob as-solikin"
- B. "Safinat al-avliyo", "Fi odob as-solikin", "Majolis al-ushshoq"
- S. "al-Usul al-ashara", "Tazkirat ash-shuaro"
- D. "Favoyih al-jamol va favotih al-jalol", "al-Usul al-ashara", "Tazkirat ash-shuaro"

20. Tushida Payg'ambar (s.a.v.) sening kunyang Abuljannob bo'ladi deyilgan sufiy kim?

- A. Jaloliddin Rumi
- B. Najmiddin Kubro

- S. So‘fi Alloyor
- D. Alisher Navoiy

21. “Masnaviy”da dastlabki qo‘llanilgan ramz:

- A. parvona va shamchiroq
- B. ko‘rlar va fil
- S. nay
- D. qalam va davot

22. Jaloliddin Rumi tasavvuf yo‘liga kirgan solikni nimaga o‘xshatadi?

- A. olovga
- B. nayga
- S. gavharga
- D. gulga

23. Abdurahmon Jomiy o‘zining qaysi asarida Najmiddin Kubroni tilga olib o‘tgan?

- A. “Nafohot al-uns”
- B. “Tuhfat al-fuqaro”
- S. “Tarixi guzida”
- D. “Tazkirat ash-shuaro”

24. Naqshbandiya tariqatiga kirgan darvesh quyidagi qaysi shartlarga amal qilishi zarur hisoblangan?

A. tavba qilish, sunnatga qat’iy amal qilish, shariatga zid bid’atlardan qochish, taqvoni kuchaytirish, qarzni to‘lash.

B. Allohni zikr qilish, tavba qilish, sunnatga qat’iy amal qilish, shariatga zid bid’atlardan qochish, taqvoni kuchaytirish, qarzni to‘lash.

S. tavba qilish, sunnatga qat’iy amal qilish, shariatga zid bid’atlardan qochish, taqvoni kuchaytirish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzni to‘lash.

D. tavba qilish, sunnatga qat’iy amal qilish, shariatga zid bid’atlardan qochish, taqvoni kuchaytirish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzni to‘lash, rozilik so‘rash, qazo namozlarni o‘qish, Allohni zikr qilish.

25. Jaloliddin Rumiyaning “Masnaviy” asari necha misradan iborat. Necha misrasini Rumi o‘z qo‘li bilan yozgan?

- A. 26840 misra. 18 misrasini o‘zi yozgan.
- B. 27000 misra. 18 misrasini o‘zi yozgan.
- S. 30000 misra. 30 misrasini o‘zi yozgan.
- D. 25900 misra. 12 misrasini o‘zi yozgan.

26. Qodiriya tariqatida zikr turi qanday ?

- A. ommaviy jahriy va alohida maxfiy
- B. faqat jahriy zikr

S. faqat mahfiy zikr

D. barchasi to'g'ri

27. Kubraviya tariqatida murid tarbiyalashning 10 ta bosqichi qaysi asarlarda keltirilgan?

A. "Risola at-turuq", "al-Usul al-ashara"

B. "Tuhfat al-fuqaro"

S. "Favoyih al-jamol va favotih al-jalol"

D. "al-Usul al-ashara", "Tuhfat al-fuqaro"

28. Naqshbandiya tariqati qanday zikrga asoslangan?

A. jahriy zikrga

B. xafiy zikrga

S. zikri minshoriy

D. zikri arra

29. Naqshbandiya tariqatidagi tamoyillarni aniqlang.

A. hush dar dam, nazar ba qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yod kard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht.

B. hush dar dam, nazar ba qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yod kard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht, vuqufi zamon, vuqufi adadiy.

S. hush dar dam, nazar ba qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yod kard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht, vuqufi zamon, vuqufi adadiy, vuqufi qalbiy.

D. hush dar dam, nazar ba qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yod kard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht, vuqufi qalbiy.

30. Mavlaviylik tariqatida zikr nimaga asoslanadi?

A. maxfiy zikrga asoslanadi

B. jahriy zikr asosida samoga asoslanadi

S. ma'lum bir zikr uslubiga ega emas

D. hamma javoblar noto'g'ri

31. XII asrda O'rta Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvuf tariqati qaysi ?

A. Naqshbandiya

B. Kubraviya

S. Yassaviya

D. Qodiriya

32. Najmiddin Kubroga "irodat xirqasini" kiydirgan shaxs....

A. Ro'zbehon Misriy

V. Ismoil Qasriy

S. Jaloliddin Rumi

D. Abduxoliq al-G'ijduvoni

33. Naqshbandiyaning Onado'lida keng tarqalishiga ulkan hissa qo'shgan shaxs kim?

- A. Imom Rabboniy
- B. Ahmad as-Sirhindiy
- S. Ahmad Ziyovuddin Kumushxonaviy
- D. Shamsiddin Mazhar

34. Najmiddin Kubroning ustozlari to'g'ri ko'rsatilgan javoblarni toping:

- A. Ro'zbehon Misriy, Ammor Yosir, Ismoil Qasriy
- B. Ismoil Qasriy, Jaloliddin Rumiy, Ahmad G'azzoliy
- S. Ro'zbehon Misriy, Abduxoliq G'ijduvoni, Jaloliddin Rumiy
- D. Ammor Yosir, Abduxoliq G'ijduvoni, Jaloliddin Rumiy

35. Naqshbandiya tariqatining qanday nomlar bilan ataladigan shahobchalari bor?

- A. Ahroriya
- B. Mujaddidiya
- S. Mazhariya
- D. barcha javoblar to'g'ri

36. «Masnaviyi ma'naviy» qaysi tilda yozilgan?

- A. arab
- B. urdu
- S. fors
- D. pushtu

37. Naqshbandiyadagi ko'pchilik bilan qilinadigan zikr nima deb ataladi?

- A. "Xatmi xojagon"
- B. "Xatmi naqshband"
- S. "Zikri xojagon"
- D. "Zikri naqshband"

38. Mavlono Rumiyning «Masnaviyi ma'navi»siga qanday ta'rif berganlar?

- A. Qur'onning fors tilidagi sharhi
- B. tasavvufdagi asosiy manba
- S. fors tilidagi Qur'on
- D. forsiy mukammal islom tarixi

39. Najmiddin Kubroning islom olamiga mashhur bo'lgan muridlari...

- A. Majdiddin Bag'dodiy, Sayfiddin Boxarziy, Rukniddin Alouddavla
- B. Xoja Ahror Valiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek
- S. Ro'zbehon Misriy, Ammor Yosir, Ismoil Qasriy
- D. Xoja Ahror Valiy, Rukniddin Alouddavla, Bobur Mirzo

- 40. Bahouddin Naqshband qanday nomlar bilan mashhur bo'lgan?**
A. Xojai Buzruk
B. Xoja Bahouddin Balogardon
S. Shohi Naqshband
D. A, B, S javoblar to'g'ri
- 41. "Risola at-turuq" asari kimning qalamiga mansub?**
A. Abduxoliq al-G'ijduvoni
B. Xoja Ahror Valiy
S. Najmiddin Kubro
D. Bahouddin Naqshband
- 42. Mavlaviylikning ilk tak'yaxonasi qayerda tashkil etilgan?**
A. Istanbul
B. Bag'dod
S. Ko'nya
D. Qohira
- 43. Shayx Najmiddin Kubro ishlab chiqqan nazariya.**
A. "Sahv"
B. "Jam' va tafriq"
S. "Sukr"
D. "Latoif"
- 44. Jiloniyning suluk va ahloqqa oid qaysi asari mavjud?**
A. "Al-g'unya li tolibi tariq al-haq"
B. "Fath al-g'ayb"
S. "Fath ar-Rabboniy"
D. "Al-mavohib ar-Rabboniyya"
- 45. Yassaviya tariqatining asosiy qoida va mezonlari qaysi asarda mufassal bayon etib o'tilgan?**
A. "Faqrnoma"
B. "Devoni hikmat"
S. "Lama'ot"
D. barcha javoblar to'g'ri
- 46. Yassaviya tariqatida targ'ib etilgan jahriy zikrning mashhur nomi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**
A. zikri jahriya
B. zikri arra
S. zikri yassaviya
D. zikri xossiya
- 47. Yassaviya tariqati ta'sirida qaysi tariqatlar shakllangan?**
A. Naqshbandiya, Kubraviya
B. Qodiriya, Naqshbandiya

S. Naqshbandiya, Bektoshiya

D. Bektoshiya, Kubraviya

48. Xoja Ahmad Yassaviyning maqbarasi qayerda joylashgan?

A. Buxoro shahrida

B. Yassida

S. Hijozda

D. Basrada

49. Yassaviya tariqatining mashhur murshidlari.

A. Naqshband, Sulaymon Boqirgʻoniy, Zangi ota, Badriddin Muhammad

B. Zangi ota, Sulaymon Boqirgʻoniy, Sadriddin Muhammad

S. Shayx Muhammad Turkistoniy, Sulaymon Boqirgʻoniy, Hakim ota

D. barcha javoblar toʻgʻri

50. Xoja Ahmad Yassaviyning ustozlari toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni toping?

A. Arslonbob, Shahobiddin Isfijobiy, Yusuf al-Hamadoni

B. Yusuf al-Hamadoni, Alisher Navoiy, Arslonbob

S. Sulaymon Boqirgʻoniy, Yusuf al-Hamadoni, Shayx Ibrohim

D. Shayx Mahmud Turkistoniy, Shahobiddin Isfijobiy

51. Yassaviy oʻz tariqatida asosan nimalarga ahamiyat bergan?

A. fano, suluk, chilla, zikr

B. riyoziyat, chilla, zikr, mushohada

S. chilla, mushohada, jam va tafriq

D. riyoziyat, zuhd, sukr, zikr

52. Yassaviya tariqatining yana bir nomi

A. Hamadoniya

B. Xojagon

S. Ismoilniya

D. Ahmadiya

53. Abdulqodir Jiloniy nechanchi yillarda yashagan ?

A. 1078-1166

B. 1080-1177

S. 1077-1166

D. 1075-1066

54. Qodiriya tariqati nechanchi asrda toʻlaqonli tariqat shakliga keldi ?

A. XIII asrda

B. XII asrda

S. XIV asrda

D. XI asrda

55. Qodiriya tariqatining silsilasi kimga borib taqaladi?

A. Ali ibn Abi Tolib yoki Abu Bakr (r.a)

B. Usmon (r.a)

S. Umar (r.a)

D. Abu Bakr (r.a)

56. XV asrda naqshbandiya tariqatining yirik rahnamosi sifatida maydonga kim chiqdi?

A. Boborahim Mashrab

B. Xoja Ahror Ubaydulloh Valiy

S. Alisher Navoiy

D. Abdurahmon Jomiy

57. “Rashahot ayn al-hayot” (“Hayot buloqlaridan oqqan tomchilar”) nomli asarda yozilishicha, u ilohiyot va tasavvuf ilmining yirik namoyandalaridan biri, yetuk mutasavviflardan bo‘lgan. U yassaviylik tariqati namoyandalaridan tariqat yo‘lini o‘rganadi hamda ilmi zohiriy va ilmi botiniy sir-asrorlaridan voqif bo‘ladi, karomatli shayxlar orasida yuksak maqomga erishadi. Ushbu so‘zlar qaratilgan mutasavvifni toping.

A. Shayx Xovandi Tohur

B. Xoja Ahror Ubaydulloh Valiy

S. Xoja Muhammad Porso

D. Pahlavon Mahmud

58. Abu Abdurahmon as-Sulamiyning «Tabaqot as-sufiyya» asarida necha sufiy biografiyasi keltirilgan.

A. 100

B. 99

S. 101

D. 105

59. Al-Hujviriyning “Kashf al-mahjub” asarida necha sufiy maktablar zikr qilingan.

A. 10

B. 12

S. 99

D. 40

60. Al-Hujviriyning “Kashf al-mahjub” asarida botil tariqatlar deb zikr qilingan sufiy maktablar qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan.

A. Hakimiya, nuriya

B. Xallojiya, hulmoniya

S. Xarroziya, tayfuriya

D. Sahliya, qassoriya

ADABIYOTLAR VA O'QUV-USLUBIY TA'LIM RESURSLARI

Asosiy:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.:O'zbekiston, 2008. – 175 b.
2. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 80 b.
3. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
4. Бабаджанов. Б.М. Возрождение деятельности суфийских групп / Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования) Сб. ст. памяти Ф.Майера (1912-1998) // Сост. и отв. Редактор А.А.Хисматулин. СПб ГУ: 2001. – 394 с.
5. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература: Избранные труды / Бертельс Е.Э., Отв. ред. А.Н.Болдырев, Сост. М.Н.О.Османов. – Москва: Наука, 1965. – 524 с.
6. Boltaboev H. Islom tasavvufi manbalari. – T.: O'qituvchi, 2005. – 399 b.
7. Гольдцигер И. Лекции об исламе / Перевод с нем. А.Н. Черновой. Брокгауз- Ефрон, 1912. – 272 с.
8. Juzjoniy A. Tasavvuf va inson. – T.: Adolat, 2001. – 192 b.
9. Ислам: Энциклопедический словарь. – М.: Наука, 1991. – 315 с.
10. Islom ensiklopediyasi. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2004. – 320 b.
11. Из истории суфизма: источники и социальная практика / сборник статей. Под ред. М.Х.Хайруллаева. –Т.: Фан, 1991. – 146 с.
12. Yo'ldoshxo'jayev H. Tariqatchilikning zamonaviy ko'rinishlari. – T.: Toshkent islom universiteti, 2010.
13. Kalobodiy. Kitob at-ta'arruf bi mazhab ahl at-tasavvuf / Mavloqulova M. tarj. – T.: G'afur G'ulom, 2002. – 142 b.

14. Кныш А. Д. Мусульманский мистицизм: Краткая история / Кныш А. Д., Пер. с англ. Романов М. Г. – М.- СПб.: «Диля», 2004. – 464 с.
15. Komilov N. Tasavvuf. T.: O‘zbekiston, 2009. – 448 b.
16. Komilov N., Yoqubov A. Markaziy Osiyo xalqlari tafakkuri rivojida tasavvufning o‘rni. – T.: Akademiya, 2005. – 84 b.
17. Mansur A., Boboxonov Sh. Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi. – T.: Movarounnahr, 1993. – 128 b.
18. Muhammad Siddiq Rushdiy. Avliyolar sultoni, Turonlik valiyalar / Ostonaqulov I. nashrga tayyorlagan. – T.: Kamalak, 1995. – 171 b.
19. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat / Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va ko‘rsatkichlar muallifi H.Islomiy. – T.: Movarounnahr, 2011. – 472 b.
20. Петрушевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: Издательство Ленинградского Университета, 1966 – 400 с.
21. Прозоров С.М. Классическое исламоведение (Введение в исламоведение): Программа спецкурса лекций для студентов. – СПб., 2009. – 96 с.
22. Тримингэм Ж. Суфийские ордена в исламе / Пер. с англ. А.Ставиской. – М.: Наука, 1989.
23. Усманов И. Суфизм. – Т.: ТИУ, 2011. – 168 с.
24. Usmanov I. Tasavvuf fanidan glossariy. – T.: TIU, 2011. – 125 b.
25. Usmonov I. “Navodir al-usul” hikmatlari. Monografiya. – T.: Fan, 2009. – 175 b.
26. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: Istiqlol, 1999. – 180 b.
27. Шиммель А. Мир исламского мистицизма / пер. с англ. Пригариной Н.И. и Раппопорт А.С. – М.: Алетея, Энигма, 2000. – 416 с.
28. Эрнст К. Суфизм / Пер. с англ. А. Горькавого. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2002. – 320 с.
29. Haqqul I. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – 336 b.
30. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni; Axloqi Muhsiniy. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. – 376 b.

Qo‘shimcha:

1. Abu Homid G‘azzoliy. Kimyoi saodat. T.: Movarounnahr, 1998.
2. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. T.: Movarounnahr, 2001.
3. Attor. Tazkiratul avliyo. - T., 1997.
4. Джон А.Субхан. Суфизм. Его святые и святыни / Джон А.Субхан. - СПб.: Издательство «ДИЛЯ», 2005. – 256 с.
5. Ibn Javziy. Talbis al-Iblis / Muhammad al-Foziliy nashrga tayorlagan. – Bayrut: Maktaba al-asriyya, 2000. – 592 с.
6. Ибн ал-‘Арабий. Мекканские откровения / А. Кныш араб тилидан тарж. – Санкт-Петербург: Петербургское востоковедение, 1995. – 240 б.
7. Ishoqova Z. Tasavvuf ta’limotida oriflik va valiylik talqini. – T.: Abu matbuot konsalt, 2011. – 296 b.
8. Мир Валиддин. Коранический суфизм: Пер. с англ. / Мир Валиддин. – СПб.: Издательство «ДИЛЯ», 2004. – 224 с.
9. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 17-jild. – T., «Fan». 1999.
10. Sirojiddinov Sh. So‘fi Olloyor ilohiyoti: 1-qism Jamiyat va burch / Sirojiddinov Sh., Munavvarov Z. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg‘armasi, 2001. – 80 b.
11. Sulamiy Abu Abdurahmon. Tabaqot as-sufiyya / Nuriddin Shariba nashrga tayyorlagan. – Qohira: Maktabat al-Xonaji, 1986. – 570 b.
12. Уильям Ч. Суфизм / пер. с англ. М.Г.Романов, Я.Эшотс. – М.: Восточная литература, 2012. – 245 с.
13. Homidiy H. Tasavvuf allomalari / Homidiy H., Mas’ul muharrir: Komilov N. – T.: Sharq, 2004. – 208 b.
14. G‘ijduvoniyy Xoja Abdulxoliq. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyy / G‘ijduvoniyy Xoja Abdulxoliq. So‘z boshi, tarjima. Lug‘at va izohlar muallifi Mahmud Hasaniy. – T: O‘zbekiston, 2003. – 128 b.
15. Qushayriy Abdulkarim. Ar-Risala al-Qushayriyya. – Qohira: Dor ash-sha’b, 1989. – 633 b.

МУНДАРИЖА

Kirish	3
Nazariy mashg'ulotlarning mazmuni	7
2-Mavzu: globallashuv sharoitida zamonaviy tariqatlar	12
3-Mavzu: zohidlik harakatlari	17
4-Mavzu: iroq tasavvufining shakllanishi va o'z ta'sir doirasini kengaytirishi.....	20
5-Mavzu: horis al-muhosibiy va muhosabat an-nafs ta'limoti.....	25
6-Mavzu: tasavvufning mustaqil ta'limotga aylanib borishi va bag'dod tasavvufi an'analarining vujudga kelishi	28
7-Mavzu: sahv va sukr tasavvufi hamda fano va baqo tushunchalari	31
8-Mavzu: futuvvat	34
9-Mavzu: movarounnahr va xurosondagi ilk mahalliy sufiylik harakatlari	38
10-Mavzu: al-hakim at-termiziy va uning ta'limoti	42
11-Mavzu: tasavvuf an'anasining tizimga solinishi	46
12-Mavzu: as-sulamiyning «sufiylar tabaqasi», al- qushayriyning «risola» kitobi	49
13-Mavzu: al-hujviriyning “kashf al-mahjub» va al- ansoriyning “tabaqot” asarlari.....	52
14-Mavzu: abu homid al-g'azzoliyning tasavvuf tarixidagi o'rni	55
15-Mavzu: ibn al-arabiy va “vahdat al-vujud” falsafasi	59
16-Mavzu: sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf g'oyalari...	63
17-Mavzu. Rumiyni ijodida bag'rikenglik tamoyillari	66
18-Mavzu. Jomiy va navoiy ijodida tasavvuf.....	70
19-Mavzu: imom rabboniy va uning “vahdat ash-shuhud” ta'limoti.....	76

20-Mavzu. Tasavvuf tariqatlarining paydo bo'lishi	79
21-Mavzu. Movarounnahr tariqatlari	83
Fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar	93
Vizual materiallar	95
Seminar mashg'ulotlari mavzulari.....	100
Seminar jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar	115
Tasavvufga oid shaxslar, tushuncha va istilohlar lug'ati ...	122
Nazorat savollari	222
Test savollari	225
Adabiyotlar va oquv-uslubiy ta'lim resurslari	243

IBROHIM USMONOV

TASAVVUF

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

«Toshkent islom universiteti»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2012

Muharrir:
Sarvar Ochilov

Sahifalovchi:
Zulxumor Ulug'bekova

Nashriyot guvohnoma raqami AI № 093
Bosishga 2012 yil 07 dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60×84 1/16. Shartli b.t. 14,41. Nashr t. 14,44.
Adadi 25 dona. Buyurtma № 92.
Bahosi shartnoma asosida.

«Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi
bosmaxonasida chop etildi.
100011. Toshkent sh. A.Qodiriy, 11.